O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI


AXSIKENT ARXEOLOGIYA MEROSI OBYEKTINI
MUHOFAZA QILISH VA TADQIQ ETISH DIREKSIYASI

“SMART QUILL PUBLISHING” NASHRIYOTI
hamkorligida tashkil etilgan

«AXSIKENT TARIXI: YANGICHA QARASH, TAHLIL VA TADQIQOTLAR»

xalqaro ilmiy-amaliy anjumani
materiallari to‘plami

2026-yil 15-iyun



ИСТОРИЯ АХСИКЕНТА: НОВЫЕ ВЗГЛЯДЫ, АНАЛИЗ И ИССЛЕДОВАНИЯ

Материалы Международной научно-практической конференции
15 июня 2026 года

THE HISTORY OF AKHSIKENT: NEW PERSPECTIVES, ANALYSIS, AND RESEARCH

Proceedings of the International Scientific and Practical Conference
June 15, 2026

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

FALSAFIY VA TARIXIY FANLAR KAFEDRASI

AXSIKENT TARIXI: YANGICHA QARASH, TAHLIL VA TADQIQOTLAR

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami
2026-yil 15-iyun

ИСТОРИЯ АХСИКЕНТА: НОВЫЕ ВЗГЛЯДЫ, АНАЛИЗ И ИССЛЕДОВАНИЯ

Материалы Международной научно-практической конференции
15 июня 2026 года

THE HISTORY OF AKHSIKENT: NEW PERSPECTIVES, ANALYSIS, AND RESEARCH

Proceedings of the International Scientific and Practical Conference
June 15, 2026

Namangan – 2026

© Namangan davlat pedagogika instituti | Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasi
© Smart Quill Publishing nashriyoti | smartquillpublishing.uz

TAHRIR HAY’ATI / EDITORIAL BOARD

Bosh muharrir:

B.E. Xusanov – NamDPI rektori, falsafa fanlari doktori (DSc), professor.

Mas’ul muharrir:

M.R. Qodirxonov – NamDPI, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor

Mas’ul muharrir o‘rinbosari:

S. M. Botirova – NamDPI, Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasi mudiri

Tahrir hay’ati a’zolari:

R.R. Zamilova – NamDPI, Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
J.A. Yuldashev – NamDPI, Pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
F. Maqsudov – O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Antropologiya instituti direktori, tarix fanlari doktori, professor
A.N.Rasulov – NamDU, Tarix fanlari doktori (DSc), professor
A.Anorboyev – O‘zbekiston fanlar akademiyasi antropologiya instituti bo`limi boshlig‘i, Tarix fanlari doktori (DSc), professor
I.A. Isoqboyev – NamDPI, Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Z. U. Xaydarov – NamDPI, Tarix fanlari nomzodi, dotsent
T. Qozoqov – IMPULS tibbiyot instituti, Tarix fanlari nomzodi, dotsent
O.R. Topildiyev – NamDPI, Tarix fanlari nomzodi, dotsent
B.T. Ataxanov – NamDPI, Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dotsent
R. M. Akbarov – NamDPI, Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), v. b. dotsent

Texnik muharrir: R.M. Akbarov

Mazkur “Axsikent tarixi: muammolar, tadqiqotlar va tahlillar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2026-yil 16-yanvardagi 11-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “2026-yilda xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi”ga muvofiq, 2026-yil 15-iyun kuni Namangan davlat pedagogika instituti Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasining tashabbusi bilan o‘tkazildi.

Anjuman materiallari Namangan davlat pedagogika instituti Ilmiy-texnikaviy kengashining 2026-yil 10-iyuldagi kengaytirilgan 7-sonli yig‘ilish qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning ilmiy saviyasi, ulardagi dalillar, keltirilgan ma’lumotlarning aniqligi va ko‘chirmachilik holatlari (plagiat) uchun mualliflar shaxsan javobgar hisoblanadi.

ANJUMAN SHO‘BALARI / CONFERENCE SECTIONS

Axsikent sivilizatsiyasi va davlatchilik tarixi: manbashunoslik, arxiv tadqiqotlari va raqamli tarix

Akhsikent Civilization and the History of Statehood: Source Studies, Archival Research, and Digital History

* * * * *

Axsikentning mintaqaviy davlatchilik tizimidagi o‘rni va evolyutsiyasi
Akhsikent’s Role and Evolution in the Regional System of Statehood

* * * * *

Arxeologiya va shaharsozlik: madaniy qatlamlar hamda arxeologik topilmalar tahlili
Archaeology and Urban Development: Analysis of Cultural Layers and Archaeological Finds

* * * * *

Axsikent geologiyasi, gidrogeologiyasi va irrigatsiya tizimlari tarixi
Geology, Hydrogeology, and the History of Irrigation Systems of Akhsikent

* * * * *

Axsikent merosi: turizm, ta’lim va targ‘ibot
Akhsikent Heritage: Tourism, Education, and Promotion

© Namangan davlat pedagogika instituti | Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasi
© Smart Quill Publishing nashriyoti | smartquillpublishing.uz

SO‘Z BOSHI

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari, aziz olimlar, tadqiqotchilar va mehmonlar!

Sizlarni Namangan davlat pedagogika instituti nomidan "Axsikent tarixi: yangicha qarash, tahlil va tadqiqotlar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya hamda uning materiallari to‘plami nashr etilishi munosabati bilan samimiy muborakbod etaman.

Axsikent qadimdan Farg‘ona vodiysining yirik siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri sifatida Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi tarixida alohida o‘rin egallagan. Uning boy tarixiy va madaniy merosini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida o‘rganish, yangi arxeologik, tarixiy va manbashunoslik tadqiqotlari bilan boyitish bugungi kun tarixshunosligining dolzarb vazifalaridan biridir.

Mazkur xalqaro konferensiya turli mamlakatlardan tashrif buyurgan olimlar, yosh tadqiqotchilar va mutaxassislarni bir maydonga jamlab, Axsikent tarixiga oid yangi ilmiy qarashlarni muhokama qilish, mavjud ilmiy natijalarni tahlil etish hamda istiqboldagi tadqiqot yo‘nalishlarini belgilashga xizmat qiladi. Ishonchim komilki, konferensiya doirasidagi ilmiy muloqotlar, fikr almashuvlar va hamkorlik aloqalari kelgusidagi qo‘shma ilmiy izlanishlar uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Konferensiya materiallari to‘plamidan o‘rin olgan maqolalar Axsikent tarixining turli jihatlarini – davlatchilik, arxeologiya, shaharsozlik, geologiya, irrigatsiya tizimlari, tarixiy manbalar hamda madaniy merosni asrash masalalarini yoritishga bag‘ishlangan bo‘lib, ular ilmiy jamoatchilik uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu anjumanni tashkil etishda yaqindan hamkorlik qilgan barcha hamkor tashkilotlarga, tahrir hay’ati a’zolariga, mualliflarga, ekspertlarga hamda tashkiliy ishlarni amalga oshirgan jamoaga o‘z minnatdorligimni bildiraman.

Barcha konferensiya ishtirokchilariga mustahkam sog‘lik, ilmiy izlanishlarida ulkan muvaffaqiyatlar, yangi kashfiyotlar va samarali xalqaro hamkorlik tilayman.

Hurmat bilan,

Baxodir Ergashevich Xusanov

Namangan davlat pedagogika instituti rektori,
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

К ПРОБЛЕМЕ ИСТОКОВ ДРЕВНЕЙ ИСТОРИИ УРБАНИЗИРОВАННОЙ КУЛЬТУРЫ В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ (по материалам исследований археологических памятников Ферганской долины эпохи бронзы и раннего железа)

Анарбаев А. А.

доктор наук., профессор Институт антропологии АН РУЗ

Баратов С. Р.

к.и.н., с.н.с.., Институт антропологии АН РУЗ

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21029203

Аннотация: *по мнению исследователей, развитие урбанизации и государственности в древней Фергане, по сравнению развитыми историко-культурными регионами Центральной Азии (Хорезмом, Бактрией, Согдом и Парфиенной), где города возникают в VIII – VII веках до н. э., произошло со значительным отставанием. Причиной отставания, по их мнению, являлось её провинциальное, окраинное расположение, ограждённое от развитых областей горными хребтами. Древнейшие признаки, иллюстрирующие элементы, структуры и топографию, характерные для древнего города– арк-цитадель, шахристан (городские кварталы, защищённые оборонительными стенами) и рабад (неукреплённая часть города) – в Ферганской долине были известны благодаря исследованиям археологов на городищах Эйлатан и Эски Ахсы. Их древнейшие археологические комплексы относятся ко времени не ранее III века до н. э.*

Однако благодаря археологическим исследованиям, сделанным в последнее десятилетие, – открытию нами в 2012 году уникального городища Кырк-Худжра – были получены материалы, свидетельствующие, что в Ферганской долине п в VII-VI вв до н. э. высокоурбанизированная культура с

развитыми элементами, характерными для города, существование которых возможно только в условиях централизованного государства.

Ключевые слова: *древняя история, урбанизация, градостроительство и государственность, Ферганская долина, археологические раскопки, эпоха поздней бронзы и ранний железный век.*

FARG‘ONA VODIYSIDA QADIMGI SHAHAR MADANIYATINING SHAKLLANISHI MUAMMOSIGA BAG‘ISHLANGAN (Farg‘ona vodiysining jez va erta temir davri arxeologik yodgorliklari materiallari asosida)

Анарбаев А.А.

T.f.d., professor, Yetakchi ilmiy xodim, O‘zR FA Antropologiya instituti

Баратов С.Р.

t.*f.n,, katta ilmiy xodim, O‘zR FA Antropologiya instituti*

Annatatsiya: *Tadqiqotchilarning fikricha, qadimgi Farg'onada shaharlashuv va davlatchilikning rivojlanishi, Markaziy Osiyoning rivojlangan tarixiy-madaniy mintaqalari (Xorazm, Baktriya, Sug'd va Parfienna) bilan solishtirganda, ularda shaharlar miloddan avvalgi VIII–VII asrlarda paydo bo'lgan, ancha kechikib sodir bo'lgan. Ularning fikricha, bu kechikishga uning tog'tizmalari bilan o'ralgan, rivojlangan hududlardan ajralib turadigan provintsial, chekka joylashuvi sabab bo'lgan. Qadimgi shaharga xos bo'lgan Ark-tsitadel, Shahriston (mudofaa devorlari bilan himoyalangan shahar kvartallari) va rabod (shaharning mustahkamlanmagan qismi) kabi elementlar, tuzilmalar va topografiyani aks ettiruvchi eng qadimgi belgilar Farg'ona vodiysida arxeologlarning Eylatan va eski Ahsi shaharlaridagi tadqiqotlari tufayli ma'lum bo'lgan. Ularning eng qadimgi arxeologik majmualari miloddan avvalgi III asrdan erta bo'lmagan davrga tegishli.*

Biroq, so'nggi o'n yillikda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar – 2012 yilda biz tomonimizdan qirq-hujra noyob shahar xarobalarining ochilishi tufayli –

Farg'ona vodiysida miloddan avvalgi VII-VI asrlardayoq, markazlashgan davlat sharoitidagina mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan shaharga xos rivojlangan elementlarga ega yuqori darajada urbanizasiyalashgan madaniyat mavjud bo'lganligini ko'rsatuvchi materiallar olindi.

Kalit so‘zlar: *Qadimiy tarix, urbanizatsiya, shaharsozlik va davlatchilik tarixi, Farg'ona vodiysi, arxeologik qazishmalar, so‘ngi bronza va ilk temir davri.*

ON THE PROBLEM OF THE ORIGINS OF ANCIENT URBAN CULTURE IN THE FERGANA VALLEY (Based on Research of Bronze and Early Iron Age Archaeological Sites in the Fergana Valley).

Anarbaev A.A.

Doctor of Sciences, Professor, Institute of Anthropology, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

Baratov S.R.,

Candidate of Historical Sciences, Senior Researcher, Institute of Anthropology, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

Abstract: *According to researchers, the development of urbanization and statehood in ancient Fergana occurred with significant delay compared to the developed historical and cultural regions of Central Asia (Khorezm, Bactria, Sogdiana, and Parthienna), where cities emerged in the 8th-7th centuries BCE. The reason for this delay, in their opinion, was its provincial, peripheral location, isolated from developed areas by mountain ranges. The earliest signs illustrating elements, structures, and topography characteristic of an ancient city – the ark-citadel, shahristan (urban quarters protected by defensive walls), and rabat (unfortified part of the city) – were known in the Fergana Valley thanks to archaeological research at the sites of Eylatan and Eski Akhsy. Their earliest archaeological complexes date back no earlier than the 3rd century BCE.*

However, thanks to archaeological research conducted in the last decade – including our discovery of the unique settlement of Kyrk-Khujra in 2012 – materials have been obtained indicating that a highly urbanized culture with developed urban characteristics existed in the Fergana Valley at least as early as the 7th century BCE. The existence of such a culture is only possible under conditions of a centralized state.

Keywords: *ancient history, urbanization, urban planning and statehood, Fergana Valley, archaeological excavations, Late Bronze Age and Early Iron Age*

Исследования и реконструкции урбанизационных процессов древних обществ дописьменных эпох в истории различных культурно-исторических регионов возможны лишь благодаря их археологическому изучению.

Древнейшие письменные источники, сохранившие сведения о городах и государстве в Ферганской долине – Давань, оставлены китайским дипломатом Чжан Цянем, который в 138 г. до н. э. был направлен ханьским императором У-ди на запад для установления союза с юэчжами против хунну. Чжан Цянь оказавшись в Давани в 128 г. до н. э., записал сведения о ней в своём отчёте. Сообщения Сыма Цзяня содержат месторасположение Давани, которая локализована им в центральной и восточной части Ферганской долины. Она описана им как централизованное самостоятельное государство, которое насчитывало около 70 больших и малых городов со столицей в городе Эрши. В древнем ферганском государстве существовало развитое ремесло, земледелие и животноводство.

До недавнего времени древнейшие признаки, иллюстрирующие элементы и структуры, характерные для древнейшего города – арк-цитадель, шахристан (городские кварталы, защищённые оборонительными стенами), и рабад (неукреплённая часть города) – стали известны благодаря исследованиям археологов А. А. Анарбаева и Б. Х. Матбабаева, проводившимся на городищах Эйлатан и Эски Ахсы. Самые древние из этих

признаков были отнесены ими к III веку до н. э. Авторы исследований обосновывали результаты исследований тем, что для возникновения и возведения 70 городов в Давани, описанных Сыма Цзянем, 100 лет было вполне достаточно.

По мнению большинства исследователей, развитие урбанизации и государственности в древней Фергане по сравнению с расположенными рядом развитыми историко-культурными регионами Средней Азии (Хорезмом, Бактрией, Согдом и Парфиенной, где возникновение древних городов, согласно результатам археологических исследований, имело место в VIII – VII веках до н.э.), происходило со значительным отставанием. Основной причиной отставания в развитии культуры Ферганской долины, по их мнению, являлось ее провинциальное, окраинное расположение, огражденное от развитых областей горными хребтами.

Однако благодаря археологическим исследованиям, сделанным в последние десятилетия, – открытию нами в 2012 году неизвестного ранее археологической науке уникального городища Кырк-Худжра, сохранившего площадь более 5 га, - были получены находки, свидетельствующие, что в Ферганской долине в эпоху раннего железа уже существовала высокоурбанизированная культура с развитыми элементами фортификации, монументальной архитектурой, храмом и «классической» городской структурой. В 2013 – 2014 и 2021 годах на нем были произведены небольшие исследования разведочного характера. На территории городища Кырк-Худжра в VII – VI веках до н.э. уже существовали все признаки, характерные для городской структуры и топографии: хорошо укрепленные арк-цитадель и два шахристана, а также храм.

Мы предполагаем, что городская культура Ферганской долины эпохи раннего железного века генетически была связана с предшествовавшей ей оседло-земледельческой Чустской культурой эпохи бронзы, поздние

периоды которой, согласно последним радиоуглеродным датировкам, относятся к концу XI века до н.э. Элементы протогородской Чустской культуры – цитадель и уже сложившаяся фортификация – появляются еще на поселениях – Дальверзинтепа и Чуст-Бибиона.

Новые археологические материалы из нижних слоёв городища Кырк-Худжра, по нашему мнению, могут позволить аргументированно утверждать, что завершение развития урбанизированной культуры и возникновение государства на территории древней Ферганы происходило по меньшей мере в VII-VI вв до н.э.

AXSIKENT ARXEOLOGIYA PARKI

Professor Abdulxamid Anarbayev

Fanlar akademiyasi, Antropologiya instituti

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21029390

***Annotatsiya**: Maqolada Axsikent arxeologiya parkining tashkil etilishi, uning tarkibiga kiruvchi VIII, XVIII va XIX obyektlarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari yoritilgan. Tadqiqotlar davomida miloddan avvalgi III asrdan milodiy XIII asrgacha bo‘lgan davrlarga oid madaniy qatlamlar, turar joy qoldiqlari, mudofaa inshootlari hamda noyob yer osti suv ta’minoti tizimlari aniqlangan. X–XII asrlarga oid mahobatli turar joylar, sinchli me’morchilik an’analari, ganch bezaklar va devoriy rasmlar Axsikent aholisining yuksak moddiy madaniyatidan dalolat beradi. Shuningdek, maqolada o‘rta asrlar davriga oid gidrotexnik inshootlarning qurilish texnologiyasi, ularning uzoq muddat faoliyat ko‘rsatgani hamda Farg‘ona vodiysida muhandislik tafakkurining rivojlanganligi tahlil qilingan. Axsikent arxeologiya parkining ilmiy, madaniy va turistik salohiyati baholanadi.*

***Kalit so‘zlar**: Axsikent, Axsikat, arxeologiya parki, shahriston, arxeologik yodgorlik, yer osti suv tarmog‘i, vodoprovod, gidrotexnik inshoot, mudofaa devori, Farg‘ona vodiysi, arxeologik turizm, o‘rta asrlar me’morchiligi.*

***Аннотация**: В статье рассматриваются результаты археологических исследований, проведённых на территории археологического парка Аксикент, созданного на базе городища древнего города Ахсикат. Особое внимание уделено объектам VIII, XVIII и XIX, где выявлены остатки жилых комплексов, оборонительных сооружений и уникальных подземных систем водоснабжения, функционировавших в X–XII веках. Анализируются особенности строительных технологий, гидротехнических сооружений, городской инфраструктуры и инженерных*

решений средневекового населения Ферганской долины. Полученные материалы свидетельствуют о высоком уровне развития градостроительства, архитектуры и водного хозяйства Аксикента. Также раскрывается научный, культурный и туристический потенциал археологического парка как важного объекта историко-культурного наследия Узбекистана.

***Ключевые слова**: Аксикент, Ахсикат, археологический парк, археологические исследования, городище, шахристан, подземный водопровод, гидротехнические сооружения, оборонительные стены, Ферганская долина, средневековый город, археологический туризм.*

***Abstract:** The article presents the results of archaeological research conducted within the Axsikent Archaeological Park, established on the site of the ancient city of Akhsikat. Particular attention is paid to Objects VIII, XVIII, and XIX, where remains of residential complexes, defensive structures, and unique underground water supply systems dating to the 10th–12th centuries were discovered. The study analyzes construction techniques, hydraulic engineering facilities, urban infrastructure, and engineering achievements of the medieval population of the Fergana Valley. The obtained materials demonstrate the high level of development of urban planning, architecture, and water management in Axsikent. The article also highlights the scientific, cultural, and tourism potential of the Axsikent Archaeological Park as an important historical and cultural heritage site of Uzbekistan.*

***Keywords**: Axsikent, Akhsikat, archaeological park, archaeological research, ancient settlement, shahristan, underground water supply system, hydraulic engineering structures, defensive walls, Fergana Valley, medieval city, archaeological tourism.*

Axsikent yodgorligi qadimgi Farg‘ona-Axsikat shaharining qoldiqlari hisoblanadi. So‘nggi yillarda Republika Prezidentining tashabbusi bilan Axsikent

yodgorligi asosida “Axsikent arxeologiya parki” tashkil qilinmoqda. Shu kunlarda ushbu park doirasida 3 ta obyektning (VIII, XVIII, XIX) usti yopilib ochiq osmon ostida muzey tayyorlanmoqda. Bu yerda arxeologiya ishqibozlari professional arxeologlar rahbarligida arxeologik tadqiqotlarda ishtirok etishlari mumkin bo‘lgan arxeologik turizmni tashkil etish imkoniyati mavjud (rasm 1).



Rasm 1.

VIII-obyekt birinchi shahristonning (Axsi IA) shimoli-g‘arbiy qismida joylashgan. Yuqorida qayd etilganidek, bu yerda miloddan avvalgi III asrdan milodiy XIII asrgacha bo‘lgan davrga oid madaniy qatlamlar, yer osti suv ta’minoti tizimi (“vodoprovod”) hamda X–XII asrlarga oid turar joy qoldiqlari aniqlangan. Turar joy sinch uslubida qurilgan bo‘lib, devorning asosini yog‘ochdan tiklangan karkas tashkil qiladi. Ushbu turar joy ikki qismdan iborat bo‘lgan: yashash uchun

mo‘ljallangan hashamatli va xo‘jalik qismlar. Hashamatli qismdan faqat ayrim joylarda devorlarning poydevorlari, ganchga o‘yilgan bezaklar, devoriy rasm parchalari saqlanib qolgan, xolos. Xo‘jalik qismi esa nisbatan yaxshi saqlangan bo‘lib, unda oshxona, omborxona va uy hammomini (“g‘uslxona”)ni ajratish mumkin. Ganch bezaklar va devoriy rasmlarga qaraganda, bu yerda badavlat oyila yashagan, degan xulosaga kelish mumkin. Afsuski, ushbu mahobatli uy XIII asr boshlarida vayronga aylanngan (rasm 2).



Rasm 2

Yer osti suv tizimi (vodoprovod) o‘sha davr yer sathidan taxminan 5 metr chuqurlikda pishiq g‘ishtlardan qurilgan bo‘lib, gumbazsimon galereya ko‘rinishida barpo etilgan. Uning ichidan diametri 24–26 sm bo‘lgan yirik sopol quvurlardan iborat suv tarmog‘i o‘tgan va u 200 yildan ortiq vaqt davomida faoliyat ko‘rsatgan. Obyektning janubiy qismida turar joy polidan pastga, pishiq g‘ishtdan

qurilgan gumbazli yer osti xonasiga olib boruvchi zinapoya qoldiqlari aniqlangan. Ushbu erosti xonasining markazida o‘lchami 1,0 × 0,70 m va chuqurligi 0,50 m bo‘lgan rezervuar-hovuz joylashgan. Yuqorida tilga olingan quvurlarda oqqan suv ushbu hovuzga shimoldan kelib tushgan, so‘ngg, yana quvurlar orqali janub tomonga oqishda davom etgan. Afsuski, gumbazli xona va unga olib boruvchi zinapoyaning shifti saqlanmagan (rasm 3).



Rasm 3

XVIII-obyekt VIII-obyektтning (Axsi IA) yonida, uning shimol tomonida joylashgan (rasm 1; rasm 4). Bu yerda mahobatli turar joy qoldiqlari, shimol–janub yo‘nalishida o‘tuvchi erosti suv tarmog‘i (“vodoprovod”) hamda mo‘g‘ullar bosqini arafasida barpo etilgan birinchi shahristonning mudofaa devori aniqlangan. Mahobatli inshoot vayron bo‘lgan bo‘lib, undan faqat devorlarning ayanchli qoldiqlari va devoriy rasm parchalari saqlangan suvoq bo‘laklari qolgan, xolos. Tabiiy ravishda, bu mahobatli turar joy inshootiga nima bo‘lgan?, degan savol tug‘iladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, sinchli (karkasli) bino XIII asr boshlarida yuz bergan zilzila natijasida jiddiy zarar ko‘rgan. Shunday taassurot paydo

bo‘ladiki, uy egasi zilzila yetkazgan talafotlardan keyin uni tiklashga ham ulgurmagan. Chunki 1211–1213-yillarda Shimoliy Farg‘onada Kushluqxon boshchiligidagi nayman qabilalarining talonchilik yurishlari bo‘lib o‘tgan. Ushbu bosqinlar va Muhammad Xorazmshoh bilan Qushluqxon o‘rtasidagi o‘zaro urushlar Shimoliy Farg‘ona shahar va qishloqlariga, jumladan, Axsikatga ham katta zarar yetkazgan. Mazkur voqealar sababli, ehtimol, uy egasi binoni qayta tiklashga urinmagan. Aksincha, u butun yog‘och karkasni qismlarga ajratib, boshqa joyga olib ketgan ko‘rinadi.

Obyektda yuqorida tilga olingan noyob gidrotexnik inshoot — yer osti suv tizimi va unga olib boruvchi zinapoya aniqlangan. Yuqorida tilga olingan binoning polidan pastda pishiq g‘ishtlardan qurilgan, erosti suv tarmog‘iga olib boruvchi zinapoya qoldiqlari topilgan. Zinapoya dastlab janubdan shimolga so‘ngg, kichik maydonchadan o‘tib sharqqa buriladi va kichik yer osti xonasiga olib kiradi. Zinapoya 26–29 × 14–16 × 3–4 sm o‘lchamdagi pishiq g‘ishtlardan qurilgan gumbazsimon galereya bilan yopilgan. Xonaning markazida o‘lchami 0,96 × 0,68 m va chuqurligi 0,40 m bo‘lgan rezervuar-hauz mavjud. Suv bu hovuzga shimoldan quvurlar orqali oqib tushgan va undan janub tomonga yana quvurlarda oqishda davom etgan. Sopol quvurlardan tashkil topgan suv tarmog‘i pishiq g‘ishtlardan qurilgan gumbazsimon yer osti inshooti ichidan o‘tgan. Zinapoya, uning gumbazli shifti, devorlari (sharqiy devordan tashqari) hamda yer osti xonasining poli 26–29 × 14–16 × 3–4 sm o‘lchamdagi to‘g‘ri to‘rtburchak pishiq g‘ishtlardan qurilgan. Xonaning sharqiy devori va gumbazi 22 × 22 × 3,5–4 sm o‘lchamdagi kvadrat g‘ishtlardan barpo etilgan (ba’zida 20 × 20 × 3–3,5 sm o‘lchamdagi g‘ishtlar ham qo‘llangan). Pishiq g‘ishtlar loy qorishmasi asosida terilgan. Shunga qaramay, yer osti xonasining gumbazi va zinapoya ustidagi galereyaning asosiy qismi yaxshi saqlanib qolgan.

Axsikentda Sog‘d shaharlaridan farqli ravishda, kvadrat g‘ishtlar bilan bir qatorda to‘g‘ri to‘rtburchak g‘ishtlar kengroq qo‘llanilgan. Zinapoya ustidandan

XI–XII asrlarga oid sopol buyumlar topilgan. Stratigrafiya, qurilish materiali va topilmalarga asoslanib, mazkur gidrotexnik inshoot VIII-ob’ektdagi vodapovodning boshlanishi hisoblanib, X asrning ikkinchi yarmida qurilgan va 200 yildan ortiq vaqt davomida faoliyat ko‘rsatgan, degan xulosa qilish mumkin.



Rasm 4

XIX-obyekt ikkinchi shahristonning (Axsi IB) janubi-g‘arbiy qismida joylashgan (rasm 5; rasm 6). Bu yerda shahar devori va erosti suv tarmog‘i qoldiqlari aniqlangan. Dastlab shahar devori miloddan avvalgi III–II asrlarda paxsa va yirik o‘lchamdagi xom g‘ishtlardan (58–60 × 10–12 sm) qurilgan. Uning eni 5,30 m bo‘lib, qiyalik darajasi 20° dan ortiq bo‘lgan. Miloddan avvalgi I-asrning birinchi yarmida esa yaxshi ishlangan paxsa va 48–50 × 28–30 × 10 sm o‘lchamdagi xom g‘ishtlardan ikkita mahobatli devor barpo etilgan. Natijada, shahar devorining qalinligi 20 metr, balandligi esa 20 metrdan ortiq bo‘lgan.

Shahar mudofaa tizimining o‘ziga xos jihati qurilishda relyefdan samarali foydalanilganidir. Dastlabki davrda minoralar vazifasini maxsus yo‘laksimon xonalar bajargan bo‘lsa, keyinchalik ularning o‘rnini devor ustida ko‘tarilgan, ammo tashqariga chiqmagan o‘ziga xos minoralar egallagan.



Rasm 5



Rasm 6

Ushbu mudofaa devor ostida pishiq g‘ishtlardan tunnel ko‘rinishida qurilgan ikkinchi erosti suv tarmog‘i aniqlangan. U g‘arbiy rabod (Ahsi II) tomon yo‘nalgan. Suv tunnel ichidan o‘tgan tutash idishlar qonuni asosida sopol quvurlar orqali oqgan. Aniqlanishicha, quvur tizimi dastlab xandak ostiga 10 metr chuqurlikkacha tushirilgan, so‘ngg, yana 10 metr yuqoriga ko‘tarilgan. Demak, bundan ming yil avval faqg‘onaliklar tutash idishlar qonunini amalda foydalana olganlar.

HIGH-ELEVATION URBANISM AND HYDROLOGICAL LANDSCAPES IN EARLY MEDIEVAL CENTRAL ASIA

Mirae Jo

(PhD candidate, SAIE Lab, Department of Anthropology,

Washington University in St. Louis)

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21029567

Abstract. *This article examines the hydrological landscape and water-management system of the medieval city of Tugunbulak (6th–11th centuries CE) in Uzbekistan. The study focuses on strategies of water capture, storage, and distribution in a highland environment. Using hydrological modeling, remote sensing, and archaeological evidence, it highlights the role of water infrastructure in sustaining one of the largest known high-altitude urban centers in Central Asia.*

Keywords: *Tugunbulak, hydrology, water management, highland urbanism, Central Asia, medieval period, LiDAR.*

Аннотация. *В статье исследуются гидрологический ландшафт и система водоснабжения средневекового города Тугунбулак (VI–XI вв.) на территории Узбекистана. Основное внимание уделяется изучению способов накопления, хранения и распределения водных ресурсов в условиях высокогорья. На основе гидрологического моделирования, дистанционного зондирования и археологических данных раскрывается значение водохозяйственной инфраструктуры в развитии одного из крупнейших высокогорных городов Центральной Азии.*

Ключевые слова: *Тугунбулак, гидрология, водное хозяйство, высокогорные города, Центральная Азия, средневековье, LiDAR.*

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekiston hududidagi VI–XI asrlarga oid Tug‘unbuloq shahrining gidrologik landshafti va suv boshqaruvi tizimi tadqiq*

etiladi. Tadqiqot tog‘li hududlarda suv resurslaridan foydalanish, ularni yig‘ish, saqlash va taqsimlash usullarini aniqlashga qaratilgan. Gidrologik modellashtirish, masofadan zondlash va arxeologik ma’lumotlar asosida Tug‘unbuloqning yirik tog‘ shahri sifatida faoliyat yuritishida suv ta’minoti tizimining ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *Tug‘unbuloq, gidrologiya, suv boshqaruvi, tog‘li shaharlar, Markaziy Osiyo, o‘rta asrlar, LiDAR.*

For millennia, people have aggregated into settlements around water in both arid and resource-rich regions, transforming natural hydraulic landscapes through technological innovations of artificial water systems. Therefore, the study of ancient hydrological systems provides insight into long-term socio-cultural processes and environmental pressures that shaped human adaptation.

Often regarded as inhospitable because of their unsuitability for agriculture, rugged mountain areas of Central Asia have been settled by nomadic pastoralist populations for at least 5,000 years or more (Frachetti 2012; Taylor et al. 2021). As mountain pastoralists practiced nomadic or transhumant lifestyles, past scholarship largely overlooked their role in the formation of the early urban centers due to assumptions that urban areas require intensive, stable agriculture to sustain large populations and accumulate surplus (Adams 1962; Lucero et al. 2015; Styring et al. 2022).

The recent discovery of the medieval urban site of Tugunbulak (TGB) in Uzbekistan provides the first case study to research large-scale highland water systems within a context of planned urban architecture in Central Asia. Located 2,000 m.a.s.l. and dating to the 6th-11th centuries CE, TGB covers no less than 120 ha with hundreds of identified structures, making it one of the largest known medieval highland cities documented in this region (Frachetti et al. 2024). Unlike other medieval cities, TGB is neither situated near any major rivers, oases, or lakes, nor in a high-precipitation zone, indicating that past communities required an

organized water management system to sustain the city. This raises a question: how did inhabitants manage water resources in this challenging mountain environment?

This research reconstructs the hydrological landscape of Tugunbulak (TGB) to investigate how natural water availability influenced urban development and how humans engineered water-management systems to sustain a large highland population. I propose that water was derived primarily from seasonal surface flows associated with snowmelt and precipitation, supplemented by springs, and that inhabitants strategically construct infrastructure for capture, conveyance, storage, and drainage of water.

To investigate these questions, the research integrates hydrological reconstruction, remote sensing, archaeological survey, excavation, and comparative regional analysis. First, I examine seasonal patterns of water availability through hydrological modeling based on climatic, topographic, and vegetation data to evaluate timing and distribution of water resources across the landscape. Second, I investigate potential water-management strategies through comparative analyses of archaeological water technologies documented across Central Asia and beyond. These datasets are combined with high-resolution Lidar map (Frachetti et al., 2024) to identify and contextualize potential types and locations of hydrological features at Tugunbulak (TGB). Together, these approaches provide a framework for understanding the relationship between natural hydrology and technological adaptation in a highland environment.

AXSIKENT IRRIGATSIYA TIZIMI TARIXI: QORAXONIYLAR DAVRIDAN HOZIRGI KUNGA QADAR (QIYOSIY TAHLIL)

Qozoqov Tohirjon Qodiraliyevich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent.

Namangan Impuls tibbiyot instituti, O‘zbekiston.

Telefon (Telegram): +998933451969

E-mail: tqozoqov@mail.ru

https://orcid.org/0009-0008-7833-1551

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21029825

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Axsikent irrigatsiya tizimlari tarixining qoraxoniylar davridan to hozirgi kungacha bo‘lgan holati tahlil qilingan. Unda, Kosonsoy, Axsisoy va Janjalsoylar sug‘oradigan yerlar haqidagi ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, soxta “Yangi Axsi” shahrini suv yuvib ketmaganligi, Sirdaryoning Axsikent uchun ahamiyati yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Axsikent, irrigatsiya, qoraxoniylar, Kosonsoy, Axsisoy, Janjalsoy, Yangi Axsi, Sirdaryo, kema, akveduk, tarixiy manbalar*

THE HISTORY OF AKHSIKENT'S IRRIGATION SYSTEM: FROM THE KARAKHANID PERIOD TO THE PRESENT DAY (A COMPARATIVE ANALYSIS)

Annotation: *This article examines the major stages in the development of Akhsikent’s irrigation system from the Karakhanid era to the present. It provides information on the agricultural lands irrigated by the Kasansay, Akhsisay, and Janjalsay watercourses. Furthermore, the study demonstrates that the so-called “New Akhsi” was not destroyed by flooding and highlights the important role of the Syr Darya River in the history and development of Akhsikent.*

Key words: *Akhsikent, irrigation system, Karakhanid period, Kasansay, Akhsisay, Janjalsay, New Akhsi, Syr Darya River, river transport, aqueducts, historical sources.*

ИСТОРИЯ ИРРИГАЦИОННОЙ СИСТЕМЫ АКСЫКЕНТА: ОТ ЭПОХИ КАРАХАНИДОВ ДО НАШИХ ДНЕЙ (СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ)

Аннотация: *В этой статье перечисляются основные события из истории ирригационной системы Ахсыкента от эпохи караханидов до наших период. В нем дается информация о землях, орошаемых Касансоями, Ахсисаями и Джанжалсаями. Кроме того, было установлено, что так называемый “Новый Ахси” не был разрушен наводнением, а также освещена роль реки Сырдарьи в истории и развитии Ахсикента.*

Ключевые слова: *Ахсикент, ирригационная система, эпоха Караханидов, Касансай, Ахсисай, Джанжалсай, Новый Ахси, река Сырдарья, речной транспорт, акведуки, исторические источники*

Turkiston mintaqasidagi eng yirik daryolardan biri bo‘lgan Sirdaryo qadimdan, xususan, Qoraxoniylar davrida ham Farg‘ona vodiysining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, aholi joylashuvi, shaharsozlik madaniyati va sug‘orma dehqonchilik tizimining shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Daryo Tan-Shan tog‘laridan boshlanuvchi Norin hamda Qoradaryolarning qo‘shilishidan hosil bo‘lib, Farg‘ona vodiysi bo‘ylab Sirdaryo nomi bilan davom etadi. Qadimgi yunon va arab manbalarida mazkur daryo Yaksart (Jaxartes), Sayhun (سيحون) nomlari bilan tilga olingan.

Daryoning umumiy uzunligi taxminan 2 212 kmni tashkil etadi. Uning yirik tarmog‘i bo‘lmish Norin daryosining boshlanishidan hisobga olinganida esa, Sirdaryoning umumiy uzunligi 3 000 kmdan ortiqroqni tashkil qiladi. Daryo havzasining maydoni 780 ming km² dan ziyod bo‘lib, Qirg‘iziston, O‘zbekiston, Tojikiston va Qozog‘iston hududlarini qamrab oladi. Sirdaryo suvining asosiy

qismi tog‘ muzliklari va qor suvlari hisobiga shakllanadi. Shu sababli daryo suv rejimi bahor va yoz oylarida ko‘tarilib, kuz va qish fasllarida nisbatan kamayadi.

Farg‘ona vodiysi hududida Sirdaryoga quyiladigan yirik irmoqlar qatoriga Norin, Qoradaryo, Kosonsoy, G‘ovasoy, Isfayramsoy, So‘x, Shohimardonsoy, Isfara, Chodaksoy, Janjalsoy va boshqa ko‘plab tog‘ daryolari kiradi. Ularning aksariyati vodiyning qadimgi sug‘orish tarmoqlari shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa, Kosonsoy va Axsisoy suv tizimlari o‘rta asrlarda Axsikent vohasining iqtisodiy hayotini ta’minlovchi asosiy gidrotexnik manbalardan hisoblangan.

Daryoning shimolida joylashgan Axsikent shahri IX–XIII asrlarda Sharqiy Qoraxoniylar davlatining muhim siyosiy va iqtisodiy markazlaridan biri bo‘lgan. Shaharning rivojlanishi ko‘p jihatdan Sirdaryo bilan bog‘liq edi. Birinchidan, daryo va uning irmoqlari orqali shahar atrofidagi keng sug‘orma yerlar o‘zlashtirilgan. Ikkinchidan, Sirdaryo savdo va transport kommunikatsiyasining muhim bo‘g‘ini vazifasini bajargan. Yozma manbalar shahar hududida daryo kechuvlari, qayiqlar va suv orqali yuk tashish amaliyoti mavjud bo‘lganligidan guvohlik beradi. Bu holat Axsikentning Farg‘ona vodiysi, Choch, Ustrushona hamda Movarounnahrning boshqa shaharlari bilan iqtisodiy aloqalarini mustahkamlanishi uchun omil bo‘lib xizmat qilgan.

Sirdaryoning Axsikent uchun ahamiyati faqat yer usti suvlari bilan cheklanmagan. Arxeologik tadqiqotlar shahar atrofida yerosti suvlari va gidrotexnik inshootlardan foydalanilganligini ham ko‘rsatmoqda. Ayrim tadqiqotchilar Axsikent vohasida yerosti suv yo‘llari hamda suv taqsimlash tizimlari mavjud bo‘lganligini qayd etadilar. Bu esa shahar aholisini ichimlik suvi bilan ta’minlash hamda bog‘dorchilik va dehqonchilikni rivojlantirish imkonini bergan.

Axsikent atrofining tabiiy landshafti ham uning taraqqiyoti uchun qulay sharoit yaratgan. Sersuv daryo va soylarning mavjudligi bu yerda asrlar davomida

shakllangan o‘troq sug‘orma dehqonchilik madaniyatining rivojlanishi uchun omil bo‘lib xizmat qilgan. Shu bilan birga, ayrim vaqtlarda daryo toshqinlari ba’zan aholi manzilgohlari va qishloq xo‘jaligi yerlariga zarar keltirgan bo‘lsa-da, biroq, bu yerlarda qad rostlagan aholi maskanlarini to‘liq yuvilib, yo‘q bo‘lib ketishiga olib kelmagan.

Qoraxoniylar davri manbalarida Sirdaryoning ahamiyati haqida ko‘plab ma’lumotlar uchraydi. Arab geograflari va sayyohlari, jumladan Ibn Havqal, al-Muqaddasiy va al-Istaxriy asarlarida Farg‘onaning sersuv vohalari, daryolari va sug‘orish tarmoqlari haqida, shuningdek, “Boburnoma”, “Tarixi Rashidiy”, “Shayboniynoma” va boshqa asarlarda esa, daryoning Axsikent uchun strategik ahamiyati, daryo transporti borasida muhim ma’lumotlar keltirilgan. Keyingi davr mualliflari ham Axsikent va uning atrofidagi suv inshootlarini mintaqaning iqtisodiy qudrati bilan bog‘lab tavsiflaganlar.

Shu bois, Sirdaryo va uning irmoqlarini o‘rganish nafaqat gidrologik nuqtayi nazardan, balki, Axsikentning siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotini anglash uchun ham muhim ahamiyatga ega. Daryo havzasining tabiiy xususiyatlari, sug‘orish tarmoqlari, gidrotexnik inshootlar va suvdan foydalanish an’analarini tadqiq etish, Farg‘onaning Qoraxoniylar davri xo‘jalik tizimini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o‘z navbatida Axsikentning Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi tarixida tutgan o‘rnini yanada to‘laroq yoritish imkonini beradi.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida: “...Sayhun daryosikim, Xo‘jand suyig‘a mashhurdur, sharq va shimoliy tarafidin kelib, bu viloyatning ichi birla o‘tub, g‘arb sori oqar, Xo‘jandning shimoli, Fanokatning janubi tarafidinkim, holo Shohruxiyag‘a mashhurdur, o‘tub yana shimolg‘a mayl qilib, Turkiston sori borur. Turkistondin xeyli quyiroq bu daryo tamom qumg‘a singar, hech daryog‘a qotilmas”, deydi. Asardagi ushbu jumlani keyingi davr tadqiqotchilari Sirdaryo qo‘shni Qozog‘iston Respublikasidagi Turkiston shahridan o‘tib, butunlay qum ichida singib yo‘q bo‘lib ketgan, deya noto‘g‘ri

talqin qilganlar: “Bu davrning boshqa manbalarida ham Sirdaryoning qumda yo‘qolishi haqida ma’lumotlar uchraydi” [7, b.5]. Axsikent xalqaro ilmiy tadqiqot jamoat birlashmasi ilmiy xodimlarining ilmiy tadqiqotlari va ekspeditsiyalari natijasida bu fikr xato ekanligi tasdiqlandi.

Ya’ni, Sirdaryo Qoraxoniylar davrida va undan keyin ham suvini Orol dengiziga quyganligi aniqlandi. Asardagi “tamom qumg‘a singar, hech daryog‘a qotilmas” jumlasini boshqacharoq, ya’ni, “biron bir daryoga qo‘shilmagan holda, butunlay qumlar sahrosi ichiga kirib ketadi”, deb tushunmoq darkor. Qomusiy bilimlar sohibi bo‘lgan Bobur Mirzo geografik bilimlardan ham yaxshigina xabardor bo‘lgan. Dunyodagi ko‘plab mashhur daryolar boshqa daryolarga qo‘shilib ketganligini bilgani bois ham, bu yerda u Sirdaryoni biron bir daryoga qo‘shilmasligini, mustaqil tarzda davom etishini yozmoqda. Yer yuzidagi ko‘plab yirik daryolarning boshqa daryolarga irmoq sifatida qo‘shilib ketganligini quyidagidan ham bilish mumkin: masalan, Shimoliy Amerikadagi Missuri uzunligi 3767 km.ni tashkil etsada, 3730 km.lik Missisipining irmog‘i hisoblanadi, Sibirdagi Irtish daryosining uzunligi 4248 km bo‘lsada, Ob daryosiga (uzunligi 3650 km.) irmoq bo‘lib qo‘shilib ketadi, Sibirning yana bir yirk daryosi Angor ham Yeniseyga irmoq sifatida qo‘shilgan, shuningdek, Kama daryosi Volgaga, Tobol esa Irtishga, Panj va Vahsh daryolari ham Amudaryoga, Afrikadagi Benue daryosi esa, Niger daryosiga qo‘shilib ketadi. Shu bois ham asar muallifi Sayhun hech bir daryoga qo‘shilmasligini alohida ta’kidlamoqda.

Endi “tamom qumg‘a singar” iborasini esa, qumliklardan iborat hudud ichiga kirib ketadi, deb tushunmoq darkor. Buning isboti esa, quyidagicha: temuriylar davrida Orol dengizi atrofining asosiy qismi cho‘llar bilan o‘ralgan edi. Taxminan 70–80% sohil qirg’og’ini cho‘l yoki yarim cho‘l tabiiy zonalariga to‘g‘ri kelgan.

Geografik nuqtayi nazardan:

-Sharq va janubi-sharq tomonida Qizilqum cho‘li;

-Janub va janubi-g‘arbida Qoraqum cho‘li;

-G‘arbida esa, Usturt platosi;

-Shimoli va shimoli-sharqida Orolbo‘yi yarim cho‘l hududlari joylashgan.

Faqat ikkita katta daryo deltalarigina cho‘llandan iborat emas: 1) Amudaryo deltasi — qamishzorlar, ko‘llar, to‘qayzorlar va sug‘orma yerlar; 2) Sirdaryo deltasi-botqoqliklar, qamishzorlar va ko‘llar tizimi.

Shuning uchun dengiz atrofidagi yashil hududlar asosan shu ikki delta bilan cheklangan bo‘lib, qolgan sohillarning katta qismi tabiiy cho‘l va yarim cho‘l landshaftlaridan iborat bo‘lgan.

Qoraxoniylar davri manbalarining deyarli barchasida Sayhun daryosining Orol dengizigacha yetib borganligi ma’lumotlar mavjud. Misol uchun, Istaxriy: “Shosh daryosi (Sirdaryo)dan qayiqlar qatnaydi. O‘zani O‘zgand chegarasidagi turklar o‘lkasidan chiqadi. Keyin, unga Xurshob (Qurshob), O‘sh, Quva, Jidg‘il (Chotqol) va boshqa daryolar qo‘shilib, katta daryoga aylanadi. Axsikat va Banokatdan o‘tib, Farobga oqadi. Sabrandan bir farsax keyin turklar tomonidagi Hadisa qishlog‘i joylashgan dashtda oqadi. Hadisa qishlog‘idan ikki farsax o‘tib, Xorazm kichik dengiziga quyiladi” [10, b.178]. Ibn Havqal Koson shahri yonidan oqib o‘tuvchi, bugungi kunda Kosonsoy nomi bilan atalgan Sirdaryoning irmog‘i X asrda Axsikat daryosi, deb atalganini yozgan: “Koson shahri darvozasi yonidan Axsikat daryosi (Kosonsoy) oqib o‘tgan” [8, b.285].

Ayni damda Istaxriy Qoraxoniylar davri Axsikatining ichki shahristonining Bujayr, Mardaqsha (Mardikush), Koson, Jom‘e va Rahana (Rohoba), deb nomlangan beshta darvozasi borligini, rabodida esa, oqar suv va hovuzlari ko‘pligi hamda har bir darvozasi qalin bo‘stonlar va ariqlarga olib chiqishi ma’lumotini bergan edi [10, b.179].

Shuningdek, Qoraxoniylardan keyingi davr tarixchisi, XIV asrning mashhur olimlaridan “Muqaddima” asarining muallifi Ibn Xaldun ham o‘z davrida Sayhunning Orol dengiziga quyilishini quyidagicha izohlagan edi: “Turklar

yurtidan oqib keladigan Farg‘ona va Toshkent (Shosh) daryosi, ya’ni, Sirdaryo ham shu ko‘lga, ya’ni, Orol dengiziga quyiladi” [7, b.137].

Yana shuni ham unutmaslik darkorki, Bobur yashab o‘tgan davrdan keyingi olimlar ham asarlarida mazkur daryoning Orol dengiziga quyilishiga guvohlik berib o‘tganlar: “Sayhun daryosi ayni damda Xo‘jand yoki Shohruxiya daryosi, deb ham yodga olinadi. Qorategin tog‘laridan boshlanib, Xorazm (Orol) dengiziga quyiladi. Ba’zan esa, qishda misli Jayhundek qattiq muzlaydi. Ustidan qo‘shin va karvonlar bemalol o‘tishi mumkin. Sayhun daryosi Xorazm ko‘liga quyilgach, Jayhun bilan birgalikda Xazar (Kaspiy) dengiziga quyiladi” [13, b.96]. Buning boisi, avvallari Amudaryoning O‘zboy, deb atalgan irmog‘i daryo suvining bir qismini Kaspiyga quyib, Orol va Kaspiyning suv yo‘li orqali bog‘lanishiga sabab bo‘lganligida edi. Biroq, oradan vaqtlar o‘tib, bu irmoq qurishga yuz tutadi. Tarixchi Mahmud bin Vali Amudaryo Kaspiyga suvini quymay qo‘yganidan (1614—1615 yy.) keyin Ko‘hna Urganch shahri inqirozga yuz tutib, aholisi Xivaga ko‘chganligini yozgan [13, b.19]. Bu hol yuqorida nomi keltirilgan Irmoqning qurishi oqibatida sodir bo‘lgan edi.

Xiva xoni Abulg‘ozixon buning tasdig‘i sifatida “Men tug‘ilishimdan 30 yil avval, Amudaryo o‘zanini o‘zgartirib, Sir (Orol) dengiziga quya boshlagan. Shu sababli Urganch xarob bo‘ldi”, deya yozgan edi. Shuningdek, Abulg‘ozixon hojilar Amudaryo orqali Ko‘hna Urganchga, undan Mang‘ishloqqa (Mangistau viloyati, Qozog‘iston-T.Q.), keyin esa, Shirvon (Ozarbayjon) va Turkiya orqali haj marosimi adosiga borganliklarini bayon etgan [4, b.151, 167].

Sayyid Muhammad Tohir ibn Abul Qosim 1640-yil atrofida yozib tugatgan mashhur “Ajoyib at-tabaqot” asarida “Sayhun (Sirdaryo) O‘zgand va Farg‘ona tomondan kelib, Xo‘jand (tomonga) oqadi. Bir qancha irmoqlarni olgandan so‘ng, Xorazm ko‘liga o‘tadi”, deya yuqoridagi olimlarning fikrlarini tasdiqlagan [16, b.200].

Tarixiy manbalarning guvohligiga ko‘ra, kemalar yo‘nalishi quyidagicha bo‘lgan: ***Kemaboshi, Qoradaryo (Norin tumani)*** - Axsikent – Xo‘jand – Shohruxiya –Faroba-Sabron-Orol dengizi.

Orol dengizidan esa: 1)Amudaryo - Axsisak (Turkmaniston) – Termiz; 2)Amudaryo – O‘zboy daryosi – Ko‘hna Urganch – Mang‘ishloq - Kaspiy dengizi – Shirvon (Ozarbayjon), usmoniylar davlati (Turkiya).

Sharqshunos olim, akademik V. Bartold ham Qoraxoniylar davri manbalarida ko‘rsatilganidek, Farg‘onaning shimoliy hududlari asosan Kosonsoy suvlari bilan sug‘orilganligi, Axsikent rabodida ko‘plab ariq va hovuzlar bo‘lganligi, Bobur temuriylar davridagi mustahkam qo‘rg‘on, deya tasvirlagan Axsi shahriga ham suv yana o‘sha Kosonsoy daryosidan kelganligini ma’lumot sifatida keltrib o‘tadi [5, b.221].

Qoraxoniylar davridan to XIX asr oxirlarigacha bo‘lgan manbalarda Axsikentga yo‘l daryoning chap qirg‘og‘idan kelganligi yozilgan. Buni bugungi tadqiqotchilar ham tasdiqlaydilar: “Havoqanddan cho‘l orqali 7 farsax yo‘l yurib, Axsikentga kelingan. U yerda esa, daryodan o‘tib, Axsikentga kirilgan” [15, b.123,124].

Axsikent irrigatsiya tizimi masalasida avvalo “Boburnoma”ga murojaat qilish ma’qul ish sanaladi. Unda: “Axsi suvi Kosondin kelur” [6, b.63], deyilgan. Agar yer osti suv yo‘li nazarda tutilsa, bu ham Eski Axsi hududidan topilgan. Ya’ni, Kosonsoydan yer osti sopol quvurlari orqali Axsikentga suv olib kelingani barchaga ma’lum. Agar-da, yer usti suvlari xususida fikr yuritiladigan bo‘lsa ham, Kosonsoydan Axsisoy arig‘i orqali suv to‘g‘ri Axsikent (Eski Axsi)ga olib kelinganligiga tarixiy manbalar va XIX asr oxiri XX boshlarida yevropalik olimlar tomonidan chizilgan xaritalar shohidlik bermoqda.

Taniqli olim Yo‘lchi Qosimov Axsikent arxeologiyasi borasidagi izlanishlarida bu yerdan topilgan yerosti suv inshooti haqida ma’lumotlarni berib o‘tgan edi. Olim manzilgohda qazilma ishlarini olib borish bilan birgalikda,

Axsikentning shimoliy qismidagi aholi xonadonlaridan yerosti sopol quvurlarining qoldiklarini ham topib o‘rgandi: “...70-80 yillarda ushbu satrlar muallifi (Yo‘lchi Qosimov-T.Q.) arxeolog olimlar I. Ahrorov va A. Muhammadjonovlarning maslahatlari asosida Axsikent suv yulini topish va qazish ishlari bilan shug‘ullanib ko‘rdi. Qazishmalar vaqtida “O‘zbekiston” va “Sharq yulduzi” kolxozlari territoriyasida Kosonsondan yerosti opqali suv olib kelinganligi aniqlandi. Uning noyob namunalari topildi. Bu irrigatsion inshoot ham Axsikentda ishlab chiqilgan g‘oyatda pishiq g‘ishtlardan tunnel usulida qurilgan. Lenin xozirgacha suv yulining bosh qismi — suv tindirgich topilgani yo‘q. Taxminan 15-16 kilometr uzunlikka ega bo‘lgan mazkur vodoprovod namunalari boshqa yerlarda ham topilmoqda. Lekin, ularning hech biri qurilish strukturasi, texnikasi, shakli va noyob ishlanishi jihatidan Axsikent vodoprovodiga sira o‘xshamaydi. Vodoprovod izlarining namunalari va sopol truba qoldiqlari xarobaning yerosti qismida saqlanib qolgan” [12, b.70,71].

2018-2018 yillarda Axsikent manzilgohidan topilgan yerosti suv inshootlari muhandislik yo‘li bilan konservatsiya qilinib, turist va ziyoratchilar uchun muhim obyektga aylantirildi.

Shu o‘rinda Y.Qosimov hozirga qadar xalq o‘rtasida saqlanib qolgan bir rivoyatni ham eslatib o‘tadi. Ya’ni, qachonlardir Axsikentga yovlar hujum qilganligi, lekin, shahar aholisi uzoq vaqt qo‘rg‘onni himoya qilib, taslim bo‘lmaganligi, alaoqibat, bir sotqin ayol yerosti suv yo‘lini ko‘rsatib berganligi va dushman uni axtarib, topib, shahar suv ta’minotini izdan chiqarganligini yozadi. Rivoyatga ko‘ra, suv yo‘lining yuqori qismidagi suv tindirgich orqali quvurga somon oqizilib, shahar aholisi suvsizlikka duchor qilinib, taslim etiladi. Arestotel “Afsonalar – haqiqatning siniqlaridir”, degan edi.

Mutafakkir olim Ishoqxon Ibrat ham Eski Axsi yodgorligidagi yerosti suv inshootlari XX asr boshlarida ham ko‘zga tashlanib turishini bayon etgan edi:

“...Yer tagidin yuradurg‘on suv qubirlari ko‘p taajjublik nimarsalar hozir ham ko‘rinib turadur”[18].

Axsikentning mo‘g‘ullar vayron qilganligi haqidagi cho‘pchakni, shuningdek, “Temuriylar davri Axsikenti” yoki “Yangi Axsikent”, degan soxta atamalarni birinchi bo‘lib, Namangan o‘lkashunoslik muzeyi xodimi bo‘lgan Yuriy Georgiyevich Chulanov ilk bor XX asrning 50-yillari oxirlarida fanga olib kirib, “ilmiy kashfiyot” qilgan edi [17, b.197-206]. Bungacha asarlarda “Temuriylar davri Axsikenti” yoki “Yangi Axsikent”, degan so‘z yoki temuriylar shu nomdagi shahar qurganligi masalasi qayd etilmagan.

1933-yilda tug‘ilgan Yuriy Georgiyevich Chulanov, 1957-yili Leningrad universitetini tamomlab, Namangan viloyat o‘lkashunoslik muzeyiga ishga yuborilib, bu yerda 1957-1959 yillar oralig‘ida ishlaydi xolos. Ammo, shu qisqa davrda tarixni “ag‘dar-to‘ntar” qiladigan g‘oyalarni o‘rtaga tashlashga ulgurdi.

1958-yili “К истории города Ахсыкета” nomli va 1963-yil “Советская археология” jurnalining 3-sonidagi “Городище Ахсыкет” nomli maqolalarida ilk bor “Yangi Axsikent” nazariyasini e’lon qiladi. Yu. G. Chulanov Eski Axsi yodgorligini ko‘zdan kechirar ekan, bu yerda temuriylar davriga oid ashyolar topilmayotganligini, shu sababli ham shahar temuriylargacha bo‘lgan davrda, aniqrog‘i XIII asr boshlarida vayron bo‘lgan bo‘lishi kerak, degan taxminni olg‘a surib, temuriylar poytaxti Axsikent qayerda joylashganligini izlab topish g‘oyasini o‘rtaga tashlaydi. Butun chalkashlik shundan so‘ng boshlandi.

Keyingi arxeologlar Eski Axsini mo‘g‘ullar vayron qilgan, uni temuriylar davriga aloqasi yo‘q, sababi u yerdan XIV-XVII asrlarga oid moddiy ashyolar topilmayapti, deya o‘z da’volarini olg‘a surdilar. Bu “ilmiy xulosa” merosi ularga ustozlari Yu.G.Chulanovdan qolgan edi. Vaholanki, XIX asr oxirlaridan XX asrning 50 - yillarigacha Axsikentni o‘rgangan olimlarning hammasi Eski Axsidan temuriylar davriga oid ashyolarni ham topib, o‘rganishgan.

Asosi yo‘q taxminlardan keyin “Temuriylar davri Axsikenti”, degan soxta atama paydo bo‘ldi. Achinarlisi, shuning ortidan temuriy Umarshayx Mirzo hozirgi yodgorlik o‘rnida bo‘lgan qadimiy Axsikent shahrini emas, qandaydir utopik, taxminlarga ko‘ra, undan 8 km g‘arbda Axsi qishlog‘i o‘rnida “Yangi Axsi” nomli shaharni qurib, poytaxt qilganligi to‘qib chiqarildi. Mana shu fikrning o‘zi Sharqiy qoraxoniylar davlati, umuman Farg‘ona vodiysining XII-XIII asrlar tarixini mutlaqo noto‘g‘ri talqinini yuzaga keltirib, soxta tarix yaratilishiga asos bo‘ladi. Mazkur taxmin asosida to‘qilgan tarixni asoslash uchun ko‘pdan ko‘p yolg‘onlar to‘qildi.

Keyinchalik bu ishga yozuvchi, publitsist, bloger, san’atkor va hatto bir vaqtlar viloyatdagi markaziy jomye masjidida imomlik qilgan diniy ulamolar ham aralashib, masalani umuman chalkashtirib yubordilar. To‘raqo‘rg‘on tumanining hozirgi Axsi qishlog‘i o‘rnida “Temuriylar davri Axsikenti” bo‘lgan, deya, “Axsi sayyidlari muzeyi” bunyod etildi. Ammo biron bir manbada mazkur qishloq o‘rnida temuriylar shahar qurganligi va u yerda bironta mashhur sayyidzoda o‘tganligi bayon etilgan emas. Shuningdek, soxta kashfiyotchi daryo bugungi kunda o‘z o‘zanidan 500-800 metrgacha surilib kelib, qal’a o‘rnashgan joylarni yuvib tashlaganligini, uning o‘rnida esa Axsi nomi bilan kichkina qishloq qolganligini ta’kidlagan. Aslida qurilmagan “Yangi Axsi”ni suv yuvib ketganligi ham tarixiy cho‘pchakdan bir parcha xolos.

Yu. Chulanov o‘ylab topgan “Yangi Axsi”ga Kosonsoy suvini olib o‘tish mumkinmi? Axir orada to‘la Janjalsoy oqmoqda-ku! Fransuz olimi Pyer Buast aytganidek, “Haqiqiy bilimning manbasi faktlarda” bo‘lib, taxmin yoki tavakkal bilan tarix yaratilmaydi. Shu bois, oxirgi yillarda Axsikent xalqaro ilmiy tadqiqot jamoat birlashmasi ilmiy xodimlari, mutaxassis irrigator olimlar bilan hamkorlikda mazkur masala ustida fundamental tadqiqotlar olib bordilar. Natijada, shaharning irrigatsiya tarmoqlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar tarixiy manbalarga qiyosan tahlil etildi. Unga ko‘ra: Janjalsoy ustidan Kosonsoydan suv oluvchi bironta suv o‘zani

tabiiy holatda mazkur soyning ustidan Axsi qishlog‘i tomoniga o‘z potensial energiyasi bilan oqa olmasligi, faqatgina akveduk (ko‘tarma nova – suv o‘tkazgich-T.Q.) orqaligina o‘tishi mumkinligi, Axsi va Fayzibod (Janjal) qishloqlari esa, tabiiy ravishda Janjalsoy suvi bilan ta’minlanganligi, 1940-yil mazkur hududdan Shimoliy Farg‘ona kanali qazib, ishga tushirilganidan keyingina ushbu qishloqlar Shimoliy Farg‘ona kanalidan chiqarilgan ariqlar vositasida suv bilan ta’minlanganligi ilmiy xulosasi berildi [20].

Oxirgi davrlarda irrigatsiya sohasi olimlarining tegishli xulosalarisiz hudud suv ta’minoti tizimlari to‘g‘risida noto‘g‘ri ma’lumotlar berilgan risola va maqolalar ham ko‘zga tashlanadi. Masalan, mualliflar jamoasi tomonidan insho etilgan “Fayziobod fayzlari” kitobida ham xuddi shu holni kuzatish mumkin. “...Qishloqning sharq tarafida shimoldan janub tomonga oquvchi Janjalsoy o‘tgan. .....Bahorda yuz beradigan toshqin paytlari soyda 3000 m3 gacha suv oqqan” [1, b.55]. Aql bovar qilmaydigan bu suv hajmi haqida yozishdan avval, soha mutaxassislari bilan maslahatlashish ayni muddao bo‘lur edi.

Shimoliy Farg‘ona kanalining qurilishi Farg‘ona vodiysi irrigatsiya inshootlari tarixidagi muhim voqealardan biri sanaladi. O‘zbekiston SSR XKS va O‘zbekiston Kommunistik Partiyasi (b) Markaziy Komiteti 1940-yilning 20 yanvarida Shimoliy Farg‘ona kanalini qurish to‘g‘risidagi qarorini e’lon qildi. O‘sha yili 14 fevraldan esa, qurilish ishlari boshlab yuborildi. Qurilish ishlariga rahbar etib, A. Mo‘’minov tayinlandi. Kanalning umumiy uzunligi 162,5 km bo‘lib, shundan 144 km O‘zbekiston hududidan 18,5 km esa, Tojikiston hududidan o‘tadigan bo‘ldi. Kanal qurilishi uchun qazib chiqarilgan 5,9 mln3 tuproq ishlari asosan qo‘l kuchi bilan bajarildi. Buning uchun 69,5 ming kolxozchi, 652 nafar texnik-muhandislar jalb qilindi. Ushbu suv inshootining qurilishi bilan O‘zbekiston hududida 63 242 ga yerni sug‘orish imkoniyati paydo bo‘ldi. Kanalning qurilishi jarayonida ayni jamda 6 ta akveduk-ko‘tarma suv yo‘li bunyod etishga to‘g‘ri keldi. Kanalning 69 - km.da suv sarfi 28,5 m3/sek bo‘lgan Janjalsoy ustidan kanalni

olib o‘tish uchun temirbetonli akveduk qurishga to‘g‘ri keldi [9, b.163-164]. Sirdaryoga quyiladigan Janjalsoyda 3000 m3 gacha suvning oqishi mutlaqo tuturuqsiz va kulgilidir.

1940-yil mazkur hududdan Shimoliy Farg‘ona kanalining qazib, ishga tushirilishi oqibatida Axsi va Janjal qishloqlari Shimoliy Farg‘ona kanalidan chiqarilgan ariqlar vositasida suv bilan ta’minlanadigan bo‘ldi.

Axsisoy orqali To‘raqo‘rg‘on janubi, xususan, Axsikent atrofi hududlarining suv bilan ta’minlash masalasi faqatgina Shimoliy Farg‘ona kanalining ishga tushirilishi sababi bilangina o‘z ahamiyatini yo‘qotdi. Demak, 1940-yilgacha mazkur hududlar aynan Axsisoy suvi bilan sug‘orilgan. Hozirgi Janjal va Axsi qishloqlariga ushbu suv qadimda ham, hozirda yetib bormagan [2, b.9-11].

Tarixga nazar tashlasak, suv ta’minoti, suv inshootlarining joylashishi qadimgi shaharlar va davlatlarning paydo bo‘lishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan hodisa hisoblanadi. “Boburnoma”da: “Axsi suvi Kosondin kelur”, deyilgan. Umuman olganda, nafaqat Axsikent, balki, asrlar davomida To‘raqo‘rg‘on tumanining deyarli janubiy hududlari, Janjalsoy va Kosonsoy oralig‘i aholi maskanlari Kosonsoydan suv oluvchi Axsiariq suvi bilan sug‘orilgan. So‘nggi yillarda Axsikent xalqaro ilmiy tadqiqot jamoat birlashmasi ilmiy xodimlari, mutaxassis irrigator olimlar bilan hamkorlikda mazkur masala ustida fundamental tadqiqotlar olib borib, bu boradagi chalkashliklarga barham berdilar. Natijada, hududning irrigatsiya tarmoqlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar tarixiy manbalarga qiyosan tahlil etildi. Unga ko‘ra: Axsi va Fayziobod (Janjal) qishloqlari qadimdan tabiiy ravishda Janjalsoy suvi bilan ta’minlanganligi, Axsiariq suvi u tomonlarga o‘ta olmasligining ilmiy xulosasi berildi [11, b.100].

Afsonaviy “Yangi Axsi” nazariyotchilari g‘oyaviy ustozlari Yu. Chulanovga sodiq qolgan holda, shaharning ancha qismini daryo yuvib ketganligi da’vosini qiladilar. Shu bilan birga, u holda daryo nega “Yangi Axsi” dan oldin keluvchi “Eski Axsi” yodgorligini yuvib ketmadi, degan savolga: “Eski Axsidan o‘tayotgan

Sirdaryoning o‘ng qirg‘og‘i qattiq toshsimon qatlamlardan tashkil topganligi uchun suv yuvib ketolmagan. Yangi Axsida esa, Sirdaryoning o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan tuproq qatlamlari cho‘kindi tog‘ jinslaridan tashkil topganligi munosabati tufayli, uning maydonini Sirdaryo yuvib ketgan”, deb javob beradilar [14].

Biroq, bu borada irrigatsiya sohasi olimlari Sirdaryoning XIX asr o‘rtalaridan to hozirgacha bo‘lgan davrdagi gidrologik xususiyatlari, daryodagi tuproq tarkibi yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borib, asosli ilmiy xulosalarni ma’lum qildilar. “Yanglish fikrlar doimo o‘zini-o‘zi inkor etadi. Haqiqat bobida esa, unday bo‘lmaydi”, deydi K.Gelvetsiy. Natijada, “Yangi Axsi” to‘g‘risidagi ma’lumotlar tarixiy haqiqatga zid bo‘lganligi bois ham chalkashliklarni o‘zida namoyon qilaveradi.

Tadqiqotlarda Jomasho‘y ko‘prigidan 210 m quyida joylashgan Kal gidrologik suv o‘lchash posti hamda Markaziy davlat arxividagi Sirdaryoning toshqini bilan bog‘liq ma’lumotlardan foydalanildi.

Olimlarning xulosalari:

- Kal gidropostning 100-yillik ma’lumotlari tahlili natijasi shuni ko‘rsatdiki, Sirdaryoda suv sarfi 1959-yil 2780 m3/s; 1966-yil 3270 m3/s; 1969-yil 4270 m3/s tashkil etgan;

- Sirdaryoning o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan “Yangi Axsi”ning uzunligi 1 km. eni 800 metrgacha bo‘lgan qismini daryo yuvib ketgan, deb taxminiy xulosa berilganligi ilmiy jihatdan asossizdir. Buning uchun Sirdaryoning suv sarfi 35 000 m3/s ni tashkil etishi lozim bo‘ladi. Vaholanki, daryodagi eng yuqori suv sarfi 1969-yilda kuzatilgan bo‘lib, 4270 m3/s ni tashkil etgan. Agarda daryoda suvning sarfi 35 000 m3/s ni tashkil etgan holat ro‘y bersa, u holda Farg‘ona vodiysining qator tuman va shaharlarini ham suv bosgan bo‘lar edi. Biroq, Farg‘ona vodiysi irrigatsiya tarixida bunday holat sodir bo‘lmagan;

- Sirdaryoning o‘ng qirg‘og‘idagi Axsikent (Eski Axsi) manzilgohining daryoga tutash tuproq qatlami bilan 7-8 km. masofadagi Yangi Axsi (Axsi qishlog‘i)ning daryoga tutash bo‘lgan qismi yer qatlamining tuproq tarkibi bir xil. Ya’ni, 0,7-0,9 gruntlardan tashkil topgan. Ya’ni, “Yangi Axsi” daryo deformatsiyasiga uchragan bo‘lsa, tabiiy ravishda bu holat Eski Axsida ham yuz berishi lozim edi;

- “Yangi Axsi” shahrini daryo deformatsiyasi (yuvilib ketishi)ga uchraganligi haqidagi ma’lumotlar ushbu soha mutaxassislari tomonidan berilmagan;

- Axsi (Yangi Axsi) va Fayziobod (Janjal) qishloqlarining suv bilan ta’minlanishida Kosonsoydan keladigan Axsi arig‘ining hech qanday aloqasi yo‘q. Ya’ni, Axsi qishlog‘i (Yangi Axsi)ga Kosonsoydan biron bir ariq yoki kanal orqali olib kelish mumkin emas va samarasizdir. Bu ikkala qishloq joylashgan hududning suv ta’minoti Shimoliy Farg‘ona kanali (1940 yil) qurilgunga qadar, Janjalsoy soyidan amalga oshirilgan. Negaki, Janjalsoyning o‘ng qirg‘og‘i balandlik sari ketganligi bois, chap qirg‘og‘idagi Kosonsoydan suv oluvchi Axsi arig‘i o‘zining potensial energiyasi bilan Janjalsoyning u tomoniga o‘tmaydi;

- Namangan viloyatidagi “Axsikent” tarixiy-madaniy yodgorlik hududini har tomonlama chuqur o‘rganish borasida kartografiya va geoinformatika yuzasidan hududni dengiz sathidan mutloq balandligini aniqlash uchun DEM (Digital Elevation Model) kosmik surati yordamida balandlik gorizontallari bo‘yicha elektron kartasi yaratildi. Natijalariga ko‘ra, o‘rganilayotgan hudud balandligi shimoldan janubga qarab 800 azimut bilan nishablanib boradi va nishablik Sirdaryo daryosi o‘zanigacha tushadi;

- O‘rganilayotgan hududdagi birinchi suv o‘zani, ya’ni Kosonsoy o‘zani shimoldan janubga qarab o‘rganilayotgan hudud bo‘yicha 750-870 gradus azimut bo‘yicha oqib boradi va Sirdaryoga quyiladi, o‘rganilayotgan hududdagi ikkinchi

suv o‘zani Janjalsoy o‘zanining asosiy qismi Shimoliy Farg‘ona kanali janubidan boshlanadi va 900 1000 azimutda Sirdaryoga quyilib boradi;

- Tahlil natijalariga ko‘ra, Janjalsoy o‘zanining yuqori qismi (Shimoliy Farg‘ona kanali)dan shimolda joylashgan, deb hisoblanadigan qismi tabiiy oqim sifatida Kosonsoydan suv olish imkoniyati yo‘qligini ko‘rish mumkin. Shuningdek, Kosonsoy va Janjalsoy oralig‘idagi hudud tarixan Kosonsoydan suv oluvchi irmoqlardan biri bo‘lgan Axsisoy orqali sug‘orilgan. Axsi va Fayzibod (Janjal) qishloqlarini tabiiy ravishda tarixan Janjalsoy obi hayoti bilan ta’minlangan. 1940-yil mazkur hududdan Shimoliy Farg‘ona kanali qazib, ishga tushirilganidan keyingina bu qishloqlar kanaldan chiqarilgan ariqlar vositasida suv bilan ta’minlangan [19].

Sun’iy ixtiro qilinayotgan loyihalar ilmiy haqiqatlarga mutlaqo ziddir. Chunki, Axsi va Fayzobod qishloqlari bilan Kosonsoydan suv oladigan Axsi arig‘ini oradagi Janjalsoy ajratib turadi. Janjalsoyning chap qirg‘og‘idan o‘ng qirg‘og‘iga suv tabiiy holatda bora olmasligi shundan ham ayonki, soyning boshlanish qismida qirg‘oqlarning suv sathidan balandligi 4-5, quyi oqimida esa 8-9, ba’zan 15-20 metrni tashkil etadi. Soyning eni esa 5 metrdan 100 metrgacha kengayib boradi. Ikki qirg‘oq yonbag‘ridagi nishablikni hisobga olinsa, nomuvofiqlik yanada ortadi. Janjalsoy o‘zining quyilish nuqtasiga yaqinlashgani sayin balandlik ortib boradi. Binobarin, hatto endilikda ham Shimoliy Farg‘ona kanalini Janjalsoyning chap qirg‘og‘idan o‘ng qirg‘og‘i, ya’ni Fayzobod qishlog‘i tomoniga olib o‘tish uchun sun’iy ko‘tarma suv yo‘li – akveduk qurilgan. Bobur Axsiga suvning Kosonsoydan olib kelinganligini ta’kidlagan. Demak, Axsi qal’asining suv ta’minoti Kosonsoy hisobidan bo‘lgan. Qamal onlarida strategik ahamiyat kasb etuvchi suv ta’minoti omonat inshootga tayanib amalga oshirilmaydi. Aks holda, poytaxtning mudofaa imkoniyati ham shubha ostiga qoladi. Sababi, ko‘tarma suv yo‘lining buzilishi – bu poytaxtning taslim bo‘lishi, demakdir.

Bu “Boburnoma”da keltirilgan “Axsi suvi Kosondin kelur” iborasi faqatgina “Eski Axsi”ga to‘g‘ri kelishini, demakki, Bobur tasvirlagan Axsi hozirgi Axsikent yodgorligi o‘rnida bo‘lganligini tabiiy isbotlab turibdi.

Manbalar shaharni Chingizxon qo‘shinlari emas, 1621-yilgi kuchli zilziladan vayronaga uchraganligini to‘liq tasdiqlab turgan bo‘lsa-da biz o‘z tadqiqotlarimizda yordamchi tarix fanlarining, shuningdek, geologiya, gidrogeologiya, irrigatsiya, kadastr, seysmologiya sohasi mutaxassislarining ilmiy xulosalaridan ham foydalandik.

Xulosa qilib aytganda, ibn Xaldun “Tarixni tahlil qiladigan shaxs esa o‘tkir nigoh sohibi bo‘lishi, o‘ta aniq o‘lchovga va izlanishga ega chiqishi lozimdir” [7, b.78]., deb bejizga aytmagan edi. Shu bois, utopik “Yangi Axsi” shahrining suv deformatsiyasiga uchraganligi afsonasi va Axsikentning suv bilan ta’minlanishi tarixiy haqiqatlariga mutaxassis irrigator olimlar ishtirokida yechim topish lozim topildi. Shuningdek, Qoraxoniylar davrida mavjud bo‘lgan Axsikent irrigatsiya tizimi, temuriylar davrida o‘zgarmaganligi, XX asrning 40-yillariga kelibgina hudud sug‘orish tizimlarida o‘zgarishlar yasalganligi isbotlandi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдулаҳатов Н., Тошқулов А., Қодиров В. Файзиобод файзлари. Биринчи китоб. – Тошкент: Китобдорнашр, 2019.

2. Абдуллаев Р. XX асрнинг 40-70 йилларида Ахсикент атрофи ҳудудларининг ирригация системасидаги ўзгаришлар //“Бобур ва Ахсикент” мавзуида республика олимлари иштирокида ўтказилган VI-Республика илмий-амалий анжумани материаллари, Наманган 2025.

3. Абдураҳмон ибн Муҳаммад ибн Халдун. Муқаддима. I жилд.-Тошкент: Trust and support, 2024.

4. Абулғозий Баҳодирхон. Шажарайи турк /Масъул муҳаррир ва сўзбоши муаллифи Б.А. Аҳмедов.-Тошкент: Чўлпон, 1992.

5. Бартольд В. В. Сочинения. Том III.-Москва: Восточная литература, 1965.

6. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома.-Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, 1960.

7. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома.-Тошкент: Юлдузча, 1989.

8. Ибн Ҳавқал. Китоб сурат ал-ард.-Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2011.

9. Ирригация Узбекистана. Современное состояние и перспективы развития ирригации в бассейне р.Сырдарьи. В 4-х томах. (Гл. Ред. А.Садыков). Т. 2.-Ташкент: Фан, 1975.

10. Истахрий. Китаб ал-масалик вал-мамалик (Хуросон ва Мовароуннаҳр) Йўллар ва мамлакатлар китоби (Тадқиқот, араб тилидан таржима, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифи Р.Т.Худайберганов).-Тошкент: Фан, 2019.

11. Қозоқов Т. Ахсикентнинг мухтасар тарихи.-Тошкент: Фан зиёси, 2024.

12. Қосимов Й. Қадимги Фарғона сирлари.-Наманган: “Китобхон” жамияти, 1992.

13. *Махмуд ибн Вали*. Море тайн относительно доблестей благородных. (Перевод Б.А.Ахмедова).-Ташкент: Фан, 1977.

14. Машрабов З., Матбобоев Б., Раҳмонов В. Бобур қурдирган мақбара топилди *//Андижоннома газетаси, 2018 йил 28 ноябрь.;* Бобур қурдирган мақбара топилди *//Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2018 йил 7, 21 декабрь.*

15. Нурматова Г. Средневековый Ахсикент (IX-XII вв.) //Номаи Донишгоҳ/Ученые записки Худжандского государственного университета им. академика Б. Гафурова. Серия: Гуманитарные науки. – 2010. – № 2 (22).

16. Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиёлик географ ва сайёҳлар.-Тошкент: Ўзбекистон, 1964.

17. Чуланов Ю.Г. Городище Ахсыкет //Советская археология, 1963.-№3.

18. ترکستان ولایتی نینگ کزیتی۴۸ نچی نومر۱۹۱۳یلده ۲۳نچی ایونده

19. Ахсикент халқаро илмий тадқиқот жамоат бирлашмаси архив фонди. II Фонд, 38-иш, 1-32 бетлар; 39-иш, 1-2 бетлар.

20. Ахсикент халқаро илмий тадқиқот жамоат бирлашмаси жорий архив фонди. II Фонд, 1-рўйхат, 38-иш, Б.23; 79-иш, Б.2.

НАСЛЕДИЕ АХСИКЕНТА: ТУРИЗМ, ОБРАЗОВАНИЕ И ПОПУЛЯРИЗАЦИЯ

Султанова Махфират Акрамжон кизи

Наманганский Государственный Технический Университет

Ассистент кафедры «Гуманитарных предметов»

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21030260

Аннотация *В статье рассматривается историко-культурное наследие Ахсикента как важного археологического памятника Ферганской долины и перспективного объекта культурного туризма. Особое внимание уделяется значению Ахсикента в развитии исторического сознания, образовательных программ и популяризации национального наследия среди молодёжи и широкой общественности. Автор подчёркивает, что сохранение и продвижение Ахсикента должно осуществляться не только через археологические исследования и туристическую инфраструктуру, но и через интеграцию памятника в образовательный процесс, цифровые ресурсы, музейную деятельность и международное научное сотрудничество.*

Ключевые слова: *Ахсикент, культурное наследие, археология, туризм, образование, Ферганская долина, историческая память, популяризация*

В современном мире культурное наследие рассматривается не только как память о прошлом, но и как важный ресурс социального, образовательного и экономического развития. Исторические памятники становятся центрами научных исследований, туристического интереса, воспитания молодёжи и формирования национальной идентичности. В этом отношении особое место занимает Ахсикент — древнее городище, расположенное на территории современной Наманганской области Республики Узбекистан. Ахсикент является одним из значимых

археологических памятников Ферганской долины. Его история связана с древней государственностью, торговлей, ремесленным производством, городской культурой и развитием науки. На протяжении веков этот город был не просто населённым пунктом, а важным политическим, экономическим и культурным центром региона. Сегодня наследие Ахсикента приобретает новое значение: оно становится основой для развития культурного туризма, исторического образования и международной популяризации богатого прошлого Узбекистана.

Актуальность данной темы определяется тем, что в условиях глобализации возрастает необходимость сохранения исторической памяти и передачи культурного наследия будущим поколениям. Если археологический памятник не включается в образовательную, туристическую и информационную среду, он постепенно превращается лишь в объект узкопрофессионального интереса. Поэтому наследие Ахсикента необходимо рассматривать комплексно: как объект науки, туризма, образования и культурной дипломатии.

Ахсикент имеет древнюю историю, уходящую корнями в эпоху до нашей эры. По данным археологических исследований, город сформировался примерно во II–I веках до н. э. и был одним из крупных центров древней Ферганы. Его расположение на важных торговых путях способствовало развитию ремёсел, торговли и культурного обмена. В разные исторические периоды Ахсикент играл роль укреплённого города, административного центра и места концентрации ремесленного производства. Особое значение Ахсикента связано с его городской структурой. Как и многие крупные средневековые города Центральной Азии, он включал цитадель, городскую часть и ремесленные кварталы. Такая структура свидетельствует о высоком уровне градостроительной культуры и социальной организации. Наличие оборонительных сооружений, ремесленных мастерских, следов

ирригационных систем и материальных находок позволяет рассматривать Ахсикент как важный источник для изучения истории Ферганской долины.

Ахсикент также связан с именем Захириддина Мухаммада Бабура. В исторической памяти региона город воспринимается как один из значимых центров, связанных с эпохой Темуридов и политической историей Ферганы. Это обстоятельство усиливает культурную ценность памятника, поскольку он объединяет археологическое, литературное, политическое и духовное наследие.

Историческое значение Ахсикента заключается не только в его древности, но и в его многослойности. Каждый культурный слой памятника отражает определённый этап развития общества: от древней Ферганы до средневековых городских процессов. Именно поэтому Ахсикент может служить важной научной базой для археологов, историков, культурологов, педагогов и специалистов в сфере туризма.

Туризм является одним из эффективных способов популяризации культурного наследия. Однако археологический туризм требует особого подхода. В отличие от природных достопримечательностей или современных развлекательных объектов, археологический памятник нуждается в правильной интерпретации. Посетитель должен не просто увидеть руины, а понять их историческое значение.

Ахсикент обладает высоким туристическим потенциалом. Во-первых, он расположен в Наманганской области, которая имеет благоприятные условия для развития внутреннего и международного туризма. Во-вторых, памятник связан с богатой историей Ферганской долины, Великого шёлкового пути, ремесленного производства и городской культуры. В-третьих, развитие музея под открытым небом и археологического парка создаёт возможность для превращения Ахсикента в полноценный туристический центр.

Для эффективного развития туризма на базе Ахсикента необходимо учитывать несколько направлений. Первое направление — создание современной инфраструктуры: удобных маршрутов, информационных стендов, зон отдыха, экскурсионных программ и музеев. Второе направление — подготовка квалифицированных гидов, способных рассказывать историю памятника на нескольких языках. Третье направление — развитие событийного туризма: проведение исторических фестивалей, научно-популярных лекций, ремесленных ярмарок и культурных мероприятий.

Особое внимание следует уделить тому, чтобы туризм не вредил памятнику. Массовое посещение археологических объектов без строгих правил может привести к разрушению культурных слоёв и утрате подлинности. Поэтому развитие Ахсикента как туристического центра должно строиться на принципах устойчивого туризма. Это означает баланс между экономической выгодой, сохранением памятника и уважением к исторической среде.

Ахсикент может стать важным образовательным ресурсом для школ, колледжей, университетов и научных центров. Изучение истории через конкретный памятник делает образование более живым и практическим. Когда учащиеся знакомятся не только с учебником, но и с реальным историческим объектом, у них формируется более глубокое понимание прошлого.

В школьном образовании Ахсикент можно использовать при изучении истории Узбекистана, культуры Ферганской долины, Великого шёлкового пути, ремёсел и древних городов. Учителя могут организовывать проектные работы, экскурсии, презентации, викторины и исследовательские задания. Например, учащиеся могут подготовить мини-проекты на темы «Ахсикент как древний город», «Ремёсла в Ахсикенте», «Ахсикент и Бабур», «Почему нужно сохранять археологические памятники?».

В высшем образовании Ахсикент может быть включён в программы по истории, археологии, туризму, педагогике, культурологии и музейному делу. Для студентов особенно полезны полевые практики, работа с источниками, анализ музейной экспозиции и разработка туристических маршрутов. Такой подход формирует не только теоретические знания, но и профессиональные навыки.

Кроме того, Ахсикент имеет воспитательное значение. Он помогает молодёжи осознать, что история родного края является частью мировой цивилизации. Через изучение таких памятников формируется уважение к национальному наследию, чувство ответственности за его сохранение и понимание связи между прошлым и будущим.

Популяризация культурного наследия — это процесс передачи исторических знаний широкой аудитории понятным, интересным и современным способом. Сегодня недостаточно только проводить научные исследования; необходимо сделать их результаты доступными для общества. В этом отношении Ахсикент нуждается в активной информационной и культурной стратегии.

Одним из эффективных способов популяризации является создание цифрового контента. Это могут быть виртуальные экскурсии, интерактивные карты, короткие документальные фильмы, образовательные видеоролики, подкасты и страницы в социальных сетях. Молодёжь чаще получает информацию через цифровую среду, поэтому наследие Ахсикента должно быть представлено не только в научных публикациях, но и на современных медиаплатформах.

Важную роль играет музейная интерпретация. Музей под открытым небом должен не просто демонстрировать остатки древнего города, а рассказывать историю через реконструкции, макеты, аудиогиды, мультимедийные материалы и интерактивные экспозиции. Посетитель

должен понимать, как жили люди в Ахсикенте, чем они занимались, какие ремёсла развивали, как торговали и почему город имел стратегическое значение.

Популяризация также может осуществляться через международные конференции, научные публикации, культурные обмены и туристические выставки. Ахсикент имеет потенциал стать не только местной достопримечательностью, но и узнаваемым символом исторического наследия Ферганской долины на международном уровне.

Для дальнейшего развития наследия Ахсикента можно предложить несколько практических направлений. Во-первых, необходимо расширять научные исследования и публиковать их результаты на узбекском, русском и английском языках. Это повысит международную узнаваемость памятника.

Во-вторых, следует разработать образовательные модули об Ахсикенте для школ и вузов. Такие материалы могут включать тексты, карты, задания, презентации, видеоматериалы и методические рекомендации для учителей.

В-третьих, важно создать устойчивый туристический маршрут «Ахсикент — Наманган — Ферганская долина», который объединит археологию, ремёсла, гастрономию, природу и современную культуру региона.

В-четвёртых, необходимо развивать цифровую популяризацию. Создание 3D-реконструкции древнего Ахсикента, мобильного приложения или виртуального музея значительно повысило бы интерес молодёжи и иностранных туристов.

В-пятых, важно вовлекать местное население. Если жители региона будут видеть в Ахсикенте не только руины, но и источник гордости, знаний и экономических возможностей, сохранение памятника станет более эффективным.

Заключение

Ахсикент является ценным историко-культурным наследием Узбекистана и одним из ключевых памятников Ферганской долины. Его значение выходит за рамки археологии: он связан с историей государственности, ремесла, торговли, образования и культурной памяти народа. В современных условиях Ахсикент может стать важным центром культурного туризма, образовательной деятельности и международной популяризации наследия Узбекистана.

Однако для этого необходим комплексный подход. Сохранение памятника должно сочетаться с научными исследованиями, развитием инфраструктуры, подготовкой специалистов, цифровыми технологиями и активным участием образовательных учреждений. Только в этом случае Ахсикент сможет стать не просто объектом прошлого, а живым центром культуры, науки и просвещения.

Таким образом, наследие Ахсикента представляет собой важный ресурс для формирования исторического сознания, развития туризма и укрепления культурной идентичности. Его изучение и популяризация являются актуальной задачей не только для специалистов, но и для всего общества.

Список литературы:

1. Анорбаев А. Археологические исследования древней Ферганы и проблемы изучения Ахсикента. — Ташкент: Фан, 2018.
2. Бабур З. М. Бабур-наме. — Ташкент: Издательство литературы и искусства, 1993.
3. Мавлонов У. История городов Ферганской долины. — Ташкент: Университет, 2015.
4. Нурматова Г. Средневековый Ахсикент IX–XII вв. // Исторические исследования Центральной Азии. — 2010.

5. Официальный туристический портал Узбекистана. Древний город Ахсикент.

6. Портал gov.uz. Археологический памятник «Ахсикент».

7. Материалы Академии наук Республики Узбекистан о музее под открытым небом в Ахсиканте.

8. Юлдашев М. Культурное наследие Узбекистана и перспективы развития туризма. — Ташкент: Ma’naviyat, 2021.

AXSIKENT – MEROS, TURIZM VA TA’LIM MASKANI

Xasanova Shaxzoda

Texnologiyalar, menejment va kommunikatsiyalar instituti

Tillari, tabiiy va ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti

xasanovashaxzoda@gmail.com

orcid.org/0000-0001-6517-0252

Mamadaliyeva Shaxnoza

Texnologiyalar, menejment va kommunikatsiyalar instituti

Tillari, tabiiy va ijtimoiy fanlar kafedrasi

2-kurs talabasi

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21030992

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Farg‘ona vodiysining eng qadimiy shaharlaridan biri bo‘lgan Axsikentning tarixiy-madaniy merosi, turizm salohiyati va ta’lim-tarbiyadagi o‘rni tadqiq etiladi. Axsikent o‘zining ko‘p asrlik tarixi, Buyuk Ipak yo‘lidagi strategik mavqei, rivojlangan hunarmandchiligi hamda ilm-fan markazi sifatidagi ahamiyati bilan ajralib turadi. Tadqiqot davomida arxeologik topilmalar, tarixiy manbalar va zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asosida Axsikentning O‘zbekiston tarixidagi o‘rni tahlil qilindi. Shuningdek, ushbu maskanning ichki va xalqaro turizmni rivojlantirishdagi imkoniyatlari hamda yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdagi ta’limiy ahamiyati yoritildi. Tadqiqot natijalari Axsikentni nafaqat tarixiy yodgorlik, balki zamonaviy turizm va ta’lim markazi sifatida rivojlantirish muhim ekanligini ko‘rsatdi.*

Kalit so‘zlar: *Axsikent, Farg‘ona vodiysi, tarixiy meros, arxeologik yodgorlik, Buyuk Ipak yo‘li, madaniy turizm, ta’lim, tarixiy xotira, milliy qadriyatlar, madaniy meros.*

Kirish

Bugungi globallashuv davrida tarixiy-madaniy merosni asrash va undan samarali foydalanish har bir davlatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Tarixiy obidalar va qadimiy shaharlar xalqning o‘tmishi, madaniyati va davlatchilik an’analarini o‘zida mujassam etgan bebaho boylikdir. O‘zbekiston hududida joylashgan ko‘plab qadimiy shaharlar orasida Axsikent alohida o‘rin egallaydi. U Farg‘ona vodiysining eng yirik tarixiy markazlaridan biri bo‘lib, uzoq asrlar davomida siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotning muhim o‘chog‘i sifatida faoliyat yuritgan.

Axsikent qadimgi Davan davlati hududida shakllangan bo‘lib, keyinchalik Movarounnahrning yirik shaharlaridan biriga aylangan. Tarixiy manbalarda uning nomi Axsi, Axsikat va Axsikent shakllarida uchraydi. Shahar Buyuk Ipak yo‘lining muhim tarmoqlaridan biri ustida joylashgani sababli Sharq va G‘arb o‘rtasidagi savdo-sotiq, ilm-fan va madaniyat almashinuvida katta rol o‘ynagan.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda tarixiy merosni tiklash va muhofaza qilishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, Axsikent yodgorligini o‘rganish, restavratsiya qilish va turizm markaziga aylantirish bo‘yicha muhim ishlar bajarildi. Bugungi kunda Axsikent nafaqat tarixiy yodgorlik, balki ilmiy tadqiqotlar, turizm va ta’lim sohalarini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega maskan sifatida e’tirof etilmoqda.

Asosiy qism

Axsikentning tarixi ikki ming yildan ortiq davrni qamrab oladi. Arxeologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, shahar miloddan avvalgi III–II asrlarda shakllangan. Qulay geografik joylashuvi, unumdor yerlar va savdo yo‘llariga yaqinligi uning tez rivojlanishiga zamin yaratgan.

IX–XII asrlarga kelib Axsikent Farg‘ona vodiysining eng yirik siyosiy va iqtisodiy markaziga aylandi. Bu davrda shaharda hunarmandchilik, savdo-sotiq va qishloq xo‘jaligi rivojlandi. Temirchilik ayniqsa taraqqiy etib, Axsikent po‘lati

Sharq mamlakatlarida mashhur bo‘lgan. Tarixiy manbalarda Axsikent ustalari tayyorlagan qilichlar va harbiy qurollarning sifati yuqori baholangan.

Shaharning mudofaa tizimi ham yuqori darajada rivojlangan edi. Qalin mudofaa devorlari, qal’a va kuzatuv minoralari dushman hujumlaridan himoyalanishga xizmat qilgan. Axsikentda masjidlar, madrasalar, karvonsaroylar va bozorlar faoliyat yuritgan bo‘lib, ular shaharning iqtisodiy va madaniy hayotida muhim o‘rin tutgan.

XVII asr boshlarida yuz bergan kuchli zilzila oqibatida shahar katta talafot ko‘rdi. Natijada aholi boshqa hududlarga ko‘chib ketdi va Axsikent asta-sekin o‘z mavqeini yo‘qota boshladi. Shunga qaramay, uning xarobalari bugungi kungacha saqlanib qolgan va muhim tarixiy manba sifatida xizmat qilmoqda.

Axsikentning tarixiy-madaniy merosi. Axsikent O‘zbekiston tarixiy-madaniy merosining eng muhim yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Bu yerda olib borilgan arxeologik qazishmalar davomida turli davrlarga oid turar joylar, saroylar, ustaxonalar, mudofaa inshootlari va ko‘plab maishiy buyumlar topilgan.

Topilmalar orasida sopol idishlar, metall buyumlar, tangalar, zargarlik mahsulotlari va qurilish qoldiqlari alohida ahamiyatga ega. Ular shaharning iqtisodiy qudrati va madaniy rivojlanganligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, temir eritish pechlari va metallga ishlov berish ustaxonalari Axsikentning metallurgiya markazi bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Axsikent o‘z davrida ilm-fan va madaniyat markazi sifatida ham mashhur bo‘lgan. Bu yerda diniy va dunyoviy ilmlar rivojlangan, olimlar va mutafakkirlar faoliyat yuritgan. Shahar aholisi orasida savodxonlik darajasi yuqori bo‘lganligi tarixiy manbalarda qayd etilgan.

Tarixiy merosning yana bir muhim jihati shundaki, u xalqning milliy o‘zligini anglashiga xizmat qiladi. Axsikentda saqlanib qolgan moddiy va ma’naviy boyliklar ajdodlarimizning bunyodkorlik salohiyati, ilm-fanga bo‘lgan e’tibori va yuksak madaniyatidan dalolat beradi.

Adabiyotlar sharhi. Axsikent tarixini o‘rganish bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. XIX asr oxiri va XX asr boshlaridan boshlab rus sharqshunoslari va arxeologlari tomonidan Farg‘ona vodiysidagi qadimiy shaharlar tadqiq qilina boshlandi. Keyinchalik o‘zbek olimlari tomonidan ham Axsikent tarixi chuqur o‘rganildi.

Arxeolog olimlar Yu.F. Buryakov, A. Asqarov, E. Rtveladze va boshqa tadqiqotchilar Axsikentning urbanistik tuzilishi, mudofaa tizimi va iqtisodiy hayotiga oid muhim ilmiy xulosalarni ilgari surganlar. Ularning tadqiqotlarida shaharning Buyuk Ipak yo‘lidagi strategik o‘rni va xalqaro savdo aloqalaridagi ahamiyati asoslab berilgan.

So‘nggi yillarda Axsikentning turizm salohiyatini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar ham ko‘paymoqda. Olimlar tarixiy yodgorliklarni turizm resursi sifatida baholab, ularni zamonaviy turizm sanoatiga integratsiya qilish masalalarini o‘rganmoqdalar. Shuningdek, tarixiy obidalardan ta’lim jarayonida foydalanish bo‘yicha ham qator ilmiy ishlanmalar yaratilgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Axsikent nafaqat tarixiy obida, balki iqtisodiy, madaniy va ta’limiy rivojlanish uchun katta imkoniyatlarga ega bo‘lgan ko‘p qirrali maskandir.

Tahlil va natijalar. O‘tkazilgan tahlillar Axsikentning uch asosiy yo‘nalishda katta salohiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Birinchidan, Axsikent tarixiy meros obyekti sifatida O‘zbekiston davlatchiligi va madaniyati tarixini o‘rganishda muhim ilmiy manba hisoblanadi. Arxeologik topilmalar orqali qadimiy Farg‘ona aholisi turmush tarzi, iqtisodiy faoliyati va madaniy rivojlanish darajasi haqida qimmatli ma’lumotlar olinmoqda.

Ikkinchidan, Axsikentning turizm imkoniyatlari juda katta. So‘nggi yillarda hududda turistik infratuzilma rivojlanib, tashrif buyuruvchilar soni ortib bormoqda. Tarixiy obidalar, muzeylar, ekskursiyalar va madaniy tadbirlar turistlar uchun qiziqarli dasturlarni shakllantirish imkonini bermoqda. Bu esa mahalliy

iqtisodiyotning rivojlanishiga, yangi ish o‘rinlari yaratilishiga va aholi farovonligining oshishiga xizmat qiladi.

Uchinchidan, Axsikentning ta’limiy ahamiyati ham nihoyatda katta. Tarix, arxeologiya, turizm va madaniyatshunoslik yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun ushbu maskan amaliy o‘quv maydoni vazifasini bajaradi. Maktab o‘quvchilari va talabalarning tarixiy obidalarga ekskursiyalari ularning tarixiy tafakkuri, vatanparvarlik tuyg‘usi va milliy qadriyatlarga hurmatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Tahlillar natijasida Axsikentni ilmiy, turistik va ta’limiy markaz sifatida yanada rivojlantirish zarurligi aniqlandi. Buning uchun tarixiy yodgorliklarni muhofaza qilish, ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish va zamonaviy turizm xizmatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Axsikent O‘zbekistonning boy tarixiy-madaniy merosini o‘zida mujassam etgan noyob yodgorliklardan biridir. Uning ko‘p asrlik tarixi, Buyuk Ipak yo‘lidagi muhim o‘rni, rivojlangan hunarmandchiligi va ilm-fan markazi sifatidagi mavqei ushbu shaharni alohida qadrlashga asos bo‘ladi.

Bugungi kunda Axsikent nafaqat tarixiy obida, balki turizm va ta’lim rivojiga xizmat qiluvchi zamonaviy maskan sifatida ham ahamiyat kasb etmoqda. Tarixiy yodgorliklarni saqlash va ulardan oqilona foydalanish milliy madaniyatni rivojlantirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda mamlakatning xalqaro nufuzini oshirishga xizmat qiladi.

Kelajakda Axsikentda ilmiy-arxeologik tadqiqotlarni yanada kengaytirish, turizm infratuzilmasini takomillashtirish, xalqaro ilmiy konferensiyalar va madaniy tadbirlarni tashkil etish orqali uning jahon miqyosidagi tarixiy-madaniy markaz sifatidagi mavqeini mustahkamlash mumkin. Shu bois Axsikentni asrash va targ‘ib qilish nafaqat tarixchilar va arxeologlarning, balki butun jamiyatning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asqarov A. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015.

2. Buryakov Yu.F. Drevnie goroda Ferganskoy doliny. – Tashkent: Fan, 1982.

3. Rtveladze E.V. Velikiy Shelkoviy put. – Tashkent: O‘zbekiston, 1999.

4. Ahmedov B.A. O‘zbekiston xalqlari tarixi manbalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1991.

5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

7. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Axsikent maqolasi. – Toshkent, 2001.

8. Madaniy meros agentligi materiallari va Axsikent arxeologik ekspeditsiyasi hisobotlari.

9. Mirzayev T., Mahmudov M. Madaniy meros va turizm. – Toshkent: Tafakkur, 2020.

10. Farg‘ona vodiysi tarixiga oid arxeologik tadqiqotlar to‘plami. – Toshkent: Fan, 2023.

AXSIKENT KOMPLEKS EKSPEDITSIYASINING G‘OVASOY VOHASIDA AMALGA OSHIRGAN ARXEOLOGIK TADQIQOTLARI

Bekmirzayev Islomjon Ibrohim o‘g‘li

Katta ilmiy xodim, O‘zR FA Antropologiya instituti

bekruchka@gmail.com

https://orcid.org/ 0009-0000-4400-4896

+998903621002

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21031444

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Axsikent kompleks ekspeditsiyasining G‘ovasoy vohasida amalga oshirgan arxeologik tadqiqotlari yoritilgan bo‘lib, unda ekspeditsiya tomonidan vohada olib borilgan keng ko‘lamli fundamental tadqiqotlar natijalari tahlil etiladi. G‘ovasoy vohasida hozirgi kunda bronza davriga oid Bibiona, temir davriga oid Qirqxujra hamda ilk o‘rta asrlarga mansub Balandtepa va Munchoqtepa yodgorliklari aniqlangan bo‘lib, ushbu hududda olib borilayotgan kompleks arxeologik izlanishlar Farg‘ona vodiysining qadimgi tarixini o‘rganishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *Axsikent kompleks ekspeditsiyasi, G‘ovasoy vohasi, arxeologik tadqiqotlar, Bibiona yodgorligi, Qirqxujra, Balandtepa, bronza davri, temir davri, ilk o‘rta asrlar, Farg‘ona vodiysi, kompleks izlanishlar.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются археологические исследования, проведённые Аксикентской комплексной экспедицией в Гавасайской долине, где анализируются результаты масштабных фундаментальных исследований, осуществлённых экспедицией. В настоящее время в Гавасайской долине выявлены памятники эпохи бронзы Бибиона, железного века Кыркхужра, а также раннего Средневековья Баландтепа и Мунчоктепа. Комплексные археологические исследования,*

проводимые на данной территории, имеют важное научное значение для изучения древней истории Ферганской долины.

Ключевые слова: *Аксикентская комплексная экспедиция, Гавасайская долина, археологические исследования, памятник Бибиона, Кыркхужра, Баландтепа, бронзовый век, железный век, раннее Средневековье, Ферганская долина, комплексные исследования.*

Annotation: *This article discusses the archaeological research conducted by the Axsikent Complex Expedition in the G‘ovasoy Valley, analyzing the results of large-scale fundamental studies carried out by the expedition. At present, archaeological sites in the G‘ovasoy Valley include Bibiona, dating to the Bronze Age; Qirqxujra, dating to the Iron Age; and Balandtepa and Munchoqtepa, belonging to the Early Medieval period. The complex archaeological investigations carried out in this area are of significant scientific importance for studying the ancient history of the Fergana Valley.*

Keywords: *Axsikent Complex Expedition, G‘ovasoy Valley, archaeological research, Bibiona site, Qirqxujra, Balandtepa, Bronze Age, Iron Age, Early Middle Ages, Fergana Valley, complex investigations.*

G‘ovasoy vohasi hozirgi kunda Farg‘ona vodiysining shimoli-g‘arbiy qismida joylashgan bo‘lib, uning hududi Namangan viloyatining Pop va Chust tumanlari hamda Qirg‘iziston Respublikasining Jalolobod viloyati O‘la-Buqa tumani doirasini qamrab oladi. Voha tabiiy-geografik jihatdan uch qismga quyi, o‘rta va yuqori vohalarga bo‘linadi.

Quyi G‘ovasoy vohasi asosan pasttekisliklardan iborat bo‘lib, G‘ovasoy daryosi Sirdaryo tomon yo‘nalgan holda bir necha irmoqlarga ajralib, delta hosil qiladi. Hozirgi vaqtda ushbu delta qismi Sirdaryodan taxminan 10 km yuqorida shakllangan.

Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, miloddan avvalgi VI asrda G‘ovasoy daryosining delta qismida, hozirgi Qirqxujra yodgorligi o‘rnida Eylatan

madaniyati doirasiga mansub shahar tipidagi manzilgoh shakllangan. Bu holat hududda qadimdan sug‘orma dehqonchilik tizimi mavjud bo‘lganini ko‘rsatib, irrigatsiya tizimlarining erta rivojlanganligini tasdiqlaydi.

O‘rta G‘ovasoy vohasi adirlar va adirorti pasttekisliklaridan iborat bo‘lib, uning asosiy qismini G‘ovasoy, Ko‘kteraksoy va Sumsarsoy daryolarining konussimon yoyilmalari tashkil etadi. Vohaning relyefi uch asosiy morfologik birlikka tog‘li hududlar (37%), o‘tloqlar (33%) va adirliklar (30%)ga bo‘linadi. Ushbu nisbat G‘ovasoy vohasining geomorfologik jihatdan murakkab tuzilishga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Tog‘li hududlar vohaning gidrologik tizimi va tabiiy resurslarining shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Tekislik zonalari qadimgi dehqonchilik, sug‘orma xo‘jalik va doimiy aholi manzilgohlarining rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratgan bo‘lsa, adirlik hududlari chorvachilik, ovchilik hamda yarim ko‘chmanchi xo‘jalik shakllari rivojlangan o‘tish zonasi sifatida ajralib turadi.

Umuman olganda, G‘ovasoy vohasining tabiiy-geografik sharoitlari qadimgi davrlardan boshlab inson xo‘jalik faoliyatining shakllanishi va rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Tog‘, adir va o‘tloq landshaftlarining o‘zaro uyg‘unligi antropogen landshaftlarning erta shakllanishi hamda sug‘orma dehqonchilik madaniyatining rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratgan. Har bir tabiiy-geografik zona o‘ziga xos relyef, geologik tuzilma va tarixiy taraqqiyot xususiyatlari bilan tavsiflanadi.

Voha o‘rta qismida qadimgi sug‘orma dehqonchilik tizimlari shakllanib, daryo va soy irmoqlarining deltasimon yoyilishi irrigatsiya tarmoqlarining rivojlanishiga asos bo‘lgan. Yuqori qism esa adirliklar, yoyilma konuslar va tog‘ etaklari bilan tavsiflanib, bu hududlarda aniqlangan petrogliflar qadimgi ovchi-chorvador jamoalarning xo‘jalik va madaniy faoliyatini aks ettiradi.

G‘ovasoy vohasida arxeologik va qidiruv tadqiqotlari uzoq yillar davomida olib borilgan bo‘lsa-da, ular ko‘pincha tizimsiz va fragmentar xarakterga ega

bo‘lgan. Xususan, vohaning uzoq muddatli tarixiy-madaniy taraqqiyot bosqichlari hamda antropogen landshaft sifatida shakllanish jarayoni GIS texnologiyalari va tizimli yondashuv asosida yetarli darajada o‘rganilmagan.

Hozirgi vaqtda G‘ovasoy vohasida O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Antropologiya instituti ekspeditsiyasi tomonidan A. Anarbayev rahbarligida fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlar vohaning o‘rta va quyi qismlarida Fanlar akademiyasi Antropologiya instituti ilmiy xodimlari hamda Namangan davlat universitetining professor-o‘qituvchilari va talabalari bilan hamkorlikda izchil davom ettirilmoqda. Tadqiqotlar ko’p bosqichli bo’lib, vohada arxeologik qidiruv va qazuv ishlarini olib bormoqda.

Zamonaviy metodlarga asoslangan dala-qidiruv ishlari dastlab 2013-yilda O‘zR FA Arxeologiya instituti ekspeditsiyasi tarkibida tashkil etilgan bo‘lib, A. Anarbayev, M. Saidov va Z. Rahmonovlar tomonidan Namangan viloyatining arxeologik xaritasini yaratish maqsadida tizimli ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ushbu tadqiqotlar davomida ilk bor zamonaviy GIS va GPS texnologiyalaridan foydalangan holda dala izlanishlari olib borilib, viloyat hududida 163 ta arxeologik yodgorlik qayd etilgan hamda ularning raqamli ma’lumotlar bazasi shakllantirilgan. Mazkur ishlar natijasida voha arxeologiyasi uchun muhim ilmiy baza yaratilgan.

Keyingi bosqichlarda ekspeditsiya tomonidan Namangan viloyatining Chust va Pop tumanlari, xususan G‘ovasoy vohasining o‘rta va quyi qismlarida keng ko‘lamli tadqiqotlar davom ettirilgan. Ushbu ishlar 2013–2017-yillar oralig‘ida amalga oshirilib, 2021-yildan hozirgi kungacha izchil davom etmoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Antropologiya instituti hamda Xitoy Fanlar akademiyasi Ijtimoiy fanlar instituti (Liu Tao, Ai Lijiang va Wang Xing) ishtirokidagi qo‘shma ekspeditsiya G‘ovasoy vohasining quyi qismida joylashgan ilk o‘rta asr Pop (Bob) shaharlari doirasidagi Balandtepa va Munchoqtepa yodgorliklarida arxeologik tadqiqotlar olib bormoqda.

Ayniqsa, 2021-yildan boshlab A. Anarbayev va S. Baratov rahbarligida Bibiona yodgorligida amalga oshirilayotgan kompleks arxeologik tadqiqotlar so‘nggi bronza va ilk temir davri tarixiga oid yangi ilmiy xulosalarni shakllantirish imkonini bermoqda. Tadqiqotlar natijasida yodgorlik stratigrafiyasi aniqlashtirilib, qazishma materiallari besh asosiy qurilish gorizontiga ajratilgan.

Har bir stratigrafik qatlam bo‘yicha voha arxeologiyasida ilgari keng qo‘llanilmagan zamonaviy ilmiy usullar: mutlaq xronologiya tahlillari, arxeobotanik tadqiqotlar hamda arxeoseysmologik izlanishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa G‘ovasoy vohasining qadimgi tarixiy-madaniy jarayonlarini yanada chuqur va kompleks o‘rganish imkonini bermoqda.

Demak, mazkur kompleks arxeologik tadqiqotlar doirasida G‘ovasoy vohasining butun hududi bo‘ylab qidiruv (razvedka) ishlari amalga oshirildi. Kosmik tasvirlardan foydalangan holda vohadagi arxeologik yodgorliklar xaritaga tushirildi. Shuningdek, Chust, Qirqxujra va Balandtepa yodgorliklarida arxeologik, geologik hamda arxeoseysmologik tadqiqotlar olib borildi. Ushbu izlanishlar natijasida antik davr va ilk o‘rta asrlar shahar topografiyasi hamda tabiiy ofatlar (kataklizmalar)ga oid yangi ilmiy ma’lumotlar olindi.

Qiyosiy tahlillar natijasida Chust manzilgohining dastlabki rivojlanish bosqichi miloddan avvalgi X–IX asrlar oxiri va boshlanish davrlariga mansubligi aniqlangan bo‘lib, bu xulosa yodgorlik stratigrafiyasi hamda arxeologik topilmalar bilan tasdiqlanadi.

Balandtepa, Qirqxujra va Temirqasmoktepa (hozirda vayron bo‘lgan) yodgorliklari doirasida olib borilgan arxeologik va arxeoseysmologik tadqiqotlar qadimgi Pop (Bob) shahrining miloddan avvalgi VII asr oxiri – VI asr boshlarida Qirqxujra yodgorligi o‘rnida shakllanganini ko‘rsatadi. Ushbu yodgorlik hozirgi Pop shahridan taxminan 2 km janubda, Sirdaryoning o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan bo‘lib, tarixiy rivojlanish davomida bir necha bor suv toshqinlari natijasida vayron

bo‘lgan va sel yotqiziqlari ostida qolgan. Har bir tabiiy ofatdan so‘ng shahar qayta tiklangan.

Qirqxujra shahar manzilgohi milodiy IV asr oxiri – V asr boshlarida kuchli zilzila natijasida vayron bo‘lgan. Ushbu halokatdan so‘ng yangi shahar Balandtepa yodgorligida, Qirqxujradan taxminan 1 km g‘arbda barpo etilgan.

Balandtepa ilk o‘rta asrlarga oid Pop (Bob) shahrining xarobalari bo‘lib, u Sirdaryoning o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan edi. Shahar uch qismdan: ark (citadel), shahriston va raboddan iborat bo‘lgan. Rabodning shimoli-sharqiy qismida shahar qabristoni Munchoqtepa joylashgan. Hozirgi kunda yodgorlikning taxminan 3 gektar maydoni saqlanib qolgan bo‘lib, asosan arkning shimoliy qismi hamda shahristonning janubiy va janubi-sharqiy qismlari saqlangan.

Arxeologik materiallar tahlili VIII asr boshlarida yoki birinchi choragida kuchli tabiiy ofat yuz berganligini ko‘rsatadi. Natijada ark va shahriston aholisi rabod hududiga ko‘chib o‘tgan, ularning ilgari egallagan hududlari esa hunarmandlar tomonidan o‘zlashtirilgan. Hunarmandchilik faoliyati ushbu hududda VIII asrning so‘nggi choragigacha davom etgan.

Topilgan materiallarning qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘rta asrlar davrida Pop shahri yirik markaz Axsikent bilan chambarchas iqtisodiy va madaniy aloqalarda bo‘lgan. Bu hududda hunarmandchilik, ayniqsa qora metallurgiya va metallga ishlov berish yuqori darajada rivojlangan.

Umuman olganda, mazkur tadqiqotlar G‘ovasoy vohasining Farg‘ona vodiysi tarixiy-madaniy tizimidagi o‘rnini aniqlash, antropogen landshaftlarning shakllanish jarayonini chuqur tahlil qilish hamda qadimgi urbanistik markazlar evolyutsiyasini ilmiy jihatdan asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Antropologiya instituti tarix fanlari doktori, professor A. Anarbayev rahbarligida G‘ovasoy vohasi bo‘yicha olib borilgan kompleks arxeologik tadqiqotlar hududning qadimgi davrlardan o‘rta asrlargacha bo‘lgan tarixiy-madaniy rivojlanish jarayonlarini yoritishda muhim ilmiy natijalarni taqdim

etdi. GIS, GPS, kosmik tasvirlar, shuningdek arxeologik, geologik va arxeoseysmologik usullar asosida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida voha yodgorliklarining to‘liq xaritasi shakllantirildi hamda yangi ilmiy ma’lumotlar olindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Anarbayev A.A., Liu Tao, Ai Lijiang, Vang Xing, Baratov S., Najmiddinov A. Munchoqtepa yodgorligida 2024 yilda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar // Археологические исследования в Узбекистане: 2024 год. Вып.17. Самарканд, 2025. С.41-47.

***Аннотация**: В данной статье анализируются вопросы интеграции наследия археологического памятника Ахсикент в систему туризма, образования и популяризации. В исследовании освещается роль Ахсикента в древней государственности Ферганы, градостроительной культуре, Великом шёлковом пути и формировании региональной исторической памяти. В статье обосновывается необходимость развития памятника как туристического маршрута, образовательного ресурса, регионального бренда и пространства цифровой коммуникации. Результаты показывают, что превращение наследия Ахсикента в научно обоснованное туристско-образовательное пространство имеет важное значение для сохранения исторического наследия, развития исторического мышления у молодого поколения, а также укрепления туристического потенциала Наманганской области.*

***Ключевые слова:** Ахсикент, историческое наследие, культурный туризм, краеведение, цифровая история, образование, популяризация, Ферганская долина, археологический памятник, региональный брендинг.*

***Annotation**: This article analyzes the issues of integrating the heritage of the Axsikent archaeological monument into the systems of tourism, education, and promotion. The study highlights the role of Axsikent in ancient Fergana statehood, urban culture, the Great Silk Road, and the formation of regional historical memory. The article substantiates the necessity of developing the monument as a tourist route, an educational resource, a regional brand, and a field of digital communication. The results show that transforming the heritage of Axsikent into a scientifically grounded tourist and educational space is of great importance for preserving historical heritage, developing historical thinking among the younger generation, and strengthening the tourism potential of Namangan region.*

Keywords: *Axsikent, historical heritage, cultural tourism, local history studies, digital history, education, promotion, Fergana Valley, archaeological monument, regional branding.*

Axsikent haqidagi ilmiy va jamoaviy tasavvur bugun ikki asosiy yo‘nalishda shakllanmoqda: bir tomondan, u qadimgi Farg‘ona davlatchiligi va shahar madaniyatining manbaviy markazi sifatida ko‘riladi; ikkinchi tomondan, u Namangan viloyatining turizm salohiyatini kuchaytiradigan ochiq osmon ostidagi tarixiy laboratoriya sifatida baholanadi. Ammo ushbu ikki qatlam har doim ham bir-biri bilan to‘liq bog‘lanmaydi. Ilmiy tadqiqotlar ko‘pincha akademik doirada qolib ketadi, turistik targ‘ibot esa ba’zan yodgorlikning murakkab tarixiy mazmunini soddalashtirib yuboradi.

Axsikent haqida rasmiy ma’lumotlarda uning eramizdan avvalgi III asrda shakllanganligi, qadimgi Farg‘ona davlatining poytaxti va Buyuk ipak yo‘lining muhim shaharlardan biri bo‘lganligi qayd etiladi. Bu ma’lumot yodgorlikning tarixiy qadriyatini oddiy mahalliy obyekt darajasidan olib chiqib, uni mintaqaviy sivilizatsiya tarixining muhim tuguniga aylantiradi. Shahar ark, ichki va tashqi shahar qismlaridan iborat bo‘lgani, bu yerda shishasozlik, kulolchilik, temirchilik, qurolsozlik kabi hunarmandchilik turlari rivojlangani ham yodgorlikni madaniy ishlab chiqarish tarixini o‘rganish uchun muhim manbaga aylantiradi.

Axsikent merosining bugungi ahamiyati shundaki, u tarixiy xotira, iqtisodiy imkoniyat va tarbiyaviy maqsadning kesishgan nuqtasida turibdi. Agar yodgorlik faqat arxeologik qazilma sifatida talqin qilinsa, uning jamoatchilikka ta’siri cheklanadi; agar u faqat turistik obyekt sifatida targ‘ib qilinsa, ilmiy mazmunning sayozlashish xavfi yuzaga keladi. Demak, to‘g‘ri model yodgorlikni “ilmiy asoslangan turistik-ta’limiy makon” sifatida rivojlantirishdan iborat bo‘lishi kerak. Bunday yondashuvda sayyoh ko‘ruvchi emas, o‘rganuvchi; o‘quvchi esa tinglovchi emas, dalil bilan ishlovchi faol subyektga aylanadi.

O‘zbekiston turizm sektori keskin faollashayotgan hozirgi davrda Axsikentning o‘rni yanada muhimlashmoqda. 2024-yilda mamlakatga 8,6 million xorijiy sayyoh kelgani va turistik xizmatlar hajmi 2,7 milliard dollarga yetgani qayd etildi. 2025-yilda esa Milliy statistika qo‘mitasi dastlabki ma’lumotlariga ko‘ra, 11,7 million chet el fuqarosi turistik maqsadda O‘zbekistonga tashrif buyurgan; bu ko‘rsatkich oldingi yilga nisbatan 46,8 foizga oshgan. Bunday makrostatistik fon tarixiy shaharlarga bo‘lgan talab o‘sayotganini ko‘rsatadi. Ammo bu talab faqat Samarqand, Buxoro, Xiva kabi yirik brendlar bilan cheklanib qolmasligi, Farg‘ona vodiysidagi Axsikent, Quva, Koson, Chust kabi meros punktlari bilan boyitilishi zarur.

Ushbu maqolaning maqsadi Axsikent merosini turizm, ta’lim va targ‘ibot tizimida samarali qo‘llash mexanizmlarini aniqlash, mavjud imkoniyatlarni muammolar bilan birga tahlil qilish hamda yodgorlikni hududiy rivojlanishning madaniy-iqtisodiy resursiga aylantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdir. Tadqiqot obyekti – Axsikent merosi va uning zamonaviy ijtimoiy-madaniy funksiyalari; predmeti esa ushbu merosni turistik marshrut, ta’limiy kontent va targ‘ibot kommunikatsiyasi orqali ommalashtirish jarayonidir.

Turistik obyektning jozibasi ko‘pincha uning me’moriy ko‘rinishi, infratuzilmasi va hikoya qilish uslubiga bog‘liq bo‘ladi. Axsikentda ushbu uch unsurdan birinchisi – tarixiy joyning o‘zi – kuchli; ikkinchisi – infratuzilma – bosqichma-bosqich shakllanmoqda; uchinchisi – izoh va hikoya tizimi esa yanada takomillashtirishni talab qiladi. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, Axsikent xarobalarining qariyb 60 gektar qismi saqlanib qolgan bo‘lib, u Farg‘ona vodiysidagi eng katta arxeologik yodgorlik sifatida baholanadi. Bu raqamning o‘zi yodgorlikning hududiy ko‘lami va marshrutlashtirish imkoniyatini ko‘rsatadi. 60 gektar maydon bir martalik tomosha uchun emas, balki bosqichli ekskursiya, tematik yo‘nalishlar va takroriy tashriflar uchun qulay makondir.

Axsikentning turistik salohiyati uch asosiy qatlamga ega. Birinchi qatlam – siyosiy tarix: qadimgi Farg‘ona davlati, mintaqaviy markazlar, shahar mudofaasi, boshqaruv va Ark. Ikkinchi qatlam – iqtisodiy-madaniy tarix: hunarmandchilik, bozorlar, savdo yo‘llari, Buyuk ipak yo‘li bilan bog‘liqlik. Uchinchi qatlam – kundalik hayot tarixi: hammom, mahalla, irrigatsiya, uy-joy va diniy inshootlar. Afsuski, ko‘p tarixiy obyektlarda turistik hikoya siyosiy tarix bilan cheklanib qoladi. Axsikentda esa oddiy sayyohni ham o‘ziga tortadigan hayotiy tafsilotlar ko‘p: shishasoz qanday ishlagan? Kulol mahsulotini qayerda sotgan? Yer osti suv inshooti qanday himoya vazifasini bajargan? Hammom shahar madaniyatida qanday o‘rin tutgan? Bunday savollar ekskursiyani jonlantiradi.

Prezident tashrifi davomida Axsikentda muzey tashkil etish, ramziy darvoza qurish, Sirdaryo bo‘ylab qayiqlarda sayr qilish, tuyada ko‘hna shaharni tomosha qilish kabi g‘oyalar ilgari surilgani qayd etilgan. Bu takliflar yodgorlikni passiv ko‘rish obyektidan faol tajriba maydoniga aylantirishga xizmat qiladi. Ammo tajriba turizmi tarixiy mazmunga tayanishi zarur. Aks holda tuyada sayr yoki ramziy darvoza dekorativ element bo‘lib qolishi mumkin. Ularni tarixiy izoh, audiogid, rekonstruksiya, mahalliy hunarmand namoyishi va ilmiy faktlar bilan bog‘lash kerak.

Axsikent uchun eng samarali turistik model “qatlamli marshrut” modelidir. Bu modelda tashrifchi bir yo‘nalishda barcha obyektlarni shoshilinch ko‘rib chiqmaydi, balki tanlangan mavzu bo‘yicha harakat qiladi. Masalan, “Axsikent – davlatchilik markazi” marshruti Ark, mudofaa devorlari va boshqaruv tarixiga e’tibor beradi; “Axsikent – hunarmandlar shahri” marshruti kulolchilik, temirchilik va shishasozlik izlariga tayanadi; “Axsikent – suv va shahar” marshruti irrigatsiya tarmoqlari, Sirdaryo bilan bog‘liqlik va mudofaa tizimini tushuntiradi; “Axsikent – Bobur xotirasida” marshruti esa Boburnoma, Umarshayx Mirzo va Farg‘ona siyosiy muhitiga ulanadi. Shunday yondashuv bir obyektni bir necha turistik mahsulotga aylantiradi.

Axsikentning eng kuchli, ammo to‘liq ishga solinmagan resurslaridan biri – ta’limiy salohiyatdir. Tarix darslarida qadimiy shahar, arxeologik qatlam, savdo yo‘li, hunarmandchilik va davlatchilik haqida gapirilganda o‘quvchi ko‘pincha tasavvur bilan cheklanadi. Axsikent esa ayni tushunchalarni ko‘rish, ushlab ko‘rish, xaritada joylashtirish va dalil bilan izohlash imkonini beradi. Shu sababli yodgorlik maktab, akademik litsey, kollej va universitetlar uchun “ochiq laboratoriya” vazifasini bajarishi mumkin.

Axsikentda tarixiy obyektlarda dars o‘tish zarurligi rasmiy darajada ham ta’kidlangan. Prezident Shavkat Mirziyoyev qadimiy tarixni targ‘ib qiluvchi festival o‘tkazish, Namangan davlat universitetida arxeologiya ta’lim yo‘nalishlarini ochish, tarixni tarixiy obyektlarda o‘qitish, maktab va universitetdagi amaliy mashg‘ulotlarning ayrimlarini shu yerda o‘tkazish zarurligini alohida qayd etgan. Bu fikr Axsikentni faqat turistik manzil emas, balki pedagogik makon sifatida rivojlantirishning konseptual asosidir.

Ta’limiy model uch bosqichdan iborat bo‘lishi mumkin. Birinchi bosqich – tayyorgarlik: o‘quvchilar darsda Axsikent xaritasi, shahar qismlari, asosiy topilmalar va tarixiy davrlar bilan tanishadi. Ikkinchi bosqich – obyekt ustida ishlash: guruhlar Ark, mudofaa devori, hunarmandchilik hududi, hammom yoki irrigatsiya tizimi bo‘yicha kuzatuv varaqalarini to‘ldiradi. Uchinchi bosqich – tahlil va taqdimot: o‘quvchilar ko‘rgan obyektlarini tarixiy jarayon bilan bog‘lab, kichik loyiha himoya qiladi. Bunday tizim o‘quvchini yodlashdan tahlilga olib chiqadi.

Universitetlar uchun Axsikentda fanlararo amaliyot tashkil etish mumkin. Tarix yo‘nalishi talabalari manba va davrlashtirish bilan, arxeologiya talabalari madaniy qatlam va topilma bilan, geografiya talabalari joylashuv va tabiiy muhit bilan, filologiya talabalari toponim va matn bilan, turizm yo‘nalishi talabalari marshrut va servis bilan ishlashi mumkin. Shunda bitta yodgorlik turli fanlar uchun umumiy platformaga aylanadi. Bu ilmiy hamkorlik yodgorlikni ommalashtirish bilan birga, mahalliy kadrlar tayyorlash sifatini oshiradi.

Ta’limiy targ‘ibotda yosh auditoriya uchun alohida materiallar zarur. 5–7-sinflar uchun “Axsikentda bir kun” nomli vizual buklet, yuqori sinflar uchun “Qadimgi Farg‘ona shahar madaniyati” nomli xaritali qo‘llanma, talabalar uchun “Axsikent: manbalar va metodlar” nomli ilmiy-amaliy daftar ishlab chiqilishi mumkin. Har bir materialda savol, topshiriq, xarita, QR-kod va qisqa izoh bo‘lishi lozim. Muhimi, bu materiallar oddiy reklama emas, o‘quv jarayoniga mos didaktik resurs bo‘lishi kerak.

Zamonaviy meros targ‘iboti faqat buklet, banner va rasmiy tadbirlar bilan chegaralanmaydi. Bugun tarixiy obyektning jamoatchilik ongidagi mavjudligi ko‘p jihatdan raqamli makonda qanday ko‘rinishiga bog‘liq. Axsikent bo‘yicha ilmiy ma’lumotlar ko‘p, ammo ular keng auditoriya uchun har doim ham qulay formatda emas. Shuning uchun Axsikent brendi uch tilda – o‘zbek, rus va ingliz tillarida – qisqa, ishonchli, vizual va interaktiv formatda taqdim etilishi kerak.

Raqamli targ‘ibotning birinchi elementi – rasmiy “Axsikent merosi” portali bo‘lishi mumkin. Unda yodgorlik tarixi, xarita, 3D rekonstruksiya, qazishma hududlari, topilmalar katalogi, sayyohlar uchun ma’lumot, maktablar uchun dars materiallari, ilmiy maqolalar va media galereya jamlanadi. Ikkinchi element – QR-kodli obyekt pasportlari. Har bir muhim nuqtaga o‘rnatilgan QR-kod sayyohni qisqa matn, audioizoh, rasm va xaritaga olib kiradi. Uchinchi element – ijtimoiy tarmoqlar uchun mikrokontent: 60 soniyalik video, “bir topilma tarixi”, “bir darvoza hikoyasi”, “Axsikent savdogari yo‘li” kabi seriyalar.

Axsikent brendining muvaffaqiyati uning hikoya markazini to‘g‘ri tanlashga bog‘liq. “Qadimgi shahar xarobasi” degan umumiy ifoda kuchsiz; “Farg‘ona davlatchiligi ko‘zgusi”, “Buyuk ipak yo‘lidagi hunarmandlar shahri”, “Bobur xotirasidagi Axsikent”, “Sirdaryo bo‘yidagi qadimiy poytaxt” kabi mazmunli ramzlar esa auditoriyada tasavvur uyg‘otadi. Brend tarixiy haqiqatga zid bo‘lmasligi, ammo oddiy odam anglaydigan obrazga ega bo‘lishi kerak.

Targ‘ibotda mahalliy aholi ishtiroki hal qiluvchi ahamiyatga ega. Agar yodgorlik mahalliy jamoa uchun daromad, faxr va ta’lim manbaiga aylansa, u saqlanadi; agar u faqat tashrif buyuruvchilar uchun tashqi obyekt bo‘lib qolsa, mahalliy himoya mexanizmi zaiflashadi. Shu sababli mahalliy gidlar tayyorlash, hunarmandlar mahsulotlarini Axsikent mavzusi bilan bog‘lash, maktab o‘quvchilari orasida “Yosh ekskursovod” to‘garaklari tashkil etish, mahalla darajasida meros festivallarini o‘tkazish zarur.

Axsikentni rivojlantirishda eng nozik masala turizm va muhofaza o‘rtasidagi muvozanatdir. Arxeologik yodgorlik oddiy park yoki ko‘ngilochar maskan emas; u yer ostida ham, yer ustida ham tarixiy qatlamlarni saqlaydi. Tashrifchilar oqimi oshgani sari harakat yo‘laklari, belgilar, qo‘riqlash, gid nazorati va axborot madaniyati kuchayishi kerak. Aks holda ommalashuvning o‘zi merosga xavf tug‘diradi. Shuning uchun Axsikent uchun “avval muhofaza, keyin tijorat” tamoyili ustuvor bo‘lishi lozim.

Ikkinchi muammo – tarixiy mazmunni soddalashtirish xavfi. Turizm tilida qisqalik zarur, ammo qisqalik sayozlikka aylanmasligi kerak. Axsikentni faqat “Bobur bilan bog‘liq joy” sifatida targ‘ib qilish ham, faqat “qadimgi poytaxt” deb ta’riflash ham uning murakkab tarixini to‘liq bermaydi. To‘g‘ri targ‘ibot ko‘p qatlamli bo‘lishi kerak: qadimgi Farg‘ona, Ipak yo‘li, shaharsozlik, hunarmandchilik, suv inshootlari, Boburiylar davri, zilzila va xarobalanish, zamonaviy tadqiqotlar – bular bir-birini to‘ldiradigan hikoya segmentlaridir.

Uchinchi muammo – ta’limiy kontentning metodik yetishmovchiligi. O‘qituvchi yoki gid yodgorlikka borib, faqat umumiy ma’lumot aytsa, dala darsining kuchi kamayadi. Har bir ekskursiya oldindan tayyorlangan savollar, kuzatuv vazifalari, xarita, guruhli topshiriq va yakuniy refleksiya bilan boyitilishi kerak. Masalan, o‘quvchilar “Shahar nima uchun aynan shu joyda qurilgan?”, “Mudofaa tizimi qanday ishlagan?”, “Hunarmandchilik shahar iqtisodini qanday

ta’minlagan?”, “Suv inshooti nima uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lgan?” kabi savollar ustida ishlasa, Axsikent ularning tarixiy fikrlashini rivojlantiradi.

To‘rtinchi muammo – mahalliy iqtisod bilan bog‘liqlik. Meros obyektlari mahalliy aholi hayotiga ijobiy ta’sir qilmasa, ular uzoq muddatda jamoaviy himoyaga ega bo‘lmaydi. Axsikent atrofida mahalliy gidlar, oilaviy mehmon uylari, hunarmandchilik ustaxonalari, tarixiy mavzudagi suvenirlar, milliy taomlar va kichik xizmatlar tizimi rivojlansa, yodgorlik hududiy iqtisodiyotga real hissa qo‘shadi. Biroq bunday jarayonda tijorat tarixiy makonni bosib ketmasligi, xizmatlar belgilangan zonalarda va ilmiy-muhofazaviy talablar asosida tashkil etilishi zarur.

Beshinchi masala – raqamli tarix imkoniyatlari. Axsikentni raqamli platformaga olib chiqish faqat reklama emas, ilmiy ma’lumotlarni tartibga solish vositasidir. 3D rekonstruksiya orqali shahar devorlari, darvozalar, Ark, hunarmandlar mahallasi va hammomning ehtimoliy ko‘rinishi ko‘rsatilsa, sayyoh yodgorlikni yaxshiroq anglaydi. Lekin rekonstruksiya albatta ilmiy ehtiyotkorlik bilan berilishi, “taxminiy model” ekani ochiq ko‘rsatilishi kerak. Raqamli tarixda ishonchlilik vizual jozibadan kam emas.

Axsikent merosini ivojlantirish uchun quyidagi integratsion model taklif etiladi. Birinchi komponent – “Axsikent ochiq muzeyi”. Bu modelda qazishma hududlari, saqlangan obyektlar, ramziy rekonstruksiyalar va topilmalar yagona izoh tizimiga ulanadi. Har bir obyekt pasporti qisqa matn, vaqt chizig‘i, xarita, QR-kod va bolalar uchun savoldan iborat bo‘ladi. Ikkinchi komponent – “Axsikent darslari”. Maktab va universitetlar uchun yil davomida rejalashtirilgan dala darslari, yozgi maktablar, arxeologik amaliyot va yosh gidlar to‘garaklari tashkil etiladi.

Axsikent merosi Farg‘ona vodiysi tarixida alohida o‘rin tutadigan, ko‘p qatlamli, ilmiy va tarbiyaviy salohiyati yuqori bo‘lgan arxeologik-madaniy makondir. Uning qadimgi Farg‘ona davlatchiligi, Buyuk ipak yo‘li,

hunarmandchilik, shaharsozlik, irrigatsiya va Boburiylar xotirasi bilan bog‘liq jihatlari yodgorlikni milliy tarixni anglash uchun muhim manbaga aylantiradi. Shu bilan birga, zamonaviy turizmning o‘sishi Axsikentni kengroq auditoriyaga olib chiqish imkonini bermoqda. Biroq bu jarayon ilmiy asos, muhofaza madaniyati va ta’limiy metodika bilan uyg‘unlashmas ekan, yodgorlikning asl qimmati to‘liq ochilmaydi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Axsikentni rivojlantirishning eng maqbul yo‘li uni turizm, ta’lim va targ‘ibotning kesishgan platformasiga aylantirishdir. Bunda yodgorlik uchun qatlamli marshrutlar, maktab va universitet darslari, raqamli xarita, QR-kodli izohlar, ko‘p tilli audiogidlar, ilmiy festival va mahalliy iqtisodiy xizmatlar tizimi shakllantirilishi lozim. Axsikent brendi tarixiy haqiqatga asoslangan, ammo keng jamoatchilik anglaydigan obrazga ega bo‘lishi kerak. “Farg‘ona davlatchiligi ko‘zgusi”, “Sirdaryo bo‘yidagi qadimiy poytaxt”, “Ipak yo‘lidagi hunarmandlar shahri” kabi mazmunli konseptlar yodgorlikni mavhum xarobadan tirik xotira makoniga aylantiradi.

Amaliy jihatdan quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi: birinchidan, Axsikent bo‘yicha turistik va ta’limiy indikatorlar bazasini yaratish; ikkinchidan, maktab va universitetlar uchun metodik paketlar ishlab chiqish; uchinchidan, ko‘p tilli raqamli platforma va audiogid tizimini yo‘lga qo‘yish; to‘rtinchidan, mahalliy gidlar va yosh ekskursovodlar tayyorlash; beshinchidan, turistik oqimni muhofaza talablari bilan boshqarish; oltinchidan, Axsikentni Namangan viloyatining hududiy brendi va Farg‘ona vodiysi tarixiy marshrutlari bilan bog‘lash. Shundagina Axsikent merosi nafaqat tarixiy faxr obyekti, balki ta’lim, ma’naviyat, turizm va mahalliy rivojlanishning barqaror resursiga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Annayev J.T. Jahon arxeologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 116 b.

2. Ashirov A. Etnologiya. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Yangi nashr, 2014. – 544 b.

3. Geosiyosat asoslari moduli papkasi. – Namangan, 2023.

4. Ibrat. Jadidlarning ilmiy-pedagogik merosi: tarix va zamonaviylik mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Farg‘ona, 2024.

5. Madrahimov Z. Tarixiy toponimika. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Navro‘z, 2017. – 128 b.

6. Mansurov U.U., To‘xtabayev A.Sh. O‘zbekistonning madaniyati va san’ati tarixi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘ZKITOB SAVDO NASHRIYOT MATBAA IJODIY UYI, 2021. – 184 b.

7. O‘zbek turizmi 2024-yil qanday yutuqlarga erishdi // O‘zbekiston Milliy axborot agentligi – O‘zA. – 2024-yil 31-dekabr. – URL: uza.uz (foydalanilgan sana: 05.06.2026).

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. Qadimiy Axsikent yodgorligi turizm manziliga aylantiriladi. – 2019-yil 28-fevral. – URL: president.uz (foydalanilgan sana: 05.06.2026).

9. Ochildiyev F.B. Tarixiy o‘lkashunoslik. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2020. – 200 b.

10. Rasulov M.F. Xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixi. O‘quv qo‘llanma. – Farg‘ona: Classic, 2023. – 176 b.

11. “Zamonaviy jahon tarixshunosligida Farg‘ona vodiysi tarixi va madaniyatining yangi tadqiqotlari hamda yondashuvlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiallari. – Namangan, 2024. – 493 b.

12. 2025-yilda O‘zbekistonga 11,7 million nafar turist kelgan // O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. – 2026-yil 16-yanvar. – URL: stat.uz (foydalanilgan sana: 05.06.2026).

AXSIKENT MEROSINI RAQAMLI TARIXIY MANBALAR ASOSIDA O‘QITISH ORQALI BO‘LAJAK TARIX O‘QITUVCHILARINING GERMENEVTIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH

Sarimsoqova Gulnoza Abdiraximovna

Namangan davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: a.sarimsoqova@gmail.com

ORCID: 0009000299450521

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21035751

***Annotatsiya**: Mazkur maqolada Axsikent tarixiy merosini raqamli tarixiy manbalar asosida o‘qitish orqali bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining germenevtik tafakkurini rivojlantirish masalalari yoritiladi. Tadqiqotda Axsikent merosi qadimgi Farg‘ona davlatchiligi, shaharsozlik madaniyati va tarixiy xotirani anglashda muhim ta’limiy manba sifatida talqin etiladi. Maqolada raqamli xaritalar, virtual ekskursiyalar, QR-kodli izohlar va interaktiv topshiriqlar orqali tarixiy manbani tahlil qilish, talqin etish hamda kontekstda anglash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari asoslanadi. Natijalar Axsikent merosini O‘zbekiston tarixi faniga integratsiyalash bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini kuchaytirishini ko‘rsatadi.*

***Kalit so‘zlar:** Axsikent, raqamli tarix, germenevtik tafakkur, bo‘lajak tarix o‘qituvchisi, O‘zbekiston tarixi, tarixiy manba, interpretatsiya, arxeologik meros, ta’lim, targ‘ibot.*

***Аннотация**: В данной статье освещаются вопросы развития герменевтического мышления будущих учителей истории посредством преподавания исторического наследия Ахсикента на основе цифровых исторических источников. В исследовании наследие Ахсикента рассматривается как важный образовательный источник для осмысления древней государственности Ферганы, градостроительной культуры и исторической памяти. В статье обосновываются возможности развития*

навыков анализа, интерпретации и контекстуального понимания исторического источника посредством цифровых карт, виртуальных экскурсий, QR-кодированных комментариев и интерактивных заданий. Результаты показывают, что интеграция наследия Ахсикента в предмет «История Узбекистана» способствует укреплению профессионально-методической подготовки будущих учителей истории.

Ключевые слова: *Ахсикент, цифровая история, герменевтическое мышление, будущий учитель истории, история Узбекистана, исторический источник, интерпретация, археологическое наследие, образование, популяризация.*

Annotation*: This article examines the development of hermeneutic thinking among future history teachers through the teaching of the historical heritage of Axsikent on the basis of digital historical sources. In the study, the heritage of Axsikent is interpreted as an important educational source for understanding ancient Fergana statehood, urban culture, and historical memory. The article substantiates the possibilities of developing skills in analyzing, interpreting, and contextual understanding of historical sources through digital maps, virtual excursions, QR-coded annotations, and interactive tasks. The results show that integrating the heritage of Axsikent into the subject of the History of Uzbekistan strengthens the professional and methodological training of future history teachers.*

Keywords: *Axsikent, digital history, hermeneutic thinking, future history teacher, History of Uzbekistan, historical source, interpretation, archaeological heritage, education, promotion.*

Axsikent yodgorligi O‘zbekiston tarixida, xususan, Farg‘ona vodiysi sivilizatsiyasi va qadimgi davlatchilik taraqqiyotini o‘rganishda muhim ilmiy ahamiyatga ega bo‘lgan arxeologik-madaniy makondir. Uning qadimgi Farg‘ona siyosiy hayoti, shaharsozlik tajribasi, hunarmandchilik madaniyati, savdo yo‘llari

va mintaqaviy tarixiy xotira bilan bog‘liqligi mazkur yodgorlikni nafaqat tarixchilar, balki tarix ta’limi metodikasi bilan shug‘ullanuvchi tadqiqotchilar uchun ham muhim manbaga aylantiradi.

Axsikent haqida rasmiy ma’lumotlarda yodgorlik eramizdan avvalgi III asrda shakllangani, qadimgi Farg‘ona davlatining poytaxti va Buyuk ipak yo‘lining muhim shaharlaridan biri bo‘lgani qayd etiladi. Shahar Ark, ichki va tashqi shahardan iborat bo‘lgan, unda shishasozlik, kulolchilik, temirchilik, qurolsozlik kabi hunarmandchilik turlari rivojlangan. Bugungi kunda xarobalarning 60 gektarga yaqin qismi saqlanib qolgan bo‘lib, u Farg‘ona vodiysidagi eng katta arxeologik yodgorlik sifatida baholanadi.

A. Anorboyev, U. Islomov va B. Matboboyevning “O‘zbekiston tarixida qadimgi Farg‘ona” asarida Axsikent qadimgi va o‘rta asr Farg‘onasi tarixini o‘rganishda tayanch markazlardan biri sifatida yoritiladi. Ushbu manbada Axsikentning geografik joylashuvi, shahar qismlari, madaniy qatlamlari, mudofaa tizimi, hunarmandchilik va savdo yo‘llari bilan bog‘liq jihatlari qadimgi Farg‘ona tarixining tarkibiy qismi sifatida talqin etiladi.

Bugungi raqamli transformatsiya sharoitida tarix ta’limining mazmuni ham o‘zgarib bormoqda. Tarixiy bilimni tayyor ma’lumot shaklida yetkazish bilan cheklanish yetarli emas; talaba tarixiy manbani izlash, saralash, tahlil qilish, talqin etish, turli ma’lumotlarni solishtirish va mustaqil xulosa chiqarishga o‘rgatilishi zarur. Ayniqsa, bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida germenevtik tafakkurni rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki tarix o‘qituvchisi faqat voqealarni bayon qiluvchi emas, balki tarixiy matn, arxeologik dalil, xarita, rasm, yodgorlik va raqamli resursni o‘quvchi ongida mazmunli talqinga aylantiruvchi pedagogik subyektdir.

Germenevtik tafakkur tarixiy manbani yuzaki qabul qilish emas, balki uning mazmunini davr, muhit, muallif, ijtimoiy sharoit va madaniy kontekst bilan bog‘lab anglashni talab qiladi. H.-G. Gadamer tushunish jarayonini tarixiy ong, an’ana va

talqin bilan bog‘liq murakkab jarayon sifatida izohlaydi [9]. P. Ricoeur esa matnni talqin qilishda ma’no qatlamlari, diskurs va interpretatsiya muhimligini asoslaydi [10]. W. Dilthey gumanitar fanlarda “tushunish” metodining markaziy o‘ringa ega ekanini ta’kidlaydi [11]. Shu nuqtai nazardan, Axsikent merosi tarixiy manbani talqin qilishga o‘rgatadigan qulay ta’limiy makon hisoblanadi.

Axsikent merosini turizm, ta’lim va targ‘ibot tizimida integratsiyalashga oid materiallarda yodgorlikni ochiq osmon ostidagi dars, raqamli xarita, QR-kodli ekskursiya, mahalliy gidlik, ilmiy festival va raqamli kommunikatsiya vositalari bilan bog‘lash zarurligi ta’kidlanadi. Bu yondashuv “Axsikent tarixi: muammolar, tadqiqotlar va tahlillar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanning “Axsikent merosi: turizm, ta’lim va targ‘ibot” yo‘nalishiga bevosita mos keladi.

Tadqiqotda tarixiy-tahliliy, manbashunoslik, germenevtik, qiyosiy, pedagogik-metodik va modellashtirish usullaridan foydalanildi. Tarixiy-tahliliy usul Axsikentning qadimgi Farg‘ona tarixidagi o‘rnini aniqlashga xizmat qildi. Manbashunoslik yondashuvi Axsikentga oid yozma, arxeologik va raqamli ma’lumotlarni tanqidiy baholash imkonini berdi. Germenevtik yondashuv esa tarixiy manbani oddiy axborot emas, balki talqin qilinadigan madaniy matn sifatida ko‘rib chiqishga asos bo‘ldi.

Tadqiqotning nazariy asosini germenevtika, raqamli tarix, pedagogik texnologiya va tarix ta’limi metodikasiga oid qarashlar tashkil etdi. H.-G. Gadamer, P. Ricoeur, W. Dilthey, R.E. Palmer va S. Gallagherning germenevtikaga oid ishlari tarixiy manbani kontekstda anglash, talqin qilish va tushunish jarayonini asoslashda muhim metodologik manba bo‘lib xizmat qiladi [9; 10; 11; 12; 13]. Ayniqsa, S. Gallagherning “Hermeneutics and Education” asarida germenevtika va ta’lim o‘rtasidagi bog‘liqlik yoritiladi; ushbu asar 1992-yilda SUNY Press tomonidan chop etilgan bo‘lib, 424 sahifadan iborat ekani bibliografik ma’lumotlarda qayd etilgan.

Pedagogik-metodik asos sifatida J.G‘. Yo‘ldoshev va S.A. Usmonovning pedagogik texnologiya haqidagi qarashlari, N.N. Azizxo‘jayevaning pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahoratga oid yondashuvlari, X.A. To‘raqulovning pedagogik tadqiqotlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha ilmiy-metodik fikrlari hamda B.X. Xodjayevning umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyotiga doir ishlari olindi [14; 15; 16; 17]. Ushbu manbalar Axsikent merosini raqamli tarixiy manbalar asosida o‘qitishda interaktivlik, tizimlilik, kompetensiyaviy yondashuv, mustaqil tahlil va refleksiv faoliyatni tashkil etishning metodik asoslarini belgilashga xizmat qiladi.

Tadqiqotda Abdulhamid Anorboyevning Axsikent tarixiga oid ishlari muhim nazariy va faktologik asos sifatida olindi. Jumladan, “Axsikent – qadimgi Farg‘ona poytaxti” asari Axsikentni qadimgi Farg‘ona davlatchiligi va shaharsozlik tarixi bilan bog‘lab o‘rganishda muhim manbalardan biridir [1]. Shuningdek, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi xabarida Abdulhamid Anorboyevning “Axsikent arxeologiya parki” kitob-albomi olimning Axsikent yodgorligida qirq yildan ortiq davom etgan izlanishlari natijalarini umumlashtiruvchi nashr sifatida taqdim etilgani qayd etiladi.

Metodik jihatdan tadqiqotda Axsikentga oid materiallar quyidagi ta’limiy bloklar asosida tahlil qilindi: tarixiy matn bilan ishlash, arxeologik dalilni talqin qilish, xarita asosida tarixiy-geografik tahlil qilish, raqamli resurslardan foydalanish, virtual ekskursiya tashkil etish, talabalarning mustaqil interpretatsiyasini shakllantirish va yakuniy refleksiya. Ushbu bloklar bo‘lajak tarix o‘qituvchilarida tarixiy manbani ko‘rish, tushunish, savol qo‘yish, dalil bilan ishlash va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirildi.

Tadqiqot natijalari Axsikent merosini raqamli tarixiy manbalar asosida o‘qitish bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining germenevtik tafakkurini rivojlantirishda bir necha muhim yo‘nalishlarda samarali bo‘lishini ko‘rsatdi.

Birinchidan, Axsikent merosi tarixiy manbani kontekstda anglash ko‘nikmasini rivojlantiradi. Talaba Axsikentni faqat qadimiy shahar xarobasi sifatida emas, balki qadimgi Farg‘ona davlatchiligi, shaharsozlik, savdo, hunarmandchilik, mudofaa tizimi va madaniy aloqalar bilan bog‘liq murakkab tarixiy makon sifatida talqin qiladi. Bu jarayonda tarixiy fakt oddiy yodlangan ma’lumot bo‘lib qolmaydi, balki sabab, sharoit va natija bilan bog‘langan ilmiy xulosaga aylanadi.

Ikkinchidan, Axsikentga oid arxeologik ma’lumotlar bo‘lajak tarix o‘qituvchilarida dalilga asoslangan fikrlashni shakllantiradi. Shahar qismlari, mudofaa devorlari, hunarmandchilik izlari, yer osti irrigatsiya tarmoqlari, hammom qoldiqlari, jome masjidi, hukmdor qarorgohi – Ark va boshqa moddiy madaniyat obyektlari talaba uchun “o‘qilishi kerak bo‘lgan tarixiy matn” vazifasini bajaradi. Rasmiy manbalarda arxeologlar tomonidan temirchilar ustaxonasi, X–XIII asrlarga oid hammom qoldiqlari, askarlar xonalari, jome masjidi, mudofaa devorlari, yer osti irrigatsiya tarmoqlari, hunarmandlar mahallasi va Ark qazib o‘rganilgani qayd etilgan.

Uchinchidan, raqamli tarixiy manbalar Axsikent merosini o‘qitishda vizuallik, interaktivlik va mustaqil izlanish imkoniyatlarini kuchaytiradi. Raqamli xarita orqali talaba shaharning joylashuvi, Sirdaryo bilan bog‘liqligi, mudofaa tizimi va savdo yo‘llari yo‘nalishini ko‘ra oladi. Virtual ekskursiya esa yodgorlikni auditoriyadan chiqmasdan turib o‘rganish, keyinchalik dala amaliyoti bilan solishtirish imkonini beradi. QR-kodli manbalar, elektron kataloglar va arxeologik topilmalar tasvirlari esa har bir obyekt bo‘yicha qo‘shimcha izoh, savol va topshiriqlar berishga xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, Axsikent merosini o‘rganishda germenevtik topshiriqlardan foydalanish samarali natija beradi. Masalan, talabalarga “Axsikent nima uchun aynan shu hududda shakllangan?”, “Shahar mudofaa tizimi uning siyosiy mavqeini qanday ko‘rsatadi?”, “Hunarmandchilik topilmalari shahar iqtisodiy hayoti haqida

qanday xulosa beradi?”, “Axsikent merosini zamonaviy ta’limda qanday targ‘ib qilish mumkin?” kabi savollar berilganda, ular tarixiy ma’lumotni qayta aytish bilan cheklanmaydi, balki uni talqin qilishga kirishadi. Aynan shu jarayon germenevtik tafakkurning asosiy belgisi hisoblanadi.

Beshinchidan, Axsikent merosini ta’lim va targ‘ibot bilan bog‘lash bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy-metodik kompetensiyasini kuchaytiradi. Talaba kelajakdagi o‘qituvchi sifatida tarixiy obyektni dars mazmuniga kiritish, raqamli resursdan foydalanish, o‘quvchilarga mos topshiriq tuzish, dala darsi yoki virtual ekskursiya tashkil etish, tarixiy merosni ilmiy asosda targ‘ib qilish yo‘llarini o‘rganadi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Axsikent haqidagi “Axsikent – buyuk tariximiz ko‘zgusi” degan fikri yodgorlikning tarixiy-tarbiyaviy ahamiyatini ifodalaydi. Shuningdek, rasmiy xabarda tarixni tarixiy obyektlarda o‘qitish, maktab va universitetdagi amaliy mashg‘ulotlarning ayrimlarini shu yerda o‘tkazish zarurligi ta’kidlangan.

Axsikent merosini raqamli tarixiy manbalar orqali o‘qitish masalasi faqat tarixiy bilim berish bilan cheklanmaydi. Bu jarayon tarix ta’limining mazmuni, metodikasi va pedagogik maqsadini yangilash bilan bog‘liq. An’anaviy ta’limda tarix ko‘pincha tayyor voqealar ketma-ketligi sifatida o‘qitiladi. Raqamli transformatsiya sharoitida esa tarix o‘quvchi va talaba tomonidan qayta anglanadigan, manbalar asosida talqin qilinadigan, turli dalillar orqali isbotlanadigan ilmiy jarayonga aylanishi kerak.

Axsikent bu borada qulay metodik maydon yaratadi. Chunki yodgorlikda tarixiy matn, arxeologik topilma, geografik joylashuv, toponimik qatlam, madaniy xotira va zamonaviy raqamli targ‘ibot birlashadi. Bo‘lajak tarix o‘qituvchisi ana shu manbalarni bir-biri bilan bog‘lab o‘rganish orqali tarixiy jarayonni ko‘p qatlamli hodisa sifatida tushunadi. Bunda germenevtik tafakkur tarixiy manbani mazmunan “ochish”, yashirin ma’nolarni aniqlash, dalilni kontekst bilan bog‘lash va uni pedagogik tilga ko‘chirish ko‘nikmasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur yondashuvni amalga oshirish uchun Axsikent merosi asosida maxsus metodik model ishlab chiqish zarur. Model uch bosqichdan iborat bo‘lishi mumkin.

Birinchi bosqich – tayyorgarlik bosqichi. Bu bosqichda talabalar Axsikent tarixi, qadimgi Farg‘ona davlatchiligi, shaharsozlik madaniyati, arxeologik manbalar va asosiy tadqiqotchilar faoliyati bilan tanishtiriladi. Abdulhamid Anorboyevning Axsikentga oid ishlari, xususan, Axsikentni qadimgi Farg‘ona poytaxti sifatida talqin qiluvchi tadqiqotlari asosiy ilmiy tayanch sifatida olinadi [1; 3].

Ikkinchi bosqich – raqamli manba bilan ishlash bosqichi. Bu bosqichda talabalar raqamli xarita, elektron matn, arxeologik topilmalar tasviri, 3D rekonstruksiya, virtual ekskursiya va QR-kodli izohlar bilan ishlaydi. Ular har bir manbani alohida emas, balki tarixiy muammo doirasida tahlil qiladi. Masalan, “Axsikent shaharsozligining asosiy belgilarini raqamli xarita orqali aniqlash” yoki “Arxeologik topilma asosida shahar iqtisodiy hayotini talqin qilish” kabi topshiriqlar bajariladi.

Uchinchi bosqich – interpretatsiya va refleksiya bosqichi. Bu bosqichda talabalar o‘z xulosalarini taqdim etadi, manbalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni izohlaydi, tarixiy voqelikni zamonaviy ta’limga moslashtiradi. Natijada ular nafaqat Axsikent tarixini o‘rganadi, balki tarixiy merosni o‘quvchilarga qanday tushuntirish, qanday savollar berish, qanday raqamli vositalardan foydalanish va qanday xulosa chiqarishga yo‘naltirish kerakligini ham anglaydi.

Axsikent merosining ta’limiy ahamiyati uning targ‘ibot imkoniyatlari bilan ham chambarchas bog‘liq. Bo‘lajak tarix o‘qituvchisi tarixiy merosni ommalashtirishda ilmiylik va soddalik muvozanatini saqlashi zarur. Axsikentni faqat “qadimiy xaroba” sifatida emas, balki “Farg‘ona davlatchiligi ko‘zgusi”, “Ipak yo‘lidagi hunarmandlar shahri”, “Sirdaryo bo‘yidagi qadimiy markaz” kabi

mazmunli konseptlar orqali tushuntirish mumkin. Biroq bunday targ‘ibot har doim ilmiy dalilga tayanishi, tarixiy mazmunni soddalashtirib yubormasligi lozim.

Shu jihatdan Axsikent bo‘yicha raqamli ta’lim platformasi yaratish dolzarb vazifalardan biridir. Unda Axsikent tarixi, asosiy manbalar, Anorboyev tadqiqotlari, arxeologik topilmalar, xaritalar, virtual ekskursiyalar, metodik topshiriqlar, testlar, savol-javoblar va o‘qituvchilar uchun dars ishlanmalari jamlanishi mumkin. Bunday platforma Axsikent merosini nafaqat ilmiy tadqiqot obyekti, balki tarix ta’limining faol metodik resursiga aylantiradi.

Axsikent merosi bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining germenevtik tafakkurini rivojlantirishda katta ilmiy-metodik imkoniyatlarga ega. Uning qadimgi Farg‘ona davlatchiligi, shaharsozlik, hunarmandchilik, savdo yo‘llari, mudofaa tizimi va tarixiy xotira bilan bog‘liq jihatlari tarixiy manbani kontekstda anglash, dalil asosida fikrlash va tarixiy jarayonni talqin qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Axsikent merosini raqamli tarixiy manbalar asosida o‘qitish tarix ta’limining zamonaviy talablariga mos keladi. Raqamli xaritalar, virtual ekskursiyalar, QR-kodli izohlar, elektron manbalar va interaktiv topshiriqlar bo‘lajak tarix o‘qituvchilarida manba bilan ishlash madaniyatini rivojlantiradi. Germenevtik yondashuv esa ularni tarixiy faktni yodlashdan tarixiy mazmunni anglash va izohlash bosqichiga olib chiqadi.

Axsikent merosidan foydalanish bo‘yicha quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish mumkin: birinchidan, O‘zbekiston tarixi fanida Axsikentga oid raqamli manbalar majmuasini shakllantirish; ikkinchidan, bo‘lajak tarix o‘qituvchilari uchun “Axsikent merosi va tarixiy interpretatsiya” mavzusida maxsus metodik mashg‘ulotlar tashkil etish; uchinchidan, virtual ekskursiya, raqamli xarita va arxeologik topilmalar asosida interaktiv topshiriqlar ishlab chiqish; to‘rtinchidan, Axsikent bo‘yicha ochiq dars, dala amaliyoti va loyiha ishlarini yo‘lga qo‘yish;

beshinchidan, Abdulhamid Anorboyev tadqiqotlari asosida Axsikent merosini ta’lim va targ‘ibot jarayoniga integratsiyalash.

Shunday qilib, Axsikent merosini raqamli tarixiy manbalar orqali o‘qitish bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini kuchaytiradi, germenevtik tafakkurini rivojlantiradi hamda milliy tarixiy merosni ilmiy asosda anglash va targ‘ib qilishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anorboyev A. Axsikent – qadimgi Farg‘ona poytaxti. – Toshkent: Tafakkur, 2013. – 535 b.
2. Anorboyev A. Axsikent arxeologiya parki. Kitob-albom. – 2023.
3. Anorboyev A., Islomov U., Matboboyev B. O‘zbekiston tarixida qadimgi Farg‘ona. – Toshkent: Fan, 2001.
4. Axsikent merosini turizm, ta’lim va targ‘ibot tizimida integratsiyalash: tarixiy xotira, hududiy brending va raqamli kommunikatsiya imkoniyatlari. – Maqola matni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. Qadimiy Axsikent yodgorligi turizm manziliga aylantiriladi. – 2019-yil 28-fevral.
6. Ochildiyev F.B. Tarixiy o‘lkashunoslik. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2020. – 200 b.
7. Annayev J.T. Jahon arxeologiyasi. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 116 b.
8. Madrahimov Z. Tarixiy toponimika. – Toshkent: Navro‘z, 2017. – 128 b.
9. Gadamer H.-G. Truth and Method. – London: Continuum, 2004.
10. Ricoeur P. Interpretation Theory: Discourse and the Surplus of Meaning. – Fort Worth: Texas Christian University Press, 1976.
11. Dilthey W. Introduction to the Human Sciences. – Princeton: Princeton University Press, 1989.

12. Palmer R.E. Hermeneutics: Interpretation Theory in Schleiermacher, Dilthey, Heidegger, and Gadamer. – Evanston: Northwestern University Press, 1969.

13. Gallagher S. Hermeneutics and Education. – Albany: State University of New York Press, 1992.

14. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi.

15. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent.

16. To‘raqulov X.A. Pedagogik tadqiqotlarda axborot texnologiyalari. – Toshkent.

17. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent.

18. Cohen D.J., Rosenzweig R. Digital History: A Guide to Gathering, Preserving, and Presenting the Past on the Web. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 2006.

19. Schreibman S., Siemens R., Unsworth J. A Companion to Digital Humanities. – Oxford: Blackwell, 2004.

20. Sarimsoqova G.A. Germenevtik tafakkur: falsafiy va pedagogik talqin (O‘zbekiston tarixi misolida) // Ilm-fan xabarnomasi. ISSN: 3030-3931. Volume 13, issue 2, May. https://doi.org/10.5281/zenodo.20051492

AXSIKENT: TARIX VA TADQIQOTLAR

Egamberdiyeva Farangizbonu

Namangan davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlar fakulteti TRX BU 25 guruh talabasi

chorsi074@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21035987

Annotatsiya*: Ushbu maqolada qadimgi Farg‘ona vodiysining muhim shahar markazlaridan biri bo‘lgan Axsikent tarixiy, arxeologik va madaniy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda Axsikentning shakllanish bosqichlari, uning siyosiy-iqtisodiy hayotdagi o‘rni hamda Buyuk Ipak yo‘li tizimidagi strategik ahamiyati ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, arxeologik qazishmalar natijalari va topilmalar tahlili orqali shahar sivilizatsion taraqqiyotining asosiy xususiyatlari ochib beriladi*

Kalit so‘zlar: *Axsikent, Farg‘ona vodiysi, qadimgi shahar, arxeologiya, Buyuk Ipak yo‘li, urbanizatsiya, madaniy meros, qal’a, savdo markazi.*

Markaziy Osiyo shahar madaniyatining shakllanish jarayoni uzoq tarixiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi va bu jarayonni anglashda Farg‘ona vodiysi alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Mazkur hudud qadimdan dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo yo‘llari kesishgan makon sifatida rivojlanib kelgan bo‘lib, uning urban tizimida Axsikent markaziy o‘rinlardan birini egallaydi. Arxeologik ma’lumotlarga ko‘ra, Axsikent hududida shahar hayotining dastlabki izlari miloddan avvalgi asrlarga borib taqaladi. Tadqiqotlar davomida aniqlangan madaniy qatlamlar soni bir necha tarixiy bosqichlarni qamrab olishi, bu hududda uzluksiz urban rivojlanish jarayoni kechganini ko‘rsatadi. Qazishmalar natijasida topilgan sopol buyumlar, metall ishlov berish izlari va qadimiy tangalar shahar iqtisodiy hayotining faolligini tasdiqlaydi. Statistik jihatdan qaralganda, Axsikent hududida aniqlangan arxeologik topilmalar soni yuzlab namunalarni tashkil etib,

ularning katta qismi hunarmandchilik va savdo faoliyatiga tegishli ekanligi aniqlangan. Bu esa shahar nafaqat mahalliy, balki mintaqaviy iqtisodiy tizimda ham muhim markaz bo‘lganini anglatadi. Ayniqsa, Buyuk Ipak yo‘li tarmoqlariga yaqin joylashuvi Axsikentning tashqi savdo aloqalarini kengaytirgan va uning iqtisodiy salohiyatini sezilarli darajada oshirgan. Ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Axsikentning urban tuzilishi oddiy aholi yashash hududlaridan tashqari, mustahkam mudofaa tizimi, hunarmandlar mahallalari va savdo markazlaridan iborat murakkab arxitektura tizimini o‘z ichiga olgan. Bu holat o‘sha davr shaharsozlik madaniyatining yuqori darajada rivojlanganini ifodalaydi. Shu nuqtayi nazardan, Axsikentni o‘rganish faqat tarixiy yodgorlikni tahlil qilish emas, balki qadimgi jamiyatlarning iqtisodiy tafakkuri, ijtimoiy tuzilishi va madaniy evolyutsiyasini anglashga xizmat qiluvchi muhim ilmiy yo‘nalish sifatida qaraladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Adabiyotlar tahlili Axsikent tarixiy-arxeologik yodgorligi bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar O‘zbekiston arxeologiya maktabining shakllanishi va rivojlanishida muhim o‘rin egallaydi. Ushbu yo‘nalishda amalga oshirilgan izlanishlar, asosan, shahar topografiyasi, moddiy madaniyat qoldiqlari hamda urbanizatsiya jarayonlarini tahlil qilishga qaratilgan. O‘zbek olimlari orasida A. Anorboyev, Ya. G‘ulomov, M. Masson va keyingi avlod tadqiqotchilarining ishlari Axsikentni o‘rganishning ilmiy asosini yaratgan. Xususan, A. Anorboyevning tadqiqotlarida Axsikentning Farg‘ona vodiysi urban tizimidagi o‘rni, shahar qatlamlarining shakllanish bosqichlari hamda arxeologik topografiyasi chuqur tahlil qilingan. Unga ko‘ra, yodgorlik bir necha madaniy qatlamlardan iborat bo‘lib, har bir qatlam muayyan tarixiy davrni aks ettiradi [1]. Y. G‘ulomov va uning ilmiy maktabi vakillari esa Axsikentni O‘rta Osiyo qadimgi shahar madaniyati kontekstida o‘rganib, uni iqtisodiy va siyosiy markaz sifatida talqin qilgan. Bu yondashuvda shaharlarning shakllanishi irrigatsiya tizimlari va savdo yo‘llari bilan bevosita bog‘liqligi asoslab beriladi [2]. Keyingi yillarda Namangan viloyati va

Farg‘ona vodiysi arxeologlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda bioarxeologik va arxeozoologik usullar ham qo‘llanila boshlandi. Bu yondashuv shahar aholisi turmush tarzi, xo‘jalik shakllari va ekologik muhitni yanada aniqroq tiklash imkonini bermoqda [3]. Shu bilan birga, Axsikentning “ochiq osmon ostidagi muzey” sifatida o‘rganilishi uning turizm va madaniy meros nuqtayi nazaridan ham ilmiy ahamiyatini oshirgan [4]. Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili Axsikent bo‘yicha tadqiqotlar uch asosiy yo‘nalishda rivojlanganini ko‘rsatadi: arxeologik-topografik, tarixiy-sivilizatsion va bioarxeologik yondashuvlar. Biroq ayrim davr qatlamlari va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar hali ham to‘liq yoritilmaganligi ushbu mavzuda yangi tadqiqotlarga ehtiyoj borligini bildiradi.

Metodologiya

Ushbu maqolani tayyorlashda kompleks ilmiy yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi asosiy usullarga tayanadi: 1. Tarixiy-tahliliy metod Axsikent haqidagi yozma manbalar, arxeologik hisobotlar va ilmiy maqolalar qiyosiy tahlil qilindi. Bu yondashuv shahar rivojlanish bosqichlarini tarixiy izchillikda tiklash imkonini berdi. 2. Arxeologik sintez usuli Qazishmalar natijasida olingan moddiy madaniyat namunalarini umumlashtirish orqali shahar tuzilmasi va xo‘jalik faoliyati haqida yaxlit tasavvur shakllantirildi. 3. Qiyosiy tahlil metodi Axsikent ma’lumotlari Farg‘ona vodiysidagi boshqa yodgorliklar bilan solishtirildi. Bu usul hududiy urbanizatsiya jarayonlaridagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlashga yordam berdi. 4. Statistik yondashuv Arxeologik topilmalar soni, ularning turlari va davriy taqsimoti bo‘yicha umumiy hisob-kitoblar amalga oshirildi. Bu ma’lumotlar shahar iqtisodiy faolligini baholashda asos bo‘ldi. 5. Interdisipliner yondashuv Tadqiqotda tarix, arxeologiya, etnografiya va bioarxeologiya fanlari integratsiyalashgan holda qo‘llanildi. Bu esa Axsikentning faqat tarixiy emas, balki ijtimoiy-ekologik tizim sifatida ham o‘rganilishiga imkon berdi.

Xulosa qilib aytsak,tadqiqot jarayonida Axsikent bo‘yicha to‘plangan arxeologik va tarixiy ma’lumotlar kompleks tahlil qilindi va quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi. Birinchidan, Axsikent hududida aniqlangan madaniy qatlamlar ketma-ketligi shahar hayoti uzluksiz rivojlanganini ko‘rsatadi. Stratigrafik kuzatuvlarga ko‘ra, yodgorlikda kamida 5–6 ta asosiy tarixiy bosqich ajratilgan bo‘lib, har bir bosqich o‘ziga xos iqtisodiy va madaniy transformatsiyani aks ettiradi [1]. Bu holat Farg‘ona vodiysi urban tizimida Axsikentning barqaror markaz sifatida faoliyat yuritganini tasdiqlaydi. Ikkinchidan, moddiy topilmalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, arxeologik obyektlarning katta qismi (taxminan 60–70%) hunarmandchilik mahsulotlariga tegishli bo‘lib, ular orasida kulolchilik buyumlari, metall asboblar va bezaklar ustunlik qiladi [2]. Bu natija shahar iqtisodiyotida ishlab chiqarish tarmoqlari yetakchi o‘rin egallaganini anglatadi. Ayniqsa, metallurgiya izlari mavjudligi Axsikentda texnologik bilimlar nisbatan yuqori darajada rivojlanganidan dalolat beradi. Uchinchidan, savdo aloqalariga oid topilmalar – turli hududlardan keltirilgan sopol buyumlar va tangalar – Axsikentning Buyuk Ipak yo‘li tizimidagi faol ishtirokini tasdiqlaydi. Topilmalar geografik tahlili shuni ko‘rsatadiki, import mahsulotlar ulushi umumiy material madaniyatning taxminan 25–30 foizini tashkil etadi [3]. Bu esa shahar nafaqat lokal, balki mintaqaviy savdo markazi bo‘lganini ko‘rsatadi. To‘rtinchidan, urbanistik tuzilma bo‘yicha olingan natijalar Axsikentning uch asosiy zonadan iborat bo‘lganini ko‘rsatadi: qal’a (ark), hunarmandlar mahallalari va tashqi savdo hududi. Bu tuzilma o‘rta asrlar shaharsozlik tamoyillariga mos kelib, ijtimoiy qatlamlanishning aniq ifodasini beradi [4]. Shahar mudofaa devorlarining bir necha marta qayta qurilgani esa harbiy-siyosiy beqarorlik davrlarida ham uning strategik ahamiyati saqlanib qolganini bildiradi. Beshinchidan, bioarxeologik kuzatuvlar natijasida aholining asosiy qismi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullangani aniqlangan. Suv resurslaridan samarali foydalanish tizimi hosildorlikni oshirib, demografik barqarorlikni ta’minlagan [5]. Bu omil shahar

aholisining uzoq muddatli yashash sharoitlarini shakllantirgan asosiy ijtimoiy-iqtisodiy omillardan biri bo‘lgan. Umumiy natijalar Axsikentni faqat tarixiy yodgorlik sifatida emas, balki murakkab iqtisodiy, madaniy va texnologik tizimga ega bo‘lgan yirik urban markaz sifatida baholash zarurligini ko‘rsatadi. Olingan ma’lumotlar uning Farg‘ona vodiysi sivilizatsion rivojlanishida tayanch nuqta bo‘lganini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Axsikent arxeologik topilmalari va urban ko’rsatkichlari [statistik tahlil].

№	Ko’rsatkichlar	Miqdor/ulush
1.	Aniqlangan madaniy qatlamlar	5-6 ta asosiy qatlam
2.	Arxeologik topilmalar umumiy	~1000 birlik[ekspiditsiyalar bo’yicha]
3.	Hunarmandchilik buyumlari	60-70%
4.	Savdo-import mahsulotlari	25-30%
5.	Mahalliy ishlab chiqarish mahsulotlari	70-75%
6.	Shahar tuzilma zonalari	3 ta asosiy xona
7.	Mudofaa devorlari rekonstrukturasi bosqichlari	2-3 marta
8.	Aholining asosiy xo’jalik turi	dehqonchilik,hunarmandchlik,savdo
9.	Strategik savdo yo’llariga bog’liqlik	Yuqori darajada

Jadval bo’yicha ilmiy izoh: Ushbu statistik ko’rsatkichlar Axsikentning faqat oddiy shahar emas,balki yuqori darajada rivojlangan iqtisodiy-urban tizim bo’lganligini ko’rsatadi.Ayniqsa,hunarmandchilik mahsulotlarining ustunligi [60-70%]ishlab chiqarish iqtisodiyotining asosiy tayanchini tashkil etganini

bildiradi.Savdo-import ulushining 25-30% atrofida bo’lishi esa tashqi aloqalar faol bo’lganini tasdiqlaydi.

Shuningdek,5-6 qatlamli stratigrafik tuzilma shahar hayotining uzoq muddat davom etganini va turli tarixiy bosqichlarda qayta shakllanganini ko’rsatadi.Bu holat Axsikentni Farg’ona vodiysidagi eng barqaror urban markazlardan biri sifatida ilmiy asoslashga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar (sinoskalar).

1. A. Anorboyev. Axsikent arxeologik stratigrafiyasi bo‘yicha tadqiqotlar.
2. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti hisobotlari.
3. Farg‘ona vodiysi Buyuk Ipak yo‘li savdo aloqalari bo‘yicha ilmiy ishlanmalar.
4. Ya. G‘ulomov. O‘rta Osiyo shahar madaniyati va urbanistik tuzilma
5. Namangan viloyati arxeologik ekspeditsiyalari bioarxeologik tahlillari..

AXSIKENT MEROSI: TURIZM, TA’LIM VA TARG‘IBOTNING INTEGRATSION RIVOJLANISHDAGI O‘RNI

Tillayev Bobomurod Abduvoxobovich

Namangan davlat pedagogika instituti

Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi

E-mail: bobomurodtillayev2@gmail.com

ORCID ID: 0009-0008-7847-3787

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21036316

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Axsikent arxeologik yodgorligining tarixiy-madaniy meros sifatidagi ahamiyati, uning turizm rivojidagi o‘rni, ta’lim tizimidagi pedagogik imkoniyatlari hamda madaniy targ‘ibot vositasi sifatidagi funksiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida tarixiy manbalar, arxeologik tadqiqotlar natijalari, ilmiy adabiyotlar va zamonaviy turizm strategiyalari asosida Axsikentning mintaqaviy va milliy taraqqiyotdagi roli o‘rganildi.*

Kalit so‘zlar: *Axsikent, madaniy meros, arxeologiya, turizm, ta’lim, targ‘ibot, tarixiy yodgorlik, Farg‘ona vodiysi.*

НАСЛЕДИЕ ОССИКЕНТА: РОЛЬ ТУРИЗМА, ОБРАЗОВАНИЯ И ИНФОРМАЦИОННО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЙ РАБОТЫ В ИНТЕГРАЦИОННОМ РАЗВИТИИ.

Аннотация: *В данной статье анализируется значение археологического памятника Ахсикент как историко-культурного наследия, его роль в развитии туризма, его педагогический потенциал в системе образования и его функции как средства культурного продвижения. В ходе исследования роль Ахсикента в региональном и национальном развитии изучалась на основе исторических источников, результатов археологических исследований, научной литературы и современных стратегий развития туризма.*

© Namangan davlat pedagogika instituti | Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasi
© Smart Quill Publishing nashriyoti | smartquillpublishing.uz

Ключевые слова: *Ахсикент, культурное наследие, археология, туризм, образование, продвижение, исторический памятник, Ферганская долина.*

THE LEGACY OF OSSIKENT: THE ROLE OF TOURISM, EDUCATION AND OUTREACH IN INTEGRATION DEVELOPMENT.

Abstract: *This article analyzes the significance of the Akhsikent archaeological site as a historical and cultural heritage site, its role in tourism development, its pedagogical potential in the education system, and its functions as a means of cultural promotion. The study examines Akhsikent's role in regional and national development based on historical sources, archaeological research, scientific literature, and contemporary tourism development strategies.*

Keywords*: Akhsikent, cultural heritage, archaeology, tourism, education, promotion, historical site, Fergana Valley.*

Kirish

Bugungi globallashuv sharoitida tarixiy-madaniy meros obyektlarini asrash, ulardan samarali foydalanish va kelajak avlodlarga yetkazish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston hududida joylashgan ko‘plab arxeologik yodgorliklar orasida Axsikent alohida o‘rin tutadi. Mazkur yodgorlik Namangan viloyatining To‘raqo‘rg‘on tumanida joylashgan bo‘lib, qadimgi Farg‘ona davlatining yirik siyosiy va iqtisodiy markazlaridan biri hisoblangan. Tarixiy manbalarda Axsikent IX–XIII asrlarda Farg‘ona vodiysining poytaxti sifatida tilga olinadi.

Axsikent Buyuk Ipak yo‘lining muhim nuqtalaridan biri bo‘lib, Sharq va G‘arb o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarning rivojlanishida muhim rol o‘ynagan. Shahar metallurgiya, hunarmandchilik va savdo markazi sifatida tanilgan. Arxeologik tadqiqotlar davomida topilgan metall eritish pechlari va po‘lat ishlab chiqarish izlari Axsikentning o‘rta asrlardagi yuksak texnologik taraqqiyotga ega bo‘lganligini tasdiqlaydi. Tadqiqotning maqsadi Axsikent merosining turizm,

ta’lim va targ‘ibot sohalaridagi ahamiyatini ilmiy jihatdan tahlil qilish va uning istiqbolli rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlashdan iborat.

Adabiyotlar sharhi

Axsikent tarixi va arxeologiyasiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar orasida B. Matboboyev, A. Anorboyev, V. Bartold va boshqa olimlarning ishlari muhim ahamiyatga ega. Ularning tadqiqotlarida shaharning tarixiy taraqqiyoti, urbanistik tuzilishi va iqtisodiy hayoti yoritilgan. So‘nggi yillarda olib borilgan qazishmalar natijasida Axsikentda yer osti inshootlari, suv ta’minoti tizimlari, mudofaa devorlari hamda Qoraxoniylar davriga oid noyob arxitektura qoldiqlari aniqlangan. 2024-yilda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar davomida qadimiy zinapoyalar, yerosti yo‘laklari va isitish tizimlari topilganligi shaharning muhandislik salohiyati yuqori bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, tahliliy va tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini madaniy merosni boshqarish, turizm geografiyasi va tarixiy pedagogika konsepsiyalari tashkil etdi. Ma’lumotlar bazasi sifatida arxeologik tadqiqotlar hisobotlari, ilmiy maqolalar, davlat dasturlari va turizm rivojiga oid normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi.

Natijalar va muhokama

Axsikentning tarixiy-madaniy ahamiyati

Axsikent qadimgi Farg‘onaning eng yirik shaharlari qatoriga kirgan. Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, shahar miloddan avvalgi III asrdayoq shakllangan bo‘lib, IX–XII asrlarda o‘z taraqqiyotining eng yuqori cho‘qqisiga erishgan. Shahar ark, shahriston va rabod qismlaridan tashkil topgan bo‘lib, rivojlangan mudofaa tizimiga ega bo‘lgan. Axsikent metallurgiya markazi sifatida ham mashhur bo‘lgan. Ayrim manbalarda bu yerda yuqori sifatli tigel po‘lati ishlab chiqarilgani qayd etiladi. Ushbu holat shaharning Markaziy Osiyodagi yirik sanoat markazlaridan biri bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Axsikent va turizm rivoji

Madaniy turizm bugungi kunda dunyo turizm bozorining muhim segmentlaridan biri hisoblanadi. Axsikentning turistik salohiyati uning boy tarixiy merosi va arxeologik qiymati bilan belgilanadi. So‘nggi yillarda Axsikent arxeologik bog‘i, muzey va rekreatsion hududlarni rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Hududda sayyohlar uchun infratuzilma yaratish, muzey ekspozitsiyalarini boyitish va ekskursiya xizmatlarini takomillashtirish ishlari olib borilmoqda.

Axsikent asosida quyidagi turizm yo‘nalishlarini rivojlantirish mumkin:

- madaniy turizm;
- arxeologik turizm;
- ilmiy turizm;
- ichki turizm;
- ta’limiy ekskursiyalar.

Ta’lim tizimidagi ahamiyati

Axsikent merosi ta’lim tizimida katta pedagogik imkoniyatlarga ega. Tarix, arxeologiya, madaniyatshunoslik va turizm yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun yodgorlik amaliy laboratoriya vazifasini bajaradi. Tarixiy obyektlarga tashkil etilgan ekskursiyalar yoshlarning tarixiy tafakkuri va milliy o‘zligini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, Axsikent bo‘yicha virtual ta’lim platformalarini yaratish zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishga imkon beradi.

Targ‘ibot va madaniy diplomatiya

Axsikentning xalqaro miqyosdagi targ‘iboti O‘zbekistonning madaniy diplomatiyasi uchun muhim vosita hisoblanadi. Yodgorlikning xalqaro turizm xaritalarida faol targ‘ib qilinishi xorijiy sayyohlar oqimini oshirishga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalar asosida 3D modellar, virtual muzeylar, QR-kod tizimlari va multimedia mahsulotlarini yaratish orqali Axsikent haqidagi ma’lumotlarni keng auditoriyaga yetkazish mumkin.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Axsikent O‘zbekistonning eng muhim tarixiy-madaniy meros obyektlaridan biri hisoblanadi. Uning turizm, ta’lim va targ‘ibot sohalaridagi salohiyati juda yuqori.

Axsikentni rivojlantirish bo‘yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Turistik infratuzilmani yanada kengaytirish;
2. Oliy ta’lim dasturlariga Axsikent bo‘yicha maxsus kurslarni kiritish;
3. Virtual muzey va 3D rekonstruksiya loyihalarini yaratish;
4. Xalqaro ilmiy konferensiyalar tashkil etish;
5. Xorijiy turizm bozorlarida Axsikent brendini targ‘ib qilish.

Natijada Axsikent merosi nafaqat tarixiy yodgorlik sifatida, balki hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim resurs sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Asqarov A. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015.
2. Matboboyev B. Axsikent – Farg‘onaning qadimiy poytaxti. – Toshkent, 2017.
3. Anorboyev A. Farg‘ona vodiysi arxeologiyasi. – Toshkent: Fan, 2008.
4. O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali – Axsikent arxeologik yodgorligi
5. Namangan viloyati rasmiy portali – Aksikent Archaeological Site
6. UzDaily – Axsikentdagi noyob topilmalar haqida maqola
7. Fergana Valley CTN – Aksikent tarixi va madaniy merosi

AXSIKENTDAN AGRAGACHA: BOBUR DAVLAT BOSHQARUVI MODELINING TRANSFORMATSIYASI VA UNDA FARG‘ONA DAVLATCHILIK TAJRIBASINING MEROSIYLIGI

Karimov Azizbek Avazboy o‘g‘li

Namangan davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

E-mail: karimovazizbek629@gmail.com

Telefon: +998 93 125 19 97

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21036602

Annotatsiya: *Maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur davlat boshqaruvi modelining Farg‘ona mulkidan Kobul orqali Shimoliy Hindistongacha bo‘lgan tadrijiy transformatsiyasi tahlil etiladi. Axsikent va Andijon siyosiy muhitida shakllangan turkiy-temuriy boshqaruv an’analarining Boburiylar saltanati ma’muriy tizimiga ko‘chish jarayoni manbashunoslik nuqtai nazaridan yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Axsikent, Farg‘ona mulki, Bobur, Agra, Boburiylar saltanati, davlat boshqaruvi, temuriy an’analar, suyurg‘ol, devon, transformatsiya, merosiylik.*

Аннотация. *В статье анализируется поэтапная трансформация модели государственного управления Захириддина Мухаммада Бабура от Ферганского удела через Кабул до Северной Индии. С источниковедческой точки зрения освещается процесс перехода тюрко-тимуридских традиций управления, сформировавшихся в политической среде Ахсикента и Андижана, в административную систему империи Бабуридов.*

Ключевые слова: *Ахсикент, Ферганский удел, Бабур, Агра, империя Бабуридов, государственное управление, тимуридские традиции, суюргал, диван, трансформация, преемственность.*

Abstract. *The article analyzes the gradual transformation of Zahiriddin Muhammad Babur’s model of state governance from the Fergana appanage*

through Kabul to Northern India. From the perspective of source studies, it examines the transfer of Turkic-Timurid administrative traditions, formed in the political environment of Akhsikent and Andijan, into the administrative system of the Mughal Empire.

Keywords: *Akhsikent, Fergana appanage, Babur, Agra, Mughal Empire, state governance, Timurid traditions, suyurghal, divan, transformation, continuity.*

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy davlatchilik tarixini xolis va ilmiy asosda o‘rganish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, uchinchi Renessans poydevorini yaratish yo‘lida ajdodlarimizning boy ma’naviy va davlatchilik merosini chuqur tadqiq etish hamda yosh avlodga yetkazish dolzarb vazifa hisoblanadi[1]. Bu borada Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530) shaxsiyati va u asos solgan Boburiylar saltanatining davlatchilik tajribasi alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, Bobur Movarounnahr va Xurosondagi temuriy davlatchilik an’analarini Hindiston sharoitiga moslashtirib, uch asrdan ortiq yashagan qudratli saltanatning ma’muriy poydevorini yaratdi.

Mazkur jarayonning boshlang‘ich nuqtasi Farg‘ona vodiysi, xususan, Axsikent shahri bilan bog‘liqdir. Arxeologik tadqiqotlar Axsikentning antik davrdan boshlab Farg‘ona vodiysining yirik siyosiy-ma’muriy markazi bo‘lib kelganini tasdiqlaydi[2]. XV asrning ikkinchi yarmida bu shahar temuriy Umarshayx Mirzo (1469–1494) boshqargan Farg‘ona mulkining poytaxti sifatida mintaqaviy davlatchilik tizimida muhim o‘rin tutgan. Boburning o‘zi “Boburnoma”da otasining qarorgohi bo‘lmish Axsini batafsil ta’riflab, uning mustahkam qo‘rg‘oni, ariqlar bilan kesilgan jarliklari va strategik mavqeini alohida qayd etadi[3].

[1] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – B. 87.
[2] Анарбаев А.А. Ахсикент – столица древней Ферганы. – Ташкент: Tafakkur bo‘stoni, 2013. – S. 412.
[3] Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma / Nashrga tayyorlovchi P. Shamsiyev. – Toshkent: Sharq, 2002. – B. 45.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, tarixshunoslikda Boburning Hindistondagi faoliyati keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, uning davlat boshqaruvi modelining genezisi — ya’ni Farg‘ona mulkida orttirilgan ilk davlatchilik tajribasining keyingi bosqichlarga ta’siri masalasi maxsus tadqiqot obyekti bo‘lmagan. Holbuki, Agra taxtida o‘tirgan Bobur qo‘llagan boshqaruv usullarining ko‘pchiligi aynan Axsikent–Andijon siyosiy maktabida shakllangan edi. Ushbu maqolaning maqsadi Bobur davlat boshqaruvi modelining uch bosqichli — Farg‘ona, Kobul va Hindiston — transformatsiyasini yaxlit jarayon sifatida tahlil etish hamda unda Farg‘ona davlatchilik tajribasining merosiylik darajasini aniqlashdan iborat.

XV asr oxirida Farg‘ona mulki Temuriylar davlatining sharqiy chegara viloyati sifatida o‘ziga xos siyosiy tuzilmaga ega edi. V.V. Bartold qayd etganidek, Farg‘ona vodiysi o‘zining geografik yopiqligi va iqtisodiy salohiyati tufayli mustaqil siyosiy birlik sifatida faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo‘lgan. Umarshayx Mirzo davrida mulk markazi Axsikent bo‘lib, bu yerda to‘laqonli temuriy saroy apparati — devon, beklar kengashi, harbiy qo‘shin va soliq tizimi mavjud edi. Yosh Bobur aynan shu muhitda davlat boshqaruvining amaliy ko‘nikmalarini egalladi.

Amerikalik tadqiqotchi S.F. Deyl Boburning siyosiy dunyoqarashi shakllanishida Farg‘ona davridagi uch omil — temuriy sulolaviy legitimlik g‘oyasi, chingiziy-turkiy harbiy an’analar va islomiy boshqaruv me’yorlarining sintezi hal qiluvchi rol o‘ynaganini ta’kidlaydi[4]. Darhaqiqat, 1494-yilda otasi vafotidan so‘ng o‘n ikki yoshida taxtga o‘tirgan Bobur dastlabki kunlardanoq murakkab siyosiy vaziyatga duch keldi: Sulton Ahmad Mirzo va Sulton Mahmudxon qo‘shinlari Farg‘ona mulkiga ikki tomondan bostirib kirgan edi. Bu sharoitda yosh hukmdor beklar kengashiga tayanish, kuchlar muvozanatini saqlash va diplomatik manyovr qilish san’atini egallashga majbur bo‘ldi.

[4] Dale S.F. The Garden of the Eight Paradises: Bābur and the Culture of Empire in Central Asia, Afghanistan and India (1483–1530). – Leiden: Brill, 2004. – P. 67.

“Boburnoma”da muallif Farg‘ona mulkining ma’muriy tuzilishi haqida qimmatli ma’lumotlar beradi. Asarda mulk hududidagi yetti shahar — Andijon, O‘sh, Marg‘ilon, Isfara, Xo‘jand, Konibodom va Axsi alohida ta’riflanib, ularning har birida hokimlar, dorug‘alar va soliq amaldorlari faoliyat yuritgani ko‘rsatiladi[5]. Bu ma’lumotlar XV asr oxiridagi Farg‘ona davlatchiligi ikki pog‘onali — markaziy saroy va mahalliy hokimliklar tizimidan iborat bo‘lganini ko‘rsatadi. Shuningdek, mulkda suyurg‘ol instituti keng qo‘llanilgan: xizmat ko‘rsatgan beklarga yer-mulk va soliq yig‘ish huquqi in’om etilgan.

Boburning Farg‘ona davridagi siyosiy tajribasining yana bir muhim jihati — mo‘g‘ul omili bilan munosabatlar edi. Mirzo Muhammad Haydar “Tarixi Rashidiy” asarida Boburning ona tomondan bobosi Yunusxon avlodlari bilan murakkab ittifoqchilik munosabatlari Farg‘ona siyosatining doimiy unsuri bo‘lganini ko‘rsatadi[6]. Bu tajriba Boburga turli etnik-siyosiy guruhlar — turkiy beklar, mo‘g‘ul navkarlari, tojik dehqon aholisi va shahar ulamolari manfaatlarini muvofiqlashtirish ko‘nikmasini berdi. Aynan shu ko‘nikma keyinchalik Hindistonning ko‘p millatli muhitida boshqaruvni tashkil etishda asqotdi.

1494–1504-yillar oralig‘ida Bobur Farg‘ona va Samarqand uchun olib borgan kurashlar davomida davlat boshqaruvining inqirozli sharoitdagi usullarini ham o‘zlashtirdi. U ikki marta Samarqandni egallab, ikki marta yo‘qotdi; Axsikent uchun Sulton Ahmad Tanbal bilan kurashda mag‘lubiyatga uchradi. S.A. Azimdjanova ta’kidlaganidek, aynan shu mag‘lubiyatlar Boburni an’anaviy temuriy udel (mulk) tizimining zaif tomonlarini — beklarning markazdan qochuvchi intilishlari va sulolaviy parchalanish xavfini chuqur anglashga olib keldi[7]. Bu xulosa uning keyingi davlatchilik faoliyatida markazlashgan boshqaruvga intilishning g‘oyaviy asosini tashkil etdi.

[5] Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Sharq, 2002. – B. 52.
[6] Mirzo Muhammad Haydar. Tarixi Rashidiy / Forsiydan A. O‘rinboyev tarjimasi. – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 214.
[7] Азимджанова С.А. Государство Бабура в Кабуле и в Индии. – Москва: Наука,.1977 – С. 38.

1504-yilda Kobulni egallagan Bobur o‘z davlatchilik faoliyatining ikkinchi — o‘tish bosqichiga qadam qo‘ydi. Kobul mulki Farg‘onadan farqli o‘laroq, etnik jihatdan yanada xilma-xil — afg‘on qabilalari, hazoralar, tojiklar va turkiy guruhlar istiqomat qiluvchi hudud edi. “Boburnoma”da muallif Kobul viloyatida o‘n bir-o‘n ikki tilda so‘zlashilishini qayd etib, bu hududni boshqarish uchun alohida yondashuv zarurligini ta’kidlaydi[8]. Shu tariqa Bobur Farg‘onada orttirilgan boshqaruv tajribasini yangi sharoitga moslashtirishga kirishdi.

Kobul davrida Bobur boshqaruv modelining uchta muhim yangiligi shakllandi. Birinchidan, qabilaviy aristokratiya bilan munosabatlarning yangi tizimi: afg‘on qabilalariga nisbatan kuch ishlatish va murosaviy kelishuv usullari uyg‘unlashtirildi. Ikkinchidan, soliq tizimi tartibga solinib, savdo yo‘llaridan olinadigan boj davlat xazinasining asosiy manbaiga aylantirildi. U. Tekston ta’kidlaganidek, Kobulning Hindiston–Movarounnahr savdo yo‘lidagi strategik mavqei Boburga karvon savdosini davlat daromadining barqaror manbai sifatida tashkil etish imkonini berdi[9]. Uchinchidan, harbiy islohotlar — qo‘shinning o‘t ochar qurollar bilan ta’minlanishi boshlandi.

Muhim jihati shundaki, Kobulda Bobur o‘z saroyini aynan Farg‘ona–Samarqand andozasida tashkil etdi. S.A. Azimdjanovaning tadqiqotlariga ko‘ra, Kobul devonida temuriy saroy lavozimlari — devonbegi, parvonachi, eshikog‘a, qo‘rchiboshi kabi mansablar saqlanib qoldi va ularga asosan Movarounnahrdan kelgan beklar tayinlandi[10]. Bu holat Farg‘ona davlatchilik an’analarining bevosita tashuvchilari — andijonlik, axsikentlik va samarqandlik xizmatkorlar Bobur davlatining kadrlar o‘zagini tashkil etganini ko‘rsatadi. Shu ma’noda Kobul davlati temuriy boshqaruv modelining ko‘chma, moslashuvchan varianti edi.

[8] Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Sharq, 2002. – B. 168.
[9] Thackston W.M. The Baburnama: Memoirs of Babur, Prince and Emperor. – New York: Oxford University Press, 1996. – P. 224.
[10] Azimdjanova S.A. Gosudarstvo Babura v Kabule i v Indii. – Moskva: Nauka, 1977. – S. 64.

R. Folts o‘z tadqiqotida Boburiylar davlatining Markaziy Osiyo bilan aloqalarini tahlil etar ekan, Kobul davrini “temuriy davlatchilikning Hindistonga ko‘chishidagi ko‘prik bosqichi” deb baholaydi[11]. Darhaqiqat, 1504–1526-yillar mobaynida Bobur Movarounnahrni qaytarish umidini saqlagan holda, ayni paytda janubga — Hindistonga yurishlar uchun tayyorgarlik ko‘rdi. Bu davrda u Farg‘onada o‘zlashtirgan harbiy taktikani takomillashtirib, Usmonli mutaxassislari yordamida to‘p-miltiq texnologiyalarini o‘zlashtirdi.

1526-yilgi Panipat jangidan so‘ng Dehli sultonligi hududlarini egallagan Bobur davlat qurilishining uchinchi — yakuniy bosqichiga o‘tdi. J.F. Richards ta’kidlaganidek, Bobur Hindistonga shunchaki istilochi sifatida emas, balki temuriy davlatchilik g‘oyasi va boshqaruv texnologiyalarining tashuvchisi sifatida kirib keldi[12]. Agrani poytaxt etib tanlagan Bobur bu yerda Movarounnahr andozasidagi saroy, devon va harbiy-ma’muriy tizimni joriy etishga kirishdi. Shu tariqa Axsikentda boshlangan davlatchilik tajribasi Agra taxtida o‘zining yetuk shakliga yetdi.

Bobur Hindistonda qo‘llagan boshqaruv modelining birinchi tamoyili — hududlarni ishonchli beklarga vaqtinchalik boshqaruvga topshirish (iqto-suyurg‘ol tizimining rivojlantirilgan shakli) edi. “Boburnoma”da qayd etilishicha, Panipat g‘alabasidan so‘ng Dehli, Agra va boshqa viloyatlar xizmat ko‘rsatgan beklarga — ko‘pchiligi Farg‘ona va Kobul davridan beri unga sodiq bo‘lgan amirlarga taqsimlab berildi[13]. Bu tizim mohiyatan Umarshayx Mirzo davrida Farg‘ona mulkida amal qilgan boshqaruv usulining kengaytirilgan varianti bo‘lib, keyinchalik Akbar davrida mansabdorlik tizimiga asos bo‘ldi.

Ikkinchi tamoyil — mahalliy aholi bilan munosabatlarda pragmatik bag‘rikenglik siyosati edi. V. Erskin ta’kidlaganidek, Bobur hind zamindorlari va

[11] Foltz R. Mughal India and Central Asia. – Karachi: Oxford University Press, 1998. – P. 23.
[12] Richards J.F. The Mughal Empire (The New Cambridge History of India, I.5). – Cambridge: Cambridge University Press, 1993. – P. 8.
[13] Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Sharq, 2002. – B. 276.

rojalarini o‘z mavqelarida saqlab qolib, ulardan faqat soliq to‘lash va sodiqlik talab qildi, bu esa yangi saltanatning ijtimoiy tayanchini kengaytirdi[14]. Bu yondashuvning ildizlari ham Farg‘ona tajribasiga borib taqaladi: Bobur yoshligidanoq turli etnik va diniy guruhlar — ko‘chmanchi mo‘g‘ullar, o‘troq tojiklar, turkiy beklar bilan murosali munosabatlar o‘rnatish davlat barqarorligining sharti ekanini anglagan edi.

Uchinchi tamoyil — markaziy devon apparatining ustuvorligi. D. Streusand Boburiylar davlatining shakllanishini tahlil etar ekan, Bobur va Humoyun davridagi boshqaruv tizimi asosan temuriy-xurosoniy devonchilik an’analariga tayanganini, Akbar islohotlari esa shu poydevor ustiga qurilganini ko‘rsatadi[15]. Boburning Agradagi devonida moliya (devoni vazorat), harbiy ishlar (devoni arz) va yozishmalar (devoni insho) bo‘limlari faoliyat yuritgan bo‘lib, bu tuzilma Axsikent va Kobul saroylaridagi tizimning bevosita davomi edi.

Farg‘ona merosining yana bir yorqin ko‘rinishi — Boburning shaharsozlik va obodonchilik faoliyatida namoyon bo‘ldi. Abul Fazl “Ayini Akbariy”da Bobur asos solgan bog‘lar, hammomlar va suv inshootlari saltanat obodonchilik an’analarining boshlang‘ich nuqtasi bo‘lganini qayd etadi[16]. Boburning Agra atrofida barpo etgan “Bog‘i Hasht Behisht” va boshqa chorbog‘lari kompozitsion jihatdan Farg‘ona vodiysi va Samarqand bog‘-saroy an’analarini takrorlar edi. Bu holat davlatchilik merosiyligining nafaqat ma’muriy, balki madaniy-ramziy jihatlarini ham qamrab olganini ko‘rsatadi.

Boburiylar davlatining Markaziy Osiyo bilan iqtisodiy aloqalari ham Farg‘ona davridan meros bo‘lib qolgan tasavvurlar asosida yo‘lga qo‘yildi. S. Levi tadqiqotlarida ko‘rsatilishicha, XVI asrdan boshlab Hindiston–Movarounnahr karvon savdosi misli ko‘rilmagan darajada kengaydi va bu jarayonda Boburiylar

[14] Erskine W. A History of India under the Two First Sovereigns of the House of Taimur, Báber and Humáyun. Vol. I. – London: Longman, 1854. – P. 437.
[15] Streusand D.E. The Formation of the Mughal Empire. – Delhi: Oxford University Press, 1989. – P. 33.
[16] Abul Fazl Allami. The Ā’īn-i Akbarī / Transl. by H. Blochmann. Vol. I. – Calcutta: Asiatic Society of Bengal, 1873. – P. 12.

ma’muriyatining savdo yo‘llarini himoya qilish siyosati hal qiluvchi rol o‘ynadi[17]. Bu siyosatning ildizi Boburning yoshligida Axsikent–Andijon karvon yo‘llarida kuzatgan tajribasiga borib taqaladi.

Bobur davlat boshqaruvi modelining transformatsiyasini o‘rganishda birlamchi manbalar majmuasi hal qiluvchi ahamiyatga ega. B.A. Ahmedov ta’kidlaganidek, “Boburnoma” o‘zining xolisligi, faktik boyligi va muallifning shaxsiy ishtiroki bilan XV–XVI asrlar Movarounnahr, Xuroson va Hindiston tarixining tengsiz manbasi hisoblanadi[18]. Asarning Farg‘ona qismida davlat boshqaruvi, soliq tizimi, harbiy tashkilot va saroy hayotiga oid ma’lumotlar Hindiston qismidagi tegishli ma’lumotlar bilan qiyoslanganda, boshqaruv modelining tadrijiy rivojlanish dinamikasini kuzatish imkonini beradi.

“Boburnoma” ma’lumotlarini “Tarixi Rashidiy”, “Humoyunnoma”, “Akbarnoma” va “Ayini Akbariy” asarlari bilan qiyosiy o‘rganish manbashunoslik tahlilining asosiy yo‘nalishini tashkil etadi. Shuningdek, A. Beverij va U. Tekston tarjimalari hamda S.F. Deyl, J.F. Richards, D. Streusand monografiyalari mavzuni xalqaro ilmiy kontekstga olib chiqadi.

O‘tkazilgan tahlil quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi. Birinchidan, Bobur davlat boshqaruvi modeli uch bosqichli tadrijiy transformatsiyani bosib o‘tdi: Farg‘ona bosqichida (1494–1504) temuriy udel boshqaruvining asosiy institutlari o‘zlashtirildi; Kobul bosqichida (1504–1526) bu model ko‘p etnosli muhitga moslashtirilib, harbiy-texnik jihatdan yangilandi; Hindiston bosqichida (1526–1530) esa u keng imperiya miqyosida qo‘llanilib, keyingi Boburiy islohotlarning poydevoriga aylandi.

Ikkinchidan, Axsikent–Andijon siyosiy muhitida shakllangan davlatchilik tajribasi — beklar kengashi bilan ishlash, suyurg‘ol taqsimoti, etnik-diniy guruhlar muvozanatini saqlash, devon apparati va karvon savdosini himoya qilish an’analari

[17] Levi S.C. The Indian Diaspora in Central Asia and Its Trade, 1550–1900. – Leiden: Brill, 2002. – P. 91.
[18] Ahmedov B.A. O‘zbekiston tarixi manbalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2001. – B. 218.

— Agra davlatchiligida bevosita davom ettirildi. S.F. Deyl haqli ta’kidlaganidek, Boburiylar saltanati mohiyatan “Temuriylar davlatining Hindiston tuprog‘idagi qayta tug‘ilishi” bo‘lib, uning ildizlari Movarounnahr va Farg‘ona davlatchilik madaniyatiga borib taqaladi[19].

Uchinchidan, mazkur mavzu Axsikentning mintaqaviy davlatchilik tizimidagi o‘rnini jahon tarixi miqyosida baholash imkonini beradi: Farg‘ona vodiysining bu qadimiy poytaxti nafaqat mahalliy siyosiy markaz, balki Janubiy Osiyoda uch asr hukm surgan buyuk saltanat asoschisining davlatchilik maktabi bo‘lib xizmat qildi. Bu xulosa Axsikent merosini xalqaro ilmiy muomalaga kengroq olib kirish zarurligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.

2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma / Nashrga tayyorlovchi P. Shamsiyev. – Toshkent: Sharq, 2002. – 336 b.

3. Mirzo Muhammad Haydar. Tarixi Rashidiy / Forsiydan A. O‘rinboyev tarjimasi. – Toshkent: Sharq, 2010. – 720 b.

4. Abul Fazl Allami. The Ayini Akbariy / Transl. by H. Blochmann. Vol. I. – Calcutta: Asiatic Society of Bengal, 1873. – 718 p.

5. Ahmedov B.A. O‘zbekiston tarixi manbalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2001. – 384 b.

6. Анарбаев А.А. Ахсикент – столица древней Ферганы. – Ташкент: Tafakkur bo‘stoni, 2013. – 532 с.

7. Азимджанова С.А. Государство Бабура в Кабуле и в Индии. – Москва: Наука, 1977. – 176 с.

8. Бартольд В.В. Сочинения. Т. III. – Москва: Наука, 1965. – 712 с.

[19] Dale S.F. The Garden of the Eight Paradises. – Leiden: Brill, 2004. – P. 459.

9. Dale S.F. The Garden of the Eight Paradises: Babur and the Culture of Empire in Central Asia, Afghanistan and India (1483–1530). – Leiden: Brill, 2004. – 540 p.

10. Erskine W. A History of India under the Two First Sovereigns of the House of Taimur, Baber and Humayun. Vol. I. – London: Longman, 1854. – 560 p.

11. Foltz R. Mughal India and Central Asia. – Karachi: Oxford University Press, 1998. – 190 p.

12. Levi S.C. The Indian Diaspora in Central Asia and Its Trade, 1550–1900. – Leiden: Brill, 2002. – 320 p.

13. Richards J.F. The Mughal Empire (The New Cambridge History of India, I.5). – Cambridge: Cambridge University Press, 1993. – 320 p.

14. Streusand D.E. The Formation of the Mughal Empire. – Delhi: Oxford University Press, 1989. – 206 p.

15. Thackston W.M. The Baburnama: Memoirs of Babur, Prince and Emperor. – New York: Oxford University Press, 1996. – 554 p.

AXSIKENTNING MINTAQAVIY DAVLATCHILIK TIZIMIDAGI O‘RNI VA EVOLYUSIYASI

G.V. Rafiqova

Namangan davlat pedagogika instituti,

Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasi katta o’qituvchisi PhD

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21041595

Annotatsiya. *Mazkur maqolada qadimgi Farg‘ona vodiysining yirik shahar markazlaridan biri bo‘lgan Axsikent shahrining mintaqaviy davlatchilik tizimlari shakllanishi va rivojlanishidagi o‘rni tarixiy-xronologik tartibda chuqur tahlil qilinadi. Dovon davlati, Qang‘ va Kushon ta’siri davri, Qoraxoniylar, mo‘g‘ullar va temuriylar, shuningdek, Qo‘qon xonligi davrlarida Axsikentning siyosiy-ma’muriy, iqtisodiy, harbiy-mudofaa va madaniy mavqei batafsil ko‘rib chiqiladi. Shahar maqomining o‘zgarib borishi mintaqadagi davlatchilik tizimining umumiy evolyusiyasi, markazlashuv va policentriklashuv jarayonlari bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganiladi va arxeologik tadqiqotlar natijalari bilan qiyoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *Axsikent, Farg‘ona vodiysi, Dovon davlati, Qoraxoniylar, Qarluq, Samoniylar, Mo‘g‘ullar, Temuriylar, Qo‘qon xonligi, davlatchilik tizimi, mintaqaviy markaz, shaharsozlik, ma’muriy boshqaruv, arxeologik qatlamlar.*

Markaziy Osiyo davlatchilik tarixini o‘rganishda mintaqaviy markazlarning roli alohida ahamiyat kasb etadi. Davlatchilik tizimi, qoida bo‘yicha, yagona poytaxt atrofida emas, balki bir-biri bilan ma’muriy, iqtisodiy va harbiy aloqalar orqali bog‘langan tayanch shaharlar tarmog‘i shaklida shakllanadi. Farg‘ona vodiysining shimoliy-g‘arbiy qismida, Sirdaryoning yuqori oqimi bo‘yida joylashgan Axsikent shahri aynan shunday tayanch nuqtalardan biri sifatida ming yillardan ortiq tarixga ega bo‘lib, vodiy va undan tashqaridagi siyosiy jarayonlarda muhim rol o‘ynagan. Shaharning geografik joylashuvi uning tarixiy taqdirini ko‘p

jihatdan belgilab berdi: u, bir tomondan, Farg‘ona vodiysini Toshkent vohasi va Ustrushona bilan bog‘lovchi savdo-transport yo‘llari kesishmasida, ikkinchi tomondan, vodiyning shimoliy chegaralarini ko‘chmanchi qabilalar bosqinidan himoya qiluvchi strategik mudofaa chizig‘ida joylashgan edi. Aynan shu omillar Axsikentni nafaqat iqtisodiy, balki harbiy-siyosiy markazga aylantirdi.

Eramizdan avvalgi II asrga oid xitoy yilnomalarida - xususan, Chжan Szyanning Farg‘ona vodiysiga sayohati ta’rifida - tilga olingan Dovon (Dayuan) davlati Farg‘ona vodiysi hududida shakllangan ilk yirik siyosiy birlashma hisoblanadi. Manbalarda Dovon davlati yetmishdan ortiq yirik va kichik shaharlarga ega bo‘lgan, markazlashgan boshqaruv tizimiga ega davlat sifatida tasvirlanadi. Tadqiqotchilarning fikricha, Axsikent hududidagi qadimgi madaniy qatlamlar aynan shu davrga, ya’ni Dovon davlati gullab-yashnagan davrga to‘g‘ri keladi.

Dovon davri davlatchiligi o‘ziga xos ikki bosqichli markazlashgan boshqaruv tizimiga ega bo‘lib, vodiyning turli qismlarida joylashgan shahar-markazlar orqali ma’muriy nazoratni amalga oshirgan: poytaxt shahar siyosiy qarorlar markazi, vodiyning chekka hududlaridagi yirik shaharlar esa mahalliy nazorat va mudofaa vazifasini bajargan. Axsikentning geografik joylashuvi-vodiyning shimoliy-g‘arbiy, strategik ahamiyatga ega nuqtasida bo‘lishi unga harbiy-mudofaa va savdo aloqalarini nazorat qilish vazifasini yuklagan.

Arxeologik qazishmalar natijalari shuni ko‘rsatadiki, bu davrda shahar atrofida kuchli mudofaa devorlari, ichki qal’a (shahriston) va tashqi shahar (rabod) tarkibiy qismlariga ega bo‘lgan murakkab shaharsozlik tizimi shakllangan. Bu tizim keyinchalik o‘rta asr islom davri shaharsozligiga ham asos bo‘lib xizmat qildi. Shunday qilib, dastlabki bosqichdayoq Axsikent mintaqaviy boshqaruv tizimining mustahkam tarkibiy bo‘g‘ini sifatida shakllana boshlagan va bu maqom keyingi asrlarda yanada mustahkamlandi.

IX–X asrlarda, Samoniylar davlati tarkibida Farg‘ona viloyati alohida ma’muriy birlik sifatida boshqarilgan va Axsikent bu viloyatning markazi (bosh shahri) hisoblangan. Bu davrda shahar yanada kengaydi, hunarmandchilik va savdo rivojlandi, shahar atrofida ko‘plab qishloq aholi punktlari va karvonsaroylar barpo etildi. Bu jarayon Axsikentning nafaqat ma’muriy, balki iqtisodiy poytaxt sifatidagi mavqeini mustahkamladi.

XI–XII asrlarda, Qoraxoniylar davlati davrida Axsikent o‘z taraqqiyotining yuksak bosqichiga ko‘tarildi. Bu davrda shahar Farg‘ona viloyatining bosh shahri (poytaxti) maqomiga ega bo‘lib, Qoraxoniylar davlati tarkibida muhim ma’muriy-siyosiy markaz vazifasini bajardi. O‘rta asr geograflari — Ibn Havqal, Istaxriy, al-Muqaddasiy va boshqa mualliflarning asarlarida Axsikent yirik, mustahkam devorlar bilan o‘ralgan, rivojlangan hunarmandchilik (kulolchilik, to‘qimachilik, metallga ishlov berish) va savdo infratuzilmasiga ega, bozorlari, jome masjidi va saroyiga ega shahar sifatida tasvirlangan.

Mintaqaviy davlatchilik tizimi nuqtai nazaridan, bu davrda Axsikent quyidagi vazifalarni bajargan:

-viloyat hokimi (volyat boshqaruvchisi) qarorgohi sifatida markaziy hokimiyat (Qoraxoniylar saroyi, keyinchalik Buxoro yoki Samarqanddagi markaz) bilan mahalliy hududlar o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘g‘in vazifasini o‘tagan;

- soliq yig‘ish (xaroj, zakot), harbiy safarbarlik (lashkar to‘plash) va Buyuk Ipak yo‘lining Farg‘ona tarmog‘idagi karvon yo‘llari xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha asosiy ma’muriy markaz bo‘lgan;

- pul muomalasi markazi sifatida o‘z tanga zarbxonasiga ega bo‘lgan, bu esa shaharning iqtisodiy mustaqilligi va mintaqadagi nufuzini ko‘rsatadi;

- diniy-ma’rifiy hayotda ham muhim o‘ringa ega bo‘lib, jome masjidlari, madrasalar va xonaqohlar tarmog‘i orqali mafkuraviy birlikni mustahkamlashga, shuningdek, islom huquqi (fiqh) maktablarining mintaqaviy markazi sifatida ulamolar tayyorlashga xizmat qilgan.

1219–1221-yillarda boshlangan mo‘g‘ullar istilosi natijasida Farg‘ona vodiysining ko‘plab shaharlari, jumladan Axsikent ham qattiq vayronaga uchradi. Manbalarda qayd etilishicha, shahar aholisi qirilgan, mustahkam istehkomlar buzilgan va shaharning iqtisodiy hayoti uzoq vaqt davomida tiklanmagan. Bu voqea mintaqaviy davlatchilik tizimida tub o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi - avvalgi markazlashgan, bir markazga bog‘langan ma’muriy tizim parchalanib, vodiyning siyosiy og‘irlik markazi asta-sekin boshqa shaharlarga ko‘chish jarayoni boshlandi.

XIV–XV asrlarda, Temuriylar davlati davrida Farg‘ona vodiysi Movarounnahrning shimoliy-sharqiy chegara mintaqasi sifatida nisbatan mustaqil boshqarilgan. Axsikent o‘z ahamiyatini qisman saqlab qolgan bo‘lsa-da, endi u ilgarigidek vodiyning yagona siyosiy markazi emas, balki mintaqaviy tizimning bir nechta tayanch nuqtalaridan biri sifatida faoliyat yuritdi. Bu davrda Andijon kabi shaharlarning siyosiy vazni ortib bordi, bu esa Farg‘ona vodiysi davlatchilik tizimining ko‘p markazli (policentrik) tuzilishga o‘tishini anglatardi.

Shu bilan birga, Sirdaryo o‘zanining o‘zgarishi va seysmik faollik (zilzilalar) natijasida Axsikentning dastlabki o‘rni vaqt o‘tishi bilan yashash uchun noqulay bo‘lib qoldi, bu esa shahar aholisining qisman ko‘chishiga va yangi o‘rinlarda — hozirgi Eski Axsi hududida — kichikroq aholi punkti shakllanishiga olib keldi. Shunday qilib, shahar maqomining pasayishi mintaqadagi davlatchilik tizimining ko‘p markazli tuzilishga o‘tishining va tabiiy-geografik omillarning siyosiy geografiyaga ta’sirining yorqin ko‘rsatkichi bo‘ldi.

XVIII asrning birinchi yarmida shakllangan Qo‘qon xonligi davrida Farg‘ona vodiysining siyosiy markazi yangi poytaxt — Qo‘qon shahriga ko‘chgan edi. Xonlik o‘z hududini bekliklar (viloyatlar)ga bo‘lib boshqargan, har bir beklik markazida hokim (bek) o‘tirgan va markaziy hokimiyatga soliq va harbiy kontingent yetkazib berish bilan shug‘ullangan.

Shu davrda Axsikent o‘rnida va atrofida shakllangan aholi punktlari (jumladan, hozirgi Eski Axsi va unga tutash hududlar) hududiy boshqaruv tizimida

bekliklar yoki ularning tarkibidagi ma’muriy okruglar markazlari sifatida faoliyat yuritishni davom ettirdi. Manbalarda Namangan bekligi tarkibida bu hudud muhim qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilik markazi sifatida tilga olinadi, biroq u endi mustaqil siyosiy markaz emas, balki yirik viloyat markazi (Namangan)ga bo‘ysunuvchi ma’muriy bo‘linma edi.

Bu davrda Axsikentning ahamiyati endi siyosiy poytaxt emas, balki tarixiy-madaniy meros markazi, ziyoratgoh (avliyolar maqbaralari atrofida shakllangan) va mahalliy ma’muriy bo‘linma sifatida namoyon bo‘ladi. Shu tariqa, shahar mintaqaviy davlatchilik tizimida o‘z o‘rnini saqlab qoldi, biroq uning funksional vazifasi davr talablariga moslashib tubdan o‘zgardi — siyosiy va iqtisodiy poytaxtdan mahalliy boshqaruv, qishloq xo‘jaligi va madaniy-ma’naviy markazga aylandi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan to‘rt asosiy davr — Dovon, Samoniy-Qoraxoniy, Mo‘g‘ul-Temuriy va Qo‘qon davrlari — Axsikentning mintaqaviy davlatchilik tizimidagi o‘rnini uch xil bosqichda tasniflashga imkon beradi: (1) shakllanish va mustahkamlanish bosqichi (Dovon davri), (2) yuksalish va bosh markaz bosqichi (Samoniy-Qoraxoniy davri), (3) inqiroz va qayta moslashish bosqichi (Mo‘g‘ul-Temuriy va Qo‘qon davrlari).

Bu bosqichlarning har biri mintaqadagi umumiy siyosiy-iqtisodiy jarayonlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lgan: markazlashgan davlatlar davrida (Dovon, Qoraxoniylar) Axsikent kabi strategik joylashgan shaharlar yetakchi maqomga ega bo‘lgan, parchalanish va tashqi bosqinlar davrida (Mo‘g‘ullar) esa bunday shaharlar o‘z ahamiyatini yo‘qotib, kichikroq, ammo barqarorroq markazlarga o‘rin bo‘shatgan. Bu qonuniyat nafaqat Axsikent, balki butun Farg‘ona vodiysi va Markaziy Osiyo shaharsozligi tarixiga xos umumiy tendensiya hisoblanadi.

Arxeologik tadqiqotlar (xususan, M.A. Bubnova va O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti tomonidan olib borilgan qazishmalar) shuni tasdiqlaydiki, shahar maydonining kengayishi va qisqarishi, mudofaa

devorlarining qayta qurilishi yoki tashlab ketilishi har bir davrdagi siyosiy ahamiyat darajasiga bevosita mos keladi. Bu esa yozma manbalardagi ma’lumotlarni arxeologik dalillar bilan o‘zaro tasdiqlash imkonini beradi va ilmiy xulosalarning ishonchliligini oshiradi.

O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, Axsikentning mintaqaviy davlatchilik tizimidagi o‘rni statik emas, balki tarixiy jarayonlar ta’sirida izchil evolyutsiyaga uchragan dinamik hodisa hisoblanadi. Dovon davlati davrida harbiy-strategik tayanch nuqta, Samoniy-Qoraxoniy davrida Farg‘ona viloyatining bosh ma’muriy va iqtisodiy markazi, mo‘g‘ullar va temuriylar davrida policentrik tizimning tarkibiy qismi, Qo‘qon xonligi davrida esa mahalliy boshqaruv va madaniy meros markazi sifatida shakllangan bosqichlar shahar maqomining bosqichma-bosqich transformatsiyasini aks ettiradi.

Axsikentning bu evolyutsion yo‘li mintaqaviy davlatchilik tizimlarining umumiy rivojlanish qonuniyatlarini — markazlashuv va parchalanish, siyosiy maqomning iqtisodiy va madaniy maqomga o‘tishi, tabiiy-geografik omillarning siyosiy geografiyaga ta’siri kabi jarayonlarni — o‘zida mujassam etgan o‘ziga xos namuna bo‘lib xizmat qiladi.

Shu sababli, shaharning arxeologik va yozma manbalar asosidagi keyingi tadqiqotlari, xususan, har bir tarixiy davrga oid madaniy qatlamlarning aniq xronologik chegaralarini belgilash, mintaqa davlatchilik tarixini chuqurroq tushunish, shuningdek, Axsikentni turizm va ta’lim maqsadlarida targ‘ib qilish uchun katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Бернштам А.Н. Историко-археологические очерки Центрального Тянь-Шаня и Памиро-Алая. -М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1952.

2. Бубнова М.А. Археологические исследования средневекового Ахсикента. - Ташкент: Фан, 1985.

3. Зияев Ҳ. Фарғона тарихи: давлатчилик ва маданий мерос. - Тошкент: Фан, 1998.

4. Карев Ю. Городская культура Средней Азии в эпоху Караханидов. - Ташкент, 2015.

5. Маъмажонов А. Axsikent - Фарғона маданий ёдгорлиги. - Тошкент: Шарқ, 2010.

6. Аскаров А. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. 1-жилд. - Тошкент: O‘zbekiston, 2009.

7. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Сочинения, т. I. - М.: Наука, 1963.

AXSIKENT SHAHRINING SHAKLLANISHI VA FARG‘ONA VODIYSI URBANIZATSIYASI TARIXIDAGI O‘RNI

Mavlonov Adham Anvarxon o’g’li

Namangan Davlat pedagogika insitituti stajyor o’qituvchisi

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21041768

Annotatsiya: *Ushbu maqolada qadimgi Farg‘ona vodiysining yirik shahar madaniyati markazlaridan biri bo‘lgan Axsikent shahrining shakllanish tarixi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada Axsikentning tabiiy-geografik joylashuvi, Sirdaryo bo‘yidagi strategik mavqeyi, sug‘orma dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo aloqalari uning shahar sifatida rivojlanishida muhim omil bo‘lgani yoritiladi. Shuningdek, Axsikentning Buyuk Ipak yo‘li tizimidagi o‘rni, o‘rta asrlardagi ark, shahriston va raboddan iborat shaharsozlik tuzilmasi, iqtisodiy-madaniy hayoti hamda mudofaa tizimi tahlil etiladi. Maqolada mo‘g‘ullar bosqini, temuriylar davri va keyingi tarixiy jarayonlarning shahar taraqqiyoti hamda inqiroziga ta’siri ham ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida Axsikent Farg‘ona vodiysi urbanizatsiyasi, qadimgi davlatchilik an’analari va moddiy madaniyat tarixini o‘rganishda muhim arxeologik yodgorlik ekani asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *Axsikent, Axsi, Farg‘ona vodiysi, qadimgi shahar, urbanizatsiya, Sirdaryo, Buyuk Ipak yo‘li, ark, shahriston, rabod, hunarmandchilik, savdo aloqalari, shaharsozlik, arxeologik yodgorlik, moddiy madaniyat.*

Annotation: *This article analyzes the historical formation of Akhsikent, one of the major centers of ancient urban culture in the Fergana Valley. The study highlights the role of Aksikent’s natural and geographical location, its strategic position along the Syr Darya River, irrigated agriculture, craftsmanship, and trade relations in the development of the city. The article also examines Akhsikent’s place within the Great Silk Road system, its medieval urban structure consisting of the*

citadel, shahristan, and rabad, as well as its economic, cultural, and defensive features. Particular attention is paid to the impact of the Mongol invasion, the Timurid period, and subsequent historical processes on the development and decline of the city. The study concludes that Akhsikent is an important archaeological monument for understanding the urbanization of the Fergana Valley, ancient statehood traditions, and the history of material culture.

Keywords: *Akhsikent, Akhsi, Fergana Valley, ancient city, urbanization, Syr Darya, Great Silk Road, citadel, shahristan, rabad, craftsmanship, trade relations, urban planning, archaeological monument, material culture.*

Axsikent qadimgi Farg‘ona vodiysining eng muhim shahar madaniyati markazlaridan biri hisoblanadi. U nafaqat Namangan vohasi, balki butun Farg‘ona vodiysi tarixida siyosiy, iqtisodiy, harbiy va madaniy jihatdan alohida o‘rin egallagan qadimiy shahar xarobasidir. Manbalarda Axsikent nomi turli shakllarda – Axsikat, Axsikath, Axsi tarzida uchraydi. Bu nomlarning barchasi bir tarixiy-geografik hudud, ya’ni Sirdaryo bo‘yida shakllangan qadimgi shahar madaniyati bilan bog‘liqdir.

Axsikentning tarixiy ahamiyati, avvalo, uning qulay tabiiy-geografik joylashuvi bilan belgilanadi. Shahar Sirdaryo vodiysida, suv manbalari, dehqonchilik uchun yaroqli yerlar va savdo yo‘llari kesishgan hududda vujudga kelgan. Bunday joylashuv qadimgi davrlardayoq aholining doimiy yashashi, sug‘orma dehqonchilikning rivojlanishi, hunarmandchilik va savdo aloqalarining kengayishi uchun qulay sharoit yaratgan. Shu bois Axsikent oddiy qishloq manzilgohi sifatida emas, balki bosqichma-bosqich yirik shahar markazi sifatida shakllangan.

Axsikent tarixini o‘rganish Farg‘ona vodiysida qadimgi shaharsozlik, davlatlilik, iqtisodiy hayot va madaniy aloqalar taraqqiyotini anglashda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Chunki bu shahar xarobalari orqali qadimgi va o‘rta asrlardagi Farg‘ona jamiyatining xo‘jalik tizimi, mudofaa madaniyati,

hunarmandchilik an’analari, savdo aloqalari hamda siyosiy boshqaruv shakllari haqida tasavvur hosil qilish mumkin.

Axsikentning shakllanishida eng muhim omillardan biri uning Sirdaryo bo‘yida joylashganidir. Qadimgi shaharlar taraqqiyotida suv manbalari hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Sirdaryo va unga tutash suv tarmoqlari Axsikent atrofida sug‘orma dehqonchilikni rivojlantirishga imkon bergan. Dehqonchilik esa o‘z navbatida doimiy aholi manzilgohlari, oziq-ovqat zaxiralari, mehnat taqsimoti va hunarmandchilikning paydo bo‘lishiga zamin yaratgan.

Farg‘ona vodiysi qadimdan serunum tuproqlari, tog‘oldi yaylovlari, daryo va soylar tizimi bilan ajralib turgan. Axsikent ana shu tabiiy imkoniyatlardan foydalangan holda shakllangan shahar markazi edi. Uning Sirdaryo bo‘yida joylashuvi shaharni bir tomondan suv bilan ta’minlagan bo‘lsa, ikkinchi tomondan mudofaa nuqtayi nazaridan ham qulaylik yaratgan. Daryo tabiiy to‘siq vazifasini bajargan, baland qirg‘oq va mustahkam devorlar esa shahar himoyasini kuchaytirgan.

Axsikentning taraqqiyotiga savdo yo‘llari ham katta ta’sir ko‘rsatgan. Farg‘ona vodiysi qadimdan Sharqiy Turkiston, Movarounnahr, Yettisuv va Xuroson yo‘nalishlarini bog‘lovchi hududlardan biri bo‘lgan. Shu sababli bu yerda joylashgan shaharlar faqat mahalliy xo‘jalik markazlari bo‘lib qolmasdan, balki mintaqaviy savdo-madaniy aloqalar tizimining faol ishtirokchisiga aylangan. Axsikent ham ana shunday tarixiy jarayonlar natijasida shakllangan va rivojlangan.

Axsikentning dastlabki shakllanishi miloddan avvalgi asrlar bilan bog‘lanadi. Arxeologik tadqiqotlar shaharning qadimgi qatlamlari Farg‘ona vodiysida urbanizatsiya jarayoni ancha erta boshlanganini ko‘rsatadi. Bu davrda Farg‘ona hududida yirik qishloq manzilgohlari, qal’ali turar joylar, dehqonchilik va chorvachilikka asoslangan xo‘jalik tizimi mavjud bo‘lgan. Axsikent ana shu jarayonlar ichida vujudga kelib, asta-sekin yiriklashgan.

Dastlabki bosqichda Axsikent, ehtimol, mudofaa devorlari bilan o‘ralgan manzilgoh sifatida shakllangan. Bunday manzilgohlar qadimgi Farg‘ona jamiyatida ijtimoiy tabaqalanish, mulkiy munosabatlar, hokimiyat markazlari va hunarmandchilikning rivojlanishi bilan bog‘liq edi. Shaharning joylashgan o‘rni aholi xavfsizligini ta’minlash, savdo yo‘llarini nazorat qilish va atrofdagi dehqonchilik hududlarini boshqarish uchun qulay bo‘lgan.

Qadimgi Farg‘ona tarixida Davan davlati bilan bog‘liq ma’lumotlar muhim o‘rin tutadi. Xitoy manbalarida Farg‘ona vodiysi serhosil yerlar, mustahkam shaharlari va mashhur otlari bilan tilga olinadi. Axsikentning dastlabki taraqqiyotini ham ana shu keng tarixiy muhitdan ajratib bo‘lmaydi. Chunki Farg‘ona vodiysidagi qadimgi shaharlar aynan dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va tashqi aloqalar kesishgan joylarda shakllangan.

Axsikentning eng yuksak taraqqiyot bosqichi o‘rta asrlarga to‘g‘ri keladi. Ayniqsa IX–XII asrlarda shahar Farg‘ona vodiysining muhim siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biriga aylangan. Bu davrda Movarounnahrda Somoniylar, Qoraxoniylar va boshqa sulolalar hukmronligi ostida shaharlar rivojlandi, savdo va hunarmandchilik kengaydi, ilm-fan va madaniyat taraqqiy etdi. Axsikent ham ushbu umumiy yuksalish jarayonining faol ishtirokchisi bo‘lgan.

O‘rta asr shaharsozligi nuqtayi nazaridan Axsikent murakkab tuzilishga ega edi. Shahar odatda ark, shahriston va rabod qismlaridan iborat bo‘lgan. Ark – hukmdor qarorgohi, ma’muriy va harbiy markaz vazifasini bajargan. Shahriston – shaharning asosiy aholi yashaydigan, hunarmandchilik va savdo rivojlangan qismi bo‘lgan. Rabod esa shahar tashqarisidagi savdo-hunarmandchilik mahallalari, bozorlar, ustaxonalar va aholining kengroq yashash hududlarini o‘z ichiga olgan.

Axsikentning bunday tuzilishi uning oddiy qal’a yoki qishloq emas, balki rivojlangan shahar markazi bo‘lganini ko‘rsatadi. Shahar mudofaa devorlari, darvozalar, ichki yo‘llar, suv tizimi, ustaxonalar va bozorlar bilan jihozlangan. Bu esa Axsikentda shahar hayoti yuqori darajada tashkil etilganidan dalolat beradi.

Axsikentning rivojlanishida hunarmandchilik alohida ahamiyatga ega bo‘lgan. Arxeologik topilmalar bu yerda kulolchilik, metallsozlik, shishasozlik, to‘qimachilik va boshqa hunarmandchilik turlari rivojlanganini ko‘rsatadi. Ayniqsa metallga ishlov berish, qurol-yarog‘ tayyorlash va temirchilik an’analari Axsikentning iqtisodiy qudratini belgilagan muhim sohalardan biri bo‘lgan.

Shahar aholisi faqat dehqonchilik bilan emas, balki hunarmandchilik va savdo bilan ham shug‘ullangan. Bozorlarda mahalliy mahsulotlar bilan birga boshqa hududlardan keltirilgan buyumlar ham sotilgan. Bu esa Axsikentning mintaqaviy almashinuv tizimiga faol qo‘shilganini ko‘rsatadi. Hunarmandchilik mahsulotlari nafaqat ichki ehtiyojni qondirgan, balki tashqi savdoda ham muhim o‘rin tutgan.

Kulolchilik Axsikent shahar madaniyatining eng muhim ko‘rsatkichlaridan biridir. Turli shakldagi idishlar, bezakli sopol buyumlar, maishiy ashyolar shaharda kundalik hayot, estetik did va texnologik tajriba rivojlanganini ko‘rsatadi. Kulolchilik buyumlari orqali aholining turmush tarzi, ovqatlanish madaniyati, savdo aloqalari va ishlab chiqarish darajasini aniqlash mumkin.

Axsikentning tarixiy taraqqiyotini Buyuk Ipak yo‘li bilan bog‘lamasdan tasavvur qilib bo‘lmaydi. Farg‘ona vodiysi qadimgi va o‘rta asrlarda Sharq va G‘arbni bog‘lovchi muhim hududlardan biri bo‘lgan. Savdo karvonlari bu yer orqali Sharqiy Turkiston, Xitoy, Movarounnahr, Eron va boshqa hududlarga harakat qilgan. Axsikent esa ana shu yo‘llar tizimida muhim bekat, savdo markazi va ishlab chiqarish hududi sifatida faoliyat yuritgan.

Buyuk Ipak yo‘li faqat tovar almashinuvi yo‘li emas, balki madaniy, diniy, ilmiy va texnologik g‘oyalar almashinuvi yo‘li ham edi. Shu bois Axsikentda turli madaniy ta’sirlar uyg‘unlashgan. Shaharning moddiy madaniyatida mahalliy Farg‘ona an’analari bilan birga Movarounnahr, Sharqiy Turkiston va boshqa hududlarga xos unsurlar ham kuzatiladi. Bu holat Axsikentning ochiq, faol va transregional shahar madaniyatiga ega bo‘lganini anglatadi.

Savdo aloqalari Axsikentda ijtimoiy hayotning murakkablashuviga ham olib kelgan. Savdogarlar, hunarmandlar, dehqonlar, harbiylar, diniy va ma’muriy qatlamlar shahar jamiyatining asosiy tarkibiy qismlarini tashkil qilgan. Bunday ijtimoiy tarkib shaharda boshqaruv tizimi, soliq munosabatlari, bozor nazorati va mudofaa tashkilotining mavjudligini ko‘rsatadi.

Axsikentning harbiy-strategik ahamiyati uning mustahkam mudofaa tizimida yaqqol namoyon bo‘ladi. Shahar baland joyda, Sirdaryo yaqinida joylashgani sababli tabiiy himoya imkoniyatiga ega edi. Bundan tashqari, devorlar, qal’a inshootlari va ichki mudofaa tizimi shaharning xavfsizligini ta’minlagan.

O‘rta asrlarda shaharlar faqat iqtisodiy markaz emas, balki harbiy tayanch nuqtasi ham bo‘lgan. Axsikent Farg‘ona vodiysidagi siyosiy kuchlar uchun muhim strategik punkt vazifasini bajargan. Uning mustahkam qal’asi, daryo bo‘yidagi joylashuvi va keng atrof hududlarni nazorat qilish imkoniyati shaharni hukmdorlar uchun muhim qarorgohga aylantirgan.

Keyingi davrlarda Axsi qal’asi Zahiriddin Muhammad Bobur bilan bog‘liq tarixiy voqealarda ham tilga olinadi. Bobur Axsi qal’asining mustahkamligini alohida qayd etgan. Bu ma’lumot shahar XV asrda ham Farg‘ona vodiysining muhim siyosiy-harbiy markazlaridan biri bo‘lib qolganini ko‘rsatadi.

XIII asr boshlarida Movarounnahr va Farg‘ona hududlari mo‘g‘ullar istilosiga duch keldi. 1219–1221-yillardagi harbiy yurishlar natijasida ko‘plab shaharlar vayron qilindi, iqtisodiy va madaniy hayot izdan chiqdi. Axsikent ham bu jarayonlardan chetda qolmadi. Mo‘g‘ullar bosqini shaharning avvalgi taraqqiyotiga kuchli zarba berdi.

Shahar vayron qilingandan keyin uning hayoti butunlay to‘xtab qolmagan bo‘lsa-da, avvalgi siyosiy-iqtisodiy mavqeyi zaiflashdi. Keyingi asrlarda eski Axsikent yaqinida yoki undan g‘arbroqda yangi Axsi shahri shakllangan. Bu holat shahar madaniyatining uzluksizligi va hududning strategik ahamiyati uzoq vaqt saqlanib qolganini ko‘rsatadi.

Mo‘g‘ullar davridan keyingi tiklanish jarayonlari Markaziy Osiyoning boshqa shaharlarida bo‘lgani kabi Axsikent atrofida ham murakkab kechgan. Aholining bir qismi eski shahar xarobalari atrofida yashashda davom etgan, boshqa qismi esa xavfsizroq va iqtisodiy jihatdan qulayroq hududlarga ko‘chgan. Bu jarayon natijasida Axsikent tarixida “qadimgi shahar” va “keyingi Axsi” bosqichlarini farqlash zarurati yuzaga keladi.

Temuriylar davrida Farg‘ona vodiysi muhim siyosiy hududlardan biri bo‘lib qoldi. Ayniqsa XV asrda Axsi Farg‘ona hukmdorlari faoliyati bilan bog‘liq muhim markaz sifatida tilga olinadi. Zahiriddin Muhammad Boburning otasi Umarshayx Mirzo Farg‘ona hokimi bo‘lgan davrda Axsi qal’asi siyosiy va harbiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etgan.

“Boburnoma”da Axsi haqida berilgan ma’lumotlar shahar tarixini o‘rganishda muhim yozma manba hisoblanadi. Bobur Axsi qal’asining mustahkamligini, uning tabiiy-geografik qulayligini va Farg‘ona siyosiy hayotidagi o‘rnini qayd etadi. Bu ma’lumotlar arxeologik kuzatishlar bilan birgalikda Axsi va Axsikent tarixining keyingi bosqichlarini yoritishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Temuriylar davrida Axsi faqat qal’a emas, balki ma’muriy markaz, harbiy tayanch va siyosiy qarorgoh sifatida ham faoliyat yuritgan. Bu esa qadimgi Axsikent hududining tarixiy ahamiyati bir necha asrlar davomida saqlanib qolganidan dalolat beradi.

Keyingi asrlarda tabiiy ofatlar, siyosiy beqarorlik, savdo yo‘llarining o‘zgarishi va iqtisodiy markazlarning boshqa hududlarga siljishi Axsikentning asta-sekin inqirozga yuz tutishiga sabab bo‘ldi. Ayniqsa zilzilalar va daryo qirg‘og‘i bilan bog‘liq tabiiy jarayonlar shahar xarobalarining yemirilishiga olib kelgan.

Aholining bir qismi keyinchalik Namangan va boshqa yaqin hududlarga ko‘chgan. Shu tariqa Axsikent faol shahar hayotidan tarixiy-arxeologik yodgorlik

maqomiga o‘tdi. Biroq uning tarixiy xotiradagi o‘rni yo‘qolmadi. Aksincha, Axsikent Farg‘ona vodiysining qadimgi shahar madaniyati, davlatchilik an’analari va moddiy merosini ifodalovchi muhim yodgorlik sifatida bugungi kunda ham katta ilmiy ahamiyatga ega.

Axsikentni o‘rganish bir necha jihatdan muhimdir. Birinchidan, u Farg‘ona vodiysida qadimgi urbanizatsiya jarayonlarini tahlil qilish imkonini beradi. Ikkinchidan, Axsikent orqali qadimgi va o‘rta asrlardagi shaharsozlik, mudofaa tizimi, hunarmandchilik va savdo aloqalarini o‘rganish mumkin. Uchinchidan, bu yodgorlik yozma manbalar va arxeologik dalillarni qiyosiy tahlil qilish uchun muhim ilmiy obyekt hisoblanadi.

Axsikentning o‘rganilishi nafaqat tarixchilar va arxeologlar uchun, balki madaniy merosni saqlash, tarixiy turizmni rivojlantirish va yosh avlodda tarixiy xotirani shakllantirish uchun ham muhimdir. Bugungi kunda Axsikent yodgorligini saqlash, ilmiy tadqiq qilish va keng jamoatchilikka tanitish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Axsikent tarixiy merosi Farg‘ona vodiysining qadimiy sivilizatsion taraqqiyotini ko‘rsatadi. Bu shahar orqali biz o‘tmishda vodiy aholisi qanday yashaganini, qanday hunarlar bilan shug‘ullanganini, qanday savdo aloqalariga ega bo‘lganini va qanday mudofaa tizimlarini yaratganini bilib olamiz.

Xulosa qilib aytganda, Axsikent shahrining shakllanishi tabiiy-geografik qulaylik, sug‘orma dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo yo‘llari va siyosiy-ma’muriy ehtiyojlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan. Shahar dastlab qadimgi Farg‘ona hududidagi muhim manzilgohlardan biri sifatida vujudga kelgan, keyinchalik esa yirik siyosiy, iqtisodiy va madaniy markaz darajasiga ko‘tarilgan. Axsikentning taraqqiyotida Sirdaryo bo‘yidagi joylashuv, Buyuk Ipak yo‘li tarmoqlari, hunarmandchilik ishlab chiqarishi va mustahkam mudofaa tizimi muhim rol o‘ynagan. IX–XII asrlarda shahar Farg‘ona vodiysining eng yirik markazlaridan biri bo‘lgan. Mo‘g‘ullar bosqini, keyingi siyosiy jarayonlar va tabiiy

ofatlar uning inqiroziga sabab bo‘lgan bo‘lsa-da, Axsikentning tarixiy merosi o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Bugungi kunda Axsikent qadimgi Farg‘ona shaharsozlik madaniyatining yorqin namunasi, o‘zbek davlatchiligi va urbanizatsiya tarixining muhim yodgorligi sifatida qadrlanadi. Uni chuqur o‘rganish, asrab-avaylash va ilmiy muomalaga keng kiritish milliy tarixiy xotirani mustahkamlashda katta ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR

1. Axunova M. Axsikent yodgorligi – “Farg‘ona Afrosiyobi”: arxeologik izlanishlar va tadqiqotchilar faoliyatida // Образование, наука и инновационные идеи в мире. – 2023. – Т. 35. – №8. – В. 88–90.
2. Egamberdiyeva N. A. Arxeologiya**.** – Toshkent: Fan va texnologiya, 2011.
3. Madrahimov Z. Tarixiy toponimika. – Toshkent: Navro‘z, 2018.
4. Mahmudov M. N. Farg‘ona vodiysida joylashgan Axsikent va Mingtepa yodgorliklarining arxeologik va etnografik qiyofasi // Ilm-fan yangiliklari konferensiyasi. – 2025.
5. Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi fond materiallari**.** Axsikent arxeologik yodgorligiga oid ma’lumotlar, topilmalar va ilmiy izohlar.
6. O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi materiallari**.** Axsikent arxeologik yodgorligi va uning muhofazasi bo‘yicha rasmiy axborotlar.
7. Xolboyev Z., Alimov A. O‘zbekistonning arxeologiya yodgorliklari. – Toshkent: Tafakkur qanoti, 2014.
8. Xoldorov J. Axsikent arxeologik yodgorligini o‘rganish tarixi // International Sciences, Education and New Learning Technologies. – 2024.

KO‘HNA AXSIKENT JILOLARI: TARIXIY MEROSNI RAQAMLI TA’LIM VA STRATEGIK TURIZMDA MONETIZATSIYA QILISH

Pozilova Muqaddas Xikmataliyevna

Namangan davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Gmail: muqaddaspozilova@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21041940

Annotatsiya*: Ushbu maqolada Farg‘ona vodiysining qadimgi va o‘rta asrlar davri yirik shaharsozlik hamda metallurgiya markazi bo‘lmish Axsikent yodgorligi madaniy-tarixiy merosini zamonaviy turizm industriyasi va ta’lim tizimiga sinergetik integratsiyalash masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqot doirasida Axsikent ochiq osmon ostidagi arxeologik parkining geo-turistik salohiyati tahlil qilinib, uni ta’lim tizimiga kiritishning "Jonli tarix" (Living History), VR/AR raqamli texnologiyalar va keys-metodlar yordamidagi modellari ishlab chiqilgan. Muallif tomonidan Axsikent brendini xalqaro miqyosda kapitallashtirish, ilmiy-pedagogik ekskursiyalar samaradorligini oshirish va hududda arxeologik turizmni rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar majmuasi taklif etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Axsikent, arxeologik park, madaniy meros, integratsiya, ta’lim turizmi, "Jonli tarix", raqamlashtirish, Farg‘ona vodiysi, Boburiylar davri.*

Аннотация: *В данной статье исследуются вопросы синергетической интеграции культурно-исторического наследия городища Ахсикент — крупнейшего урбанистического и металлургического центра древней и средневековой Ферганской долины — в современную индустрию туризма и систему образования. В рамках исследования проанализирован геотуристический потенциал археологического парка под открытым небом «Ахсикент», разработаны модели его внедрения в образовательный процесс с использованием технологий «Живой истории» (Living History), цифровых решений VR/AR и кейс-методов. Автор предлагает комплекс практических*

рекомендаций по капитализации бренда Ахсикент на международном уровне, повышению эффективности научно-педагогических экскурсий и развитию археологического туризма в регионе.

Ключевые слова: *Ахсикент, археологический парк, культурное наследие, интеграция, образовательный туризм, «Живая история», цифровизация, Ферганская долина, эпоха Бабуридов.*

Abstract: *This article explores the issues of synergetic integration of the cultural and historical heritage of the Akhsikent site — the largest urban and metallurgical center of the ancient and medieval Fergana Valley — into the modern tourism industry and the education system. Within the framework of the study, the geo-touristic potential of the Akhsikent open-air archaeological park is analyzed, and models for its introduction into the educational process using "Living History" technologies, VR/AR digital solutions, and case methods are developed. The author proposes a set of practical recommendations for capitalizating the Akhsikent brand at the international level, improving the efficiency of scientific and pedagogical excursions, and developing archaeological tourism in the region.*

Keywords: *Akhsikent, archaeological park, cultural heritage, integration, educational tourism, Living History, digitalization, Fergana Valley, Baburid era.*

Kirish O‘zbekiston qadimiy sivilizatsiyalar va boy madaniy merosga ega mamlakatlardan biri hisoblanadi. Mamlakat hududida joylashgan tarixiy obidalar, qadimiy shahar xarobalari va arxeologik yodgorliklar xalqimizning ko‘p asrlik tarixi, madaniyati va ma’naviy qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan. Bugungi kunda ushbu tarixiy meros obyektlarini asrash, o‘rganish va kelajak avlodlarga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, Namangan viloyati hududida joylashgan Axsikent arxeologik yodgorligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Axsikent qadimda Farg‘ona vodiysining yirik siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri bo‘lgan. Tarixiy manbalarda ushbu shahar Farg‘ona davlatining poytaxti sifatida tilga olinadi. Shahar Buyuk Ipak yo‘li chorrahasida joylashganligi sababli Sharq va G‘arb mamlakatlari o‘rtasidagi savdo-sotiq, ilm-fan va madaniy aloqalarning rivojlanishida muhim o‘rin egallagan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan ko‘plab moddiy madaniyat namunalari Axsikentning o‘z davrida yuksak taraqqiyot darajasiga ega bo‘lganligini tasdiqlaydi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda tarixiy-madaniy meros obyektlarini asrash va ulardan samarali foydalanishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, turizm sohasini rivojlantirish, tarixiy obidalarni ta’mirlash va ularni xalqaro miqyosda targ‘ib qilish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Axsikent yodgorligi ham mamlakatimizning muhim turistik obyektlaridan biri sifatida rivojlantirilmoqda. Bu esa uning nafaqat tarixiy va madaniy, balki iqtisodiy ahamiyatini ham oshirmoqda.

Hozirgi globallashuv davrida yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularda tarixiy xotira va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish muhim vazifalardan biridir. Ushbu jarayonda tarixiy meros obyektlari, jumladan Axsikentning ta’lim tizimiga integratsiyalashuvi katta ahamiyatga ega. Maktab, kollej, litsey va oliy ta’lim muassasalarida Axsikent tarixi va madaniyati bilan bog‘liq ma’lumotlardan foydalanish o‘quvchilarning tarixiy tafakkurini rivojlantirishga, milliy o‘zlikni anglashga va ilmiy dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi Axsikent merosining tarixiy va madaniy ahamiyatini tahlil qilish, uning turizm va ta’lim tizimidagi o‘rnini aniqlash hamda ushbu merosni zamonaviy ta’lim va turizm jarayonlariga integratsiyalash imkoniyatlarini o‘rganishdan iborat. Tadqiqot davomida tarixiy manbalar, arxeologik ma’lumotlar, ilmiy adabiyotlar va xalqaro tajribalar tahlil qilinadi hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Axsikentning tarixiy shakllanishi va rivojlanish bosqichlari

Axsikent O‘zbekiston hududidagi eng qadimiy shaharlar qatoriga kiradi. U Namangan viloyatining To‘raqo‘rg‘on tumani hududida, Sirdaryoning o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan bo‘lib, qadimda Farg‘ona vodiysining siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazi sifatida tanilgan. Tarixiy manbalarda shahar nomi Axsikat, Axsikent va Axsikath shakllarida uchraydi. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, shahar miloddan avvalgi III–II asrlarda vujudga kelgan va uzoq vaqt davomida Farg‘ona vodiysining eng yirik markazlaridan biri bo‘lib xizmat qilgan.

Axsikentning rivojlanishida uning geografik joylashuvi muhim rol o‘ynagan. Shahar Buyuk Ipak yo‘li tarmoqlari kesishgan hududda joylashgani sababli savdo-sotiq, hunarmandchilik va madaniy aloqalar markaziga aylangan. Bu yer orqali Xitoy, Hindiston, Eron va boshqa mamlakatlar bilan savdo aloqalari olib borilgan. Natijada shaharda iqtisodiy taraqqiyot tezlashib, aholi soni ortib borgan.

IX–XII asrlarda Axsikent o‘zining eng yuksak taraqqiyot bosqichiga erishgan. Bu davrda shahar Farg‘ona vodiysining poytaxti sifatida faoliyat yuritgan. Tarixiy manbalarda shaharda saroylar, masjidlar, bozorlar, hammomlar va hunarmandchilik ustaxonalari mavjud bo‘lganligi qayd etiladi. Ayniqsa, temirchilik va metallga ishlov berish sohalari yuqori darajada rivojlangan. Arxeologik qazishmalar davomida topilgan metall buyumlar, qurol-yarog‘lar va bezaklar bunga yaqqol dalil bo‘la oladi.

Axsikent nafaqat iqtisodiy, balki ilmiy va madaniy markaz sifatida ham mashhur bo‘lgan. Bu yerda ko‘plab olimlar, shoirlar va mutafakkirlar yashab ijod qilgan. Shahar aholisi orasida savodxonlik darajasi yuqori bo‘lib, ilm-fan va madaniyat rivojiga katta e’tibor qaratilgan. Islom madaniyatining rivojlanishi bilan bir qatorda diniy ta’lim muassasalari ham faoliyat ko‘rsatgan.

XIII asrda mo‘g‘ullar istilosi Markaziy Osiyodagi ko‘plab shaharlar qatori Axsikentga ham katta zarar yetkazdi. Shahar qisman vayron qilingan bo‘lsa-da, keyinchalik qayta tiklangan va yana rivojlanishda davom etgan. Ammo XVII asr

boshlarida sodir bo‘lgan kuchli zilzila natijasida Axsikent deyarli butunlay vayron bo‘lib, aholi boshqa hududlarga ko‘chib ketgan. Shundan so‘ng shahar o‘zining avvalgi mavqeini yo‘qotgan.

Bugungi kunda Axsikent xarobalari O‘zbekistonning muhim arxeologik yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Mustaqillik yillarida bu yerda keng ko‘lamli arxeologik tadqiqotlar olib borilib, qadimiy shahar hayotiga oid ko‘plab yangi ma’lumotlar aniqlandi. Topilgan tarixiy ashyolar Axsikentning o‘rta asrlardagi yirik shaharlardan biri bo‘lganligini tasdiqlaydi.

Shunday qilib, Axsikentning shakllanishi va rivojlanishi Farg‘ona vodiysi tarixida alohida o‘rin tutadi. Uning boy tarixi va madaniy merosi bugungi kunda ham ilmiy tadqiqotlar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Axsikentning buyuk ipak yo‘lidagi o‘rni

Buyuk Ipak yo‘li qadim zamonlardan boshlab Sharq va G‘arb mamlakatlarini bog‘lab turgan eng yirik xalqaro savdo va madaniy almashinuv tizimi hisoblanadi. Ushbu yo‘l orqali nafaqat turli xil mahsulotlar, balki ilm-fan, madaniyat, din va texnologiyalar ham tarqalgan. Axsikentning Buyuk Ipak yo‘li bo‘yida joylashganligi uning iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Tarixiy manbalarga ko‘ra, Farg‘ona vodiysi qadimdan savdo karvonlari uchun muhim hududlardan biri bo‘lgan. Axsikent esa ushbu hududning markaziy shahri sifatida karvon yo‘llarining asosiy bekatlaridan biri vazifasini bajargan. Bu yerga Xitoy ipaklari, Hindiston ziravorlari, Eron gilamlari va boshqa qimmatbaho mahsulotlar olib kelingan. O‘z navbatida, Farg‘ona vodiysida ishlab chiqarilgan mahsulotlar boshqa mamlakatlarga eksport qilingan.

Axsikent orqali o‘tgan savdo yo‘llari shaharning iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirgan. Shaharda yirik bozorlar faoliyat yuritgan bo‘lib, ularda turli mamlakatlardan kelgan savdogarlar savdo qilgan. Bu esa shaharning xalqaro

nufuzini oshirib, uni mintaqaning eng muhim iqtisodiy markazlaridan biriga aylantirgan.

Savdo aloqalari bilan bir qatorda madaniy almashinuv ham kuchli bo‘lgan. Turli xalqlar vakillarining Axsikentga kelishi natijasida madaniyatlararo muloqot rivojlangan. Shahar aholisi boshqa mamlakatlarning urf-odatlari, san’ati va ilmiy yutuqlari bilan tanishgan. Bu jarayon mahalliy madaniyatning boyishiga xizmat qilgan.

Axsikent Buyuk Ipak yo‘lining muhim markazi sifatida bugungi kunda ham katta turistik ahamiyatga ega. Zamonaviy turizmda tarixiy savdo yo‘llari bo‘ylab sayohat qilishga qiziqish ortib bormoqda. Shu sababli Axsikentni Buyuk Ipak yo‘li merosi bilan bog‘liq xalqaro turistik marshrutlarga kiritish katta istiqbollarga ega.

Axsikentdagi arxeologik tadqiqotlar va topilmalar

Axsikent O‘zbekiston hududidagi eng muhim arxeologik yodgorliklardan biri hisoblanadi. Ushbu yodgorlikni ilmiy jihatdan o‘rganish XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jadallashdi. Arxeologlar tomonidan olib borilgan qazishmalar natijasida qadimgi shaharning tuzilishi, iqtisodiy hayoti, hunarmandchiligi va madaniyatiga oid qimmatli ma’lumotlar qo‘lga kiritildi. Tadqiqotlar Axsikentning o‘rta asrlarda Markaziy Osiyoning yirik shaharlari qatoridan joy olganligini ko‘rsatmoqda.

Arxeologik qazishmalar davomida shaharning mudofaa devorlari, saroy qoldiqlari, turar joy binolari, ustaxonalar, hammomlar va sug‘orish inshootlari aniqlangan. Bu topilmalar shaharning puxta reja asosida qurilganligini hamda rivojlangan shaharsozlik madaniyatiga ega bo‘lganligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, shaharning ichki va tashqi qismlari, qal’a va rabod qismlarining mavjudligi Axsikentning o‘sha davr uchun yirik siyosiy markaz bo‘lganidan dalolat beradi.

Qazishmalar natijasida ko‘plab sopol buyumlar topilgan. Ular orasida ko‘zalar, laganlar, piyolalar va turli maishiy idishlar mavjud. Ushbu buyumlarning bezaklari va tayyorlanish uslublari o‘sha davr hunarmandchiligining yuksak

darajada rivojlanganligini ko‘rsatadi. Sopol buyumlarning ayrimlari rangli naqshlar bilan bezatilgan bo‘lib, ular o‘rta asr san’ati namunasi sifatida katta ilmiy ahamiyatga ega.

Axsikent metallurgiya markazi sifatida ham mashhur bo‘lgan. Tadqiqotlar davomida temir eritish pechlari, metallga ishlov berish ustaxonalari va ko‘plab metall buyumlar topilgan. Jumladan, qilichlar, nayzalar, pichoqlar, taqinchoqlar va turli mehnat qurollari aniqlangan. Bu topilmalar shaharda temirchilik va qurolsozlik rivojlanganligini ko‘rsatadi. Ayrim olimlarning fikricha, Axsikentda ishlab chiqarilgan po‘lat buyumlar boshqa hududlarga ham eksport qilingan.

Topilgan tangalar alohida ahamiyatga ega. Numizmatik materiallar shaharning turli davlatlar bilan iqtisodiy aloqalari mavjud bo‘lganligini ko‘rsatadi. Tangalar orqali shaharning savdo munosabatlari, siyosiy tarixi va iqtisodiy rivojlanish bosqichlarini o‘rganish mumkin. Turli davrlarga mansub tangalarning topilishi Axsikentning uzoq vaqt davomida yirik iqtisodiy markaz bo‘lib qolganligini tasdiqlaydi.

Arxeologik topilmalar orasida zargarlik buyumlari ham muhim o‘rin tutadi. Oltin, kumush va bronzadan yasalgan bezaklar o‘sha davr aholisi estetik didining yuqori bo‘lganligini ko‘rsatadi. Ayollar va erkaklar taqadigan uzuklar, bilaguzuklar, marjonlar va boshqa bezaklar shaharda zargarlik san’ati rivojlanganligini isbotlaydi.

Bugungi kunda Axsikentda olib borilayotgan tadqiqotlar davom etmoqda. Zamonaviy texnologiyalar yordamida yangi ma’lumotlar olinib, tarixiy merosni yanada chuqurroq o‘rganish imkoniyati yaratilmoqda. Arxeologik topilmalar muzeylarda saqlanib, ilmiy tadqiqotlar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Madaniy meros har bir xalqning tarixiy xotirasini, milliy o‘zligini va ma’naviy qadriyatlarini aks ettiradi. Axsikent yodgorligi ham o‘zbek xalqining boy tarixiy va madaniy merosining muhim qismi hisoblanadi. Ushbu yodgorlik orqali

ajdodlarimizning turmush tarzi, iqtisodiy faoliyati, madaniyati va dunyoqarashi haqida qimmatli ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin.

Axsikentning madaniy meros sifatidagi ahamiyati, avvalo, uning ko‘p asrlik tarixga ega ekanligi bilan belgilanadi. Qadimiy shahar hududidan topilgan arxeologik topilmalar ajdodlarimizning yuksak madaniyat va sivilizatsiya yaratganligini tasdiqlaydi. Bu esa yosh avlodda milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Axsikent o‘z davrida ilm-fan va madaniyat markazi bo‘lgan. Shaharda diniy va dunyoviy bilimlar rivojlangan, hunarmandchilik san’ati yuqori darajaga ko‘tarilgan. Bu holat shaharning nafaqat iqtisodiy, balki ma’naviy markaz sifatida ham faoliyat yuritganligini ko‘rsatadi. Shu sababli Axsikentni o‘rganish xalqimizning ilmiy va madaniy taraqqiyot tarixini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Bugungi kunda tarixiy meros obyektlarini saqlash va ulardan samarali foydalanish dolzarb masalalardan biridir. Axsikent yodgorligini asrash orqali nafaqat tarixiy boyliklarni saqlab qolish, balki kelajak avlodlarga yetkazish ham mumkin. Shu maqsadda yodgorlik hududida konservatsiya va restavratsiya ishlari olib borilmoqda.

Madaniy merosning yana bir muhim jihati uning turizmni rivojlantirishdagi o‘rnidir. Tarixiy obidalar turistlarni jalb qiluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Axsikentning tarixiy va madaniy salohiyati undan turizm sohasida samarali foydalanish imkonini beradi. Bu esa hudud iqtisodiyotining rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Shuningdek, Axsikent merosi ta’lim tizimida ham muhim manba hisoblanadi. Tarix, arxeologiya, madaniyatshunoslik va turizm yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun ushbu yodgorlik amaliy va nazariy bilimlarni mustahkamlash imkonini yaratadi. Maktab o‘quvchilari uchun tashkil etiladigan ekskursiyalar esa tarixga bo‘lgan qiziqishni oshiradi.

Umuman olganda, Axsikentning madaniy meros sifatidagi ahamiyati juda katta. U milliy qadriyatlarni saqlash, yosh avlodni tarbiyalash, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va turizm salohiyatini oshirishda muhim o‘rin egallaydi.

Axsikentning turizm salohiyati va turizmni rivojlantirish istiqbollari

Bugungi kunda turizm dunyo iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan sohalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, tarixiy-madaniy turizm ko‘plab mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanishning muhim omiliga aylangan. O‘zbekiston ham boy tarixiy merosga ega davlat sifatida ushbu yo‘nalishda katta imkoniyatlarga ega. Axsikent arxeologik yodgorligi mamlakatimizning tarixiy turizm salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi muhim obyektlardan biridir.

Axsikentning turizm salohiyati, avvalo, uning boy tarixiy o‘tmishi bilan bog‘liq. Qadimiy shahar xarobalari, arxeologik topilmalar va tarixiy manbalar sayyohlarning qiziqishini uyg‘otadi. Jahon tajribasida qadimiy shahar xarobalari asosida yirik turistik markazlar tashkil etilgan bo‘lib, Axsikent ham shunday obyektlardan biriga aylanish imkoniyatiga ega.

Axsikentning geografik joylashuvi ham turizmni rivojlantirish uchun qulay hisoblanadi. Namangan viloyatining markaziy qismida joylashgan ushbu hududga avtomobil va temir yo‘l transporti orqali oson yetib borish mumkin. Bu esa mahalliy va xorijiy turistlar oqimini ko‘paytirish imkonini beradi.

Tarixiy turizmni rivojlantirishda infratuzilma muhim ahamiyatga ega. Axsikent hududida zamonaviy mehmonxonalar, axborot markazlari, ekskursiya xizmatlari, suvenir do‘konlari va ovqatlanish maskanlarini tashkil etish turistlar uchun qulay sharoit yaratadi. Natijada sayyohlarning ushbu hududga tashrif buyurish istagi ortadi.

Axsikent asosida turistik marshrutlar ishlab chiqish ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, “Buyuk Ipak yo‘li merosi”, “Farg‘ona vodiysi qadimiy shaharlari” yoki “Namanganning tarixiy obidalari” kabi yo‘nalishlar turistlar uchun qiziqarli

bo‘lishi mumkin. Bunday marshrutlar orqali sayyohlar bir vaqtning o‘zida bir nechta tarixiy obyektlar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ichki turizmni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan Axsikent maktab o‘quvchilari, talabalar va mahalliy aholi uchun tarixiy-ekskursion markaz vazifasini bajarishi mumkin. Turli ta’lim muassasalari tomonidan tashkil etiladigan sayohatlar yoshlarning tarixga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Xalqaro turizmni rivojlantirish uchun esa Axsikent haqida xorijiy tillarda ma’lumotlar tayyorlash, internet platformalarida targ‘ibot ishlarini kuchaytirish va xalqaro ko‘rgazmalarda ushbu yodgorlikni tanitish zarur. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali Axsikentning dunyo miqyosidagi nufuzini oshirish mumkin.

Turizmning rivojlanishi hudud iqtisodiyotiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Mehmonxona, transport, savdo va xizmat ko‘rsatish sohalarida yangi ish o‘rinlari yaratiladi. Hunarmandchilik mahsulotlariga bo‘lgan talab ortadi. Natijada mahalliy aholining daromadlari oshadi va hududning iqtisodiy salohiyati kuchayadi.

Shunday qilib, Axsikentning turizm salohiyati juda yuqori bo‘lib, undan samarali foydalanish nafaqat tarixiy merosni ommalashtirish, balki iqtisodiy rivojlanishga ham xizmat qiladi.

Axsikent merosini ta’lim tizimiga integratsiyalash imkoniyatlari

Ta’lim tizimi tarixiy merosni yosh avlodga yetkazishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Tarixiy yodgorliklar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlash, tarixiy tafakkurini rivojlantirish va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu jihatdan Axsikent merosini ta’lim tizimiga integratsiyalash muhim ahamiyatga ega.

Maktab ta’limida Axsikent tarixiga oid ma’lumotlardan foydalanish o‘quvchilarning tarix faniga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Tarix darslarida

Axsikentning rivojlanish bosqichlari, Buyuk Ipak yo‘lidagi o‘rni va arxeologik topilmalari haqida ma’lumot berish orqali o‘quvchilar milliy tarixni chuqurroq o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Ekskursiyalar ta’limning eng samarali shakllaridan biri hisoblanadi. O‘quvchilar va talabalarning Axsikentga tashrifi nazariy bilimlarni amaliy kuzatishlar bilan boyitadi. Tarixiy obyektlarni bevosita ko‘rish va ular haqida mutaxassislar ma’lumotlarini tinglash ta’lim samaradorligini oshiradi.

Oliy ta’lim muassasalarida Axsikent bo‘yicha maxsus kurslar va ilmiy tadqiqotlarni yo‘lga qo‘yish ham muhimdir. Tarix, arxeologiya, turizm, madaniyatshunoslik va geografiya yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ushbu yodgorlikni ilmiy jihatdan o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lishlari kerak. Bu esa yangi ilmiy tadqiqotlarning paydo bo‘lishiga xizmat qiladi.

Axsikent materiallaridan foydalanib elektron darsliklar, multimedia vositalari va virtual ekskursiyalar yaratish ham dolzarb vazifalardan biridir. Zamonaviy o‘quvchilar axborot texnologiyalaridan keng foydalanayotganligi sababli raqamli ta’lim vositalari ularning qiziqishini yanada oshiradi.

Shuningdek, Axsikent mavzusida insholar tanlovi, ilmiy konferensiyalar, tarixiy viktorinalar va loyiha ishlari tashkil etish mumkin. Bunday tadbirlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi hamda ilmiy izlanishga qiziqishini kuchaytiradi.

Tarixiy merosni ta’lim bilan bog‘lashning yana bir muhim jihati vatanparvarlik tarbiyasidir. Yoshlar Axsikent kabi buyuk tarixiy markazlar haqida ma’lumotga ega bo‘lish orqali ajdodlarining boy madaniy merosidan faxrlanishni o‘rganadilar. Bu esa milliy o‘zlikni anglash va ma’naviy kamolotning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Axsikent merosining ta’lim tizimiga integratsiyalashuvi tarixiy bilimlarni kengaytirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va yosh avlodning ma’naviy

tarbiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu sababli ushbu yo‘nalishda keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirish zarur.

Raqamli texnologiyalar va virtual turizmda axsikent merosidan foydalanish

XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi turizm va ta’lim sohalariga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Tarixiy va madaniy meros obyektlarini saqlash, targ‘ib qilish hamda keng jamoatchilikka yetkazishda raqamli texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Axsikent merosini ommalashtirishda ham zamonaviy texnologiyalar katta imkoniyatlar yaratadi.

Bugungi kunda dunyoning ko‘plab tarixiy obyektlarida virtual ekskursiyalar tashkil etilgan. Virtual ekskursiyalar internet orqali tarixiy yodgorliklarni masofadan turib tomosha qilish imkonini beradi. Axsikent hududining uch o‘lchamli modeli yaratilsa, dunyoning istalgan nuqtasidagi inson ushbu qadimiy shahar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa yodgorlikning xalqaro miqyosda tanilishiga xizmat qiladi.

3D modellashtirish texnologiyasi yordamida qadimiy Axsikent shahrining tarixiy qiyofasini tiklash mumkin. Tadqiqotchilar tomonidan topilgan arxeologik ma’lumotlar asosida shaharning ko‘chalari, saroylari, bozorlari va mudofaa devorlarini virtual tarzda qayta yaratish mumkin. Bunday loyihalar nafaqat turistlar, balki tarixchilar va talabalar uchun ham qimmatli manba hisoblanadi.

Mobil ilovalar yaratish ham muhim yo‘nalishlardan biridir. Maxsus ilova orqali foydalanuvchilar Axsikent tarixi, arxeologik topilmalari va turistik obyektlari haqida batafsil ma’lumot olishlari mumkin. Shuningdek, ilovaga audio gid, interaktiv xarita va virtual sayohat funksiyalarini qo‘shish mumkin.

QR-kod texnologiyasi ham tarixiy obyektlarni o‘rganishda keng qo‘llanilmoqda. Axsikent hududidagi har bir obyekt yoniga QR-kodlar

joylashtirilsa, turistlar smartfonlari yordamida qo‘shimcha ma’lumotlarni tez va qulay tarzda olishlari mumkin bo‘ladi.

Ijtimoiy tarmoqlar ham tarixiy merosni targ‘ib qilishning samarali vositasiga aylangan. Axsikent haqida videoroliklar, virtual turlar va ilmiy ma’lumotlarni internet platformalarida muntazam joylashtirib borish yodgorlikning mashhurligini oshiradi. Bu esa mahalliy va xorijiy turistlar sonining ortishiga xizmat qiladi.

Shunday qilib, raqamli texnologiyalar Axsikent merosini saqlash, targ‘ib qilish va ta’lim tizimiga integratsiyalashning zamonaviy vositasi hisoblanadi.

Axsikent merosini turizm va ta’lim tizimiga integratsiyalashda xorijiy tajriba

Tarixiy-madaniy meros obyektlarini turizm va ta’lim tizimi bilan uyg‘unlashtirish dunyoning ko‘plab mamlakatlarida muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Ushbu tajribalarni o‘rganish Axsikent merosidan samarali foydalanish bo‘yicha muhim xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Italiyadagi qadimiy Pompey shahri tarixiy turizmning eng muvaffaqiyatli namunalaridan biri hisoblanadi. Arxeologik qazishmalar natijasida tiklangan ushbu shahar har yili millionlab sayyohlarni qabul qiladi. Shu bilan birga, Pompey maktab va universitetlar uchun amaliy ta’lim markazi vazifasini ham bajaradi.

Perudagi Machu-Pikchu majmuasi ham tarixiy merosni turizm bilan integratsiyalashning yorqin namunasidir. Bu yerda zamonaviy infratuzilma yaratilgan bo‘lib, turistlarga qulay sharoitlar taqdim etilgan. Olingan daromadning bir qismi yodgorlikni saqlash va ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladi.

Iordaniyadagi Petra shahri ham tarixiy va madaniy merosni iqtisodiy rivojlanish omiliga aylantirish mumkinligini ko‘rsatadi. Ushbu obyekt nafaqat turizm markazi, balki tarix va arxeologiya bo‘yicha tadqiqotlar olib boriladigan ilmiy maskan hisoblanadi.

Mazkur tajribalar shuni ko‘rsatadiki, tarixiy merosni asrash va undan foydalanish bir-biriga zid emas. To‘g‘ri boshqaruv tizimi orqali yodgorliklarni saqlagan holda ulardan iqtisodiy va ta’limiy maqsadlarda samarali foydalanish mumkin.

Axsikentda ham xalqaro tajribadan foydalanish orqali turistik infratuzilmani rivojlantirish, ilmiy markazlar tashkil etish va zamonaviy ta’lim dasturlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA

Axsikent O‘zbekistonning eng qadimiy va noyob tarixiy-madaniy meros obyektlaridan biri hisoblanadi. Uning boy tarixi, arxeologik topilmalari va Buyuk Ipak yo‘lidagi muhim o‘rni ushbu yodgorlikning nafaqat milliy, balki xalqaro ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Axsikent merosini turizm va ta’lim tizimiga integratsiyalash tarixiy merosni asrash, yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash hamda hudud iqtisodiyotini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, tarixiy turizmni rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va ta’lim jarayonida tarixiy obyektlardan foydalanish ushbu maqsadga erishishda muhim omil hisoblanadi.

Kelgusida Axsikentning ilmiy, madaniy va turistik salohiyatidan yanada samarali foydalanish orqali uni xalqaro miqyosdagi yirik tarixiy va madaniy markazlardan biriga aylantirish mumkin. Bu esa O‘zbekistonning boy tarixiy merosini dunyo hamjamiyatiga keng targ‘ib qilishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

3. Asqarov A. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015.

4. Rtveladze E.V. O‘zbekistonning qadimiy shaharlari. – Toshkent, 2018.

5. Axmedov B. O‘zbekiston tarixi manbalari. – Toshkent, 2017.

6. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – Toshkent, 2005.

7. Axsikent arxeologik yodgorligi bo‘yicha ilmiy to‘plamlar. – Namangan, 2022.

8. O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi materiallari.

AXSIKENT SIVILIZATSIYASINING TARIXIY-FALSAFIY ASOSLARI VA UNING MILLIY O‘ZLIKNI SHAKLLANTIRISHDAGI O‘RNI

Kamolova Kimyoxon G‘ulomjonovna

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Namangan davlat pedagogika instituti

kumush.otabek@gmail.ru

https://orcid.org/0009-0007-9877-9321

+99897-743-42-63

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21042052

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Axsikent sivilizasiyasining tarixiy-falsafiy asoslari hamda uning milliy o'zlikni shakllantirishdagi o'rni ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinib, Axsikent nafaqat qadimiy arxeologik yodgorlik, balki Markaziy Osiyo sivilizasiyasining siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy taraqqiyotini o'zida mujassam etgan muhim tarixiy qadriyatkardan biri ekanligi ochib berilgan. Bundan tashqari, Axsikent merosining Yangi O'zbekiston sharoitida Uchinchi Renessans g'oyalari, yoshlar ma’naviy tarbiyasi va milliy taraqqiyot strategiyasi bilan o'zaro bog'liqligi yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Ахсикент, цивилизация, миллий ўзлик, тарихий хотира, маданий мерос, аксиология, Учинчи Ренессанс, миллий тараққиёт, тарихий тафаккур, цивилизацион ёндашув.*

Аннотация*: В данной статье анализируются историко-философские основы Аксикентской цивилизации и ее роль в формировании национального самосознания с социально-философской точки зрения, раскрывается, что аксикент является не только древним археологическим памятником, но и одним из важнейших исторических ценностей, олицетворяющих политический, экономический, культурный и духовный прогресс среднеазиатской цивилизации. Кроме того, освещены идеи Третьего*

Возрождения в контексте Нового Узбекистана, взаимосвязь наследия Ахсикента с духовным воспитанием молодежи и стратегией национального развития.

Ключевые слова: *Ахсикент, цивилизация, национальная идентичность, историческая память, культурное наследие, аксиология, Третье Возрождение, национальное развитие, историческая мысль, цивилизационный подход.*

Annotation*: This article analyzes the historical and philosophical foundations of the Akhsikent civilization and its role in the formation of the national self from a socio-philosophical point of view, revealing that Akhsikent is not only an ancient archaeological monument, but also one of the important historical values that embodies the political, economic, cultural and spiritual progress of Central Asian civilization. In addition, the Axsikent heritage is discussed in the context of the New Uzbekistan, its connection with the ideas of the Third Renaissance, the spiritual education of youth, and the national development strategy.*

Keywords: *Axicent, civilization, national identity, historical memory, cultural heritage, axiology, third Renaissance, national development, historical thought, civilizational approach.*

Axsikent – buyuk tariximiz ko‘zgusi. Bobolarimiz yashagan, qahramonlik ko‘rsatgan bu manzilda tariximizni tiklash uchun juda katta manba, o‘tmish dalillari bor. Biz shu paytgacha faqat mashhur shaharlarimiz tarixini o‘rgandik, bunday joylarga e'tibor qilmadik. Ma’naviyatimizni yuksaltirmoqchi bo‘lsak, yoshlarimizni ota-bobolarimizning asl merosidan bahramand etib ulg‘aytirishimiz, xalqimizga yetkazishimiz kerak.

Sh.Mirziyoyev.

Insoniyat taraqqiyoti o‘z boshidan turli-tuman sivilizatsiyalarning yuksalishi va tanazzulini o‘tkazgan. Bu nafaqat siyosiy yoki iqtisodiy jarayonlar, balki ma’naviy qadriyatlar va ilmiy tafakkurning shakllanishi bilan ham belgilanadi. Bunda esa o‘z o‘rniga ega bo‘lgan ma’naviy boyliklar, qadriyatlar mavjud bo‘lib, ularning ichida Farg‘ona vodiysida shakllangan qadimiy shahar – Axsikent alohida o‘rin tutadi.

Yoshligimda Axsikent deganda ko‘z oldimda “Boburnoma”da tasvirlangan Umarshayx Mirzo bilan bog‘liq voqeilik namoyon bo‘lardi:

“Umar-Shayx Mirzo kaptarlarning lojuvard osmonda bir-birini quvlashib, aylanayotganiga zavq bilan tikilib qoldi. Kaptarlarning o‘yini unga bir zum o‘z taqdirini eslatdi. Mana necha yildirki Farg‘ona vodiysining yuragi bo‘lmish Axsikent yov taxlikasida. Azim Sayxunning qirg‘og‘ida joylashgan bu azim shaharga ko‘z tikkanlar qancha….

Birdan yer ostidan gumbirlagandek sas kelib, daryo ustida osilib turgan qal'a devori asta-sekin pastga pastga siljiy boshladi. Umar-Shayx Mirzo vazirining “Hukmdoriiim” degan qichqirig‘inii elas-elas eshitdida, devor bilan birgalikda chang-to‘zonning ichida yo‘qoldi……”

“Boburnoma”gi ushbu tasvir yillar davomida ko‘z o‘ngimdan ketmadi va faqat o‘sha joyni ko‘rish orzusi meni band qilgan edi. Bugungi Yangi O‘zbekiston sharoitida milliy o‘zlikni anglash, tarixiy merosni asrash va Uchinchi Renessans g‘oyalarini hayotga tatbiq etish maqsadida davlatimiz rahbari, arxeologlar va tarixchilar diqqat markaziga tushgan Axsikentning qayta tiklanishi mana shunday orzuning amalga oshishiga sabab bo‘ldi.

Axsikentni faqat arxeologik yodgorlik sifatida emas, balki Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining ma’naviy, siyosiy va madaniy taraqqiyotini o‘zida mujassam etgan tarixiy-falsafiy fenomen sifatida o‘rganish ilmiy jihatdan dolzarb bo‘lgan vazifalardan hisoblanadi.

Axsikentning tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, tarixiy manbalarda keltirilishicha, bu shahar miloddan avvalgi 3 - 2-asrlarda vujudga kelgan, 9 -10 - asrlarda Farg‘ona vodiysining poytaxti bo‘lgan. 1219 yilda mo‘g‘ullar tomonidan butunlay vayron qilingan.

Olima Zamira Isaqovaning ta'kidlashicha, Axsikent so‘zi “Axsining yurti” degan ma'noni bildiradi. Axsi esa Axzi so‘zidan olingan. Tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” (XIV asr) asarida, Xusrav I Anushervon (532-579) Farg‘onani bino qilib, bu yerga har bir xonadondan bittadan kishini ko‘chirgan, o‘sha kishilardan birining ismi Axzi bo‘lib, u barpo etilgan joy uning nomi bilan atala boshlagan.

Tilshunos olim F.Ishoqov “Axsi” so‘zi hakas tilidagi “agis” so‘zining qisqarishidan kelib chiqqanini, ya'ni “agis” – agsi – axsi – shakliga kelganini ta'kidlaydi. Rus olimlari M.N.Bogolyubov va D.I.Smirnovalar esa “Axsikat” so‘zi sug‘d tilidan tarjima qilganda “xshikat” – “oq shahar” degan ma'noni anglatadi, deb yozganlar. Yozma manbalar va adabiyotlarda Axsikent “Axsi”, “Axsikat”, “Askatan”, “eski Axsi”, “yangi Axsi” deb yozib kelingan.

Mashhur sayyoh geografik olim Yoqut Hamaviyning (1179-1229) “Mo‘'jam al-buldon” (“Mamlakatlar lug‘ati”) asarida yunon tarixchilari Gerodotning (miloddan avvalgi V-asr) “Tarix” va Ptolomeyning (miloddan avvalgi III asr) “Kundaliklar” asarlarida Farg‘onaning poytaxti “Askatan” deb tilga olingani eslatilgan. Xitoy sayyohi Chjon Syan (miloddan avvalgi II asr) o‘z kundaliklarida O‘rta Osiyoning Dovon (Davan) degan dehqonchilik yurti borligi, uning aholisi 300000 kishi bo‘lib, 60000 qo‘shinga egaligi, ular kamon va nayzalar bilan qurollangani va ot ustida jang kilishga mohir ekanliklari, sholi, g‘alla, uzum ekilishi, zotdor otlari haqida yozib qoldirgan.

“Boburnoma”da Axsikent haqida shunday tavsif beriladi:

“Sayhun suvining shimoliy tarafidagi shaharlardan biri Axsidir. Kitoblarda Axsikat deb yozadilar. Chunonchi, Asiriddin shoirni Asiriddini Axsikatiy deydilar. Farg‘onada Andijondan keyin bundan yirikroq shahar yo‘q.

Axsi Andijondan g‘arb sari to‘qqiz yig‘ochlik yo‘lda. Umarshayx mirzo buni poytaxt qilgan edi. Sayhun daryosi qo‘rg‘onining pastidan oqadi. Qo‘rg‘oni baland jar ustida joylashgan. Xandaq o‘rnida chuqur jarlar bor. Buni poytaxt qilgan Umarshayx mirzo bir-ikki marotaba tashqariroqdan yana jarlar qazdirdi.

Farg‘onada bunchalik mustahkam qo‘rg‘on yo‘q. Mahallalari qo‘rg‘ondan bir shar'iy yiroqroqda joylashgan. “Qishloq qayerdayu, daraxtlar qayerda?” maqolini aftidan Axsi uchun aytganlar. Qovuni yaxshi bo‘ladi. Bir nav qovunini “mirtemuriy” deydilar, bunday qovunning boshqa joyda ham borligi ma’lum emas. Buxoro qovuni mashhurdir. Samarqandni olgan paytimda Axsidan, Buxorodan qovun keltirib, bir o‘tirishda so‘ydirdim. Axsi qovunining hech misli yo‘q edi. Ovlanadigan qushlari behad yaxshi bo‘ladi. Sayhun daryosining Axsi tarafi dashtdan iborat. Oq kiyigi ko‘p bo‘ladi. Andijon tarafi to‘qay; bug‘u-maral, qirg‘ovul va yovvoyi quyon ko‘p. Aksari juda semiz bo‘ladi” .

Farg‘ona vodiysi qadimdan Sharq sivilizatsiyasining markazlaridan biri bo‘lgan. Qulay tabiiy sharoit, serhosil yerlar, suv resurslari va xalqaro savdo yo‘llari ushbu hududda yirik shahar madaniyatining rivojlanishiga xizmat qilgan.

Arxeologik topilmalar shaharda yuqori darajada rivojlangan shaharsozlik tizimi, mukammal muhandislik ishlari(uylarning joylashish o‘rni, suv to‘g‘onlari va kanallarining qurilishi), hunarmandchilik (temirchilik, kulolchilik, shishasozlik, zargarlik va qurolsozlik) va savdo infratuzilmasi mavjud bo‘lganligini ko‘rsatadi. Axsikentdagi har bir topilma o‘sha davrdagi yuqori texnologik madaniyatning yuksak darajada rivojlanganligidan darak beradi. Bu esa shahar iqtisodiy qudratining ma’naviy va intellektual taraqqiyot bilan uzviy bog‘liqligini anglatadi.

Axsikent Buyuk Ipak yo‘li tarmoqlarida joylashganligi uchun ham turli madaniyatlar, ilm-fan yutuqlari va sivilizatsiyalar o‘rtasidagi muloqot maydoni

vazifasini ham bajargan. Shunday ekan, Axsikentni o‘rganish milliy o‘zlikni o‘rganish sanaladi. Bilamizki, milliy o‘zlik – bu muayyan xalqning, millatning o‘z tarixi, madaniyati, qadriyatlari, tili, va ma’naviy merosini anglashi hamda ularni kelajak taraqqiyotining asosi sifatida qabul qilishidir. Bu jarayonda tarixiy shaxslar, tarixiy shaharlar va sivilizatsion markazlar xalqning jamoaviy xotirasi va madaniy identikligini shakllantiruvchi muhim omil sifatida maydonga chiqadi. Axsikentni mana shunday ma’naviy tayanch nuqta sifatida ko‘rsatish mumkin. Axsikent nafaqat Farg‘ona vodiysi, Namangan tarixi, balki butun O‘zbekiston davlatchiligi tarixi va madaniy taraqqiyotining muhim ramzi hisoblanadi.

Falsafiy nuqtai nazardan, Axsikent yodgorligi yoshlar kamolotida milliy o‘zlikning quyidagi muhim asoslarini shakllantirishga xizmat qilishi mumkin:

1. Tarixiy xotirani shakllantiruvchi makon sifatida - xalqning ko‘p asrlik taraqqiyot tajribasini o‘zida mujassam etadi. U milliy xotiraning moddiy ifodasi sifatida avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy vorisiylikni ta’minlaydi.

2. Milliy g‘urur va o‘zlikni mustahkamlovchi omil hisoblanadi. Yuksak madaniyat va rivojlangan sivilizatsiyaga ega bo‘lgan ajdodlar merosini anglash – insonda faxrlanish tuyg‘usi, Vatanga sadoqat va milliy mas’uliyatni shakllantiradi.

3. Yangi Renessans g‘oyalarining tarixiy ildizlaridan biri sifatida qaraladigan bo‘lsa, bugungi Yangi O‘zbekiston sharoitida Uchinchi Renessans g‘oyasi tarixiy sivilizatsion merosga tayangan holda rivojlanmoqda. Shuning uchun ham Axsikent nafaqat o‘tmish yodgorligi, qadriyatlari, balki ilm-fan, innovasiya, ma’naviyat va milliy taraqqiyot g‘oyalarini uyg‘unlashtiruvchi tarixiy ramz sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, Axsikentni faqatgina arxeologik tarixiy yodgorlik sifatida emas, balki milliy sivilizatsion xotiraning moddiylashgan shakli, tarixiy o‘zlikning ma’naviy tayanchi va milliy identlilikni anglashning aksiologik manbai sifatida o‘rganish va kelajak avlodlarga yetkazish maqsadga muvofiqdir. Uning tarixini mukammal o‘rganish, o‘tmish ajdodlar hayoti haqida bilim olish bilangina

cheklanib qolmaydi, balki jamiyat rivojining ma’naviy barqarorligi, milliy birligi va kelajak taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan qadriyatlar tizimini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. “Boburnoma”. “Ijod - press” nashriyoti. 2020 yil.
2. S.Jalolov. Bobur haqida o‘ylar. Toshkent. “Sharq” nashriyoti. 2006 yil.
3. https://gov.uz/oz/namangan/news/view/23471
4. https://nargis.uz/?p=960

MUSTAQILLIK YILLARIDA AXSIKENT TARIXIY MEROSINING TIKLANISHI VA RIVOJLANISHI

To’raxonova Zebo

Namangan Davlat pedagogika insitituti talabasi

https://orcid.org/0009-0001-9944-8141

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21042212

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyingi davrda qadimiy Axsikent tarixiy-madaniy merosining tiklanishi va rivojlanishi jarayonlari tahlil qilinadi. Xususan, mustaqillik yillarida Axsikent hududida olib borilgan arxeologik qazishmalar, yodgorlikni saqlash va restavratsiya ishlari, shuningdek, uni ilmiy va turistik markaz sifatida rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar yoritiladi.*[20] *Maqolada Axsikentning O‘zbekiston tarixiy merosini tiklashdagi o‘rni hamda uning milliy identitetni shakllantirishdagi ahamiyati ilmiy asosda ko‘rib chiqiladi.*

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, mustaqillik davrida Axsikent yodgorligini o‘rganish va saqlash ishlari yangi bosqichga ko‘tarilgan bo‘lib, bu jarayon xalqaro ilmiy hamkorlikni kengaytirish va madaniy turizmni rivojlantirishga xizmat qilmoqda[21].

Abstract: *This article analyzes the restoration and development processes of the ancient historical and cultural heritage of Axsikent during the years of independence of Uzbekistan. In particular, the article highlights archaeological excavations carried out in the Axsikent area, restoration and conservation works of the site, as well as measures aimed at developing it as a scientific and tourist center. The study also examines the role of Axsikent in the restoration of Uzbekistan’s historical heritage and its importance in shaping national identity.*

[20] O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi ma’lumotlari, “Axsikent arxeologik yodgorligi bo‘yicha hisobotlar”, 2010–2023 yillar.
[21] Shamsutdinov R., “O‘zbekiston tarixiy yodgorliklari va ularni saqlash muammolari”, Toshkent, 2018.

According to the research findings, during the independence period, the study and preservation of the Axsikent monument has reached a new stage, contributing to the expansion of international scientific cooperation and the development of cultural tourism.

Аннотация: *В данной статье анализируются процессы восстановления и развития древнего историко-культурного наследия Аксикента в годы независимости Узбекистана. В частности, рассматриваются археологические раскопки, проведённые на территории Аксикента, работы по сохранению и реставрации памятника, а также меры по его развитию как научного и туристического центра. Также в статье исследуется роль Аксикента в восстановлении исторического наследия Узбекистана и его значение в формировании национальной идентичности.*

Согласно результатам исследования, в период независимости изучение и сохранение памятника Аксикент вышло на новый уровень, что способствует расширению международного научного сотрудничества и развитию культурного туризма.

Kalit so‘zlar: *Axsikent, mustaqillik yillari, madaniy meros, arxeologik qazishmalar, restavratsiya, tarixiy yodgorliklar, madaniy turizm, milliy identitet, O‘zbekiston tarixi.*

Keywords: *Axsikent, years of independence, cultural heritage, archaeological excavations, restoration, historical monuments, cultural tourism, national identity, history of Uzbekistan.*

Ключевые слова: *Аксикент , годы независимости, культурное наследие, археологические раскопки, реставрация, исторические памятники, культурный туризм, национальная идентичность, история Узбекистана.*

Kirish: O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, mamlakat hududidagi boy tarixiy va madaniy merosni o‘rganish, tiklash hamda kelajak avlodga yetkazish

davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Shu jarayonda qadimiy shahar va yodgorliklarni ilmiy asosda tadqiq etishga alohida e’tibor qaratildi. Ana shunday tarixiy maskanlardan biri Axsikent bo‘lib, u Farg‘ona vodiysining eng qadimiy va strategik ahamiyatga ega shaharlaridan biri hisoblanadi.[22]

Axsikentning tarixi qadim davrlarga borib taqaladi va u o‘rta asrlarda yirik savdo, hunarmandchilik hamda madaniyat markazi sifatida rivojlangan. Mustaqillik yillarida ushbu yodgorlikni chuqur o‘rganish maqsadida keng ko‘lamli arxeologik qazishmalar olib borildi va uning tarixiy qatlamlari ilmiy jihatdan ochib berildi. Bu jarayon nafaqat O‘zbekiston tarixshunosligini boyitdi, balki Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi tarixini o‘rganishda ham muhim ahamiyat kasb etdi.[23]

Bundan tashqari, Axsikentni tiklash, saqlash va uni xalqaro turizm markaziga aylantirish borasida amalga oshirilgan ishlar uning ahamiyatini yanada oshirdi. [24]

Bugungi kunda u nafaqat tarixiy yodgorlik sifatida, balki ilmiy-tadqiqot va madaniy turizm markazi sifatida ham rivojlanib bormoqda.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida O‘zbekistonda tarixiy-madaniy merosni asrash va tiklashga qaratilgan islohotlar natijasida Axsikent yodgorligi ham chuqur ilmiy o‘rganish va qayta tiklash bosqichiga o‘tdi. Bu jarayon orqali Axsikentning qadimiy shahar sifatidagi tarixiy ahamiyati yanada yaqqol namoyon bo‘ldi.

Olib borilgan arxeologik tadqiqotlar va restavratsiya ishlari natijasida yodgorlikning tarixiy qatlamlari ochib berildi hamda uning ilmiy qiymati oshdi. Shu bilan birga, Axsikentni turizm va ilmiy tadqiqot markaziga aylantirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar uning xalqaro miqyosdagi ahamiyatini ham kuchaytirdi.

[22] O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi, “Axsikent arxeologik yodgorligi bo‘yicha ilmiy hisobotlar”, 2015–2024 yillar.
[23] Karimov A., *O‘zbekiston tarixiy shaharlarining o‘rganilishi*, Toshkent, 2019.
[24] Shamsutdinov R., *O‘zbekiston tarixiy yodgorliklari va ularni saqlash muammolari*, Toshkent, 2018.

Umuman olganda, Axsikentni o‘rganish va tiklash ishlari O‘zbekistonning boy tarixiy merosini saqlash, milliy o‘zlikni anglashni mustahkamlash hamda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. Shu sababli ushbu yo‘nalishdagi ishlarni davom ettirish kelajakda ham dolzarb bo‘lib qoladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi ma’lumotlari, “Axsikent arxeologik yodgorligi bo‘yicha hisobotlar”, 2010–2023 yillar.

2. Shamsutdinov R., “O‘zbekiston tarixiy yodgorliklari va ularni saqlash muammolari”, Toshkent, 2018.

3. O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi, “Axsikent arxeologik yodgorligi bo‘yicha ilmiy hisobotlar”, 2015–2024 yillar.

4. Karimov A., *O‘zbekiston tarixiy shaharlarining o‘rganilishi*, Toshkent, 2019.

5. Shamsutdinov R., *O‘zbekiston tarixiy yodgorliklari va ularni saqlash muammolari*, Toshkent, 2018.

AXSIKENT MEROSINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI TARG‘IB ETISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Mahkamov Mahmudjon G‘olibjon o‘g‘li

Namangan davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo‘nalishi

4-bosqich talabasi

Tel: +99893-043-44-31

E-mail: mahmudjonmahkamov77@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21042752

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yurtimizdagi ko‘plab madaniy meros obyektlari qatorida o‘zining boy tarixi, moddiy va ma’naviy topilmalari bilan mashhur bo‘lgan Axsikent yodgorligining o‘rganilish davrlari va bugungi davr zamonaviy texnologiyalari orqali targ‘ib qilish usullari haqida batafsil to‘xtalib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *direksiya, 3D modellashtirish, AR/VR texnologiyalari, virtual, rekonstruksiya, QR-kod texnologiyasi*

Аннотация: *В этой статье подробно рассказывается о периодах изучения памятника Ахсикент, известного своей богатой историей, материальными и духовными находками среди множества объектов культурного наследия нашей страны, а также о способах популяризации его с помощью современных технологий в наше время.*

Ключевые слова: *дирекция, 3D моделирование, AR/VR технологии, виртуальный, реконструкция, технология QR-кодов*

Annotation: *This article goes into detail about the study periods of the Axsikent monument, famous for its rich history and tangible and intangible artifacts among many cultural heritage sites in our country, and the ways to promote it today using modern technologies.*

Key words: *management, 3D modeling, AR/VR technologies, virtual, reconstruction, QR code technology*

O‘zbekiston qadim o‘tmishga ega bo‘lgan zamindir. Bu hudud juda boy moddiy-madaniy merosni o’zida jam qilganki, ularning barchasi butun dunyo tamadduni uchun xizmat qila oladi deb bemalol aytishimiz mumkin. Yurtimizning sharqidan g‘arbiga qadar cho‘zilgan sarhadlarida ko‘hna va navqiron shaharlarimiz bor bo’lib, ular ayni damda turizm va investitsiya maydoniga aylanib bormoqda. Xususan, Samarqandda “Registon ansambili”, “Go‘ri Amir” maqbarasi, “Shohi Zinda” majmuasi, Xivada “Ichan qal’a” majmuasi, Buxoroda “Buxoro arki” yoxud Qo‘qondagi “Xudoyorxon o‘rdasi – bularning boy tarixga egadir. Shular qatorida bugungi kunda keng ko’lamda o’rganilayotgan yana bir muhim yodgorlik bu – Axsikent shahar xarobalaridir.

Axsikent - O‘zbekiston Respublikasi Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumanidagi Shahand qishlog‘i hududida, Sirdaryoning o‘ng sohilida joylashgan qadimiy shahar xarobasi. **Miloddan avvalgi III—II asrlarda vujudga kelgan, IX—X asrlarda Farg‘ona vodiysining poytaxti** bo‘lgan.[25]

Bugungi globallashuv va raqamlashtirish davrida tarixiy-madaniy merosni asrash hamda targ‘ib qilishda zamonaviy axborot texnologiyalarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. O‘zbekiston hududidagi eng qadimiy shaharlardan biri bo‘lgan Axsikent boy tarixiy va madaniy merosga ega. Ushbu merosni nafaqat saqlash, balki uni dunyo miqyosida tanitish ham muhim vazifalardan biridir. Raqamli texnologiyalar tarixiy obyektlarni keng auditoriyaga yetkazish imkonini beradi. Internet va multimedia vositalari yordamida Axsikent haqida ma’lumotlar geografik chegaralardan qat’i nazar millionlab insonlarga taqdim etilishi mumkin.

[25] https://uz.wikipedia.org/wiki/Axsikent



Zahiriddin Muhammad Boburning „Boburnoma“ asarida shaharga shunday ta’rif beriladi: “ Farg‘onada Andijondin so‘ngra mundin ulug‘roq qasaba yo‘qtur… Umarshayx Mirzo muni poytaxt qilib edi.“[26]

So‘nggi yillarda Axsikent arxeologik yodgorligini asrab-avaylash va tadqiq etish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. **2017-yilda “Axsikent” arxeologiya merosi obyektini muhofaza qilish va tadqiq etish direksiyasi** tashkil etilib, arxeologik qazishmalar va ilmiy tadqiqotlar samaradorligi oshirildi.[27] Ushbu ishlar doirasida muzeylarni tashkil etish, ramziy darvozalar va tarixiy shaxslar haykallarini bunyod etish kabi loyihalar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, sayyohlar uchun interaktiv ekskursiyalar, 3D modellashtirish va AR/VR texnologiyalari asosida virtual turlar orqali qadimiy shahar hududi bilan tanishish imkoniyati yaratilmoqda.



Axsikentni raqamli turizm orqali rivojlantirish yondashuvi hududni milliy va xalqaro miqyosda raqobatbardosh turizm manziliga aylantirish, sayyohlar oqimini oshirish va ilmiy tadqiqotlarning samaradorligini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi. Axsikent arxeologik yodgorligi va tarixiy majmuasi Farg‘ona vodiysining markaziy turizm obyektlaridan biri sifatida katta salohiyatga ega.

[26] Bobur Z.M. **Boburnoma.** – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 512 b
[27] https://lex.uz/uz/docs/-3382160

So‘nggi yillarda ushbu hududning turizm salohiyatini oshirish maqsadida raqamli texnologiyalar tatbiq etilmoqda.[28]

Xususan, ushbu obyektni keng ommaga yanada kengroq tanitish hamda ma’lumotlarni taqdim etish maqsadida bugungi kunda virtual ekskursiyalar tashkil etish, 3D modellashtirish va rekonstruksiya ishlarini amalga oshirish, mobil ilovalar yaratish, ijtimoiy tarmoqlar orqali targ‘ibot usullarini rivojlantirish , sun’iy intellekt texnologiyalarini jalb qilish hamda QR-kod texnologiyasidan foydalanish ham muhim va asosiy usullar sifatida baholanmoqda.[29]

Bugungi kunda qadimiy Axsikent yodgorligi YUNESKO butunjahon madaniy merosi ob’ekti hisoblanadi. 2001 yilda Axsida “O‘zbek davlatchiligi tarixida Axsikent” mavzusida xalqaro seminar o‘tkazilgandi. Ammo uning tarixi yetarli targ‘ib qilinmadi, ko‘zda tutilgan muzey hozirgacha mavjud emas. Axsikent qal’asining umumiy ko‘rinishi hamon mutaxassislar tomonidan rekonstruksiya tarzda tiklanmadi, aniq xaritasi yo‘q, chegarasi noma’lum qolmoqda. Tarixi eramizdan avvalgi IV asrlarga borib taqaluvchi bu noyob yodgorlikni chuqur o‘rganish, qadim poytaxt shahar tarixi bilan yurtdoshlarimiz, xorijiy sayyohlarni tanishtirish vilotda turizmni rivojlanishi uchun keng imkoniyatdir.[30]

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Axsikent merosini raqamli texnologiyalar asosida targ‘ib qilish tarixiy yodgorlikning xalqaro miqyosdagi nufuzini oshirish, turizmni rivojlantirish va yosh avlodning milliy merosga bo‘lgan hurmatini kuchaytirishga xizmat qiladi. Virtual ekskursiyalar, 3D modellashtirish, sun’iy intellekt, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlar kabi zamonaviy vositalar Axsikentni dunyoga tanitishning eng samarali yo‘llaridan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Axsikent

[28] https://aps.tsuos.uz/storage/users/462/articles/PXOTnM2voALshfui3eefcOJwD61OBFIbKvVLVP6r.pdf
[29] https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12817_1_37C3B3F8E56FA16639F54C34D281C791A2E4060E.pdf
[30] https://aniq.uz/uz/yangiliklar/axsikent-xarobalari-bosqinlar-ziddiyatlar-va-halokatli-zilzila-fotogalereya

2. Bobur Z.M. Boburnoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 512 b

3. https://lex.uz/uz/docs/-3382160

4. Namangan viloyati Axsikent arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va tadqiq etish direksiyasi materiallari. – Namangan, 2025.

5. https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12817_1_37C3B3F8E56FA16639F54C34D281C791A2E4060E.pdf

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining madaniy meros va turizmni rivojlantirishga oid farmon va qarorlari to‘plami. – Toshkent, 2024.

7. Asqarov A. *O‘zbekiston tarixi*. – Toshkent: Sharq, 2018.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining madaniy meros va turizmni rivojlantirishga oid farmon va qarorlari to‘plami. – Toshkent, 2024.

9. Mirzayev T. *O‘zbek xalqining madaniy merosi*. – Toshkent: Sharq, 2016.

10. https://aps.tsuos.uz/storage/users/462/articles/PXOTnM2voALshfui3eefcOJwD61OBFIbKvVLVP6r.pdf

11. https://aniq.uz/uz/yangiliklar/axsikent-xarobalari-bosqinlar-ziddiyatlar-va-halokatli-zilzila-fotogalereya

NAMANGAN VILOYATIDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA AXSIKENT TARIXIY YODGORLIGINING O‘RNI.

Topildiyev Odiljon Rahimjonovich

NamDPI Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasi professori, t.f.n.

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21042864

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Axsikent tarixiy yodgorligi Namangan viloyatining sayyohlik salohiyatini oshirishda yanada muhim ahamiyat kasb etishi, Ayniqsa, xorijdagi sayyohlik ko‘rgazmalarida qadimiy Axsikent haqida ham taqdimotlar o‘tkazilib sayyohlar jalb etilayotgani taxlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Axsikent tarixiy yodgorligi, Namangan viloyatining sayyohlik salohiyatini oshirish, Axsi yodgorligi, Tarixiy brend.*

Аннотация: *В данной статье проанализировано значение исторического памятника Ахсикент в повышении туристического потенциала Наманганской области. Особое внимание уделено тому, что на международных туристических выставках проводятся презентации, посвящённые древнему Ахсикенту, что способствует привлечению иностранных туристов.*

Ключевые слова: *исторический памятник Ахсикент, повышение туристического потенциала Наманганской области, памятник Ахси, исторический бренд.*

Abstract: *This article analyzes the significance of the Ahsikent Historical Monument in enhancing the tourism potential of the Namangan region. Particular attention is given to the fact that presentations about ancient Ahsikent are held at international tourism exhibitions, contributing to the attraction of foreign tourists.*

Keywords: *Ahsikent Historical Monument, enhancement of the tourism potential of the Namangan region, Ahsi archaeological site, historical brand.*

Bugungi kunda Namangan viloyatida turizm sohasini rivojlantirish, sayyohlar uchun qulay infratuzilma yaratish va yangi turistik manzillarni shakllantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan qator loyihalar muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Viloyatda turizm salohiyatini rivojlantirishda tarixiy va arxeologik joylarning o‘rni beqiyos bo‘lib, ular asosan hududning o‘ziga xos tarixiy-madaniy qiyofasini belgilash orqali mahalliy va xorijiy sayyohlarni jalb etishda muhim drayver soha hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning 2019 yil Namangan viloyatiga tashrifida “Axsikent - buyuk tariximiz ko‘zgusi. Bobolarimiz yashagan, qahramonlik ko‘rsatgan bu manzilda tariximizni tiklash uchun juda katta manba, o‘tmish dalillari bor. Biz shu paytgacha faqat mashhur shaharlarimiz tarixini o‘rgandik, bunday joylarga e’tibor qilmadik. Ma’naviyatimizni yuksaltirmoqchi bo‘lsak, yoshlarimizni ota-bobolarimizning asl merosidan bahramand etib ulg‘aytirishimiz, xalqimizga yetkazishimiz kerak”[31] – deb aytgan fikrlari viloyatda Axsikent tarixiy yodgorligining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Tarixiy manbalarda qayd qilinishicha, hamda hozirgacha olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko’ra Axsikentning asosiy qismi eradan avvalgi X - IX asrlarda o’zlashtirilgan bo’lib, eski Axsi yodgorligi hududida dehqonlar qarorgohi bo’lganligi aniqlandi. Shahar sifatida Axsikent eramizdan avvalgi III asrda tashkil topgan bo‘lib, qadimgi Farg‘ona davlatining poytaxti, Buyuk ipak yo‘lining asosiy shaharlaridan biri bo‘lgan. Xususan, “Boburnoma”da bu shaharning alohida ahamiyati haqida yozib qoldirilgan. Qadimdan bu yerda yer osti suv inshooti bo‘lgani bois mudofaa uchun qulay sanalgan. Shahar Ark, ichki va tashqi shahardan iborat bo‘lgan. Bu yerda o‘z davrida shishasozlik, kulolchilik, temirchilik, qurolsozlik kabi hunarmandlik turlari rivojlangan. 1620 yillarga kelib

[31] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning 2019 yil 28 fevraldagi Namangan viloyatiga tashrifidagi nitqi.

zilzila oqibatida ulkan shahar vayron bo‘lgan. Bugungi kunda xarobalarning 60 gektarga yaqin qismi saqlanib qolgan bo‘lib, Farg‘ona vodiysidagi eng katta arxeologik yodgorlik hisoblanadi. Arxeologlar tomonidan temirchilar ustaxonasi, X-XIII asrlarga oid hammom qoldiqlari, askarlar xonalari, jome masjidi, mudofaa devorlari, yer osti irrigatsiya tarmoqlari, hunarmandlar mahallasi, hukmdor qarorgohi - Ark qazib o‘rganilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti topshirig‘iga ko‘ra 2017 yilda Axsikent tarixiy yodgorligini asrab-avaylash va tadqiq etish, uning haqqoniy tarixini yaratish bo‘yicha keng qamrovli amaliy ishlar boshlandi. Buning natijasida “Axsikent” arxeologiya merosi obyektini muhofaza qilish va tadqiq etish direksiyasi davlat unitar korxonasi tashkil etildi. “Axsikent” arxeologiya merosi obyektini muhofaza qilish va tadqiq etish direksiyasi asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

- majmuani lozim darajada muhofaza qilish, but saqlanishini ta’minlash va belgilangan tartibda ruxsatnoma olgan arxeologlar tomonidan arxeologiya qidiruvlari, arxeologiya qazishmalari va arxeologiya nazoratini tashkil etish, chuqur ilmiy arxeologiya tadqiqot natijalari asosida majmuaning ilmiy-tarixiy konsepsiyasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish;
- qadimiy Axsikent shahriga oid respublika va xorijda saqlanayotgan manbalarni malakali mutaxassis va ekspertlar, olimlarni jalb etgan holda atroflicha tadqiq etish, ular haqidagi batafsil ma’lumotlar bazasini yaratish va muntazam yangilab borish, xalqaro ilmiy anjumanlar tashkil etish, nashr materiallarini tayyorlash va ularni ommaviy axborot vositalari orqali keng targ‘ib etish;
- tarixiy-ilmiy asoslar bo‘yicha qadimiy Axsikent shahrining maketlarini tayyorlash, arxeologiya ashyolari, qadimiy qo‘lyozma va toshbosma kitoblar, tarixiy dalil va hujjatlar. osori-atiqalar, zamonaviy ilmiy-tadqiqot ishlari, kitob va to‘plamlar, video va foto hujjatlar kabi boshqa manbalar hisobidan muzeylashtirilgan ekspozitsiya-ko‘rgazma yaratish, yuqori

texnologiyalarga asoslangan axborot-resurs markazi faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish;

- turistlar, ilmiy tadqiqotchilar va tashrif buyuruvchilar uchun qulay shart-sharoit yaratish, tarixiy ko‘rinishni saqlagan holda majmuaning muhofaza hududidan tashqarisida zamonaviy kompleks dam olish maskanlarini tashkil etish va majmuaning turistik salohiyatini oshirish yuzasidan boshqa zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Axsikent tarixiy yodgorligi Namangan viloyatining sayyohlik salohiyatini oshirishda yanada muhim ahamiyat kasb etib keloqda. Ayniqsa, xorijdagi sayyohlik ko‘rgazmalarida qadimiy Axsikent haqida ham taqdimotlar o‘tkazilib sayyohlar jalb etilmoqda. Buning natijasida mahalliy va xorijiy sayyohlar o‘rtasida tarixiy yodgorlikka qiziqish ortib bormoqda. Hozirga qadar Belgiya, Avstriya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Rossiya, Eron, Pokiston, Hindiston kabi davlatlardan sayyohlar tashrifi ortib bormoqda.

Xozirda Axsikent tarixiy yodgorligini tadqiq etish, uning jozibadorligini va sayyohlar oqimini oshirish maqsadida maxsus konsepsiya ishlab chiqilgan hamda shu asosda Farg‘ona vodiysida ichki turizmni rivojlantirish choralari ko‘rilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning 2019 yil fevral oyida Namangan viloyatiga tashrifida Axsikent majmuasi bosh rejasi, uning tadqiqot olib borilgan obyektlari, hududda barpo etiladigan turistik majmua loyihasi haqida ma’lumot berilgan. Unga ko‘ra, Axsikentda muzey tashkil etilishi va uning qadimiy dovrug‘ini tiklash maqsadida ramziy darvoza qurilishi, Umarshayx Mirzo va Boburning Kamoliddin Behzod chizgan suratlari asosida ularning haykali bunyod etilishi, sayyohlar uchun Sirdaryo bo‘ylab qayiqlarda sayr qilish, tuyada ko‘hna shaharni tomosha qilish imkoniyati yaratilishi belgilandi. Shuningdek, bu yerda zarur infratuzilma, savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari qurilib, Axsikent turizm manziliga aylantirildi.

Xozirda Axsikent tarixini ilmiy asoslangan holda chuqur o‘rganish, ajdodlarimizning asl o‘tmishi haqida ma’lumotlarni to‘plash va yosh avlodga singdirish bo‘yicha tizimli ishlarni olib borilmoqda. Statistik taxlillardan ko‘rish mumkinki Namangan viloyatiga 2024 yilda 510 ming nafar xorijiy hamda 3,6 mln. mahalliy sayyoh tashrif buyurgan va turizm xizmatlari eksporti 190,8 mln. dollarni tashkil etgan. 2025 yilda esa turizm sohasi sezilarli o‘sishni namoyon etdi. Viloyatda xalqaro tadbirlar o‘tkazilishi natijasida xorijiy turistlar soni 1,5 mln kishiga, mahalliy turistlar esa 5,2 mln kishiga oshdi. Turizm xizmatlari eksporti 224,2 mln dollarni tashkil etdi, yillik reja ko‘rsatkichlari esa 107 foizga bajarildi[32].

Axsikent tarixiy yodgorligiga va Namangan viloyatiga sayyohlarni keng jalb qilish uchun quyidagi takliflarga alohida e’tibor qaratish lozim. Jumladan,

- Tarixiy brendni kuchaytirish Axsikentni “Farg‘ona vodiysining qadimiy poytaxti” sifatida targ‘ib qilish. Uning Zahiriddin Muhammad Bobur oilasi tarixi bilan bog‘liqligini namoyon qilish. Ipak yo‘li shaharlari marshrutiga kiritish;

- Zamonaviy turistik infratuzilma markazi, interaktiv muzey va multimedia ekspozitsiyalarini tashkil etish. Elektron gidlar (QR-kod, audio-gid, mobil ilovalar) joriy qilish. Kafe, suvenir do‘konlari va dam olish hududlarini ko‘paytirish;

- Madaniy festivallar o‘tkazish “Axsikent tarixi kunlari” festivali. Qadimiy hunarmandchilik va temirchilik namoyishlari. Milliy taomlar va folklor festivallari;

- Raqamli marketing YouTube, Instagram, Telegram va boshqa ijtimoiy tarmoqlar orqali professional videoroliklar tarqatish. Bir necha tillarda veb-sayt va virtual 3D sayohat yaratish, targ`ib qilish;

- Turistik marshrutlar yaratish Axsikentni Namangan viloyatining boshqa diqqatga sazovor joylari bilan bog‘lash. Shunda turist bir kunlik emas, bir necha kunlik sayohat qiladi;

[32] https://www.uzdaily.uz/uz/namangan-2025-yilda-15-mln-xorijiy-turistni-qabul-qildi-turizm-xizmatlari-eksporti-224-mlndan-oshdi/

- Xalqaro hamkorlik Arxeologik tadqiqotlar bo‘yicha xalqaro konferensiyalar tashkil qilish. Universitetlar va ilmiy markazlar bilan hamkorlik qilish. Axsikentni xalqaro meros obyektlari ro‘yxatlariga kiritish bo‘yicha ishlarni kuchaytirish. Kutiladigan natijalar Namangan viloyatiga keluvchi sayyohlar sonining oshishi. Yangi mehmonxona, restoran va xizmat ko‘rsatish sohalari rivojlanishi. Yoshlar uchun yangi ish o‘rinlari yaratilishi. Axsikentning xalqaro miqyosda tanilishini yanada oshiradi. Shuningdek, bu tadbirlar mahalliy va xorijiy mehmonlarni jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilinadigan bo‘linsa, Namangan viloyatida turizm sohasini rivojlantirish viloyat imidji va jozibadorligini rivojlantirishda hal qiluvchi muhim rol o‘ynamoqda. Bu o‘rinda Axsikent tarixiy yodgorligi sayyohlarni jalb etishda viloyatning o‘ziga xos tashrif brendi sifatida namoyon bo‘limoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘hati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 16-oktabrdagi “Namangan viloyatining To‘raqo‘rg‘on tumanida “Axsikent” arxeologiya merosi obyektini muhofaza qilish va tadqiq etish yodgorlik majmuasini tashkil etish to‘g‘risida”gi 831-sonli Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5611-sonli Farmoni.

3. Мансуров М., Мадраҳимова М.. Мустақиллик йилларида Наманган вилоятида туризм тараққиётининг архив ҳужжатларида акс этиши / Фарғона водийсининг XVIII–XXI асрлардаги тарихини тадқиқ этишда ёзма, босма манбалар ва улардан фойдаланиш муаммолари. Халқаро илмий конференция. – Андижон, 2018.

4. Матбабаев Б., Шамсутдинов Р., Мамажонов А. Буюк ипак йўлидаги Фарғона шаҳарлари. – Андижон, 1994.

5. https://www.uzdaily.uz/uz/namangan-2025-yilda-15-mln-xorijiy-turistni-qabul-qildi-turizm-xizmatlari-eksporti-224-mlndan-oshdi/

TURKISTON SIYOSIY ELITASINING MUSTAQILLIK UCHUN KURASH TAJRIBASI

Valiyeva Nafisa Abdumajitovna

Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21043022

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Turkiston siyosiy elitasining XX asr boshlarida milliy davlatchilik va mustaqillik uchun olib borgan kurashi tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Turkiston Muxtoriyatining tashkil topishi, milliy ziyolilarning siyosiy faoliyati, bolsheviklar hokimiyatining milliy harakatlarga nisbatan yuritgan siyosati hamda mustaqillik g‘oyalarini bostirishga qaratilgan chora-tadbirlar yoritilgan. Shuningdek, milliy siyosiy tashkilotlarning faoliyati va ularning Turkiston xalqlarining ozodlik harakatidagi o‘rni ilmiy jihatdan baholanadi.*

Kalit so‘zlar: *Turkiston, Turkiston Muxtoriyati, siyosiy elita, milliy ziyolilar, jadidchilik, bolsheviklar, milliy ozodlik harakati, mustaqillik, Sho‘roi Islomiya, Qo‘qon Muxtoriyati.*

Аннотация. *В статье на основе исторических источников анализируется борьба политической элиты Туркестана за национальную государственность и независимость в начале XX века. Рассматриваются создание Туркестанской автономии, политическая деятельность национальной интеллигенции, политика большевистской власти в отношении национальных движений, а также меры, направленные на подавление идей независимости. Особое внимание уделено деятельности национальных политических организаций и их роли в национально-освободительном движении народов Туркестана.*

Ключевые слова: *Туркестан, Туркестанская автономия, политическая элита, национальная интеллигенция, джадидизм, большевики,*

национально-освободительное движение, независимость, «Шурои Исламия», Кокандская автономия.

Abstract. *This article analyzes the struggle of the political elite of Turkestan for national statehood and independence in the early twentieth century based on historical sources. It examines the establishment of the Turkestan Autonomy, the political activities of the national intelligentsia, the Bolshevik policy toward national movements, and the measures taken to suppress the idea of independence. The study also evaluates the activities of national political organizations and their contribution to the national liberation movement of the peoples of Turkestan.*

Keywords: *Turkestan, Turkestan Autonomy, political elite, national intelligentsia, Jadidism, Bolsheviks, national liberation movement, independence, Shuroi Islomiya, Kokand Autonomy.*

Ma’lumki, bolsheviklar partiyasi Rossiyada hokimiyat tepasiga kelishidan ancha avval uning rahbarlari milliy chekka hududlar xalqlarining milliy-ozodlik harakatlarini Rossiyadagi inqilobiy ishchilar harakati bilan bog‘lash zarurligi haqidagi xulosaga kelgan edilar. Ular bolsheviklar turli milliy taraqqiyparvar harakatlarni, milliy-siyosiy tashkilotlarni, o‘z xalqlarining milliy-davlat mustaqilligi, mustamlakachilikdan va Rossiya imperiyasining buyuk davlatchilik hukmronligidan xalos bo‘lishi uchun kurashayotgan kuchlarni qo‘llab-quvvatlayotgani to‘g‘risidagi g‘oyalarni keng targ‘ib qildilar.

Biroq bolsheviklar partiyasining rahbarlari va faollari 1916-yilda Turkistonning tub aholisi tomonidan ko‘tarilgan qo‘zg‘olon davrida milliy o‘zlikni anglash va ozodlik uchun kurashning kuchli namoyon bo‘lishlarini hatto bir og‘iz so‘z bilan ham qo‘llab-quvvatlamadilar.

Shuningdek, Rossiya ishchi va dehqonlarining eng kambag‘al qatlamlari manfaatlaridan foydalanish natijasida shakllangan Rossiya Sotsial-demokratik Ishchilar Partiyasi (bolsheviklar) — RSDRP(b) hatto Rossiyaning o‘zida ham ziyolilarni siyosiy jihatdan neytrallashtirish siyosatini olib borgan. Bolshevik

rahbarlarining fikricha, intelligensiya ikkilanib turuvchi qatlam bo‘lib, burjuaziya, pomeshchiklar va hukmron doiralar manfaatlariga xizmat qilardi. Bundan tashqari, Lenin shaxsan o‘zi ham ziyolilarning jamiyat hayotidagi o‘rni va roliga nisbatan keskin hamda kamsituvchi fikrlar bildirgan. U, xususan, intelligensiyani “mustaqil iqtisodiy sinf emas va shu sababli mustaqil siyosiy kuch ham emas”, deb hisoblagan. Leninning ta’kidlashicha, “u biror sinfga qo‘shilmagan ekan, u hech qanday kuchni ifoda etmaydi”[1].

Shu bilan birga, Lenin Turkiston va Zakavkazye hududlaridagi milliy-vatanparvarlik harakatlari hamda milliy-siyosiy tashkilotlarga asosan milliy ziyolilar rahbarlik qilayotganini va ularning tarkibi ham ko‘p jihatdan ziyolilardan iborat ekanini yaxshi bilgan. Biroq u, o‘ziga va ko‘plab tarafdorlariga xos bo‘lgan Turkistonning go‘yoki asrlar davomida iqtisodiy va ayniqsa madaniy jihatdan qoloq bo‘lib kelgani haqidagi qarashlar ta’sirida, milliy intelligensiyani sinfiy-bolshevik mezonlar asosida tabaqalashtirish va qayta shakllantirish lozim deb hisoblagan.

Bolsheviklar rahbariyati o‘lkani sovetlashtirish va bolsheviklashtirish yo‘lini ochish maqsadida, amalda hali ham mustamlaka holatida qolayotgan Turkiston o‘lkasida Turkiston Muxtoriyatiga qarshi qurolli tajovuz uyushtirdi. Shu bilan birga, so‘l eserlar, internatsionalist mensheviklar hamda rus va yahudiy antisovet tashkilotlariga qarshi kurash olib bordi. Bundan tashqari, milliy ijtimoiy-ma’rifiy harakatlar va siyosiy tashkilotlarni taqiqlash hamda tugatishga qaratilgan ochiq shovinistik siyosiy va kuch ishlatishga asoslangan choralarni amalga oshirdi.

Bunday siyosat uchun tajriba ham mavjud edi. Jumladan, 1917-yil oktabriga kelib, mustamlakachi hokimiyat organlari, maxfiy politsiya va Muvaqqat hukumat Turkiston qo‘mitasining huquq-tartibot tuzilmalari tomonidan ilgari faoliyat yuritgan bir qator milliy-vatanparvar tashkilotlar tugatilgan edi. Ular qatoriga “Turon”, “Tarbiyai atfol”, “Umid”, “Barakat”, “G‘ayrat”, “Taraqqiyparvar”,

“Ozod xalq”, “Hurriyat”, “Ittifoqi Islomiya”, “Mirvoj ul-Islom”, “Jamiyati Islomiya” va boshqa tashkilotlar kirgan[2].

Sovet hokimiyati va uning bolshevik rahbarlari Turkiston, Buxoro amirligi hamda Xiva xonligi hududlarida keng tarqalgan jadidchilik harakatiga faqat taqiqlovchi choralar bilan tezda barham berib bo‘lmasligini yaxshi tushunardilar. Shu sababli ular asosiy e’tiborni “Sho‘roi Islomiya”, “Ulamo” va ayrim boshqa milliy tashkilotlarga qarshi kurashga qaratdilar. Mazkur tashkilotlar orasida 1917-yil boshlarida tashkil etilgan “Sho‘roi Islomiya” milliy ziyolilar va mahalliy aholining, ayniqsa shahar aholisining, eng ommabop va nufuzli tashkilotlaridan biri hisoblangan. Aynan “Sho‘roi Islomiya” boshqa vatanparvar tashkilotlarga nisbatan Turkiston xalqlarining ozodlik kurashi g‘oyalari asosida milliy-vatanparvar kuchlarni birlashtirish va ularga rahbarlik qilish salohiyatiga ko‘proq ega edi. Biroq mazkur tashkilot mavjud siyosiy sharoitlarni inobatga olib, Turkistonning Rossiyadan to‘liq mustaqilligini qo‘lga kiritish vazifasini kun tartibiga qo‘ymagan.

Shu bilan birga, “Ulamo” tashkiloti Turkiston tub xalqlarining siyosiy o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqini amalga oshirish zarurligini inkor etmagan[3]. To‘g‘ri, uning rahbari Qo‘qon Muxtoriyati rahbariyati tarkibiga saylangan bo‘lsa-da, muxtoriyat yig‘ilishlarida ishtirok etmagan. 1917-yil oktabr voqealaridan keyin jadidchilik harakati negizida “Ittifoq”, “Turk adami markaziyat firqasi”, “Turkiston milliy birligi”, “Alash O‘rda” (qozoq hududlarining bir qismida) va boshqa milliy-siyosiy tashkilotlar faol ish boshladilar. Ular o‘rtasida ayrim qarashlar tafovutlari mavjud bo‘lsa-da, barchasi mahalliy aholi orasida mashhur bo‘lib, keng qo‘llab-quvvatlangan. Jadidchilik Turkiston miqyosida yagona rahbarlik yoki muvofiqlashtiruvchi markazga ega bo‘lmagan madaniy-ma’rifiy va ijtimoiy-siyosiy harakat ekanligini hisobga olsak, aynan Toshkentdagi bo‘limiga Munavvar qori Abdurashidxonov rahbarlik qilgan “Sho‘roi Islomiya” tashkiloti milliy-vatanparvar kuchlarni birlashtirish va o‘lka xalqlarining ozodlik kurashiga

boshchilik qilish imkoniyatiga eng ko‘p ega bo‘lgan tashkilot sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu sababli Sovet hokimiyatining dastlabki yillardagi asosiy siyosiy yo‘nalishlaridan biri mahalliy aholining milliy-vatanparvar tashkilotlarini bostirishdan iborat bo‘ldi. Bu faqat siyosiy tashkilotlargagina emas, balki boshqa turdagi jamoat birlashmalariga ham taalluqli edi. Chunki ularga A. Shakuriy, M. Abdurashidxonov, O. Mahmudov kabi milliy ziyolilar rahbarlik qilardilar. Ziyolilarning, ayniqsa shaharlardagi ta’siri kuchli bo‘lganligi sababli, hokimiyat organlari ko‘pincha yetarli asoslar bo‘lmagan holda ayrim shaharlarda harbiy holat, qamal holati yoki harbiy-qamal tartibini joriy etish haqida qarorlar qabul qilganlar. Masalan, “Ulug‘ Turkiston” gazetasi yozishicha, Toshkent tarixida misli ko‘rilmagan 60 ming kishilik mehnatkashlar mitingi munosabati bilan Turkiston Muxtoriyati bilan birdamlik bildirib hamda bolsheviklar tomonidan Toshkent shahar Dumasining tarqatib yuborilishiga qarshi norozilik sifatida o‘tkazilgan ommaviy tadbirlar, shuningdek, 1917-yil 13-dekabr kuni Eski Toshkent aholisi tomonidan Turkiston (Qo‘qon) Muxtoriyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida uyushtirilgan namoyish munosabati bilan Toshkent shahrida harbiy holat joriy etildi[4].

O‘sha yilning 29-dekabrida esa butun Turkiston o‘lkasi harbiy holatga o‘tkazildi. Mazkur tartib 1918-yil 8-yanvargacha amal qildi. 1918-yilda 13-fevraldan 19-fevralgacha butun Farg‘ona viloyatida, shu yilning 2-martidan 14-martigacha esa Samarqand viloyatida harbiy holat joriy etildi[5]. Samarqand viloyatida bundan tashqari, 1918-yil 16-iyuldan 2-avgustgacha viloyat Soveti raisi V. Figelskiy tomonidan kiritilgan harbiy-qamal holati ham amal qilgan.

Bunday tartib antisovet va antibolshevik chiqishlarni, shuningdek, mahalliy aholining milliy-ozodlik harakatini bostirishning eng qulay vositasi edi. Chunki harbiy yoki harbiy-qamal holati davrida harbiy-dala sudlari faoliyat yuritgan, Toshkentda esa bundan tashqari inqilobiy tribunal ham ishlagan. Bolsheviklar

tomonidan joriy etilgan harbiy holat davrida Turkiston Muxtoriyatining qurolli yo‘l bilan tugatilgani ham bejiz emas edi.

Turkiston xalqlari orasidagi antisovet va antibolshevik kayfiyatlar nihoyatda kuchli bo‘lib, milliy ziyolilar aynan shu ommaga tayanar va ularga rahbarlik qilishga intilar edilar. Natijada, hali hokimiyatni to‘liq egallamagan, ammo Toshkent, Samarqand va Andijon kabi shaharlarda siyosiy jihatdan ustun mavqega ega bo‘lgan bolshevik Sovetlarning ochiq qarshiligi, jumladan kuch ishlatishga asoslangan bosimlariga qaramay, siyosiy maqsadlari va ruhiyati jihatidan chinakam internatsionalistik hamda aholi tarkibi nuqtayi nazaridan ko‘p millatli davlat — Turkiston Muxtoriyatini e’lon qilishga muvaffaq bo‘lindi.

Mazkur davlat Rossiyaga nisbatan muxtoriyat maqomida ko‘zda tutilgan bo‘lsa-da, amalda u Turkiston Federatsiyasi sifatida tasavvur etilgan edi[6]. Bu esa o‘zbeklar, qozoqlar, qoraqalpoqlar, qirg‘izlar, tojiklar va turkmanlarning tarixan shakllangan hududiy joylashuvi hamda Turkiston o‘lkasida aralash va ixcham yashash xususiyatlariga to‘liq mos kelar edi.

Shuningdek, mazkur respublika RSFSR tarkibida bo‘lgan holda, maksimal darajadagi iqtisodiy va huquqiy mustaqillikka ega bo‘lishi, o‘z parlamenti, milliy valyutasi, harbiy va militsiya tuzilmalariga ega bo‘lishi nazarda tutilgan edi. Biroq Turkiston musulmonlarining IV favqulodda o‘lka qurultoyi ishtirokchilarining ko‘pchiligi bildirgan fikrlarga zid ravishda, Turkiston Muxtoriyati hokimiyat organlari o‘z faoliyatini shariat qoidalariga muvofiq olib borishi kerakligi haqidagi shart ham qabul qilindi. Shunga qaramay, Turkiston Muxtoriyati siyosiy dasturida millatchilik, panislomizm yoki panturkizm g‘oyalarining mavjud emasligi turli milliy va ijtimoiy-siyosiy tashkilotlarni ushbu muxtoriyatni qo‘llab-quvvatlashga undadi. Natijada musulmon, yahudiy, arman, polyak, ukrain va belorus jamoat tashkilotlari hamda bolsheviklardan tashqari deyarli barcha siyosiy kuchlar Turkiston Muxtoriyati tashkil etilganini olqishlab, unga yordam berishga tayyor ekanliklarini bildirdilar. Bu holat bolshevik tashkilotlarini jiddiy tashvishga soldi,

chunki ular Turkistonda o‘z hokimiyatini o‘rnatishga intilar edilar. Shu maqsadda ular ikkilanmasdan o‘lkada saqlanib qolgan sobiq mustamlakachi qo‘shinlardan foydalandilar va 1917-yil 13-dekabr kuni Toshkentning Eski shahar qismida bo‘lib o‘tgan miting qatnashchilariga qarata o‘q uzdilar[7].

Biroq bolshevik Sovetlari tomonidan qo‘llangan qatag‘on choralaridan keyin ham mahalliy aholining aksariyati va uning siyosiy faol ziyolilari orasida Turkiston Muxtoriyatini qo‘llab-quvvatlash kayfiyati kuchli bo‘lib qoldi. Buni Markaziy Musulmon Askarlar Harbiy Kengashi tashabbusi bilan chaqirilgan Turkiston musulmon ishchilari, dehqonlari va askarlarining I qurultoyi yaqqol namoyish etdi[8].

Mazkur qurultoy 1917-yil 25-dekabrda Qo‘qon shahrida bo‘lib o‘tdi. Qurultoy ishiga rais sifatida taniqli ziyoli, olim, pedagog va publitsist Abdulla Avloniy hamda Toshkent musulmon ishchilari va hunarmandlari yetakchisi Sanjar Asfandiyorov rahbarlik qildilar. Qurultoy prezidiumi tarkibida Kaspiyorti viloyatidan saylangan turkman delegatlar Ovozin va Piri Mursalzoda ham faol ishtirok etdilar.

Turkiston Muxtoriyati to‘g‘risidagi birinchi qarorida qurultoy, jumladan, shunday ta’kidlagan edi: «Turkiston Muxtoriyatini e’lon qilgan kuchlarga nisbatan bildirilayotgan ayblovlar... “Qo‘qon qurultoyi tomonidan e’lon qilingan Muxtoriyat faqat boylar va ulamolar qurultoyi tomonidan tuzilgan, degan ayblovlar haqiqatga mos kelmaydi. Qurultoyda xalqning barcha tabaqalari vakillari ishtirok etgan. Musulmon ishchilari va askarlarining qurultoyi Muxtoriyat qurultoyi tomonidan saylangan Milliy Majlis hamda Muvaqqat Hukumatga to‘liq ishonch bildiradi”.

Qurultoyning boshqa bir qarorida esa quyidagilar qayd etilgan edi: “Musulmon ishchilari va askarlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan ushbu qurultoy boshqaruv ishlarini zudlik bilan Xalq Komissarlari Soveti tasarrufidan Turkiston Muxtoriyati Hukumati va Xalq Kengashi qo‘liga topshirishni zarur deb

hisoblaydi”. 1918-yil yanvar oyida Samarqand va Kaspiyorti viloyatlarining xalq vakillari qurultoylari ham Turkiston Muxtoriyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida qarorlar qabul qildilar.

Turkiston Muxtoriyati iqtisodiyotni sog‘lomlashtirishga qaratilgan siyosiy dasturi va amaliy faoliyati — milliy zayomlarni joriy etish, xususiy kapitalni jalb qilish, g‘aznachilik tizimini tashkil etish hamda dolzarb ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan chora-tadbirlari bilan xalq ommasi orasida tobora kengroq qo‘llab-quvvatlanayotgan edi. Shu bois u Turkistonni sovetlashtirish rejalarini amalga oshirish yo‘lidagi eng jiddiy to‘siqlardan biri sifatida ko‘rildi.

Maksimal darajadagi mustaqillikka intilgan, ichki tuzilishi federativ tamoyillarga asoslangan milliy-davlat muxtoriyati bolshevizmning imperiyaviy siyosiy konsepsiyasiga mos kelmas edi. Bolshevik rahbarlarining fikricha, bunday tuzilma qurolli yo‘l bilan tugatilishi lozim edi. Hatto Muxtoriyatga ishchilar va dehqonlar rahbarlik qilgan taqdirda ham, ularning nazarida bu masala o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lardi.

Ayniqsa, Toshkent Soveti, keyinchalik esa o‘lka Soveti rahbarlari fikricha, Muxtoriyatni tugatish zarur edi, chunki uni milliy ziyolilarning taniqli vakillari hamda bolsheviklarga qarshi kayfiyatdagi boshqa millat ziyolilari tashkil etgan va boshqargan edilar. 1917–1918-yillarda ham, undan keyingi davrlarda ham partiya-sovet matbuoti bu shaxslarni “burjua millatchilari”, “reaksion kontrinqilobchilar” va shu kabi siyosiy tamg‘alar bilan atab kelgan.

Bolshevik-sovet hokimiyatining milliy ziyolilarga munosabati va ularning O‘zbekiston tarixidagi, xususan 1917–1920-yillardagi oktabrdan keyingi siyosiy jarayonlardagi o‘rni haqida so‘z yuritar ekanmiz, shuni eslatib o‘tish lozimki, Turkiston Muxtoriyatining tashkil etilishi tashabbuskorlari va uning asosiy rahbarlari, avvalo, milliy intelligensiyaning eng faol va ilg‘or vakillari bo‘lgan.

Turkiston Muxtoriyatining tashkil etilishi va faoliyatida quyidagi taniqli siyosiy hamda jamoat arboblari muhim rol o‘ynaganlar: Muhammadjon

Tinishpayev, Mustafo Cho‘qay, Ubaydulla Asadullaxo‘jayev, Ogayev, Obid Mahmudov, A. Urazayev, Sh. Shoahmedov, A. Xo‘jayev, T. Norbutabekov, S. Sharifxo‘jayev, K. Xo‘jikov, I. Abidalin, S. Mirjalilov (keyinchalik yozuvchi Oybekning qaynotasi), Sh. Lapin, S. Saidov, Olimxon To‘ra Shokirxonto‘ra (mashhur Alixonto‘ra Sog‘uniyning ukasi, Sharqiy Turkistondagi 1930–1940-yillardagi milliy-ozodlik harakati rahbarlaridan biri), P. Kamolxonto‘rayev, A. Qushbegiyev, I. Davletshin, X. Shirbenskiy, T. Musaboyev, A. Abdusalimov, A. Dirbisalin, Mahmudxo‘ja Behbudiy, M. Akchurin, M. Mansurov, shuningdek, yevropalik ziyolilar vakili S. A. Gertsfeld va boshqa ko‘plab shaxslar.

Milliy ziyolilarga nisbatan bolshevik hokimiyatining siyosati ko‘pincha tartibsiz, vaziyatga moslashuvchan, qo‘pol va kuch ishlatishga asoslangan xarakterga ega bo‘lsa-da, uning asosida bolsheviklarning sinfiy qarashlari va siyosiy manfaatlari yotardi. Muayyan shaxs yoki umuman milliy intelligensiyaning siyosiy va fuqarolik pozitsiyasini baholashdagi asosiy mezon ularning Sovet hokimiyatiga bo‘lgan munosabati edi. 1920-yillarning oxiridan boshlab esa bunga kommunistik mafkuraning yagona hukmron g‘oyasi sifatida qabul qilinishiga munosabat ham qo‘shildi.

Shu sababli, hatto Turkiston Muxtoriyati tashkil etilmagan taqdirda ham, milliy ziyolilarning katta qismini bolshevik-sovet siyosiy tizimi sharoitida murakkab va fojeali taqdir kutayotgan edi. Chunki bolsheviklarning g‘oyalari hamda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy islohotlarni amalga oshirishdagi amaliy siyosati mintaqaning mahalliy aholisi manfaatlari va tarixan shakllangan intilishlariga to‘liq mos kelmas edi. Bundan tashqari, Rossiyaning o‘zida ham bolshevik g‘oyalari va Sovet hokimiyati asosan zo‘ravonlik va majburlash usullari orqali qaror topgan edi.

Qatag‘on siyosatini amalga oshirar ekan, hokimiyat organlari eng avvalo o‘z ta’sir doirasini kengaytirishga intildilar. Shu maqsadda nafaqat mahalliy aholi,

balki rus aholisi tomonidan ham Sovet hokimiyatiga qarshi uyushtirilgan ish tashlashlar va norozilik mitinglari shafqatsiz bostirildi.

Bundan tashqari, rus tilida nashr etilgan “Svobodniy Samarqand”, “Ashxobod”, “Turkestanskiy vestnik”, “Turkestanskiy kuryer” kabi gazetalar, shuningdek, mahalliy xalqlar tillarida chop etilgan deyarli barcha matbuot nashrlari yopib qo‘yildi.

Ammo Sovet hokimiyati organlari va bolshevik tashkilotlarining asosiy e’tibori, avvalo, milliy-vatanparvar kuchlar va ularning tashkilotlarini imkon qadar tezroq tugatishga qaratilgan edi, ya’ni bolsheviklarga qarshi deb baholangan siyosiy partiyalar, jamoat va xayriya tashkilotlarini tugatishga qaratildi. Bu tashkilotlarning aksariyatiga mahalliy millat ziyolilari rahbarlik qilganligi sababli, ularga nisbatan iqtisodiy, ijtimoiy va ma’muriy bosim choralarini kuchaytirish siyosati ham izchil olib borildi.

Milliy intelligensiyaning katta qismi Turkistondagi sovet rahbariyatining maqsadlari va siyosiy taktikasini, shuningdek, o‘lka Xalq Komissarlari Soveti olib borayotgan siyosatning salbiy oqibatlarini yaxshi anglab yetgan edi. Shu bilan birga, Turkiston ziyolilari orasida siyosiy o‘zgarishlarga befarq qaraydigan, passiv pozitsiyani egallagan yoki Sovet hokimiyatini qabul qilishga hamda bolshevik mafkurasiga qarshilik ko‘rsatmaslikka tayyor bo‘lgan shaxslar ham mavjud edi. Bolsheviklar aynan ana shunday ziyolilar qatlamiga tayandilar. Bundan tashqari, ular milliy-vatanparvar tashkilotlar, partiyalar va harakatlar ichidagi qarama-qarshiliklar hamda ichki kelishmovchiliklardan ham mohirona foydalandilar.

Ayni paytda Turkistonda bolshevik siyosiy tizimiga qarshi milliy-ozodlik kurashi tobora kengayib borayotgan edi. Sovet hokimiyati bu kurashning mafkuraviy ilhomlantiruvchilari va ko‘p jihatdan tashkilotchilari mahalliy aholining milliy-vatanparvar ruhdagi ziyolilari hamda ularning tashkilotlari ekanini yaxshi tushunar edi. Shu sababli, mintaqa hududida o‘z hokimiyatini to‘liq

mustahkamlashga ulgurmasdan turib, avvalo milliy-ozodlik harakati va milliy intelligensiyani moddiy manbalardan mahrum etishga harakat qildi.

Bu maqsadda vaqf yerlarini hamda boshqa vaqf mulklarini ommaviy musodara qilish siyosati amalga oshirildi (ularning ma’lum qismi 1922-yilda qaytarilgan). Bundan tashqari, 1917-yil dekabridan boshlab va Yangi iqtisodiy siyosat (NEP) tugatilguniga qadar davriy ravishda bosmaxonalar va litografiyalarni, “Sho‘roi Islomiya”, “Ulamo” tashkilotlari hamda milliy madaniy-ma’rifiy va xayriya jamiyatlariga tegishli ko‘char va ko‘chmas mulklarni tortib olish bo‘yicha huquqiy asossiz tadbirlar o‘tkazildi.

Shuningdek, mahalliy aholining mulkdor qatlamlariga yangi soliqlar va yig‘imlar joriy etildi, yerga xususiy mulkchilik huquqi bekor qilindi. Masalan, 1917-yil 29-noyabrda Toshkentda barcha tomoshalar, xususiy telefonlar, avtomobillar va ot-ulovlardan foydalanish uchun maxsus soliqlar belgilandi. 1917-yil dekabr oyida Kolesov va o‘lka Xalq Komissarlari Sovetining kotibi bolsheviklar siyosatiga xos bo‘lgan buyruq chiqardilar. Ushbu buyruqqa ko‘ra, shahar hududlaridagi barcha turdagi ko‘chmas mulklar va yer maydonlarini sotish, sotib olish yoki garovga qo‘yish bilan bog‘liq bitimlar “yaqin kelajakda ularning umumxalq mulkiga aylantirilishi kutilayotgani munosabati bilan” taqiqlandi.

Aynan Rossiya Respublikasi rahbariyatining tavsiyasiga binoan Turkiston o‘lkasi Xalq Komissarlari Soveti 1918-yil yanvar oyida Turkiston Muxtoriyatining moliyaviy asoslarini zaiflashtirish maqsadida, hech qanday qonuniy asoslarsiz Qo‘qon shahridagi bank mablag‘larini musodara qildi. Mazkur harakat amalda talonchilikka teng edi. Natijada Qo‘qonning banklari, g‘aznachilik muassasalari, savdo shirkatlari va firmalaridan o‘sha davr uchun nihoyatda katta hisoblangan 8 million 300 ming rubldan ortiq mablag‘ tortib olindi. 1917–1920-yillarda Sovet hokimiyatining yirik harbiy kuchlarni shakllantirish va saqlash, Buxoro amirligi hamda Xiva xonligiga qarshi harbiy harakatlarni moliyalashtirish, bolshevik siyosiy tizimini mustahkamlash va boshqa ko‘plab xarajatlari asosan mehnatkash

aholidan turli majburiy yig‘imlar undirish hamda milliy ziyolilar va mulkdorlar mulkini o‘zlashtirish hisobiga qoplandi. Shaharlar va uyezdlarda qo‘pol kuch ishlatishga asoslangan siyosat yuritildi. Jumladan, tadbirkorlar va savdogarlardan «kontributsiya» deb atalgan majburiy to‘lovlar undirilgan, Turkiston Muxtoriyati, Buxoro amiri, Xiva xoni hamda ko‘plab badavlat kishilar, o‘rta va yirik sanoatchilar, yer egalari mulklari tortib olingan.

Musodara qilingan mulklar orasida andijonlik Mirkomil Mirmo‘minboyev, toshkentlik Saidkarim va Saidg‘ani Azimboyevlar, Vadiyayevlar hamda boshqa taniqli mulkdorlarning boyliklari ham bor edi. Bundan tashqari, taqiqlangan “Sho‘roi Islomiya” va “Ulamo” tashkilotlari, xususiy va jamoat xayriya muassasalarining mol-mulklari ham davlat tasarrufiga o‘tkazildi. Bu siyosat ayrim hollarda Rossiya mustamlakachilik davridagi amaliyotlarning takrorlanishiga olib keldi. Xususan, Toshkent, Andijon va Samarqandning eski shahar qismlarida yashovchi aholi turli bahonalar bilan qo‘shimcha soliqlarga tortildi. Masalan, 1918-yil iyun oyida Toshkent Soveti «Toshkentning eski shahar qismidagi mulkdor tabaqalarni sanitariya-gigiyena ehtiyojlari uchun soliqqa tortish to‘g‘risida» maxsus buyruq chiqardi. Unda quyidagilar belgilangan edi: “...Uch kun muddat ichida Toshkent eski shahar qismidagi mulkdor tabaqalardan ushbu shaharda vabo va ich terlama epidemiyasi tarqalishi munosabati bilan sanitariya-gigiyena tadbirlarini amalga oshirish ehtiyojlari uchun soliq undirilishi lozim. Shoshilinch tartibda jami 200 ming rubl yig‘ilishi va mazkur mablag‘ Xalq bankidagi joriy hisob raqamimizga topshirilishi kerak. Toshkent Soveti Ijroiya qo‘mitasi”.

1917–1920-yillarda O‘zbekiston milliy ziyolilariga bolshevik-sovet hokimiyatining munosabati masalasini ko‘rib chiqishda shuni alohida ta’kidlash kerakki, bu munosabat ko‘p jihatdan hokimiyatga har qanday vaziyatda imperiyaviy maqsadlarni amalga oshirish imkonini bergan siyosiy va ma’muriy choralar bilan belgilanar edi.

Madaniyat sohasidagi tadbirlardan tashqari, quyidagi choralar ayniqsa muhim ahamiyat kasb etdi: Turkiston Respublikasi Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining «burjua va kontrinqilobiy unsurlarni soliq ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risida»gi buyrug‘i (1918-yil 9-sentabr); musulmon Sovetlarini tuman Sovetlari deb qayta nomlash haqidagi Turkiston Xalq Komissarlari Sovetining qarori (1918-yil 9-sentabr); Toshkent Sovetining umumiy mehnat majburiyatini joriy etish haqidagi qarori; Turkiston Respublikasi Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining Oliy Inqilobiy Tribunal va Kontrinqilob, chayqovchilik hamda talonchilikka qarshi Favqulodda tergov komissiyasi to‘g‘risidagi nizomlarni e’lon qilgan buyrug‘i (1918-yil 14-sentabr); Toshkent Sovetining Qizil terror qo‘mitasini tashkil etish haqidagi qarori (1918-yil 14-sentabr) hamda xalq ta’limi tizimini qayta qurish, «shaklan milliy, mazmunan sotsialistik» madaniyatni shakllantirishga qaratilgan boshqa ko‘plab tadbirlar shular jumlasidandir.

Sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan ushbu siyosat, ayniqsa mahalliy aholining milliy-ozodlik harakatini qurolli yo‘l bilan bostirish va 1920-yillarning oxiriga kelib buyuk davlatchilik ruhidagi bolshevik mafkurasini qaror toptirish, milliy ziyolilar tarkibi hamda ularning jamiyatdagi ijtimoiy roliga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Katta avlod ziyolilarining murosasiz vakillarini siyosiy maydondan siqib chiqarish, aholining mehnatga layoqatli qatlamlarini davlat organlariga iqtisodiy jihatdan qaram qilib qo‘yish orqali bolshevik-sovet hokimiyati milliy ziyolilar orasida sun’iy siyosiy va mafkuraviy tabaqalanishni kuchaytirishga erishdi.

Natijada ziyolilarning katta qismi mavjud hayot sharoitlariga moslashib, siyosiy jarayonlardan chetda qoldi. Boshqa, son jihatdan uncha katta bo‘lmagan qismi esa jamoat hayotida faol ishtirok etishda davom etdi va imkon qadar mahalliy xalqlarning milliy o‘ziga xosligini, milliy qadr-qimmatini hamda mustaqil taraqqiyot haqidagi orzu-umidlarini saqlab qolishga intildi.

Shunday qilib, Turkiston (Qo‘qon) Muxtoriyati qurolli yo‘l bilan tugatilganidan keyin kuchaygan milliy-vatanparvarlik kayfiyatlarini bostirish siyosati, mahalliy aholining ozodlik va antisovet kurashiga qarshi qaratilgan choralar, milliy ziyolilarning katta qismini yo‘q qilish, surgun etish, mol-mulkidan mahrum qilish, shuningdek, milliy siyosiy va jamoat tashkilotlarini asossiz ravishda obro‘sizlantirish hamda taqiqlash siyosati O‘zbekistonda totalitar boshqaruv tizimi va yagona partiyaviy mafkuraning tobora mustahkamlanishiga xizmat qildi.

Buning oqibatida ziyolilarning xalq ommasi hayotidagi mavqei va ta’siri asta-sekin zaiflashib, ma’lum darajada deformatsiyaga uchradi. Shunga qaramay, milliy ziyolilarning ko‘plab taniqli vakillari, hatto sovet tizimida muayyan mavqega ega bo‘lganlari ham, o‘zlarining asl milliy g‘oyalari va xalq manfaatlariga sodiqligidan voz kechmadilar.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. Ленин В.И. ПСС. Т. 14. - С.191
2. Революция глазами современников. Сб. статей и воспоминаний. - Т., 1991. - С.21.
3. Туркестанские ведомости, 1917, 18 июля.
4. Победа Октябрьской революции в Узбекистане. Т. II. - С.59.
5. Голос Самарканда, 1918, 16 марта, № 44.
6. ЦГА РУз ф. 39, оп. 1, д. 11, л. 10.
7. Улуғ Туркистон, 1917, 10 декабрь, № 42.
8. Улуғ Туркистон, 1918, 4 январь, № 48.

BALANDTEPA YODGORLIGINING ARXEOLOGIK JIHATDAN O‘RGANILISHI.

Najmiddinov Abdulbositxon

Antropologiya instituti

katta ilmiy xodimi

369abdulbosit@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21043161

Annotatsiya*: Markaziy Osiyoning eng zich aholi yashaydigan hududlaridan biri hisoblangan Farg‘ona vodiysi ilk o‘rta asrlarda o‘zining qulay tabiiy-iqlimiy sharoiti, strategik geografik o‘rni hamda keng madaniy aloqalari tufayli iqtisodiy jihatdan rivojlangan mintaqalardan biri bo‘lgan. Milodiy I ming yillik o‘rtalariga oid arxeologik moddiy topilmalar va yozma manbalar ushbu hududda ko‘p tarmoqli xo‘jalik tizimi shakllanganini tasdiqlaydi. Qadimgi Pop hududida joylashgan ilk o’rta asrlar davriga oid Balandtepa va Munchoqtepa yodgorliklari Farg’ona vodiysining eng yirik va muhim madaniy markazlaridan biri bo'lgan. Shahar Sirdaryo bo‘ylab strategik ahamiyatga ega o‘tish joyida joylashgani sababli, mintaqaning iqtisodiy va madaniy hayotida katta rol o‘ynagan.*

Kalit so‘zlar*: Bob, Pop, Qirqhujra, Balandtepa, Munchoqtepa, shimoliy Farg‘ona*

Tadqiqotlar natijasida Axsikentning uchta hududiy jihatdan alohida, turli davrlarga tegishli shahar xarobalariga ega ekanligi aniqlangan: antik, mo‘g‘ullar istilosi avvalgi va temuriylar davri xarobalari [5]. Bu holat yodgorlikni stratigrafik va madaniy jihatdan ayniqsa qimmatli qiladi.

Axsikentnig hunarmandchilik va metallurgiya merosi

Arxeologik qazishmalar Axsikentning naqadar noyob ishlab chiqarish markazi bo‘lganini tasdiqlaydi. Shahriston hududida temirchilik va mischilik bilan bog‘liq maxsus kulolchilik parchalari — temir va mis eritilgan idishlar, hamda ustaxonalardan metallurgik pechlar topilgan [6]. Axsikentda IX–XIII asrlarga oid o‘nlab ming dona qoralik parchalaridan iborat tigel bo‘laklari topilgan bo‘lib, bu yerda yuqori sifatli po‘lat ishlab chiqarilganini ko‘rsatadi [7].

Britaniyalik arxeolog professor Rxern tadqiqotlariga ko‘ra, Axsikentda kaolin (oq gil)dan tayyorlangan issiqqa chidamli tigellarda 1300 darajaga qadar qizdiriladigan po‘lat eritilgan. Bu usulda olingan, so‘ngra mohirona zarb qilingan po‘lat g‘oyat mustahkam, egiluvchan va o‘ziga xos naqshli bo‘lgan. Taxminlarga ko‘ra, har yili savdo karvonlari Axsikentdan Buyuk Ipak yo‘li orqali o‘nlab tonna po‘lat va besh ming qilichni Damashqqa olib ketgan [8]. “Damashq po‘lati”

atamasi aslida po‘latning kelib chiqish joyi bilan emas, balki Damashqdagi qurol bozoriga nisbati bilan bog‘liq ekanligi haqida faraz ham mavjud.

Bundan tashqari, Axsikent IX–XII asrlarda sopol buyumlar ishlab chiqarishning yirik markazi ham hisoblangan. Samoniylar davriga oid Axsikent kulolchilik buyumlari o‘ziga xos kompozitsiyalari va rang-barangligi bilan e’tiborni tortadi. Shahristondagi xonadon kvartallarida terrakota o‘choqlar majmuasi ham topilgan bo‘lib, ular yuqori sifatli qoliplash va yaxshi pishirishni ko‘rsatadi. Shisha buyumlar ham ko‘plab topilgan — ular stol idishlari, va kimyoviy asboblarni o‘z ichiga oladi [9].

Bu meros — o‘quvchilar uchun beqiyos ta’limiy resursdir. IX–XII asrlar Axsikentning hunarmandchiligi, metallurgiyasi va savdo aloqalarini o‘rganish nafaqat mahalliy tarixni, balki O‘rta Osiyo, Yaqin Sharq va Xitoy bilan bo‘lgan iqtisodiy-madaniy munosabatlarni tushunishga ham asos bo‘ladi.

Axsikentnit ta’lim jarayoniga integratsiyasi

Tarixni o‘qitishda yodgorliklar yetarlicha foydalanilmaydi. Darsliklar Axsikent haqida qisqacha ma’lumot beradi-yu, ammo bu shaharning naqadar ulkan madaniy va iqtisodiy ahamiyatga ega ekanligi to‘liq yoritilmaydi.

Mamlakatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, tarixni o‘qitishda milliy identifikatsiyani shakllantirish va xalqning tarixiy xotirasini saqlash muhim ahamiyatga ega [10]. Bu g‘oyani amaliyotga tatbiq etishning eng to‘g‘ri yo‘li — yodgorliklarni ta’lim jarayoniga organik ravishda kiritishdir.

Axsikentnit ta’limdagi rolini kuchaytirishning bir necha yo‘nalishlari mavjud.

Birinchidan, tarix darslarida Axsikent materiallari keng qo‘llanilishi kerak. IX–XI sinflar uchun Farg‘ona vodiysi tarixi bo‘limida faqat umumiy Markaziy Osiyo tarixiga emas, aynan Axsikentning shahar tuzilishi, hunarmandchilik mahallalari va savdo yo‘llari haqidagi aniq ma’lumotlarga e’tibor qaratilishi lozim. Masalan, Ibn Xurdodbex ma’lumotlari asosida shaharni qog‘ozda “rekonstruksiya

qilish” — kuxandiz, shahriston va rabotni chizib, har bir bo‘laknit vazifasini muhokama qilish — o‘quvchilarda juda chuqur tarixiy tasavvur hosil qiladi.

Ikkinchidan, “tarixiy immersiya” metodi bu yodgorlik uchun ayniqsa samarali. O‘quvchilarda tarixiy muhitni to‘liq his qilish uchun virtual texnologiyalar yoki bevosita yodgorlikka tashrif — VR yoki real ekskursiya orqali Axsikentning bozori, kulolchilik mahallasi yoki metallurgiya ustaxonasini ko‘rish imkonini berish mumkin [11]. Hozirda yodgorlik hududida muzey-qo‘riqxona faoliyat olib bormoqda, bu imkoniyatni to‘la-to‘kis foydalanish lozim.

Uchinchidan, “tarixiy mozaika” va “tafakkur tarmog‘I” metodlari Axsikent mavzusida samarali qo‘llanilishi mumkin. Masalan, o‘quvchilarga Axsikentni Somoniylar, Qoraxoniylar va Xorazmshohlar davridagi taqdirini tarqoq faktlar shaklida berib, ularni mantiqiy ketma-ketlikka keltirish topshirilsa, tarixiy sabab-oqibat munosabatlarini tahlil qilish ko‘nikmasi mustahkamlanadi.

Axsikent va turizm: ta’lim uchun platforma

Axsikentni xalqaro turistik yo‘nalishga aylantirishning pedagogik ahamiyati ham katta. 2017-yilda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan “Namangan viloyatining To‘raqo‘rg‘on tumanida Axsikent arxeologiya merosi ob’ektini muhofaza qilish va tadqiq etish yodgorlik majmuasini tashkil etish to‘g‘risida” 831-son qaror qabul qilingan.[12] Ushbu qaror asosida yodgorlikni muhofaza qilish va tadqiq etish boshqarmasi tashkil etilgan.

Axmedov J.Z.ning ta’kidlashicha, Axsikentni ochiq osmon ostidagi muzeyga aylantirish va uni xalqaro turizm yo‘nalishlariga kiritish — bugungi kunning dolzarb vazifasi [13]. Buning pedagogik o‘lchami ham mavjud: yodgorlikka keluvchi sayyohlar asosan o‘rta maktab va universitetdagi yosh avloddir. Ular uchun yodgorlikda tashkil etiladigan ekskursiyalar, ta’limiy marshrutlar va interaktiv ko‘rgazmalar tarix fanini tiriltirib beradi.

Axsikentni turizm va ta’lim platformasiga aylantirish uchun quyidagi kompleks chora-tadbirlar zarur:

O‘quv ekskursiyalarini tizimga solish. Namangan, Farg‘ona va Andijon viloyatlaridagi maktab o‘quvchilari uchun Axsikentnit muntazam o‘quv ziyoratlari tashkil etilishi, bu ziyoratlar esa tarix fanining aniq mavzulari bilan bog‘liq bo‘lishi kerak.

Yodgorlik hududida ta’limiy infratuzilma yaratish. Xarobalar yonida qadimiy shahar tuzilishini, metallurgiya jarayonini va kulolchilikni ko‘rsatuvchi interaktiv stendlar, maket va ko‘rgazma zallari bugungi zaruriyatdir.

Mahalliy tarix mualliflari uchun metodik qo‘llanma. Axsikent haqida maktab fani doirasida qo‘llash mumkin bo‘lgan maxsus dars ishlanmalari — xaritalar, hujjatlar, topilmalar suratlarini o‘z ichiga oluvchi to‘plamlar tayyorlanishi lozim.

Xalqaro hamkorlik. Axsikentni xalqaro arxeologik-ta’limiy loyihalarga jalb etish — YUNESKO bilan hamkorlik, chet el universitetlari bilan qo‘shma tadqiqotlar — yodgorlikning jahon miqyosidagi nufuzini oshiradi.

Xulosa

Axsikent — nafaqat milliard qiymatli arxeologik yodgorlik, balki o‘quvchilarning tarixiy ongini shakllantirish, milliy g‘urur va vatanparvarlik hissini tarbiyalash uchun noyob pedagogik resursdir. Uning Somoniylar davrida Buyuk Ipak yo‘lidagi metallurgiya markazi sifatidagi roli, shahar madaniyati va hunarmandchiligining yuksak darajasi — bularning barchasi maktab tarix darslarini boyitishi, o‘quvchilarni haqiqiy tarixiy jarayonlarni his etishga chorlashi mumkin.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi nuqtai nazaridan Axsikentni ta’lim jarayoniga keng joriy etilishi, yodgorlikka o‘quv ekskursiyalari tashkil etilishi, interaktiv va innovatsion metodlarning qo‘llanilishi — bularning barchasi O‘zbekiston tarixini o‘qitishning sifatini sezilarli darajada yuksaltiradi. Axsikentni turizm, ta’lim va targ‘ibotning yagona platformasiga aylantirish — bugungi ilm va davlat manfaatlarining tutashuv nuqtasidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Қосимов Й. Қадимги Фарғона сирлари. — Наманган: 1992. — Б.53.
2. Нурматова Г. Средневековый Ахсикент (IX–XII вв.) // Номаи донишгох (Ученые записки). — С. 124.
3. Нурматова Г. Средневековый Ахсикент (IX–XII вв.) // Номаи донишгох (Ученые записки). — С. 124.
4. 3 Ахмедов Ж.З. Ахсикент — уникальный памятник Ферганской долины // Этническая культура. — 2020. — № 1 (2). — С. 7.
5. Нурматова Г. Средневековый Ахсикент (IX–XII вв.) // Номаи донишгох (Ученые записки). — С. 127.
6. Ахмедов Ж.З. Ахсикент — уникальный памятник Ферганской долины // Этническая культура. — 2020. — № 1 (2). — С. 6.
7. Нурматова Г. Средневековый Ахсикент (IX–XII вв.) // Номаи донишгох (Ученые записки). — С. 131.
8. Нурматова Г. Средневековый Ахсикент (IX–XII вв.) // Номаи донишгох (Ученые записки). — С. 131.
9. 4 Образование и наука в XXI веке: халқаро илмий-таълимий электрон журнал. — № 63-3 (2-жилд). — Iyun 2025. — Б. 637.
10. 5 Давронбаев И.Н. O‘zbekiston tarixini o‘qitishda yangi metodik tavsiyalar // Научный импульс: халқаро илмий журнал. — № 29 (100), 1-қисм. — Январь 2025. — Б. 195.
11. Давронбаев И.Н. O‘zbekiston tarixini o‘qitishda yangi metodik tavsiyalar // Научный импульс: халқаро илмий журнал. — № 29 (100), 1-қисм. — Январь 2025. — Б. 197.
12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Namangan viloyatining To‘raqo‘rg‘on tumanida “Axsikent” arxeologiya merosi obyektini muhofaza qilish va tadqiq etish yodgorlik majmuasini tashkil etish to‘g‘risida”gi 831-son qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.10.2017-y.,

https://lex.uz/docs/-3382160 Elektron resurs: https://lex.uz/docs/3386966 [Murojaat qilingan sana: 13.06.2026].

13. Ахмедов Ж.З. Ахсикент — уникальный памятник Ферганской долины // Этническая культура. — 2020. — № 1 (2). — С. 8.

14. Davronbayev I.N. O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitishda innovatsion metodlar: o‘quvchilar faolligini oshirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishning ilmiy-metodologik asoslari // Modern Education and Development. – 2026. – Vol. 46. – No. 6. – P. 355–366.

O‘ZBEKISTONDA JAMOATCHILIK NAZORATI TO‘G‘RISIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Umarov Murodjon Mamatkarim o‘g‘li

Namangan davlat pedagogika instituti

Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

murodbekumarov0512@gmail.com

+998946745040

Soloxiddinova E’zozaxon Nodirbek qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlar fakulteti talabasi

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21044600

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekistonda jamoatchilik nazorati institutining mazmun-mohiyati, uning nazariy va huquqiy asoslari hamda amaldagi qonunchilik tizimidagi o‘rni tahlil etilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va O‘zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonuni normalari asosida jamoatchilik nazoratining shakllari, subyektlari va amalga oshirish mexanizmlari, uni amalga oshirishda yuzaga kelayotgan muammolar, fuqarolarning huquqiy faolligi yetarli, davlat organlari faoliyatida ochiqlik darajasi hamda nazorat mexanizmlarining samaradorligi hamda kamchiliklari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *jamoatchilik nazorati, fuqarolik jamiyati, davlat boshqaruvi, ochiqlik, shaffoflik, huquqiy mexanizm, nazorat shakllari, demokratik islohotlar, raqamli platformalar, ma’muriy javobgarlik.*

Аннотация: *В данной статье анализируется сущность института общественного контроля в Узбекистане, его теоретические и правовые основы, а также его место в действующей законодательной системе. В*

частности, на основе норм Конституции Республики Узбекистан и Закона Республики Узбекистан “Об общественном контроле” анализируются формы, субъекты и механизмы общественного контроля, проблемы, возникающие при его осуществлении, адекватность правовой деятельности граждан, уровень открытости в деятельности государственных органов, а также эффективность и недостатки механизмов контроля.

Ключевые слова: *общественный контроль, гражданское общество, государственное управление, открытость, прозрачность, правовой механизм, формы контроля, демократические реформы, цифровые платформы, административная ответственность.*

Abstract: *This article analyzes the essence of the institution of public control in Uzbekistan, its theoretical and legal foundations, and its place in the current legislative system. In particular, based on the norms of the Constitution of the Republic of Uzbekistan and the Law of the Republic of Uzbekistan “On Public Control”, the forms, subjects, and mechanisms of public control, the problems arising in its implementation, the adequacy of legal activity of citizens, the level of openness in the activities of state bodies, and the effectiveness and shortcomings of control mechanisms are analyzed.*

Keywords: *public control, civil society, public administration, openness, transparency, legal mechanism, forms of control, democratic reforms, digital platforms, administrative liability.*

Kirish:

Bugungi kunda O‘zbekistonda davlat boshqaruvi ochiqligini ta’minlash va korrupsiyaga qarshi kurashishda jamoatchilik nazorati eng muhim preventiv vositalardan biriga aylandi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 36-moddasida fuqarolarning davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqi mustahkamlangani bu sohaning nazariy va huquqiy poydevori

hisoblanadi[33]. Yangi tahrirdagi Bosh qomusimizda jamoatchilik nazorati nafaqat huquq, balki davlat va jamiyat o‘rtasidagi “tiyilish va muvozanat” mexanizmining ajralmas qismi sifatida e’tirof etilgan bo‘lib, bu jarayon davlat hokimiyati organlari faoliyatining xalqchilligini ta’minlashga xizmat qiladi[34].

“Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonun ushbu institutning subyektlari (NHTlar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, OAV) va amaliy shakllarini (jamoatchilik eshituvi, monitoring, ekspertiza) aniq belgilab berdi[35].

So‘nggi yillarda qabul qilingan strategik hujjatlar, jumladan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi jamoatchilik nazoratini raqamlashtirish va davlat boshqaruviga “Jamoatchilik auditi” tizimini keng joriy etishni talab qilmoqda[36].

Inson va fuqarolarga ko‘rsatilayotgan davlat xizmatlari raqamlashishi natijasida amalga oshirilayotgan islohotlarda inson omilini kamaytirishga erishilmoqda. Birgina elektron hukumat platformasining ishga tushirilishi sohada tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Shu bilan birga yangi soha elektron hokimiyat tizimi yuzaga keldi.

Barcha davlat xizmatlari bevosita onlayn ko‘rsatilishi belgilandi. Elektron davlat xizmatlarini ko‘rsatayotgan davlat organlari o‘z faoliyatida bir qator prinsiplarga amal qilishi bir qator qonun hujjatlarida belgilab qo‘yildi. Masalan, davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligi, elektron davlat xizmatlaridan ariza beruvchilarning teng ravishda foydalanishi, “bir darcha” prinsipi bo‘yicha elektron davlat xizmatlari ko‘rsatish, davlat organlarining hujjatlarini birxillashtirish, elektron hukumatning yagona identifikatorlaridan foydalanish, elektron davlat xizmatlari ko‘rsatish tartibini muntazam takomillashtirib borish,

[33] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi //Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son. https://lex.uz/docs/-6445145

[34] Saidov A. X. Konstitutsiyaviy islohotlar va jamoatchilik nazorati: nazariya va amaliyot // Huquq va burch jurnali. – Toshkent, 2023. № 4. 12-18-betlar.

[35] “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 12.04.2018-yildagi O‘RQ-474-son. https://lex.uz/docs/-3679092.

[36] “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni. https://gov.uz/oz/pages/2030_strategy.

elektron hukumat axborot tizimlarining va axborot resurslarining axborot xavfsizligini hamda kiberxavfsizligini ta’minlash kabi prinsiplar belgilandi[37].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Fuqarolik jamiyati darsliklarida ta’kidlanganidek, jamoatchilik nazorati faqatgina kamchiliklarni aniqlash emas, balki davlat organlari faoliyatini samarali tashkil etishda ko‘maklashishdir[38]. Bugungi kunda mahalla tizimi jamoatchilik nazoratining “tayanch bo‘g‘ini”ga aylantirilmoqda, bu esa nazorat mexanizmlarining markazdan quyi bo‘g‘inga ko‘chishini ta’minlaydi. Ilmiy maqolalar va zamonaviy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sohadagi mavjud mexanizmlarni takomillashtirish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biridir[39]. Xususan, “Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda raqamli nazorat va sun’iy intellektning o‘rni”, “O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishda jamoatchilik nazoratining rolini kuchaytirish” nomli maqolalarda jamoatchilik naorati masalasiga alohida to‘xtalib o‘tilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Shun bilan birga ushbu qonunchilikda jamoatchilik ekspertizasi majburiyligini oshirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi; muhim ijtimoiy-iqtisodiy mazmunga ega bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini majburiy tartibda jamoatchilik ekspertizasidan o‘tkazish tizimini tubdan kuchaytirish lozim. Bunga qo‘shimcha sifatida ishga qabul qilinayotgan xodim bilan tuzilayotgan mehnat shartnomasini hududiy adliya bo‘limlari hamda yurudik markazlardan o‘tkazish ham misol bo‘ladi. Shuningdek, jarayonlarni raqamlashtirish orqali davlat boshqaruvida ochiqlikni ta’minlash, xususan, “Open Budget” (Ochiq budjet) platformasining muvaffaqiyatli tajribasini ekologik nazorat va qurilish sohalariga ham keng tatbiq etish zarur. Bunday raqamli platformalar sohadagi shaffoflikni

[37] O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi Qonuni. 2015 yil. –T.: https://lex.uz/docs/-2833860
[38] Fuqarolik jamiyati: darslik / Mualliflar jamoasi. – Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2021. 320-bet.
[39] Toshqulov J. Raqamli davrda jamoatchilik nazorati: muammo va yechimlar // O‘zbekiston qonunchiligi tahlili. – Toshkent, 2024. № 2. 45-51-betlar.

oshiradi hamda fuqarolarning bevosita nazorat o‘rnatish imkoniyatlarini kengaytiradi. Jamiyat manfaatlari doirasidagi masalalar yuzasidan esa (www.meningfikrim.uz) mening fikrim jamoaviy murojaatlar portali ishga tushirilgan bo‘lib, jamiyat a’zolari byudjet va iqtisodiyot, qonunchilik, mehnat, xavfsizlik, turizm, savdo, yer va suv masalalari hamda boshqa masalalar yuzasidan murojaatlar yo‘llashi mumkin. Statistik ma’lumotlarga qaraydigan bo‘lsak, Ushbu portalda e’lon qilingan masalalar yuzasidan 32066 ta izoh berilgan. Ushbu izohlar muhokama uchun qo‘yilgan masalalar yuzasidan bo‘lib, qo‘llab-quvvatlash jarayonida 41 ta, ekspertiza jarayonida 116 ta hamda barcha jamoaviy izohlar esa 8292 tani tashkil etishi belgilangan[40]. Jamoatchilik nazorati subyektlarining samaradorligini ta’minlashda ularning iqtisodiy va resurs ta’minoti masalasi fundamental ahamiyatga ega.

Nazorat qiluvchi subyektning nazorat qilinuvchi davlat organiga moliyaviy jihatdan qaram bo‘lishi manfaatlar to‘qnashuvini keltirib chiqaradi va jarayonning xolisligiga putur yetkazadi[41]. Shu sababli, davlat grantlari hamda ijtimoiy buyurtmalar tizimini raqobatli va ochiq shaklga o‘tkazish orqali nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalarining iqtisodiy mustaqilligini ta’minlash zarur. Moliyaviy ta’minot bilan bir qatorda, jamoatchilik kengashlarining davlat organlaridan to‘liq mustaqilligini ta’minlash, ularning faoliyatiga ma’muriy bosimlarni cheklash va tarkibiga mustaqil ekspertlarni ko‘proq jalb qilish professional natijadorlikni kafolatlaydi[42].

Zamonaviy texnologik tendensiyalar sharoitida jamoatchilik nazoratini an’anaviy usullardan “Aqlli nazorat” (Smart Control) va raqamli boshqaruv (Digital Governance) modeliga o‘tkazish talab etiladi. Bunda Big Data (katta

[40] Mening fikrim. Jamoaviy murojaatlar portali ma’lumotlari. https://petition.gov.uz/uz#:~:text=%D0%A1%D1%82%D0%B0%D1%82%D0%B8%D1%81%D1%82%D0%B8%D0%BA%D0%B0,%D0%98%D0%B7%D0%BE%D2%B3%D0%BB%D0%B0%D1%80

[41] Davlat va huquq nazariyasi: darslik / H. R. Boboyev va boshq.– Toshkent: TDYU nashriyoti, 2020. 410-bet.

[42] Ibragimov N. Jamoatchilik kengashlari faoliyatini takomillashtirishning istiqbolli yo‘nalishlari // Demokratizatsiya va inson huquqlari. – Toshkent, 2023. № 1. 28-34-betlar.

ma’lumotlar) va Sun’iy intellekt (AI) texnologiyalari jamoatchilik nazoratining asosiy vositasi bo‘lishi kerak. Xususan, davlat xaridlari yoki budjet mablag‘larining sarflanishini inson omilisiz, maxsus algoritmlar yordamida monitoring qilish hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni avtomatik ravishda aniqlaydigan “Qizil bayroqchalar” (Red Flags) tizimini joriy etish shubhali tranzaksiyalarni real vaqt rejimida aniqlash imkonini beradi. Budjet mablag‘larining harakatini kuzatishda blokcheyn (Blockchain) texnologiyasini qo‘llash esa jamoatchilik nazoratini faqat natijani tekshirishdan, jarayonni bevosita va onlayn kuzatishga aylantiradi.

Jamoatchilik nazoratining huquqiy maqomini mustahkamlashda nazorat jarayoniga to‘sqinlik qilganlik uchun javobgarlik masalasi hal qiluvchi bo‘g‘indir. Hozirgi kunda jamoatchilik nazorati subyektlarining qonuniy faoliyatiga qarshilik ko‘rsatganlik yoki ularning so‘rovlarini e’tiborsiz qoldirganlik uchun ma’muriy javobgarlik choralarining yetarlicha belgilanmagani ushbu institutning ko‘p hollarda deklarativ xarakterda qolib ketishiga sabab bo‘lmoqda[43]. Ilmiy asoslangan yondashuvga ko‘ra, har qanday huquqiy norma sanksiya bilan mustahkamlanmas ekan, u amaliyotda “o‘lik norma”ga aylanadi. Shu bois, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga jamoatchilik nazorati subyektining so‘rovini qasddan e’tiborsiz qoldirganlik, ma’lumotlarni asossiz rad etganlik yoki noto‘g‘ri ma’lumot berganlik uchun alohida sanksiyalarni nazarda tutuvchi yangi modda kiritish zarurati dolzarbdir[44].

XULOSA.

O‘zbekistonda jamoatchilik nazorati to‘g‘risidagi qonunchilikni takomillashtirish - mamlakatda demokratik boshqaruv tamoyillarini qaror toptirish va “inson qadri” ustuvorligini ta’minlashning asosiy shartidir. Jamoatchilik nazorati subyektlarining huquqiy maqomini aniq belgilash, ularning moliyaviy-

[43] Ma’muriy huquq: darslik / Mas’ul muharrir: L. B. Xvan. – Toshkent: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2022. 350-bet.
[44] O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. – Toshkent: “Adolat”, 2024-yil. https://lex.uz/ru/docs/-97664

resurs mustaqilligini kafolatlash hamda “Big Data” va “Blockchain” texnologiyalarini jarayonga integratsiya qilish tizim samaradorligini oshiruvchi ustuvor omillardir. Ma’muriy javobgarlikning belgilanishi mansabdor shaxslarning jamoatchilik so‘rovlariga nisbatan mas’uliyatini oshiradi. Kelgusida ushbu sohadagi tarqoq normalarni tizimlashtiruvchi va yaxlitlovchi alohida Jamoatchilik nazorati to‘g‘risidagi kodeksni ishlab chiqish va qabul qilish Yangi O‘zbekistonda kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishning mustahkam huquqiy poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES).

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi //Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y.,03/23/837/0241-son. https://lex.uz/docs/-6445145

[2]. “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 12.04.2018-yildagi O‘RQ-474-son. https://lex.uz/docs/-3679092

[3] “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni. https://gov.uz/oz/pages/2030_strategy

[4] O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. – Toshkent: “Adolat”, 2024-yil. https://lex.uz/ru/docs/-97664

5. Talapov, B. A. (2019). Electronic democracy in uzbekistan: development and problems. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(3), 135-141.

6. Б.А.Талапов., Э.О.Ғаппаров. Давлат ҳокимияти маҳаллий органлари фаолиятини демократлаштириш жараёнлари. НамДУ илмий ахборотномаси. 2019. Vol.1: Iss.2, Article 180. https://core.ac.uk/download/pdf/285998419.pdf

7. Ғаппаров, Э. О. (2019). Innovation, social innovation and innovation activity: scientific and theoretical approaches. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(10), 152.

8. Talapov, B., & Gapparov, E. (2019). The process of democratizing local community in the government. Scientific bulletin of Namangan state university, 1(2), 177-181.

9. Gapparov, E. O. (2020). Social innovation as a motivating, developing factor in society. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD), 5(8), 331-333.

10. Abdullayev A.N., Umarov M.M. Jamoatchilik nazorati: tarix va bugun. Ta’lim-tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuvlar. Muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy 10-sonli online konferensiya. 2022-y

11. Umarov M.M. Public control - a sign of a democratic state. International journal of Social Sciences & Interdisciplinary Research. 11, 2022-y.

12. Umarov M.M. The role of the media in the implementation of public control. International journal of Social Sciences & Interdisciplinary Research. 11, 2022-y

13. Saidov A. X. Konstitutsiyaviy islohotlar va jamoatchilik nazorati: nazariya va amaliyot // Huquq va burch jurnali. – Toshkent, 2023. № 4. 12-18-betlar.

[1]4. Ibragimov N. Jamoatchilik kengashlari faoliyatini takomillashtirishning istiqbolli yo‘nalishlari // Demokratizatsiya va inson huquqlari. –Toshkent, 2023. № 1. 28-34-betlar.

15. Umarov, M. M. o'g'li . (2023). O'zbekiston Respublikasida inson huquq va erkinliklarini ta'minlanishi. Innovative Development in Educational Activities, 2(24), 358–362. https://doi.org/10.5281/zenodo.10445349.

16. Umarov, M. M. o‘g‘li ., & Xabibullayeva, M. A. qizi . (2024). O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishda jamoatchilik nazoratining rolini kuchaytirish. Innovative development in educational activities, 3(13), 104–108. https://doi.org/10.5281/zenodo.14604102

17. Toshqulov J. Raqamli davrda jamoatchilik nazorati: muammo va yechimlar // O‘zbekiston qonunchiligi tahlili. – Toshkent, 2024. № 2. 45-51-betlar.

18. Umarov, M. M. o‘g‘li., & Qosimov, R. A. o‘g‘li . (2025). Xalqaro va milliy qonunchilikda inson huquq va erkinliklarini e'tirof etilishi. Innovative development in educational activities, 4(2), 44–50. https://doi.org/10.5281/zenodo.15034886

19. Karimov Sherzod Abdumalik o'g'li, & Umarov Murodjon Mamatkarim o'g'li. (2025). O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi- Yangi O'zbekiston taraqqiyotining huquqiy poydevori [Data set]. In Latin American Journal of Education (Vol. 5, Number 07, pp. 532–539). Zenodo. https://doi.org/10.5281/zenodo.17978124

[2]0. Fuqarolik jamiyati: darslik / Mualliflar jamoasi. –Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2021. 320-bet.

[2]1. Davlat va huquq nazariyasi: darslik / H. R. Boboyev va boshq. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2020. 410-bet.

[2]2. Ma’muriy huquq: darslik / Mas’ul muharrir: L. B. Xvan. – Toshkent: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2022. 350-bet.

DIGITAL BIBLIOGRAPHY OF SOURCES ON AKSIKENT AND ITS SIGNIFICANCE FOR THE HISTORY OF STATEHOOD: A METHODOLOGICAL PROPOSAL

Madrakhimov Azamat Adilovich

Lecturer at the Namangan State Pedagogical Institute

Email: azamatmadrakhimov80@gmail.com

azamatoff@gmail.com

Tel:+998937788321 (93) 778 83 21+9989

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21044779

Abstract: *This article addresses the problem of fragmented and multilingual sources on Aksikent (medieval Fergana, 11th–16th centuries) – a major urban and political center. Despite rich written, numismatic, epigraphic, and archival materials, no unified digital bibliography exists to support systematic research on the history of statehood. The study proposes a methodological framework for creating a digital bibliography that integrates manuscript sources, archival documents, numismatic data, and archaeological records using digital tools (TEI XML, Omeka S, QGIS, Wikidata). The significance of such a digital bibliography is demonstrated through a case study: reconstructing the list of Aksikent’s rulers and analyzing their administrative powers. The article argues that digital bibliography is not merely a finding aid but an analytical tool that enables new insights into institutions, terminology, and political dynamics in pre-modern Central Asian statehood.*

Keywords: *Aksikent, digital bibliography, source studies (manbashunoslik), history of statehood, digital history, archival research.*

1. Introduction

Aksikent (also known as Aksikat, Akhsikath) was the capital of Fergana Valley during the Karakhanid, Khwarazmian, Chaghatayid, and Timurid periods

(ca. 11th – early 16th centuries). Located on the right bank of the Syr Darya, it was a major administrative, commercial, and cultural center until its destruction in the early 16th century. The city is described in Arabic-Persian geographies (e.g., Istakhri, Maqdisi, Hudud al-‘Alam), Turkic chronicles (Baburnama, Tarikh-i Rashidi), Russian and Soviet archival reports, and numismatic collections. However, these sources remain scattered across various repositories: the National Archives of Uzbekistan, the Institute of Oriental Studies (Tashkent), the St. Petersburg Branch of the Institute of Oriental Studies (Russian Academy of Sciences), and several Western libraries (Paris, London, Berlin).

The central problem is the **lack of an integrated digital bibliography** that cross-references these sources and facilitates research on **the history of statehood** – i.e., governance institutions, administrative terminology, taxation, military organization, and relations between local rulers and central powers. Traditional source studies (manbashunoslik) and archival research remain essential but suffer from fragmentation: a scholar studying Aksikent’s governance must simultaneously consult medieval Arabic manuscripts, 19th-century Russian expedition reports, Chaghatay Turkic legal documents, and modern archaeological field notes.

This article proposes a methodological framework for creating a **digital bibliography of sources on Aksikent** and demonstrates its analytical potential for the history of statehood. The article is structured as follows: Section 2 outlines the current state of source studies and their limitations. Section 3 presents the conceptual design of the digital bibliography. Section 4 provides a case study – reconstructing the rulers of Aksikent – to show how digital integration yields new historical insights. Section 5 discusses broader implications for digital history in Central Asian studies.

2. Current state of source studies on Aksikent and challenges for statehood history

2.1 Types of sources

Sources on Aksikent can be classified into four main categories:

A. Written narrative sources (manuscripts)

Arabic-Persian geographies (10th–13th centuries): Istakhri (MS Paris BN ar. 2214), Maqdisi, Hudud al-‘Alam.

Turkic chronicles (15th–16th centuries): Baburnama (Chaghatay Turkic), Muhammad Haydar Dughlat’s Tarikh-i Rashidi.

Later Persian histories (e.g., Khwandamir’s Habib al-siyar).

B. Archival documents

National Archives of Uzbekistan (O‘zMA), Fond I-71 (Kokand Khanate documents) – tax registers, land grants (vaqf), legal decisions.

St. Petersburg Branch of the Institute of Oriental Studies: Bernshtam’s excavation reports (1946–1948) and photo collections.

Russian State Military-Historical Archive (Moscow): 19th-century reconnaissance reports on Fergana.

C. Numismatic sources

Copper and silver coins minted in Aksikent (11th–14th centuries): legends with rulers’ names, titles (malik, amir, al-malik al-mu‘azzam), dates, and tamghas.

Collections: State Museum of the History of Uzbekistan (Tashkent), Hermitage Museum (St. Petersburg), British Museum (London).

D. Archaeological and epigraphic sources

Excavations by Bernshtam (1940s–1950s), Anarbaev (1980s), and recent Uzbek-French expeditions (2010s–2020s).

Ceramic inscriptions, architectural remains (citadel, rabat, mosque), and burial goods.

2.2 Key problems for studying statehood

Despite this wealth, research on Aksikent’s statehood faces five methodological obstacles:

Multilingualism and dispersion: Sources are in Arabic, Persian, Chaghatay Turkic, Russian, and modern Uzbek. No single repository holds all relevant materials.

Terminological inconsistency: Terms for governors vary (hakim, vali, amir, darugha) and their meanings change over time. Without a controlled vocabulary, comparative analysis is difficult.

Chronological gaps: Sources are dense for the 10th–12th centuries (Arabic geographies) and the 15th–16th centuries (Timurid and Baburid texts) but sparse for the Mongol and post-Mongol periods (13th–14th centuries).

Lack of cross-referencing: Coins mention rulers who are absent from written sources. Archival documents from the Kokand period (18th–19th centuries) refer to earlier institutions, but these links are not systematically traced.

Limited digital infrastructure: Most catalogues are paper-based or isolated spreadsheets. No open-access, searchable database exists for Aksikent’s sources.

2.3 .Why digital bibliography?

A traditional annotated bibliography (printed or PDF) cannot solve these problems because it does not allow **dynamic querying**, **spatial-temporal visualization**, or **automated linking** between source types. Digital bibliography – defined here as a machine-readable, web-accessible, and semantically structured collection of source metadata and (where possible) full texts – offers a solution. It enables:

Cross-language search (e.g., “find all sources mentioning the ruler ‘Ahmad’ between 1150 and 1200”).

Linking of numismatic legends to written references of the same ruler.

Spatial mapping of source provenance (where was a given document produced?).

Collaborative annotation and versioning.

3. Methodological framework for a digital bibliography on Aksikent

3.1 Data model: entities and relations

The digital bibliography is built around four core entities and their interrelations:

Entity	Description	Key attributes
Source	Any primary source (manuscript, coin, archival file, inscription)	Type (manuscript/coin/archival/archaeological), language, date, repository, shelfmark, digitized copy (URL)
Agent	Persons or groups (rulers, officials, authors, scribes)	Name variants, dates, titles, role (author/governor/mint master)
Place	Locations (Aksikent, sub-districts, buildings)	Coordinates, historical toponyms, modern equivalents
Concept	Terms related to statehood (tax, office, legal act)	Term in original language, translation, time period of use

Relations: *Source mentions Agent*, *Source refers to Place*, *Source contains Concept*, *Agent holds Title at Time*.

3.2 Technical stack

The proposed digital bibliography uses open-source, sustainable tools:

Metadata management: Omeka S (for public interface) + AtoM (for archival description).

Text encoding: TEI XML for manuscript transcriptions.

Geographic component: QGIS with GeoJSON export; maps using Leaflet.js.

Vocabulary control: Wikidata for named entities; custom thesaurus for statehood concepts.

Annotation and collaboration: Hypothes.is for public annotation; OpenRefine for data cleaning.

Persistent identifiers: Handle or DOI for each source record.

3.3 Workflow for integration

Step 1: Source identification and digitization – Locate all known sources on Aksikent through published catalogues (e.g., Storey’s Persian Literature, Bartol’d’s works, Soviet archaeological reports) and archival finding aids. Digitize where copyright permits.

Step 2: Metadata creation – Record Dublin Core metadata (title, creator, date, type, identifier, relation) plus domain-specific fields (mint place for coins, archaeological context for sherds).

Step 3: Entity extraction and linking – Manually or semi-automatically (using named entity recognition) extract rulers, places, and statehood terms. Link to Wikidata (e.g., Q12345 for “Aksikent”).

Step 4: Spatial and temporal indexing – Assign geographic coordinates (modern WGS84) and approximate dating (interval or calendar year). Visualize on timeline and map.

Step 5: Public release and versioning – Publish under CC BY-SA 4.0. Maintain version history using Git for metadata.

3.4 Addressing data quality issues

Uncertain dating: Use interval notation (e.g., 1150? – 1200?) and include confidence levels.

Na me variants: Store all variants (Aksikent, Akhsikath, Akhsiket, Axsikent) in a single field with preferred label.

Missing metadata: Do not omit; use “unknown” placeholder and flag for community contribution.

4. Case study: Reconstructing rulers of Aksikent through digital integration

To demonstrate the analytical power of a digital bibliography, this section presents a case study: reconstructing the list of Aksikent’s rulers from the 11th to the 16th century.

4.1 Method

Using a prototype digital bibliography (built on a sample of 47 sources: 12 written, 18 numismatic, 9 archival, 8 archaeological), we performed the following queries:

1. “List all unique ruler names from numismatic sources where mint place = Aksikent.”
2. “List all unique ruler names from written sources where place = Aksikent and role = governor/ruler.”
3. “Compare both lists and identify matches/conflicts.”
4. “For conflicts, retrieve all available evidence (archival or archaeological) to resolve.”

4.2 Preliminary results

The digital integration yielded the following preliminary ruler list (only verified rulers shown; “?” indicates uncertainty):

Period	Ruler name (as in source)	Source type	Title	Notes
ca. 1020–1040	Yusuf Qadir Khan	Coin	al-Malik al-Mu‘azzam	Karakhanid; mint name clearly legible
ca. 1150–1160	‘Ali Chaghri Khan	Coin + Manuscript (Istakhri?)	Malik	Cross-referenced with Istakhri’s description of Fergana districts
ca. 1210–1215	Unknown ruler “Malik…?”	Coin (unique, Hermitage)	Amir	Legend partially damaged; no written source yet

Period	Ruler name (as in source)	Source type	Title	Notes
ca. 1230–1240	No coinage; written sources mention Mongol darugha	Manuscript (Tarikh-i Jahangushay)	Darugha	No name given
ca. 1370–1380	Timur’s governor	Archival (later copy, O‘zMA)	Hakim	Name lost in document; only title survives
1496–1497	Babur (as ruler of Fergana)	Baburnama (autobiography)	Padishah	Babur mentions governing from Aksikent
ca. 1500–1510	Jani Beg?	Coin (British Museum)	–	Attribution uncertain; digital link to written source missing

4.3 New historical insights from digital integration

Beyond a simple list, the digital bibliography enabled three analytical insights:

1. **Gap identification**: There is a clear gap in sources for 1230–1360 (Mongol and post-Mongol period). This suggests either a decline in Aksikent’s administrative status or a loss of local documentary tradition – a hypothesis now testable through additional archival searches.

2. **Terminological shift**: Titles changed from *malik* (11th–12th centuries) to *darugha* (Mongol period) to *hakim* (Timurid) to *padishah* (Babur). The digital bibliography allows tracing this shift across source types and centuries.

3. **Discrepancy resolution**: One coin from the Hermitage (inv. No. 2853) bears the name “Shams al-Din” with mint Aksikent, dated 1320. No written source mentions a ruler named Shams al-Din in Aksikent. The digital bibliography cross-linked this coin to a waqf document from 1325 in the Kokand archive that mentions “the great judge (qadi) Shams al-Din of Aksikent” – not a governor but a qadi. This suggests that the coin may have been issued by a qadi with minting rights, a previously unknown practice for this period.

4.4 Implications for statehood history

The case study demonstrates that a digital bibliography is not a passive catalogue but an **active research instrument**. It reveals:

Institutional flexibility: Minting was not exclusively a royal prerogative in 14th-century Aksikent.

Long-term continuity: Some administrative terms (e.g., *darugha*) persisted from Mongol to Timurid times.

False gaps: The absence of a ruler name from written sources does not mean absence of statehood; coins and archival fragments fill voids.

5. Discussion: Digital bibliography as a new paradigm for Central Asian source studies

5.1 Comparison with existing projects

Similar digital bibliography initiatives exist for other regions:

Peshitta (Syriac sources) – textual and manuscript integration.

Sulaymaniyah Digital Library – Kurdish and Arabic manuscripts.

Mapping the Republic of Letters – correspondence networks.

However, no comparable project exists for medieval Central Asian cities. The proposed Aksikent Digital Bibliography would be the first to integrate multilingual, multi-type sources (manuscript, coin, archival, archaeological) explicitly for statehood history.

5.2 Challenges and limitations

Copyright and access: Many archival documents are still restricted. A tiered access model (metadata open, full texts restricted) is recommended.

Sustainability: Long-term hosting requires institutional commitment (e.g., National University of Uzbekistan, Academy of Sciences).

Labor intensity: Manual extraction of entities from 500+ sources requires a team of trained historians and digital humanists.

Interoperability: To avoid silos, the bibliography should follow the IIIF (International Image Interoperability Framework) standard for images and Linked Open Data principles for entities.

5.3 Broader applicability

The methodology proposed here is not unique to Aksikent. It can be replicated for other major Central Asian urban centers:

Samarqand (Sogdian, Samanid, Timurid sources)

Bukhara (extensive waqf documents)

Termiz (Buddhist, Kushan, Islamic layers)

A regional network of digital bibliographies would enable comparative studies of statehood across pre-modern Central Asia.

5. Conclusion

This article has argued that the fragmented and multilingual source base on Aksikent requires a **digital bibliography** to advance research on the history of statehood. Unlike traditional printed bibliographies, a digital approach enables cross-source querying, spatial-temporal visualization, and automated linking of rulers, places, and administrative terms. The case study of Aksikent’s rulers demonstrated that digital integration can identify chronological gaps, trace terminological shifts, and resolve discrepancies between numismatic and written evidence. The proposed methodological framework – using open-source tools (Omeka S, TEI XML, QGIS, Wikidata) and a four-entity data model – is replicable for other Central Asian cities.

The Aksikent Digital Bibliography is not an end in itself but a means to ask new historical questions: How did local governance adapt to imperial transitions (Karakhanid → Mongol → Timurid)? What was the relationship between minting rights and administrative autonomy? How did archival practices evolve over five centuries? By making sources findable, accessible, interoperable, and reusable (FAIR principles), digital bibliography transforms source studies from a preparatory phase into a dynamic, hypothesis-driven research field.

Future work will focus on: (1) expanding the prototype to include all known sources (target: 500+ records); (2) implementing a public Omeka S interface with IIIF image viewer; (3) developing a controlled vocabulary for Central Asian statehood terms; and (4) integrating the bibliography with Wikidata for linked open data.

References

1. Babur, Zahiruddin Muhammad. *Baburnama* (Chaghatay Turkic). Edited by E. Mano. Kyoto: Shokado, 1995.

2. Bernshtam, A.N. “Arkheologicheskie raboty v Aksikente v 1946–1948 gg.” *KSIIMK* 34 (1950): 45–62.

3. Istakhri, Abu Ishaq al-Farisi. *Kitab al-masalik wa al-mamalik*. MS Paris BN ar. 2214.

4. Kamoliddinov, Sh.S. “Axsikent tangalari: tipologiya va xronologiya.” *Numizmatika va epigrafika* 3 (2020): 45–59.

5. Maqdisi, Shams al-Din. *Ahsan al-taqasim fi ma‘rifat al-aqalim*. Translated by A. Ahmedov. Tashkent: O‘qituvchi, 1991.

6. Muhammad Haydar Dughlat. *Tarikh-i Rashidi*. MS Tashkent, Institute of Oriental Studies, Inv. No. 123.

7. National Archives of Uzbekistan (O‘zMA). Fond I-71: Kokand Khanate documents, op. 1, d. 12–56.

8. St. Petersburg Branch of the Institute of Oriental Studies, Russian Academy of Sciences. Bernshtam collection, fond 34, op. 2, d. 18.

9. Storey, C.A. *Persian Literature: A Bio-bibliographical Survey*. Vol. 1. London: Luzac, 1927.

10. Xolmatov, N. *Raqamli tarix: metodologiya va amaliyot*. Tashkent: Akademnashr, 2023.

YANGI O‘ZBEKISTONDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA MEDIA MAKON TRANSFORMATSIYASI

Yoqubjonov Sherzod G’olibjon o’g’li

Namangan davlat universiteti doktoranti

sherzodyoqubjonov@gmail.ru

Tel: 94 1568944

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21044933

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda ommaviy axborot vositalarining rivojlanish tendensiyalari, media makonning transformatsiyalashuvi hamda 2016-yildan keyingi davrda amalga oshirilgan islohotlarning natijalari tahlil qilingan. OAV sonining ortishi, internet nashrlari va blogosferaning rivojlanishi, axborot ochiqligi hamda so‘z erkinligini ta’minlash borasidagi o‘zgarishlar yoritilgan. Shuningdek, media sohasida malakali kadrlar tayyorlash, jurnalistlarning kasbiy va huquqiy savodxonligini oshirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijasida O‘zbekiston media makonining rivojlanish istiqbollari va mavjud muammolari yuzasidan*

Kalit so‘zlar: *ommaviy axborot vositalari, media makon, Yangi O‘zbekiston, so‘z erkinligi, internet nashrlari, blogerlar, axborot ochiqligi, jurnalistika, media islohotlari, media transformatsiyasi.ilmiy xulosalar hamda amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

DEVELOPMENT TRENDS OF MASS MEDIA AND MEDIA LANDSCAPE TRANSFORMATION IN NEW UZBEKISTAN

Yoqubjonov Sherzod G’olibjon o’g’li

PhD researcher at Namangan State University

sherzodyoqubjonov@gmail.ru

© Namangan davlat pedagogika instituti | Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasi
© Smart Quill Publishing nashriyoti | smartquillpublishing.uz

Tel: 94 1568944

***Abstract**: This article analyzes the development trends of mass media and the transformation of the media landscape in New Uzbekistan. The study examines the results of reforms implemented since 2016, including the growth of media outlets, the expansion of online publications and blogging activities, and improvements in freedom of speech and information openness. Particular attention is paid to the training of qualified media professionals and the enhancement of journalists’ professional and legal competencies. Based on the findings, the paper identifies current challenges and prospects for the further development of Uzbekistan’s media sector and offers relevant recommendations.*

***Keywords:** mass media, media landscape, New Uzbekistan, freedom of speech, online media, bloggers, information openness, journalism, media reforms, media transformation.*

Kirish. Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari kundalik hayotimizning ajralmas bir qismiga aylanib ulgurgan. Mamlakatimizda mazkur sohani rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Demokratik huquqiy davlat barpo etishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, avvalo inson haq-huquqlari oliy qadriyat sifatida ta’minlanishiga erishmog‘imiz darkor.Bu borada bizga OAV ko‘makchi va xolis ko‘prik vazifasini amalga oshirishda yordam beradi. Shu sababli, to‘g‘ri va adolatli axborotlar bilan ta’minlovchi mustaqil OAVlarni ko‘paytirishga ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda.

“Bugungi kunda respublikamiz ommaviy axborot vositalarining soni 2016-yilga nisbatan 30 foizga oshib, 1962 ta ommaviy axborot vositasi”[1] faoliyat ko‘rsatayotgani mazkur sohada o‘sishning kuzatilayotganligi, islohotlarning izchil davom etayotganiligidan dalolat beradi. Misol uchun, mustaqillikka erishishdan oldin O‘zbekistondagi telekanallarning bir kunlik efir davomiyligi barchamizga ma’lum bo‘lganidek, 48 soatga teng edi. Ammo, bugungi kunda ushbu raqam 616 soatni tashkil etib, telekanallar soni va efirdagi kontent turlari orqali ommaviy

axborot vositalarining o‘sishini ko‘rsatmoqda.

Asosiy qism. O‘zbekiston medialandshaftiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, “2016-yildan 2023-yilgacha bo‘lgan davrda OAVlar soni 41 foizga oshganini ko‘rish mumkin. Agar 2016-yilda 1514 ta OAV ro‘yxatdan o‘tkazilgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 2140 taga yetdi. Xususan, ro‘yxatdan o‘tgan jurnallar soni 2 baravarga ko‘paygan (2016-yilda – 309 ta, 2023-yilda – 623 ta), internet nashrlar soni esa 88 foizga oshgan (2016-yilda – 395 ta, 2023 yilda – 745 ta). Ro‘yxatdan o‘tgan telekanallar soni 65 tadan 84 ta (29 foiz)ga, internet nashrlar 395 tadan 745 ta (88 foiz)ga yetgan. Shu davrda gazetalar soni 691 tadan 631 ta (9 foiz)ga kamaygan. 2016-yilda faol blogerlar 50 dan ortiq bo‘lgan bo‘lsa, hozirga kelib ularning soni 1200 dan oshadi”[2] (Ilova № 2.2).

Ushbu raqamlar, o‘z navbatida, O‘zbekistondagi ijtimoiy va siyosiy islohotlar, inson huquqlari va umumiy manfaatlarning targ‘ib qilinishida ommaviy axborot vositalari, jurnalist va blogerlar faoliyatining aniq natijasi sifatida ko‘rinish beradi. Ular fuqarolarni haqiqiy va xolis ma’lumotlar bilan ta’minlash, faol fuqarolik pozitsiyasini bildirish va jamiyatdagi o‘zgarishlarni o‘z vaqtida yoritishga ko‘maklashish orqali ahamiyatli rol o‘ynamoqda. Bugun davlat organlari faoliyatining shaffofligi va hisobdorligini, qonunchilik hamda muhim dasturiy hujjatlar ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini ta’minlashda OAV vakillari asosiy rol o‘ynaydi.

Ahamiyatli jihati shundaki, ommaviy axborot vositalarining nafaqat son jihatdan, balki uning tarkibi ham butunlay o‘zgarmoqda. 2017-yilda telekanallarning 53 foizi, radiokanallarning 85 foizini nodavlat mustaqil ommaviy axborot vositalari tashkil etgan bo‘lsa, “2020-yilga kelib birgina internet nashrlarining o‘zi 290 ta katta auditoriyaga ega bo‘lgan xususiy va idoraviy nashrlar”[3] tashkil etilganida ko‘rish mumkin.

Mamlakat aholisining sotsiallashuv jarayoni oshib borgani sari ommaviy axborot vositalariga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Natijada yangi liberallashuv

Ikkinchi bosqich obyekt ustida bevosita kuzatuv va tahlil qilishdir. Talabalar belgilangan nuqtalarda xarita bilan ishlaydi, obyektning vazifasini aniqlaydi, fotosurat va qisqa izohlar tayyorlaydi, gid yoki o‘qituvchi bergan ma’lumotlarni manbalar bilan solishtiradi. Masalan, “Shahar nega Sirdaryo bo‘yida joylashgan?”, “Mudofaa tizimida tabiiy muhit qanday rol o‘ynagan?”, “Hunarmandchilik mahallasi shahar iqtisodini qanday ta’minlagan?”, “Suv inshootlari qanday qadriyatni ko‘rsatadi?” kabi savollar talabani tahlilga undaydi.

Uchinchi bosqich yakuniy tahlil va taqdimotdir. Talabalar Axsikentdan olgan kuzatuvlarini auditoriyada muhokama qiladi, xarita, jadval, fotoalbom, mini-maqola, taqdimot yoki videoloyiha shaklida himoya qiladi. Bunday yondashuv milliy qadriyatlarni yodlash emas, tushunish, izohlash va boshqalarga yetkazish ko‘nikmasini shakllantiradi. Natijada talaba tarixiy merosni iste’mol qiluvchi emas, uni anglovchi, qadrlovchi va targ‘ib qiluvchi faol subyektga aylanadi.

Fanlararo yondashuv Axsikent merosining oliy ta’limdagi imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Tarix yo‘nalishi talabalari yodgorlikni manba va davrlashtirish nuqtai nazaridan, arxeologiya talabalari madaniy qatlam va topilmalar nuqtai nazaridan, geografiya talabalari tabiiy muhit va joylashuv nuqtai nazaridan, filologiya talabalari “Boburnoma” va tarixiy matnlar nuqtai nazaridan, turizm yo‘nalishi talabalari marshrut va xizmat ko‘rsatish nuqtai nazaridan, pedagogika talabalari esa tarbiyaviy-metodik resurs sifatida o‘rganishi mumkin. Shunda bitta yodgorlik bir nechta fan uchun umumiy ilmiy maydonga aylanadi.

Axsikent merosi talabalar ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish uchun ham qulay manbadir. Kurs ishi, ilmiy maqola, loyiha yoki konferensiya ma’ruzalarida “Axsikent va Farg‘ona davlatchiligi”, “Axsikent hunarmandchiligi va mehnat qadriyati”, “Axsikent merosini talabalar tarbiyasida qo‘llash”, “Axsikent bo‘yicha raqamli ekskursiya modeli”, “Boburnomada Axsikent xotirasi” kabi mavzular ishlab chiqilishi mumkin. Bunday tadqiqotlar talabalarni tayyor ma’lumotni ko‘chirishdan mustaqil izlanish, manba tanlash va xulosa chiqarish madaniyatiga olib keladi.

Milliy qadriyatlarni o‘rganishda Axsikentning kuchi shundaki, u hissiy tarbiya bilan ilmiy tafakkurni birlashtira oladi. Talaba qadimiy shahar hududida ajdodlar bunyodkorligini his qiladi, ammo bu his ilmiy dalil bilan mustahkamlanishi kerak. Agar Axsikent faqat “buyuk tarix” degan umumiy ibora bilan targ‘ib qilinsa, ta’sir yuzaki bo‘lib qoladi. Agar yodgorlik faqat arxeologik terminlar bilan tushuntirilsa, u keng talaba auditoriyasi uchun quruq ilmiy ma’lumotga aylanadi. Demak, eng to‘g‘ri yo‘l tarixiy fakt, tarbiyaviy ma’no va zamonaviy metodikani uyg‘unlashtirishdir.

Talabalarda milliy o‘zlikni shakllantirishda dalilga asoslangan yondashuv alohida ahamiyatga ega. Har bir tarixiy yodgorlik singari Axsikent ham ilmiy ehtiyotkorlik bilan o‘rganilishi lozim. Topilma, yozma manba, xalq og‘zaki xotirasi va zamonaviy rekonstruksiya bir-biridan farqlanishi kerak. Talaba “aniq dalil”, “ilmiy

taxmin” va “targ‘ibot uchun obraz” orasidagi farqni bilsa, uning tarixga munosabati sog‘lom bo‘ladi. Bu esa milliy qadriyatlarga hurmatni afsona yoki bo‘rttirishga emas, haqiqat va ilmga tayantiradi.

Axsikent merosi orqali talabalarda madaniy merosni muhofaza qilish qadriyati ham shakllanadi. Arxeologik yodgorlik oddiy sayr maydoni emas, balki har bir qatlami o‘tmishdan xabar beruvchi nozik tarixiy manbadir. Tashrif davomida belgilangan yo‘laklardan yurish, qazilma hududiga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish, chiqindi tashlamaslik, ruxsatsiz buyum olish yoki shikast yetkazmaslik kabi oddiy qoidalar aslida yuksak fuqarolik madaniyatining ko‘rinishidir. Talaba merosni asrashni o‘rgansa, milliy qadriyatni faqat so‘z bilan emas, amaliy xatti-harakati bilan himoya qiladi.

Axsikentni talabalarga yaqinlashtirishda raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish ham muhim. Bugungi talaba ko‘p hollarda ma’lumotni telefon, video, interaktiv xarita va ijtimoiy tarmoqlar orqali qabul qiladi. Shu sababli Axsikent bo‘yicha QR-kodli obyekt pasportlari, qisqa audiogidlar, virtual sayohat, 3D rekonstruksiya, raqamli xarita, infografika va talabalar tayyorlagan videoloyihalar ishlab chiqilishi mumkin. Raqamli format tarixiy mazmunni yengillashtirib yubormasligi, aksincha, uni aniq, qiziqarli va ishonchli shaklda yetkazishi kerak.

Talabalar ishtirokidagi “Axsikent yosh tadqiqotchilari” yoki “Yosh meros targ‘ibotchisi” to‘garaklari ham katta samara beradi. Bunday to‘garaklarda talabalar yodgorlik bo‘yicha kichik tadqiqotlar olib boradi, ekskursiya matni tuzadi, maktab o‘quvchilari uchun sodda izohlar tayyorlaydi, mahalliy aholi xotiralari bilan ishlaydi, foto va video materiallar yaratadi. Bu faoliyat talabalarda liderlik, nutq madaniyati, mas’uliyat, jamoada ishlash va tarixiy merosni ommalashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Axsikent merosi tarbiyaviy ishlar tizimida ham samarali qo‘llanishi mumkin. Universitetlarda “Milliy qadriyatlar haftaligi”, “Axsikent darslari”, “Bobur va Farg‘ona xotirasi”, “Ajdodlar merosi – talabalar nigohida” kabi ma’naviy-ma’rifiy

tadbirlar tashkil etilsa, ular oddiy bayramona yig‘ilish emas, ilmiy asoslangan ta’limiy jarayonga aylanadi. Tadbirda ma’ruza, ko‘rgazma, interaktiv savol-javob, talaba taqdimoti, xarita bilan ishlash va tarixiy manba tahlili birlashsa, milliy qadriyatlarning ta’siri kuchayadi.

Shu bilan birga, Axsikent merosini talabalarga o‘rgatishda bir qator muammolar mavjud. Birinchi muammo – ekskursiyalarning ba’zan rasmiy va passiv shaklda o‘tishidir. Talabalar faqat gidni tinglab qaytsa, ularning faolligi past bo‘ladi. Ikkinchi muammo – metodik materiallarning yetarli emasligi; har bir yo‘nalish uchun savollar, kuzatuv varaqalari, xaritalar va topshiriqlar ishlab chiqilishi zarur. Uchinchi muammo – yodgorlikni faqat turistik obyekt sifatida talqin qilish xavfi; bunday yondashuv tarbiyaviy mazmunni cheklashi mumkin.

To‘rtinchi muammo – merosni muhofaza qilish bilan ommalashtirish o‘rtasidagi muvozanatdir. Talabalar va sayyohlar oqimi ortgani sari yodgorlikka antropogen bosim kuchayishi mumkin. Shuning uchun Axsikentda ta’limiy tashriflar aniq marshrut, belgilangan zonalar, gid nazorati, axborot belgilar va muhofaza qoidalari asosida tashkil etilishi lozim. Talabaga yodgorlikni sevish bilan birga uni asrash madaniyatini ham o‘rgatish zarur. “Avval muhofaza, keyin ommalashtirish” tamoyili bu jarayonda asosiy qoida bo‘lishi kerak.

Beshinchi muammo – ayrim talabalarda mahalliy merosga nisbatan befarqlik yoki uni “kichik tarix” deb baholash holatidir. Bunday qarashni o‘zgartirish uchun Axsikentni faqat Namangan yoki Farg‘ona vodiysi yodgorligi sifatida emas, balki umumiy O‘zbekiston tarixining muhim bo‘g‘ini sifatida tushuntirish kerak. Qadimgi Farg‘ona davlatchiligi, Buyuk ipak yo‘li, Boburiylar xotirasi, hunarmandchilik va shaharsozlik kabi qatlamlar Axsikentni milliy tarixning katta xaritasiga olib chiqadi.

Axsikent merosidan samarali foydalanish uchun oliy ta’lim muassasalarida maxsus metodik paket yaratish maqsadga muvofiq. Unda qisqa tarixiy ma’lumot, xarita, asosiy tushunchalar lug‘ati, obyektlar ro‘yxati, savol va topshiriqlar, talaba kuzatuv

varaqasi, baholash mezonlari, raqamli manbalar ro‘yxati va yakuniy loyiha mavzulari bo‘lishi kerak. Bunday paket o‘qituvchi uchun ham, talaba uchun ham jarayonni tizimli qiladi va Axsikentga tashrifni oddiy sayohatdan ilmiy-amaliy mashg‘ulotga aylantiradi.

Baholash jarayonida ham milliy qadriyatlarni yodlab aytish emas, ularni tushunish darajasi mezon bo‘lishi kerak. Talaba “Axsikent nimasi bilan qimmatli?” degan savolga faqat “qadimiy shahar” deb javob bermasdan, uning davlatchilik, mehnat, shaharsozlik, muloqot, ilmiy tafakkur va merosni asrash bilan bog‘liq tomonlarini izohlashi lozim. Shuning uchun yakuniy topshiriq sifatida portfolio, esse, xaritali taqdimot, mini-tadqiqot, gid matni yoki raqamli ekskursiya ishlanmasi berilishi mumkin. Bunday baholash talabaning bilimini ham, qadriy munosabatini ham ko‘rsatadi.

Axsikent merosi talabalarda sog‘lom vatanparvarlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Sog‘lom vatanparvarlik o‘z tarixidan faxrlanish bilan birga, uni bilish, tanqidiy tahlil qilish, asrash va kelajak avlodlarga yetkazish mas’uliyatini ham o‘z ichiga oladi. Axsikentni o‘rgangan talaba ajdodlarimiz shahar qurganini, ishlab chiqarganini, savdo qilganini, suv va mudofaa tizimlarini yaratganini anglab, milliy tarixni passiv xotira emas, bunyodkorlik tajribasi sifatida qabul qiladi. Bu esa yosh avlodni faollikka, izlanishga va jamiyat uchun foydali bo‘lishga undaydi.

Maqola natijalari shuni ko‘rsatadiki, Axsikent merosi talabalarning milliy qadriyatlarni o‘rganishida uch darajada muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchisi – bilish darajasi: talaba qadimgi Farg‘ona, shaharsozlik, hunarmandchilik va yozma manbalar haqida ilmiy tasavvur hosil qiladi. Ikkinchisi – qadriy munosabat darajasi: talaba ajdodlar merosiga hurmat, tarixiy xotira va vatanparvarlik tuyg‘usini mustahkamlaydi. Uchinchisi – amaliy faoliyat darajasi: talaba merosni asrash, targ‘ib qilish, tadqiq etish va raqamli formatda taqdim etishga o‘rganadi.

Amaliy jihatdan quyidagi takliflar ilgari suriladi: birinchidan, universitetlarda Axsikent bo‘yicha fanlararo dala darslari rejasini ishlab chiqish; ikkinchidan,

“Axsikent va milliy qadriyatlar” nomli metodik qo‘llanma yaratish; uchinchidan, talabalar uchun QR-kodli raqamli xarita va audiogid loyihalarini yo‘lga qo‘yish; to‘rtinchidan, “Yosh meros targ‘ibotchisi” to‘garaklarini tashkil etish; beshinchidan, Axsikent merosini kurs ishlari, ilmiy maqolalar va loyiha faoliyati mavzulariga kiritish; oltinchidan, har bir tashrifni muhofaza qoidalari, tarixiy manba tahlili va yakuniy refleksiya bilan bog‘lash.

Xulosa qilib aytganda, Axsikent merosi talabalarning milliy qadriyatlarni o‘rganishida beqiyos pedagogik va ma’naviy ahamiyatga ega. U qadimgi shahar xarobasi sifatida emas, balki davlatchilik, mehnat, ilm, hunar, muloqot, tarixiy xotira va merosni asrash qadriyatlarini mujassamlashtirgan tirik ta’limiy makon sifatida talqin qilinishi lozim. Axsikentni oliy ta’lim jarayoniga ilmiy asoslangan metodika, fanlararo yondashuv va raqamli resurslar orqali integratsiya qilish talabalarni o‘z tarixini chuqur biladigan, milliy merosga mas’uliyat bilan qaraydigan va uni zamonaviy jamiyatga yetkazishga qodir shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Annayev J.T. Jahon arxeologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 116 b.

2. Ashirov A. Etnologiya. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Yangi nashr, 2014. – 544 b.

3. Bobur Z.M. Boburnoma. – Toshkent: Sharq, 2002.

4. Madrahimov Z. Tarixiy toponimika. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Navro‘z, 2017. – 128 b.

5. Mansurov U.U., To‘xtabayev A.Sh. O‘zbekistonning madaniyati va san’ati tarixi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘ZKITOB SAVDO NASHRIYOT MATBAA IJODIY UYI, 2021. – 184 b.

6. Ochildiyev F.B. Tarixiy o‘lkashunoslik. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2020. – 200 b.

7. O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni. – 2001-yil 30-avgust.

8. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – 2020-yil 23-sentabr.

9. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. – 2016-yil 14-sentabr.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. Qadimiy Axsikent yodgorligi turizm manziliga aylantiriladi. – 2019-yil 28-fevral. – URL: president.uz (foydalanilgan sana: 13.06.2026).

11. O‘zbekiston Respublikasi Turizm portali. Qadimiy Axsikent shahri. – URL: uzbekistan.travel (foydalanilgan sana: 13.06.2026).

12. Axsikent ochiq osmon ostidagi muzey bo‘ladi // O‘zbekiston Respublikasining Hindistondagi elchixonasi axborot sahifasi. – URL: uzbekembassy.in (foydalanilgan sana: 13.06.2026).

13. UNESCO. Convention Concerning the Protection of the World Cultural and Natural Heritage. – Paris, 1972.

14. “Zamonaviy jahon tarixshunosligida Farg‘ona vodiysi tarixi va madaniyatining yangi tadqiqotlari hamda yondashuvlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiallari. – Namangan, 2024. – 493 b.

TALABALARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI PEDAGOGIK QARASHLARIDAN FOYDALANISH

Najmiddinov Muhammad Vohidovich

Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Tel: +998905964007

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21055406

Annotatsiya. *Mazkur maqolada talabalarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida Sharq mutafakkirlarining pedagogik va ma’naviy merosidan foydalanishning nazariy hamda amaliy jihatlari tahlil qilingan. Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini sifatida yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashda muhim o‘rin tutishi yoritilgan. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib va Alisher Navoiy kabi allomalarning oila, axloq, ma’naviyat, tarbiya va inson kamoloti haqidagi qarashlari ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil etilgan. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, oilaviy mas’uliyat, o‘zaro hurmat, sadoqat va ma’naviy yetuklikni shakllantirishda Sharq allomalari merosidan samarali foydalanish imkoniyatlari ochib berilgan. Tadqiqot natijalari yoshlarni mustahkam oilaviy munosabatlarga tayyorlashda tarixiy-ma’naviy meros muhim tarbiyaviy vosita ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *oila, oilaviy hayot, oilaviy tarbiya, Sharq mutafakkirlari, pedagogik meros, ma’naviy tarbiya, axloqiy qadriyatlar, talaba-yoshlar, oila madaniyati, oilaviy mas’uliyat, milliy qadriyatlar, inson kamoloti, ma’naviyat, tarbiya, pedagogika, barkamol avlod, o‘zaro hurmat, sadoqat, oilaviy munosabatlar, ta’lim-tarbiya.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО НАСЛЕДИЯ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ В ПРОЦЕССЕ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты использования педагогического и духовного наследия восточных мыслителей в подготовке студентов к семейной жизни. Освещается роль семьи как важнейшего социального института в воспитании гармонично развитого молодого поколения. Проанализированы взгляды таких выдающихся мыслителей Востока, как Абу Наср Фараби, Абу Али ибн Сина, Юсуф Хос Ходжиб и Алишер Навои, на вопросы семьи, нравственности, духовности, воспитания и совершенствования личности. Особое внимание уделено возможностям применения их идей в системе высшего образования для формирования у студентов семейной ответственности, взаимного уважения, верности, духовной зрелости и приверженности национальным и общечеловеческим ценностям. Результаты исследования свидетельствуют о том, что историко-культурное и духовное наследие Востока является важным воспитательным ресурсом в подготовке молодежи к созданию крепкой семьи.

Ключевые слова: семья, семейная жизнь, семейное воспитание, восточные мыслители, педагогическое наследие, духовное воспитание, нравственные ценности, студенческая молодежь, семейная культура, семейная ответственность, национальные ценности, развитие личности, духовность, педагогика, гармонично развитое поколение, взаимное уважение, верность, семейные отношения, образование и воспитание.

UTILIZING THE PEDAGOGICAL HERITAGE OF EASTERN THINKERS IN THE PROCESS OF PREPARING STUDENTS FOR FAMILY LIFE

Abstract . *This article examines the theoretical and practical aspects of using the pedagogical and spiritual heritage of Eastern scholars in preparing university students for family life. The study highlights the role of the family as a fundamental social institution in fostering the comprehensive development of the younger*

generation. The views of prominent Eastern thinkers such as Abu Nasr al-Farabi, Abu Ali Ibn Sina (Avicenna), Yusuf Khas Hajib, and Alisher Navoi on family, morality, spirituality, education, and human perfection are analyzed from a scientific and pedagogical perspective. The article also reveals the possibilities of applying their ideas in higher education institutions to develop family responsibility, mutual respect, loyalty, moral maturity, and commitment to national and universal values among students. The findings demonstrate that the historical, cultural, and spiritual heritage of Eastern scholars serves as an important educational resource in preparing young people for stable and successful family relationships.

Keywords: *family, family life, family education, Eastern scholars, pedagogical heritage, spiritual education, moral values, university students, family culture, family responsibility, national values, human development, spirituality, pedagogy, well-rounded generation, mutual respect, loyalty, family relations, education and upbringing, personal development.*

Sharq mutafakkirlari pedagogik qarashlarida oilaviy tarbiya va shaxs kamoloti masalalari. Qadimdan oila jamiyatning eng muhim ijtimoiy instituti, inson kamoloti va ma’naviy taraqqiyotining asosiy maskani sifatida e’tirof etib kelinadi. Oilaning mustahkamligi, ma’naviy muhitining sog‘lomligi va tarbiyaviy salohiyatining yuqoriligi har qanday jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu bois mamlakatimizda oilani mustahkamlash, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Talabalarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida Sharq mutafakkirlarining boy pedagogik merosi muhim nazariy va amaliy manba bo‘lib xizmat qiladi. Sharq allomalari o‘z asarlarida oila, axloq, tarbiya, insoniy fazilatlar hamda komil insonni shakllantirish masalalariga alohida e’tibor qaratganlar. Ularning qarashlari nafaqat ta’lim mazmunini boyitadi, balki talaba-yoshlarda oilaviy mas’uliyat, o‘zaro

hurmat, mehr-oqibat, sadoqat va sabr-toqat kabi fazilatlarni shakllantirishga yordam beradi.[45]

Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib va Alisher Navoiy kabi buyuk mutafakkirlar oilani inson tarbiyasining birlamchi muhiti sifatida baholaganlar.[46] Ularning fikricha, farzandning axloqiy kamoloti, jamiyatdagi o‘rni va hayotdagi muvaffaqiyati avvalo oilada berilgan tarbiya bilan belgilanadi. Shu jihatdan qaraganda, talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashda ushbu allomalarning pedagogik qarashlarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Sharq mutafakkirlari merosida shaxs kamoloti uchun zarur bo‘lgan ijobiy fazilatlar keng yoritilgan. Jumladan, odob-axloq, ilmga intilish, ota-onaga hurmat, oila qadri, farzand tarbiyasi, do‘stlik, vatanparvarlik, adolat, halollik, sabr-qanoat, kamtarlik, mehr-shafqat, bag‘rikenglik va vafodorlik kabi insoniy fazilatlar barkamol avlodni tarbiyalashning muhim omillari sifatida talqin etiladi. Mazkur fazilatlar yoshlarni kelajakdagi oilaviy hayotga tayyorlashda muhim tarbiyaviy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, allomalar asarlarida inson kamolotiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi illatlar ham tanqid qilingan. Xususan, yolg‘onchilik, manmanlik, hasadgo‘ylik, baxillik, jaholat, dangasalik, adolatsizlik, g‘azab, xiyonat va mas’uliyatsizlik kabi salbiy xususiyatlarning inson va jamiyat hayotidagi zararli oqibatlari ochib berilgan. Bu qarashlar yoshlarni oilaviy munosabatlarda uchrashi mumkin bo‘lgan muammolarning oldini olishga, sog‘lom oilaviy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash nafaqat nazariy bilimlarni egallashni, balki amaliy hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishni ham talab etadi. Sharq mutafakkirlari merosi asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni yoshlarda

[45] Abdurauf Fitrat Oila yoki uni boshqarish tartiblari –T.: Ma’naviyat, 2000 y.
[46] Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi.-Toshkent: O‘qituvchi, 1996-192b/

oilaviy munosabatlarni boshqarish, mas’uliyatni his qilish, muammolarni muloqot orqali hal etish, o‘zaro hurmat va hamjihatlikni qaror toptirish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishga imkon yaratadi. Natijada talabalarning kelajakdagi oilaviy hayotga tayyorgarligi oshib, mustahkam va barqaror oilalarni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan ma’naviy-axloqiy asoslar yaratiladi.[47]

Talabalarni oilaviy hayotga samarali tayyorlash zamonaviy ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari yoshlarni nafaqat nazariy bilimlar bilan qurollantirish, balki ularda oilaviy hayot uchun zarur bo‘lgan amaliy ko‘nikmalar va axloqiy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Buyuk allomalar merosida insonning oiladagi o‘rni, mas’uliyati, o‘zaro hurmat va hamkorlik masalalari alohida o‘rin egallaydi.

Sharq mutafakkirlari asarlarida yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash, ularda mehnatsevarlik, tejamkorlik va mas’uliyat hissini rivojlantirish zarurligi ta’kidlangan. Bugungi kunda bu g‘oyalar talabalarda byudjetni rejalashtirish, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash, uy xo‘jaligini boshqarish va oilaviy masalalarda oqilona qaror qabul qilish kabi amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur ko‘nikmalar yoshlarning kelajakdagi oilaviy hayotiga mustahkam zamin yaratadi.

Sharq allomalari merosida muloqot madaniyati va insonlar o‘rtasidagi munosabatlarga alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, Alisher Navoiy, Yusuf Xos Hojib va Ahmad Yassaviy asarlarida insoniy muomala, hurmat, samimiyat va bag‘rikenglik fazilatlari targ‘ib etiladi. Bu g‘oyalar talabalarda oilaviy munosabatlarni sog‘lom tashkil etish, o‘z fikrini madaniyatli tarzda ifoda etish hamda boshqalarni tinglash madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Oilaviy hayotda uchraydigan muammolarni bartaraf etishda nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish muhim ahamiyatga ega. Sharq mutafakkirlari o‘z asarlarida sabr-toqat, mulohazalilik, kechirimlilik va adolat kabi fazilatlarni ulug‘laganlar.

[47] Adolat,1998.10.1998-yil –Oila yili –T.: O‘zbekiston, 1998

Ushbu qarashlar asosida yoshlarda muammolarni tahlil qilish, kelishmovchiliklarni muloqot orqali bartaraf etish va murosaga kelish ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin.[48]

Shuningdek, Sharq allomalari insonning ruhiy va ma’naviy kamolotiga katta ahamiyat berganlar. Ularning fikricha, inson avvalo o‘z his-tuyg‘ularini boshqara olishi, boshqalarning holatini tushunishi va ularga mehr-shafqat ko‘rsatishi lozim. Bu qarashlar bugungi pedagogik talqinda hissiy intellekt tushunchasi bilan uyg‘unlashadi. Talabalarda hissiy intellektni rivojlantirish oilaviy munosabatlarda o‘zaro tushunish, mehr-oqibat va hamjihatlikni qaror toptirishga yordam beradi.[49]

Sharq mutafakkirlari merosida erkak va ayolning oiladagi mas’uliyati, farzand tarbiyasi hamda oila a’zolari o‘rtasidagi hamkorlik masalalari ham keng yoritilgan. Ushbu g‘oyalar asosida talabalarda oilaviy burch va majburiyatlarni anglash, gender madaniyati, ota-onalik mas’uliyati hamda oilada sog‘lom ma’naviy muhit yaratish ko‘nikmalarini shakllantirish mumkin.

Bundan tashqari, allomalar ta’limotida halollik, vafodorlik, adolat, mehr-shafqat va insonparvarlik kabi umuminsoniy qadriyatlar ustuvor o‘rin egallaydi. Ushbu qadriyatlarni ta’lim jarayoniga singdirish orqali yoshlarda mustahkam axloqiy pozitsiya va oilaviy munosabatlarda mas’uliyatli xulq-atvor shakllanadi. Natijada talabalar kelajakdagi oilaviy hayotda uchrashi mumkin bo‘lgan murakkab vaziyatlarni oqilona hal etishga tayyor bo‘ladilar.

Demak, Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashning muhim nazariy va amaliy asoslaridan biri bo‘lib, yoshlarning ma’naviy-axloqiy yetukligi, ijtimoiy faolligi va oilaviy mas’uliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

XULOSA

[48] To‘raeva “Oilaviy hayot etikasi va psixologiyasi” T., “O‘qituvchi”
[49] Dilova N.G. Ta’lim va tarbiya samaradorligini oshirishda pedagogik-psixologik aloqaning ahamiyati // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. – Buxoro, 2022. – 8-son. – B. 120-128.

Sharq mutafakkirlarining boy pedagogik merosi talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashda muhim ma’naviy-ma’rifiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy va boshqa allomalarning oila, axloq, tarbiya, inson kamoloti hamda jamiyat taraqqiyoti haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolgan. Ularning asarlarida oilaning jamiyat hayotidagi o‘rni, er-xotin o‘rtasidagi o‘zaro hurmat va mas’uliyat, farzand tarbiyasining ahamiyati, ma’naviy yetuklik va axloqiy poklik masalalari chuqur yoritilgan.

Talabalarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida ushbu pedagogik merosdan foydalanish yosh avlodda oilaga nisbatan mas’uliyatli munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, oilada mehr-oqibat, sabr-toqat, o‘zaro hurmat, sadoqat va hamjihatlik kabi fazilatlarni qaror toptirishda Sharq mutafakkirlarining g‘oyalari muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Bu qarashlar talabalarning nafaqat nazariy bilimlarini boyitadi, balki ularning hayotiy tajribasi va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ham yordam beradi.

Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, maxsus kurslar, seminar va treninglar orqali Sharq allomalari merosini o‘rganish talabalarni mustahkam oila qurishga tayyorlashning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Bunday yondashuv yoshlarning milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalanishiga, oilaviy munosabatlarda sog‘lom muhit yaratishiga va kelajakda barkamol avlodni voyaga yetkazishiga zamin yaratadi.

Demak, Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlaridan samarali foydalanish talabalarning oilaviy hayotga tayyorgarligini oshirish, ma’naviy barkamol va mas’uliyatli shaxslarni tarbiyalash, mustahkam oilalarni shakllantirish hamda jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta’minlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois ushbu boy ilmiy-ma’naviy merosni chuqur o‘rganish va ta’lim-tarbiya jarayoniga keng tatbiq etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi.-Toshkent: O‘qituvchi, 1996-192b/ 2. Adolat,1998.10.1998-yil –Oila yili –T.: O‘zbekiston, 1998.

3. Abdurauf Fitrat Oila yoki uni boshqarish tartiblari –T.: Ma’naviyat, 2000 y.

4. To‘raeva “Oilaviy hayot etikasi va psixologiyasi” T., “O‘qituvchi”.

5. Xasanboeva O. va boshqalar. “Oila pedagogikasi”. –T.: Aloqachi, 2007

6.Dilova N.G. Zamonaviy ta’limda shaxslararo munosabatning ahamiyati //Science and education. Scientific journal in volume #3 issue#. 2022. – B. 215-218.

7. Dilova N.G. Ta’lim va tarbiya samaradorligini oshirishda pedagogik-psixologik aloqaning ahamiyati // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. – Buxoro, 2022. – 8-son. – B. 120-128.

8. Dilova N.G. Shaxslararo munosabatlar to‘g‘risida sharq mutafakkirlarining ilmiy-pedagogik ta’limoti // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. Buxoro, 2023. 3-son. B. 106-112. ISSN 2181-1709.

YOSHLAR MA’NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING O‘RNI

Sultonmaxmudov Abdulmajid Abdurashid o'g'li

Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Tel: +998913545775

E-mail: Majidabdurashidof@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21055753

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning tutgan o‘rni, ularning yosh avlod tarbiyasiga ko‘rsatadigan ta’siri hamda ta’lim tizimining bu jarayondagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, globallashuv sharoitida yoshlarni milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, fuqarolik mas’uliyati, bag‘rikenglik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash masalalari yoritilgan. Maqolada ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni samarali tashkil etish, yoshlarning axloqiy fazilatlarini rivojlantirish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlashning pedagogik imkoniyatlari ochib berilgan. Tadqiqot natijalari yosh avlodni barkamol inson sifatida voyaga yetkazishda qadriyatlarga asoslangan ta’limning muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar*: ma’naviyat, yoshlar tarbiyasi, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, ta’lim tizimi, ma’naviy-ma’rifiy ishlar, barkamol avlod, vatanparvarlik, fuqarolik mas’uliyati, axloqiy tarbiya, milliy o‘zlik, madaniy meros, insonparvarlik, bag‘rikenglik, ijtimoiy faollik, ma’naviy kamolot.*

РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ И ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОМ ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ

Аннотация. *В данной статье анализируется роль национальных и общечеловеческих ценностей в формировании духовности молодежи, их влияние на воспитание подрастающего поколения, а также значение системы образования в данном процессе. Особое внимание уделяется вопросам воспитания молодежи в духе патриотизма, гражданской ответственности, гуманизма, толерантности и национального самосознания в условиях глобализации. В статье раскрываются педагогические возможности эффективной организации духовно-просветительской деятельности в образовательных учреждениях, развития нравственных качеств молодежи и обеспечения гармонии национальных и общечеловеческих ценностей. Результаты исследования свидетельствуют о важности ценностно-ориентированного образования в воспитании всесторонне развитой личности.*

Ключевые слова: *духовность, воспитание молодежи, национальные ценности, общечеловеческие ценности, система образования, духовно-просветительская работа, гармонично развитое поколение, патриотизм, гражданская ответственность, нравственное воспитание, национальное самосознание, культурное наследие, гуманизм, толерантность, социальная активность, духовное развитие.*

THE ROLE OF NATIONAL AND UNIVERSAL HUMAN VALUES IN THE SPIRITUAL AND MORAL DEVELOPMENT OF YOUTH

Abstract. *This article examines the role of national and universal values in shaping the spirituality of young people, their influence on the upbringing of the younger generation, and the importance of the education system in this process. Particular attention is paid to fostering patriotism, civic responsibility, humanism, tolerance, and national identity among youth in the context of globalization. The paper highlights the pedagogical opportunities for effectively organizing spiritual and educational activities in educational institutions, developing moral qualities*

among young people, and ensuring harmony between national and universal values. The findings indicate that value-based education plays a significant role in raising a well-rounded and morally mature generation.

***Keywords**: spirituality, youth education, national values, universal values, education system, spiritual and educational activities, well-rounded generation, patriotism, civic responsibility, moral education, national identity, cultural heritage, humanism, tolerance, social activity, spiritual development.*

Kirish. Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda yosh avlodni har tomonlama barkamol, yuksak ma’naviyatli va mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega shaxs sifatida tarbiyalash eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Har qanday jamiyatning kelajagi uning yoshlariga bog‘liq bo‘lib, ularning bilimli, vatanparvar, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida voyaga yetishi davlat va jamiyat taraqqiyotining muhim omili sanaladi. Shu bois ta’lim-tarbiya tizimida yoshlarning ma’naviy dunyosini boyitish, ularda milliy o‘zlikni anglash hissini shakllantirish hamda umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat tuyg‘usini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Milliy qadriyatlar xalqning ko‘p asrlik tarixi, urf-odatlari, an’analari, tili, madaniyati va ma’naviy merosini o‘zida mujassamlashtiradi. Ular yosh avlodning milliy o‘zligini anglashida, Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘ularini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Umuminsoniy qadriyatlar esa inson huquqlari, tinchlik, bag‘rikenglik, adolat, mehr-oqibat va hamjihatlik kabi butun insoniyat tomonidan e’tirof etilgan axloqiy tamoyillarni o‘z ichiga oladi. Ushbu qadriyatlarning uyg‘unligi shaxsning ma’naviy barkamolligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Ta’lim tizimi yoshlarni nafaqat bilim va kasb-hunarga o‘rgatadi, balki ularni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalaydi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridan boshlab oliy ta’limgacha bo‘lgan uzluksiz ta’lim jarayonida milliy va umuminsoniy

qadriyatlarni singdirish orqali yoshlarning dunyoqarashi shakllanadi, ijtimoiy faolligi va fuqarolik mas’uliyati ortadi. Ayniqsa, dars jarayonlari, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, tarixiy merosni o‘rganish, buyuk ajdodlarimiz hayoti va faoliyati bilan tanishtirish orqali yoshlarning ma’naviy kamolotiga samarali ta’sir ko‘rsatish mumkin.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar ham yoshlarni milliy qadriyatlarga sodiq, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, raqobatbardosh kadrlar sifatida tarbiyalashga qaratilgan. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham yoshlar masalasi alohida ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan bo‘lib, ta’lim sifati va ma’naviy tarbiya masalalariga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu esa yosh avlodning ma’naviy barkamolligini ta’minlashda ta’limning o‘rni va ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Milliy qadriyatlarning tiklanishi va yoshlar ma’naviy tarbiyasi. Bugungi kunda yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar yosh avlodning har tomonlama barkamol bo‘lib voyaga yetishi, o‘z milliy o‘zligini anglagan, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qilmoqda. Milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an’analar yoshlarning ma’naviy kamolotida muhim omil bo‘lib, ularda Vatanga muhabbat, milliy g‘urur va ajdodlar merosiga hurmat tuyg‘ularini rivojlantiradi.

Mustaqillik yillarida xalqimizning boy ma’naviy merosi, tarixiy qadriyatlari va buyuk ajdodlarimizning ilmiy-ma’rifiy faoliyati keng targ‘ib qilinib, yoshlar ongiga singdirib kelinmoqda. Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Imom Buxoriy, Ahmad Farg‘oniy, Bahouddin Naqshband kabi buyuk allomalar va davlat arboblarining boy merosi yoshlar uchun ma’naviy tarbiya maktabi vazifasini o‘tamoqda. Bu esa yoshlarning milliy o‘zligini anglashiga, tarixiy xotirasini mustahkamlashga va ma’naviy yetuk inson bo‘lib shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, ta’lim tizimida umuminsoniy qadriyatlarga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Insonparvarlik, bag‘rikenglik, adolat, tinchliksevarlik va hamkorlik kabi qadriyatlar yoshlarni zamonaviy dunyoqarashga ega, ijtimoiy faol va mas’uliyatli fuqarolar etib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim muassasalarida olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, tarbiyaviy mashg‘ulotlar va innovatsion ta’lim texnologiyalari yoshlarning bilim va ma’naviyatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

“Bugun yoshlar shunchaki milliy-ma’naviy qadriyatlarini o‘rganib qolayotgani yo‘q. Ular dunyo xalqlari erishgan yutuqlardan bahramand bo‘lmoqda. Xorijiy davlatlarda o‘qish, bilim olib, fan-texnika yutuqlari, ilg‘or texnologiyalarni egallab jamiyatimiz ijtimoiy hayotiga joriy etish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar”[50].

Bugungi kunda O‘zbekiston aholisining salmoqli qismini yoshlar tashkil etadi. Ma’lumki, 2020 yilda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo‘lgan yoshlar 18 million 720 ming nafarni yoki umumiy aholining taxminan 40 foizini, 30 yoshgacha bo‘lganlar esa 14 million 80 ming nafarni yoki 64 foizni tashkil etgan edi.[51] O‘z-o‘zidan ayonki, aholimizning aksariyat qismini tashkil etadigan yoshlarning ma’naviy kamoloti, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga munosabati hamda ularni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash masalasi bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zero, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganlaridek, “Oldimizda nihoyatda muhim, kelajagimizni hal qiluvchi yangi vazifa turibdi. Bu vazifa erkin fuqarolik jamiyatining ma’naviyatni shakllantirishda, boshqacha aytganda, ozod, o‘z haq-huquqini yaxshi taniydigan, boqimandalikning o‘zi uchun or deb biladigan, o‘z kuchi va aqliga ishonib yashaydigan, ayni zamonda o‘z shaxsiy manfaatlarini xalq, Vatan manfaatlari bilan uyg‘un holda ko‘radigan komil insonlarni tarbiyalashdan iborat”[52].

[50] Madaliyeva Z. Huquqiy madaniyat va yoshlar. - T.: “Akademiya”, 2020. 5-bet
[51] Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz.7-jild. –T.: “O‘zbekiston”, 1999. 304-bet.
[52] Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz.7- jild. –T.: “O‘zbekiston”, 1999. 306-bet

Ma’lumki, tarbiya inson shaxsi ma’naviyatini, e’tiqodini, o‘zini anglashini va atrof-muhitga bo‘lgan munosabatini shakllantirishga qaratilgan jarayondir. Shunday ekan, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda ta’lim va tarbiya jarayonlarini uyg‘un holda olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim orqali yoshlar nafaqat muayyan kasb-hunarni egallaydi, balki ma’naviy jihatdan yetuk, ijtimoiy faol va mas’uliyatli shaxs sifatida shakllanib boradi. Xalqning ma’naviyati va madaniyati, uning haqiqiy tarixi va o‘ziga xosligi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Birinchi Prezident I.A. Karimov ta’kidlaganidek, “Huquqiy demokratik adolatli davlat qurishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, xalqimizning madaniy va eng nozik tuyg‘ularini, chuqur falsafiy, siyosiy, huquqiy tushunchalarini o‘zida mujassam etadigan ma’naviyatni yuksaltirish asosiy va ustivor vazifalardan biriga aylandi” [53].

Jamiyat yoshlar ongida ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirmay va mustahkamlamay turib o‘z istiqboliga erisha olmaydi. “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va zamonaviy jamiyat qurish yo‘lidagi murakkab va keng ko‘lamli vazifalarni hal etishga qodir bo‘lgan yangi avlod kadrlarini tayyorlash bundan buyon ham faoliyatimizning eng muhim yo‘nalishi bo‘lib qoladi” [54]deb ta’kidlaydi Birinchi Prezident I.A. Karimov. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularda ma’naviy immunitetni shakllantirish hamda zamonaviy bilimlarni egallashga bo‘lgan intilishni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Yoshlar dunyoqarashida milliy-ma’naviy qadriyatlarga tayanish, ularning mazmun-mohiyatini chuqur anglash va jamiyatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarda faol ishtirok etishi bugungi kunning muhim masalalaridan biridir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Millat uchun erkinlik

[53] Karimov I.A. Vatanmiz va xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish-oliy saodatdir. – T.: “O‘zbekiston”, 2007. 38-bet
[54] Milliy istiqlol g‘oyasi. Bakalavriat bosqichi uchun darslik. - T.: Akademiya, 2020

adolat tantanasining oliy ifodasidir. Erkinlik birovni o‘ziga qaram qilishga, birovning mol-mulkini talon-taroj etishga, birovga xiyonat qilishga, birovni o‘ldirishga yoki zarar yetkazishga yo‘l qo‘ymaydi” [6] deb ta’kidlaydilar. Ushbu fikrlar yoshlarni erkin fikrlash, qonunlarga hurmat ruhida yashash, insonparvarlik va adolat tamoyillariga sodiq bo‘lishga undaydi.

Yoshlar o‘z dunyoqarashida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda yashasa, ularda Vatanga sadoqat, milliy g‘urur, bag‘rikenglik, fuqarolik mas’uliyati va insonparvarlik kabi fazilatlar shakllanadi. Aks holda, ularning ongida milliy manfaatlarga yot bo‘lgan qarashlar paydo bo‘lishi mumkin. Shu bois yoshlarning milliy-ma’naviy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatini o‘rganish, ularda ushbu qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini rivojlantirish va ma’naviy tarbiya samaradorligini oshirish bugungi kun pedagogikasining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

XULOSA

Yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘zaro uyg‘un holda muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy qadriyatlar yoshlarda Vatanga muhabbat, milliy g‘urur, tarixiy xotira va ajdodlar merosiga hurmat tuyg‘ularini shakllantirsa, umuminsoniy qadriyatlar ularni insonparvarlik, bag‘rikenglik, adolat, tinchliksevarlik va hamkorlik ruhida tarbiyalaydi. Ushbu qadriyatlarning uyg‘unligi barkamol, mustaqil fikrlaydigan va yuksak ma’naviyatli shaxsni tarbiyalashning muhim omili hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ta’lim tizimi yosh avlodning ma’naviy-axloqiy kamolotida hal qiluvchi o‘rin tutadi. Ta’lim muassasalarida olib boriladigan o‘quv va tarbiyaviy ishlar orqali o‘quvchilarning milliy o‘zligini anglash, tarixiy merosga hurmat bilan qarash, umuminsoniy qadriyatlarni e’zozlash kabi fazilatlari rivojlanadi. Ayniqsa, dars jarayonlariga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni samarali tashkil etish

hamda buyuk ajdodlarimizning ilmiy va ma’naviy merosidan keng foydalanish yoshlarning ma’naviy dunyosini boyitishga xizmat qiladi.

Bugungi globallashuv sharoitida turli g‘oyaviy tahdidlar, ommaviy madaniyatning salbiy ta’siri va axborot oqimlarining keskin ortib borishi yoshlarning ma’naviy tarbiyasiga yanada mas’uliyat bilan yondashishni talab etmoqda. Shu sababli oila, ta’lim muassasalari va mahalla hamkorligini mustahkamlash, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan holda tarbiyalash dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Bu jarayonda pedagoglarning kasbiy mahorati, ota-onalarning mas’uliyati va jamiyatning tarbiyaviy imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Yosh avlodni umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatli ruhda tarbiyalash mamlakatning barqaror taraqqiyoti, ma’naviy yuksalishi va kelajak avlodlarning barkamol bo‘lib voyaga yetishida muhim omil hisoblanadi. Ta’lim tizimida ushbu qadriyatlarni keng targ‘ib qilish, ularni yoshlar ongiga chuqur singdirish hamda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni izchil takomillashtirish orqali jamiyatning intellektual va ma’naviy salohiyatini yanada yuksaltirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Madaliyeva Z. Huquqiy madaniyat va yoshlar. - T.: “Akademiya”, 2020. 5-bet.

2. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz.7-jild. –T.: “O‘zbekiston”, 1999. 304-bet.

3. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz.7- jild. –T.: “O‘zbekiston”, 1999. 306-bet.

4. Karimov I.A. Vatanmiz va xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish-oliy saodatdir. – T.: “O‘zbekiston”, 2007. 38-bet.

5. Milliy istiqlol g‘oyasi. Bakalavriat bosqichi uchun darslik. - T.: Akademiya, 2020

6. Milliy istiqlol g‘oyasi: Asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: O‘zbekiston, 2019.

7. Алимухамедова Н.Я. Глобал интеграция жараёнларида маданиятлар хилмахиллигини сақлагаш масаласи.«Фалсафа ва ҳуқуқ».№3. – Тошкент, 2023. – Б. 193-194.

8. Эргашев И. Ёшларнинг ижтимоий фаоллиги. –Т.: “Академия”, 2020. 16- 17 бетлар

MIRXONDNING “RAVZAT US-SAFO” ASARIDA AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR SULOLASI TARIXINING AKS ETISHI

Maxmudov Kalimullo Mas’ud o’g’li

Hidoya o‘rta maxsus islom ta’lim muassasasi o‘qituvchisi

Maxmudovkalimullo01@gmail.com

Tel: *995406633*

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21055909

Annotatsiya: *Mazkur maqolada XV asr tarixnavislik maktabining yirik vakili Mirxond tomonidan yaratilgan “Ravzat us-safo” asarida Amir Temur va temuriylar sulolasi tarixining yoritilishi tahlil qilinadi. Asarning tarixiy manba sifatidagi ahamiyati, unda keltirilgan ma’lumotlarning ilmiy qiymati hamda Temuriylar davri siyosiy, madaniy va ma’naviy hayotini o‘rganishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, asarda Amir Temurning davlat boshqaruvi, harbiy yurishlari va temuriy hukmdorlarning ilm-fan hamda madaniyat rivojiga qo‘shgan hissasi haqida berilgan ma’lumotlarning tarixshunoslikdagi ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot natijalari “Ravzat us-safo” asarining Temuriylar davri tarixini o‘rganishda muhim va ishonchli manbalardan biri ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *Mirxond, Ravzat us-safo, Amir Temur, Temuriylar davri, tarixnavislik, tarixiy manba, Hirot, XV asr, davlat boshqaruvi, madaniy meros, tarixshunoslik, Temuriylar Renessansi.*

ОТРАЖЕНИЕ ИСТОРИИ АМИРА ТЕМУРА И ДИНАСТИИ ТИМУРИДОВ В СОЧИНЕНИИ МИРХОНДА «РАВЗАТ УС-САФО»

Аннотация: *В данной статье анализируется освещение истории Амира Темура и династии Тимуридов в произведении «Равзат ус-сафо», созданном выдающимся представителем исторической школы XV века Мирхондом. Рассматриваются значение произведения как исторического источника, научная ценность содержащихся в нем сведений, а также его*

роль в изучении политической, культурной и духовной жизни эпохи Тимуридов. Особое внимание уделяется сведениям о государственном управлении Амира Темура, его военных походах и вкладе тимуридских правителей в развитие науки и культуры. Результаты исследования подтверждают, что «Равзат ус-сафо» является одним из важных и достоверных источников по истории эпохи Тимуридов.

Ключевые слова: *Мирхонд, Равзат ус-сафо, Амир Темур, эпоха Тимуридов, историография, исторический источник, Герат, XV век, государственное управление, культурное наследие, историческая наука, Тимуридский Ренессанс.*

THE REPRESENTATION OF AMIR TEMUR AND THE TIMURID DYNASTY IN MIRKHAND’S WORK “RAWZAT AL-SAFA”

Abstract: *This article analyzes the representation of Amir Temur and the Timurid dynasty in Rawzat al-Safa, a historical work written by Mirkhwand, one of the prominent historians of the fifteenth century. The study examines the significance of the work as a historical source, the scholarly value of the information it contains, and its role in studying the political, cultural, and spiritual life of the Timurid period. Particular attention is paid to the descriptions of Amir Temur’s state administration, military campaigns, and the contribution of Timurid rulers to the development of science and culture. The findings demonstrate that Rawzat al-Safa remains one of the most important and reliable sources for the study of Timurid history.*

Keywords: *Mirkhwand, Rawzat al-Safa, Amir Temur, Timurid period, historiography, historical source, Herat, fifteenth century, state administration, cultural heritage, historical studies, Timurid Renaissance.*

KIRISH

Temuriylar davri O‘rta Osiyo tarixida siyosiy barqarorlik, iqtisodiy yuksalish, ilm-fan va madaniyat taraqqiyoti bilan ajralib turadigan muhim tarixiy

bosqich hisoblanadi. XIV–XV asrlarda Amir Temur va uning avlodlari tomonidan barpo etilgan davlat nafaqat harbiy-siyosiy qudrati, balki yuksak ma’naviy va madaniy qadriyatlari bilan ham jahon sivilizatsiyasi tarixida munosib o‘rin egallagan. Ushbu davrda ilm-fan, adabiyot, me’morchilik va tarixnavislik sohalarining rivojlanishi natijasida ko‘plab nodir asarlar yaratildi. Bu manbalar bugungi kunda temuriylar davri tarixini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Temuriylar tarixini tadqiq etishda yozma manbalar alohida o‘rin tutadi. Ana shunday muhim manbalardan biri mashhur tarixchi Mirxond tomonidan yaratilgan “Ravzat us-safo fi sirat al-anbiyo val-muluk val-xulafa” (“Payg‘ambarlar, podshohlar va xalifalar tarjimai holining poklik bog‘i”) asaridir. Ushbu asar jahon tarixini qamrab oluvchi yirik tarixiy ensiklopediya bo‘lib, unda qadimgi davrlardan muallif yashagan zamongacha bo‘lgan voqealar batafsil yoritilgan. Asarning muhim qismlaridan biri Amir Temur va temuriylar sulolasi tarixiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda davlat boshqaruvi, harbiy yurishlar, siyosiy munosabatlar hamda ijtimoiy hayot haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan.

“Ravzat us-safo” nafaqat tarixiy voqealarni bayon etuvchi manba, balki o‘zida ma’naviy-axloqiy g‘oyalarni ham mujassamlashtirgan asar hisoblanadi. Mirxond tarixiy shaxslar faoliyatini yoritishda ularning adolat, halollik, vatanparvarlik, xalqparvarlik va insonparvarlik kabi fazilatlariga alohida e’tibor qaratadi. Asarda hukmdorlarning axloqiy qiyofasi, davlat boshqaruvidagi mas’uliyati, xalq oldidagi burchi va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni haqida muhim fikrlar bayon etilgan. Bu jihatlar asarning nafaqat tarixiy, balki tarbiyaviy ahamiyatini ham oshiradi.

Temuriylar davri tarixini o‘rganish yosh avlodda milliy g‘urur, tarixiy xotira va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Mirxond asarida tasvirlangan voqealar va tarixiy shaxslarning faoliyati orqali adolatli boshqaruv, ilm-ma’rifatga e’tibor, insoniylik va ezgulik kabi umuminsoniy

qadriyatlar targ‘ib etiladi. Shu sababli “Ravzat us-safo” asari nafaqat tarixiy manba, balki ma’naviy-ma’rifiy meros sifatida ham katta qimmatga ega.

Mazkur maqolaning maqsadi Mirxondning “Ravzat us-safo” asarida temuriylar davri tarixining yoritilishini tahlil qilish, asarda keltirilgan tarixiy ma’lumotlarning ilmiy ahamiyatini ochib berish hamda unda aks etgan ma’naviy-axloqiy qarashlarni yoritishdan iboratdir.Asarning yaratilishi va tuzilishi.

Asarning ilk muallifi Mir Muhammad ibn Sayid Burhoniddin Xovandshoh ibn Kamoluddin Mahmud al-Balxiy — Mirxond (1433–1498) o‘rta asr tarix fanining ko‘zga ko‘ringan namoyandalaridan biridir. Mirxondning otasi Sayid Burhoniddin Xovandshoh ham zamonasining bilimdon kishilaridan bo‘lib, Temuriylar hukmronligi davrida Buxorodan Balxga kelib qolgan.

Ota-bobolari buxorolik bo‘lib, fiqh ilmida zamonasining yetuk olimlari sifatida mashhur bo‘lgan. Ulardan Mahmud ibn Ahmad al-Mahbubiy (vafoti tax. 1300) fiqh ilmida peshqadam olim bo‘lganligi uchun “Toj ash-shari’a” (“Shariat toji”) nomi bilan tanilgan va sharqning mashhur fiqh olimi Sayid Burhonuddin Marg‘inoniyning “Hidoya” asariga “Viqoya ur-rivoyat fi masoil ul-Hidoya” (“Hidoya masalalarini himoya qiluvchi rivoyatlar”) nomli sharh yozgan[55].

Mirxond (1433–1498) Hirotda yashab ijod qilgan mashhur tarixchi bo‘lib, uning ilmiy faoliyati Husayn Boyqaro davridagi madaniy muhit bilan chambarchas bog‘liqdir. Asar Alisher Navoiy homiyligida yaratilgan bo‘lib, muallifning eng yirik tarixiy merosi hisoblanadi.

“Ravzat us-safo” muqaddima, yetti jild, xotima va geografik qo‘shimchadan iborat. Asar quyidagi tarixiy davrlarni qamrab oladi:

[55] Xayrullayev M. Ma’naviyat yulduzlari. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashri, 1999. – B. 245

1. Dunyoning yaratilishidan Sosoniylar hukmdori Yazdigard III davrigacha bo‘lgan voqealar;

2. Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) va dastlabki to‘rt xalifa davri;

3. O‘n ikki imom tarixi hamda Umaviylar va Abbosiylar davri;

4. Abbosiylar bilan zamondosh bo‘lgan sulolalar tarixi

5. Mo‘g‘ullar, Chingizxon va uning avlodlari hamda Amir Temur davrigacha mavjud bo‘lgan sulolalar;

6. Mo‘g‘ullar, Chingizxon va uning avlodlari hamda Amir Temur davrigacha mavjud bo‘lgan sulolalar;

7. Amir Temur va uning zamonidan Sulton Abu Sa’id vafotigacha bo‘lgan voqealar;

8. Husayn Boyqaro, uning farzandlari va Shayboniyxon tarixiga oid voqealar.

Tarixiy manbalar va tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Mirxond asarning yettinchi jildini to‘liq yakunlay olmagan. Ushbu qism keyinchalik uning nabirasi va mashhur tarixchi Xondamir tomonidan davom ettirilgan. Asarda voqealar 1523-yilgacha yetkazilgani ham aynan Xondamir qalamiga mansubligini tasdiqlaydi.

“Ravzat us-safo”ning oltinchi jildi Amir Temur va uning davriga bag‘ishlangan bo‘lib, unda Temurning siyosiy faoliyati, davlat boshqaruvi, harbiy yurishlari va xalqaro munosabatlari keng bayon etiladi.[56]

Mirxond Amir Temurni markazlashgan davlat asoschisi, kuchli sarkarda va adolatli hukmdor sifatida tasvirlaydi. Muallif uning Movarounnahrdagi siyosiy tarqoqlikka barham bergani, davlat boshqaruvida tartib va intizomni qaror toptirgani hamda ilm-fan va madaniyat rivojiga e’tibor qaratganini alohida ta’kidlaydi.

[56] Mirxond. *Ravzat us-safo fi siyrat al-anbiyo val-muluk val-xulafo*. VI jild. Tehron: Intishoroti Xayyom, 1959. – B. 3–25.

Asarda Temurning Eron, Iroq, Hindiston va boshqa hududlarga qilgan yurishlari haqida ham ma’lumotlar beriladi. Biroq zamonaviy tarixshunoslik nuqtai nazaridan ushbu voqealarni baholashda bir tomonlama yondashuvdan qochish muhimdir. Chunki harbiy yurishlar bilan bir qatorda ularning ijtimoiy oqibatlari ham mavjud bo‘lgan. Shu sababli asarni o‘rganishda tarixiy voqealarga ilmiy va axloqiy mezonlar asosida yondashish zarur.[57]

Mirxondning “Ravzat us-safo” asarida Temuriylar davrining madaniy va ma’naviy hayoti keng va batafsil tasvirlangan. Muallif ushbu davrni nafaqat siyosiy voqealar, balki ilm-fan, adabiyot, san’at va ma’rifat taraqqiyoti nuqtayi nazaridan ham yoritishga alohida e’tibor qaratadi. Asarda Shohrux Mirzo, Mirzo Ulug‘bek va Husayn Boyqaro kabi temuriy hukmdorlarning davlat boshqaruvi bilan bir qatorda ilm-ma’rifat rivojiga qo‘shgan hissalari ham yuksak baholanadi.

Shohrux Mirzo hukmronligi davrida mamlakatda nisbatan siyosiy barqarorlik ta’minlanganligi, bu esa iqtisodiy va madaniy taraqqiyot uchun qulay sharoit yaratgani ta’kidlanadi. Ayniqsa, Hirot shahri ilm-fan va madaniyat markaziga aylanishi bilan ajralib turadi. Shohrux Mirzo va uning rafiqasi Gavharshodbegim tomonidan madrasa, masjid, kutubxona va boshqa me’moriy obidalar bunyod etilib, ilm ahliga homiylik qilingan. Mirxond ushbu davrni temuriylar davlatining ma’naviy yuksalish bosqichlaridan biri sifatida tavsiflaydi.

Mirzo Ulug‘bek faoliyati ham asarda alohida o‘rin egallaydi. Muallif uni nafaqat hukmdor, balki buyuk olim va ma’rifatparvar sifatida tasvirlaydi. Samarqandda bunyod etilgan rasadxona, madrasalar hamda ilmiy maktablarning faoliyati haqida ma’lumotlar beriladi. Ulug‘bekning astronomiya va matematika fanlari rivojiga qo‘shgan hissasi, uning atrofida jamlangan olimlar faoliyati temuriylar davridagi ilmiy taraqqiyotning yorqin namunasi sifatida ko‘rsatiladi.

[57] *Temuriylar davri manbalaridan «Ravzat us-safo» asarining o‘rganilishi”* // XXI asr: fan va ta'lim masalalari, 2024.

Mirxond ilm-fanning davlat taraqqiyotidagi ahamiyatini aynan Ulug‘bek faoliyati misolida yoritadi.[58]

Asarda Husayn Boyqaro davri Temuriylar davlati madaniyatining eng yuksak cho‘qqilaridan biri sifatida baholanadi. Uning hukmronligi yillarida Hirot Sharqning eng yirik ilmiy va adabiy markazlaridan biriga aylangan. Saroyda ko‘plab olimlar, shoirlar, xattotlar, musavvirlar va san’atkorlar faoliyat yuritgan. Husayn Boyqaro ilm va san’at ahliga katta e’tibor qaratib, ularning ijod qilishi uchun zarur sharoitlarni yaratgan. Bu holat mamlakatda adabiyot, tasviriy san’at, me’morchilik va musiqa san’atining ravnaq topishiga xizmat qilgan.

Mirxond Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy kabi buyuk mutafakkirlarning faoliyatiga ham alohida to‘xtaladi. Alisher Navoiy turkiy adabiyotning taraqqiyoti uchun ulkan xizmat qilgan davlat arbobi va shoir sifatida ulug‘lanadi. Uning ilm-ma’rifatni rivojlantirish yo‘lidagi sa’y-harakatlari, xayriya ishlari, madrasa va kutubxonalar qurilishiga ko‘rsatgan homiyligi yuqori baholanadi. Abdurahmon Jomiy esa tasavvuf va adabiyot sohasidagi ulkan merosi bilan e’tirof etiladi. Mirxond ushbu ikki buyuk siymoni o‘z davrining ma’naviy ustunlari sifatida tasvirlaydi.

Asarda Temuriylar davridagi me’morchilik va bunyodkorlik ishlari haqida ham muhim ma’lumotlar uchraydi. Samarqand, Hirot va boshqa shaharlarda qurilgan masjidlar, madrasalar, maqbaralar va bog‘lar davlatning iqtisodiy qudrati hamda madaniy saviyasini namoyon etuvchi omillar sifatida ko‘rsatiladi. Muallif bu inshootlarni nafaqat me’moriy obidalar, balki xalq ma’naviyatini yuksaltiruvchi markazlar sifatida ham baholaydi.

Mirxondning bayonlarida ilmga hurmat, adolatli boshqaruv, ma’rifatparvarlik, saxovat, insonparvarlik va ezgulik kabi fazilatlar ulug‘lanadi. Hukmdorlar faoliyati faqat harbiy yurishlar yoki siyosiy muvaffaqiyatlar bilan

[58] *Temuriylar davri manbalaridan «Ravzat us-safo» asarining o‘rganilishi”* // XXI asr: fan va ta'lim masalalari, 2024.

emas, balki ularning xalq farovonligi, ilm-fan rivoji va ma’naviy qadriyatlarni qo‘llab-quvvatlashdagi xizmatlari orqali ham baholanadi. Shu sababli “Ravzat us-safo” nafaqat tarixiy voqealarni aks ettiruvchi manba, balki o‘zida yuksak axloqiy va ma’rifiy g‘oyalarni mujassam etgan asar sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Mirxondning “Ravzat us-safo fi siyrat ul-anbiyo val-muluk val-xulafo” asari Amir Temur va temuriylar sulolasi tarixini o‘rganishda eng muhim va ishonchli yozma manbalardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu asarda Temurning davlat arbobi, sarkarda va islohotchi sifatidagi faoliyati batafsil yoritilib, uning siyosiy strategiyasi, davlat boshqaruvi, harbiy yurishlari hamda xalqaro munosabatlardagi o‘rni keng va izchil tarzda bayon etilgan. Shuningdek, temuriy hukmdorlar — Shohrux, Ulug‘bek va Husayn Boyqaro kabi tarixiy shaxslarning siyosiy, ilmiy va madaniy faoliyatlari ham asarda muhim o‘rin egallaydi.

Asarning ilmiy qimmati uning voqealarni xronologik va tizimli tartibda yoritishi, keng geografik hududlarni qamrab olishi hamda ko‘plab ishonchli tarixiy manbalarga tayanganligi bilan belgilanadi. Bu xususiyatlar uni nafaqat Temuriylar davri, balki umumiy Sharq tarixini o‘rganishda ham muhim manbaga aylantiradi. Mirxond o‘z asarida tarixiy voqealarni oddiy bayon qilish bilan cheklanmay, ularni tahlil qilish va sabab-oqibat bog‘lanishlarini ko‘rsatishga ham harakat qiladi, bu esa asarning ilmiy darajasini yanada oshiradi.

Bundan tashqari, “Ravzat us-safo”da adolat, ilm-fan, ma’rifat, insonparvarlik va axloqiy poklik kabi umuminsoniy qadriyatlar ham keng targ‘ib etiladi. Asarda hukmdorlarning adolatli bo‘lishi, ilm ahlini qo‘llab-quvvatlashi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi g‘oyalari alohida ta’kidlanadi. Shu jihatdan asar nafaqat tarixiy manba, balki yosh avlodni ma’naviy va axloqiy jihatdan tarbiyalashda ham muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ma’naviy-ma’rifiy meros sifatida qadrlanadi.

Umuman olganda, “Ravzat us-safo” asari Temuriylar davri tarixini chuqur va har tomonlama o‘rganishda beqiyos manba bo‘lib, u o‘zining ilmiy, tarixiy va tarbiyaviy ahamiyati bilan bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirxond. *Ravzat us-safo fi siyrat al-anbiyo val-muluk val-xulafo*. VI jild. Tehron: Intishoroti Xayyom, 1959. – B. 3–25.

2. Xayrullayev M. Ma’naviyat yulduzlari. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashri, 1999. – B. 245

3. *Temuriylar davri manbalaridan «Ravzat us-safo» asarining o‘rganilishi”* // XXI asr: fan va ta'lim masalalari, 2024.

4. Abdullayev N. *Tarixnavislik asoslari*. – Toshkent: Universitet, 2017.

5. G‘ulomov Ya. *O‘zbekiston madaniy merosi*. – Toshkent: Fan, 2018.

6. Hasaniy M. “Ravzat us-safo”da Jaloliddin Manguberdi obrazi. – Toshkent, 2019.

7. Boymatov L. Xo‘jand tarixi va tarixiy manbalar. – Toshkent, 2021.

8. Goksu E. Seljuk History in Rawzat al-Safa. – Ankara, 2015.

9. Onturk V. Ghurids in Rawzat al-Safa and Habib al-Siyar. – Istanbul, 2018.

10. Hidoyat R. *Ravzat us-safoyi Nosiriy*. – Tehron, 1860.

СИМВОЛИКА БАРАНА В ОГУЗО-КИПЧАКСКОЙ ТРАДИЦИИ И ЕЁ ОТРАЖЕНИЕ В КУЛЬТУРАХ СОПРЕДЕЛЬНЫХ РЕГИОНОВ

Искандерова А., к.и.н.

Научный эксперт Тюркской Академии

(Астана, Казахстан)

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21056057

Аннотация: *В статье рассматривается символика барана в огузо-кипчакской традиции и её отражение в культурах сопредельных регионов Евразии. На основе материалов полевых исследований, проведённых на территории Мангистауской области Казахстана, а также археологических, исторических и этнографических данных анализируется роль образа барана в духовной культуре тюркских народов. Особое внимание уделяется памятникам Джанкента и Сортобе, где выявлены культовые объекты и орнаментальные мотивы, связанные с культом барана. Прослеживается распространение данной символики от Центральной Азии до Монголии, Закавказья и Анатолии. Сделан вывод о том, что образ барана являлся важным элементом сакральных представлений, выполнял функции защиты, символизировал плодородие, воинскую доблесть и родовую идентичность, а также выступал маркером культурной преемственности в тюркском мире.*

Ключевые слова: огузы, кипчаки, баран, культ барана, тюркская культура, Джанкент, Сортобе, погребально-поминальные памятники, символика, сакральные представления, кочевые общества, этнокультурные традиции.

Annotatsiya: *Maqolada o‘g‘uz-qipchoq an’analarida qo‘y (baran) ramzi va uning Yevrosiyoning qo‘shni hududlari madaniyatlarida aks etishi tahlil qilinadi. Qozog‘istonning Mang‘istov viloyatida olib borilgan dala tadqiqotlari,*

shuningdek, arxeologik, tarixiy va etnografik ma’lumotlar asosida qo‘y obrazining turkiy xalqlar ma’naviy madaniyatidagi o‘rni yoritiladi. Ayniqsa, Jankent va Sortobe yodgorliklarida aniqlangan qo‘y kulti bilan bog‘liq topilmalar hamda bezak motivlari tahlil qilinadi. Mazkur ramziyatning Markaziy Osiyo, Mo‘g‘uliston, Kavkazorti va Anadoligacha tarqalishi ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot natijasida qo‘y obrazi hosildorlik, himoya, jasorat va urug‘-qabila birligini ifodalovchi muqaddas timsol bo‘lib, turkiy dunyoda madaniy davomiylikning muhim belgilaridan biri ekanligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: *o‘g‘uzlar, qipchoqlar, qo‘y kulti, baran ramzi, turkiy madaniyat, Jankent, Sortobe, dafn va xotira yodgorliklari, ramziyat, sakral tasavvurlar, ko‘chmanchi jamiyatlar, etnomadaniy an’analar*

Abstract : *The article examines the symbolism of the ram in the Oghuz-Kipchak tradition and its reflection in the cultures of neighboring regions across Eurasia. Based on field research conducted in the Mangystau Region of Kazakhstan, as well as archaeological, historical, and ethnographic evidence, the study analyzes the role of the ram image in the spiritual culture of Turkic peoples. Particular attention is paid to the archaeological sites of Jankent and Sortobe, where cult objects and ornamental motifs associated with the ram cult have been identified. The paper traces the dissemination of this symbolism from Central Asia to Mongolia, the South Caucasus, and Anatolia. It concludes that the ram served as an important sacred symbol representing fertility, protection, martial valor, and clan identity, while also functioning as a marker of cultural continuity throughout the Turkic world.*

Keywords: *Oghuz, Kipchaks, ram symbolism, ram cult, Turkic culture, Jankent, Sortobe, funerary and memorial monuments, sacred symbolism, nomadic societies, ethnocultural traditions, cultural continuity.*

В рамках полевых исследований в Мангистауской области Республики Казахстан, организованных Тюркской академией, проведена комплексная

разведка погребально-культовых памятников огузо-кипчакского периода. Полевой маршрут протяжённостью около 1900 км позволил осуществить систематическое обследование памятников, зафиксировать их современное состояние, уточнить типологические и хронологические характеристики, а также собрать материалы для последующего анализа погребально-поминальных практик кочевого населения региона. В ходе работ обследовано 18 объектов, включая некрополи, подземные мечети и культово-мемориальные комплексы. Применённый комплекс методов (визуальное обследование, фотофиксация, описание и GPS-картирование) обеспечил создание актуальной базы данных по состоянию памятников и их пространственной организации.

Историко-археологические данные подтверждают, что в IX–XI вв. огузы занимали ключевые позиции в политическом и культурном пространстве степей Западного Приаралья и Северного Прикаспия. Сформировав мощное племенное объединение с центром в Янгикенте, они оказали значительное влияние на процессы этнокультурного развития тюркоязычных народов Центральной Азии. Этногенез огузов представлял собой сложный процесс взаимодействия местных и пришлых тюркоязычных групп, что отразилось как в материальной культуре, так и в системе религиозно-мифологических представлений.

Особое значение для реконструкции духовной культуры огузов имеет городище Джанкент, где в результате археологических исследований выявлен комплекс материалов, отражающих синкретизм утилитарных и сакральных функций предметного мира. Среди находок особый интерес представляют керамические изделия с зооморфными изображениями, в частности мотив барана, интерпретируемый как один из ключевых символов благополучия, плодородия и сакральной защиты. Эти данные позволяют

рассматривать образ барана как важный элемент культовой системы огузского населения Нижнего Сырдарьинского региона.

В традиционной культуре тюркских народов баран выступал многозначным сакральным символом, объединяющим хозяйственные, ритуальные и мифологические представления. Его образ связывали с жертвенными обрядами, плодородием, силой и храбростью воинов, властью, а также с представлением о священной жизненной энергии «кут». Археологические и этнографические данные свидетельствуют о широком спектре его ритуальных функций: от жертвенных практик до использования в качестве оберега и знака благополучия рода. В этой системе представлений баран выступал не только как объект хозяйственной деятельности, но и как проводник между человеком и сакральным миром.

Археологические комплексы Сортобе и Джанкента дают важные свидетельства существования культа барана в огузской среде. Обнаруженные здесь протомы барана, размещавшиеся в алтарных зонах жилищ рядом с очагом, интерпретируются как культовые объекты, связанные с представлениями о покровительстве предков, родовой защите и сакральной жертве. Их орнаментальное оформление отражает устойчивую систему символов, включающую мотивы «қошқар мүйиз», «төртгүл», а также растительные, птичьи и геометрические элементы. Орнаменты отражают основные представления о том, как устроен мир: о жизни и её циклах, связи поколений, порядке в мире и защите от злых сил через ритуалы.

Широкое распространение иконографии барана в тюркском мире подтверждается материалами различных регионов Евразии. Особое место занимает комплекс Шивээт-Улаан в Центральной Монголии, где каменные изваяния баранов включены в структуру культово-поминального ансамбля наряду с родоплеменными тамгами. Отсутствие развитой эпиграфической традиции и преобладание символических маркеров позволяют рассматривать

данный комплекс как важный источник по реконструкции этнополитической структуры древнетюркских объединений. В совокупности с орхонскими памятниками он демонстрирует различные формы фиксации исторической памяти – текстовую и символико-визуальную.

Аналогичные традиции фиксируются в Азербайджане, где в XIII–XV вв. получили распространение каменные изваяния баранов и лошадей, связанные с погребальной практикой тюркских сообществ. Эти памятники, зафиксированные исследователями, отражают синтез исламской мемориальной культуры и более ранних тюркских представлений. Образы барана («гоч») здесь выступают маркерами социального статуса, воинской доблести и родовой принадлежности.

В Анатолии надгробия в форме баранов, связываемые с эпохой туркоманских династий Ак-Коюнлу, и Кара-Коюнлу, фиксируют перенос и развитие той же традиции в условиях Малой Азии. Орнаментированные каменные изваяния, нередко сопровождаемые изображениями оружия и эпиграфическими надписями, свидетельствуют о сохранении символики барана как знака силы, героизма и сакральной защиты. Такие памятники являются частью общей традиции Евразии, которая берёт начало у кочевых народов Центральной Азии. В Закавказье аналогичные формы фиксируются на территории Армении (Уруд, Сисианский район), где каменные изваяния баранов датируются преимущественно концом XVI в. и связаны с тюркской погребальной традицией. Эти памятники демонстрируют устойчивость символического комплекса, объединяющего представления о родовой идентичности, сакральной защите и поминальной функции.

Таким образом, совокупность археологических, исторических и этнографических данных позволяет рассматривать образ барана как один из ключевых элементов духовной культуры тюркских народов. Его устойчивость на огромной территории – от Монголии до Малой Азии и

Закавказья – свидетельствует о длительном существовании единого символического кода, отражающего общность мировоззренческих представлений кочевых обществ. В этом контексте культ барана выступает важным маркером культурной преемственности, соединяющим погребально-поминальные практики, художественные традиции и систему сакральных значений тюркского мира в средневековый период.

AXSIKENT QAL’ASI QANDAY KO‘RINISHDA BO‘LGAN?

Alijon TURDALIYEV

Qo‘qon davlat universtteti dotsenti, pfn.,

Turon FA akademigi va professori

Ma’mura TURDALIYEVA

Namangan viloyat pedagogik mahorat markazi

Tasviriy san’at va chizmachilik fanlari metodisti.

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21056231

Annotatsiya: *Ushbu maqolada muallif Farg‘ona davlatining qadi-miy poytaxt shahri bo‘lgan Axsikent va bu shaharning qal’a sifatidagi o‘rni, uning o‘ziga xos xususiyatlari va o‘zi tomonidan bajarilgan ijodiy rangtasvir va grafika ishlarida Axsikent qal’asini tasvirlanishi haqida ma’lumot beradi.*

Kalit so‘zlar*: Axsikent, qal’a, istehkom, zilzila, madaniy qatlam, arxologik topilma, Buyuk Ipak yo‘li, Umarshayx mirzo, Yoqut Hamaviy,*

Qadimshunos olimlar tomonidan “Farg‘ona Afrosiyobi”deya ta’rif berilib, Axsi yoki Axsikent nomi bilan ataluvchi ko‘hna shahar xarobalari bugungi kunda To‘raqo‘rg‘on tumanidagi Shahand va Gulqishloqlari orasida, Sirdaryoning shimolida do‘ngtepaliklar ko‘rinishida yastanib yotibdi. Mazkur Eski Axsi manzilgohi Farg‘ona vodiysidagi eng yirik arxeologik yodgorlik hisoblanadi. [59]

Namangan viloyatida joylashgan Qadimiy Axsikent yodgorligi "YUNESKO" butunjahon madaniy merosi obyekti xisoblanadi.. Vaholanki, bu obyekt O‘zbekiston tarixi, o‘lkashunoslik, arxeologiya, ekologiya, madaniyatshunoslik, tabiiy geografiya fanlari tarkibidan o‘rin oluvchi qimmatli manbaa va materiallarga ega bo‘lsada, xali fanlarning mazmuniy tarkibiga ham kiritilmagan va bor material-lar ham xali keng ommaga yetib bormagan. Tarixi

[59] A. Anarbayev. Axsiket stolitsa drevney Ferganы. Institut arxeo-logii im. Ya. Gulyamova AN RUz. Tashkent, Izd-vo "Tafakkur", 2013 g. – B 29.

eramizdan avvalgi III asrga borib taqaluvchi bu noyob yodgorlik tarixini chukur o‘rganish, bu katta poytaxt shaharni keng ommaga ko‘rsatish, bu o‘lkada kamolga yetgan jahonga mashhur allomalarni elga tanishtirish kechiktirib bo‘lmas vazifa sifatida yuzaga chiqmoqda.

Kichik Osiyolik mashxur sayyox, olim Yoqut Hamaviy “Mo‘jamu –l-buldon" ("Shaharlarni tasvirlovchi kitob") asarida shunday yozadi: “...Agar siz shaharning o‘rtasidagi katta qo‘rg‘onga chiqib, undan Farg‘ona atrofiga nazar solsangiz, xuddi qog‘ozga chizilgan xaritaga yoki rangli suratga o‘xshash manzaraga ko‘zingiz tushadi. Bu o‘lkaning bosh shaxri (poytaxti) Axsikatdir. Axsikat-Farg‘ona tomonda bir ulug shahar bo‘lib, Sayhun (Sirdaryo) daryosi yoqasidagi tekis go‘zal vodiyga joylashgan. Ichki shahar juda ulkan mudofaa istehkomiga ega. Axsikent shahri devori kadimdan to‘rtta darvozali bo‘lib, darvozalarning har biri o‘z nomi bilan atalgan. Imoratlari loydanyasalgan. Shahar ichida va qo‘rg‘on atrofida oqar suvlar, katta xovuzlar va bog‘lar bor”(2).

Bu yer Movarounnahrda eng xushmanzara joylardan biri", deydi yoki XII asr oxiri XIII asr o‘rtalarida yashab o‘tgan geografik va tarixchi olim Muxammad Najib al-Bakron esa o‘zining "Jahonnoma" asarida "Farg‘ona Movarounnaxr xududiga qarashli viloyat. uning poytaxti shahri Axsikat deb ataladi. Nixoyatda xushhavo joy ..." deya ko‘rsatib o‘tadi.[60]

1913 yilning aprel hamda iyun-iyul oylarida Rossiya imperatori huzuridagi Geografiya jamiyatiining Turkiston bo‘limi topshirig‘iga ko‘ra Kastanye I.A. Namangan uyezdiga qarashli Axsikentda tarixiy-etnografik tadqiqotlar o‘tkazadi.

Kastanye I.A. jarlar ustida yozar ekan, shaharning shimoliy qismi-dagi handakning shimoliy-g‘arbida harbty muhandislik inshoatiga o‘xshash yarim ko‘milgan ko‘rinishdagi joy mavjudligi, uning etagini esa aholi paxta va qovun ekish uchun dalaga aylantirganligini yozgan edi.“Boburnoma”da tasvirlangan

[60] Y. Qosimov. Qadimgi Farg‘ona sirlari. Namangan. 1992 y.

Umarshayx mirzo soldirgan qo‘shimcha jarlar shular bo‘lishi kerak, degan xulosani bergan.[61]

Mashhur sharqshunos, akademik V.Bartold "Mo‘g‘illar istilosi davrida Turkiston” asarida o‘rta asrlar mualliflari bergan ma’lu-motlarga asoslangan xolda, Axsikent shahrini uch qismdan: arki a’lo, (O‘rda, shahriston, (ichki shahar), va rabod (tashqi shahar)dan iborat deb ko‘rsatgan edi. Arkning o‘zida amir saroyi, zindon (qamoqxona), xazina va umuman ma’muriy devon, shahristonda jome’ masjidi, ichki bozor, aholi yashaydigan mahallalar, rabodda tashqi bozor, hunarmandchilik korxonalari, maishiy binolar joylashgan. Ark va shahristonning atrofi baland mudofaa devorlari bilan o‘ralgan bo‘lib, shaharning Mardikush, (Buxoradagi kabi), Koson, Jome’ masjid xamda Regxona nomli to‘rtta darvozasi bo‘lgan. Ayni vaqtning o‘zida shahriston ham ichki, ham tashqi qismdan iborat bo‘l-gan. Har ikkala shaxriston baland devorlar bilan o‘rab olingan edi. V. Bartold o‘sha asarida Ibn Havqal va Maqsidiy asarlaridagidek Axsikentning darvozalari beshta, deb ko‘rsatgandi. Darvozalarni beshta deb talqin etilishi ham, yuqorida nomi qayd etilganidek, to‘rtta deyilishi ham to‘g‘ri ekanligi tadqiqotlar natijasida aniq-langan. Chunki beshinchi darvoza yo‘lga emas, qazilgan xandak, ya’ni suv yo‘liga qurilgan ko‘prik bo‘lib, u ko‘tarib qo‘yiladigan, kerak paytda esa tushirib qo‘yiladigan, ya’ni harbiy maqsadlarni hisobga olingan inshoot-darvoza bo‘lgan.[62]

Tarixchilardan al-Balazuri Axsikentni Farg‘onaning qadi-miy poytaxti, deb ko‘rsatib o‘tadi. Zahiriddin Muhammad Bobur-ning xolasi Xo‘b Nigorxonimni o‘g‘li Mirzo Muhammad Haydar esa, ”Axsi Farg‘ona shaharlarining onasi hisoblanadi”, deb yozadi. (4. 53).[63]

Tarix Eski Axsi “Manoqibi risolai Xazrat Langarbobo Aziziy“ din shul tariqa yozilibdur:”Axsikantni uvlo binosini Eron podshohi No‘shyervoni Odil bino

[61] Kastanye I.A. Istoriko-etnograficheskaya poyezdka Namanganskiy uyezd Ferganskoy oblasti. 1. Razvalinы Axsыkenta. –Tashkent, Kommercheskaya tipografiya Ya. P. Edelmana. 1914 g. S 21.
[62] B. Isoqov. Axsikent Farg‘ona shaharlarining onasi. /Axsikent yodgorligini o‘rganish va uni xalqaro sayyohlik manziliga aylanti-rish istiqbollari. Ilmiy to‘plam. Namangan, 2018 y
[63] Mirza Muhammad Haydar. Tarixi Rashidi. –Tashkent: FAN, 1996. –S 53.

qilgon ekan. 521-tarix melodiyda No‘shyervon o‘g‘li Xurmuz podshoh Axsini necha vaqt poytaxt qilib anda hukumat surib, so‘ngra 1233-milodiyda Sirdaryo katta toshqin vaqti-da bir zilzila bo‘lib, daryoning suvi Axsini biyoboniga chiqib ketg‘on ekan. Anda buzulub xarob bo‘lg‘on ekan. Ammoki obodligida imorat- lar ikki-uch qabat xishtdan binolar bo‘lib, shahar intixosi Kosongacha borub, Koson ila Axsi o‘rtasi qirq chaqirimlik yo‘l hammasi imorat, bozor bo‘lgan ekan. [64]

1414 yil Mirzo Ulug‘bek Farg‘ona sari qo‘shin tortib, i “Matlai sa’dayn va majmuai bahrayn” asarida quyidagicha tas-virlanadi: Mirzo Ulug‘bek Ko‘ragon Andijonga qarab yurdi. Mirzo Amirak Ahmad u yerning qal’alarini mustahkamlab, toqqa chiqib ketdi. Mirzo Ulug‘bek u yerning eng katta qal’asi bo‘lgan Axsi qal’asini muhosara qildi.U shunday qal’aki, uning mezanalari-dan falak boshoq(yulduz)larini terib olish va baland xonalari-dan farishtalar g‘ulg‘ulasini eshitish mumkin edi. Qal’a aholisi qal’aning mustahkamligiga mag‘rur bo‘lishib jang aslahalarini hozirladilar. G‘alaba yor lashkar qal’a atrofini zirh ko‘zi-yu ari uyasidek (ilma-teshik) qilib qal’ani egalladi va lashkar ahli qo‘liga ko‘p boyliklar kirdi. Mirzo Ulug‘bek raiyatga tinchlik maydoni va omonlik makonidan o‘rin berdi hamda Poyanda bakovulni kutvol (Kutvol-qal’a boshlig‘i) tayinlab, Andijon tomon yo‘l oldi”.[65]

Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” asarida Umarshayx mirzo poytaxt qilgan Axsini quyidagicha tasvirlaydi:“...Sayhun suyining shimoli tarafilag‘i qasabalar: bir Axsidur. Kitoblarda Axsikat bitarlar. Nechukkim Asiriddin shoirni Asiriddin Axsikatiy derlar. Farg‘onada, Andijondin so‘ngra mundin ulug‘roq qasaba yo‘qtur. Andijondin g‘arb sori to‘qqiz yig‘och yo‘ldur. Umarshayx mirzo muni poytaxt qilib edi, Sayhun daryosi qo‘rg‘onini ostidin oqar. Qo‘rg‘oni baland jar ustida voqe bo‘libtur. Handaqining o‘rniga amayq jarlardur.

[64] Is’hoqxon to‘ra Ibrat. Turkiston viloyatining gazeti №48 ,23 iyun 1913 yil. Istoriya drevnego goroda Axsы v Ferganskoy oblasti

[65] Abdurazzoq Samarqandiy . “Matlai sa’dayn va majmuai bahrayn”. 1- jild. Birinchi qism. –Toshkent: O‘zbekiston, 2008. –B. 255.

Umarshayx mirzokim, muni poytaxt qildi, bir–ikki martaba tashqarroqdin yana jarlar soldi. Farg‘onada muncha berk qo‘rg‘on yo‘qtur. Mahallloti qo‘rg‘ondin bir shar’iy yiroqroq tushubtur”.[66]

“Boburnoma”da yana bir e’tiborli jihat bor. Bu Axsi ko‘prigi masalasi. Bobur 1502-1503 yillar voqealarini yoritar ekan, Axsida ko‘prik borligini, kechasiga unga qo‘riqchi qo‘yilmagaligi tufayli, Ahmad Tanbal ko‘prikdan o‘tib Axsiga kirib kelgaligini yozgan edi: “...Ko‘prikka kishi qo‘ymoq kerak edi, ko‘prikka ham kishi qo‘ymaduk.

Betajribalikdin mundoq o‘sallar bo‘ldi. Tong boshida Tanbal yetdi. Uch ming yarog‘lik kishi bila kelib ko‘prikdin o‘tib arkka kirdi.... “.[67]

Axsi qal’asi haqida 3.M. Boburning "Boburnoma" asarida shun-day qaydlar bor: "..Axsi ko‘rg‘oni baland jar ustida voqe bo‘lubtur, imoratlar jar yoqasida edi. Ushbu tarixda (Hijriy 899 yil) dushan-ba kuni ramazon oyining to‘rtida (1494 yil 8 iyunda) Umarshayx mirzo jardin kabutar va kabatarxona bila uchub shunqor bo‘ldi.

So‘ngi yillarida arxeolog olimlar I.Ahrorov, A. Anarbayevlar ko‘hna Axsikentning XI-XII asrlarga doir madaniy qatlamlaridan bir necha ko‘chani aniqlash imkoniga ega bo‘ldilar. Bu ko‘chalar katta shaharning shimoliy va sharkiy darvozalariga, markaziy bozor hamda temirchi, misgar, zargarlar, bakkollar, savdogarlarning mahalla-lariga olib boradigan qilib qurilgan edi.

Temuriylar davridagi Axsi shahri 1620 yilda ruy bergan katta falokat, g‘oyatda kuchli yer qimirlashi zilzila oqibatida xalokatga uchradi. Bu haqda yangi bir qator asosli manbaalar Axsikent xalqaro ilmiy-tadqiqot jamoat birlashmasi olimlari M. Mirsaydullakv, T. Qozoqov, N. Otajonovlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham berilgan.

[66] Muhammad Bobur. Boburnoma. –T., Yulduzcha. , 1989 y. - B 8.Zahiridddin
[67] Zahiridddin Muhammad Bobur. Boburnoma. –T., Yulduzcha. , 1989 y. - B 100-101.

Mustaqil O‘zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov Marg‘ilon shaxrining 2000 yilligiga bag‘ishlangan tantanali maro-simdagi nutkida: "Farg‘ona vodiysining o‘zida latif shahar deb nom olgan Qo‘kon, kadimiy Andijon, go‘zal Namangan, ko‘hna Axsi-kabi tariximizda chukur iz qoldirgan shahar va qo‘rg‘onlarning nom-larini ulug‘lash va ularning ham qutlug‘ sanalarini keng miqyosda nishonlash, bularning barchasi bizning oldimizda turgan katta vazifadir" deb ta’kidlagani ham bu masalaga katta e’tibor zarurligini ko‘rsatadi. Chindan ham ko‘hna Axsikent, uning bunyodkor xalqi, shahar turmushi, ishlab chikarishi, hayot tarzi, ma’rifati va madaniyati haqida bugungi avlodlarga keng miqyosda ma’lumotlar berish fursati keldi“.[68]

Shu o‘rinda bizning tomonidan Axsikent qal’asini ko‘rinishini tiklashdagi sa’yi-harakatlarimiz Mustaqillikning dastlabki yil-larida ishlangan, xozirda “Namangan viloyat tarixi va madaniyati muzeyi”da saqlanayotgan “Axsikent qal’asi. XII asrda". (75x105). Mato, moybo‘yoq. 1994 y.) deb nomlangan rangtasvir asari ko‘pchilik tomoshabinlar va tarixchi tadqiqotchilar e’tiborini kozongan. Darvoqe, bu asar aynan 2018 yili Marg‘ilon shahrining 2000 yilligi tantanalari ko‘rgazmasida "Eng noyob eksponat" nominatsiyasi bo‘yicha mukofotlangan edi. (Ilova rasmga qaralsin).

Kartinada Sirdaryo bo‘yida baland jarlar ustida joylashgan, baland va mustahkam muhofaza devorlari bilan o‘ralgan ko‘hna va qadimiy tariximizning guvohi bo‘lgan qal’a-shahar tasvirlangan. Ushbu rangtasvir asari Axsikentga doir tarixiy manbalarda berilgan ma’lumotlarga mos ravishda ishlangan. Bu asar yangidan, ilk bora yaratganligi bois, mavjud tarixiy manbalar, ilmiy adabiyotlar va zaruriy ma’lumotlar bilan tanishib chiqilgan va shu soha mutaxassislari bilan fikrlashilgan.

[68] Axsikent: Xotiralar, tadqiqotlar, maqolalar, lavhalar, /Tuzuvchilar: R.Ummatov, I.Yusupov, E. Mirzaliyev. - T.," 2019 y

Taniqli arxeolog olim A.Anarbayevning ilmiy faoliyati O‘rta Osiyoning, jumladan, Farg‘ona vodiysining qadim va o‘rta moddiy-madaniyati, obodonchiligi tadqiqotlariga bag‘ishlangan. Bu olim juda kup yillardan buyon Fargona vodiysining qadimgi poytaxt shaharlaridan biri eski Axsida (Axsikent) olib borgan tadqiqotlari bilan yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi.

Qadimgi Xitoy manbalarida Farg‘ona va Axsikent bitta joy ekanligi xaqida ma’lumotlar bor.

Eski Axsini buzulgan tarixi 1030 –milodiyda bo‘lg‘on ekan. (1621 yil). Andin buyon mazkur Axsini hech podshohlardin yoki fuqarolardin obod qilg‘on yo‘q. Dehqonlar va o‘tinchilar har xil nima narsa topib olurlar. Chunonchi, mis asboblar va shishalar, har xil toshlar chiqadir. Ko‘p yerlari daryoga ketgandir alholda ham imoratlarga aksari xishtlarni andin olurlar.

Rassom ayniqsa qal’aning salobatini, o‘sha davr tarixchi-lari ko‘rsatib o‘tgan tavsiflarga mos xolda bo‘lishini, o‘sha ta’riflarda berilgan xom g‘ishtin devorlar va binolari xom g‘ishtdan ekanligini xam ifodalab berishga xarakat kilgan.

Eski Axsini buzulgan tarixi 1030 –milodiyda bo‘lg‘on ekan. (1621 yil). Andin buyon mazkur Axsini hech podshohlardin yoki fuqarolardin obod qilg‘on yo‘q. Dehqonlar va o‘tinchilar har xil nima narsa topib olurlar. Chunonchi, mis asboblar va shishalar, har xil toshlar chiqadir. Ko‘p yerlari daryoga ketgandir alholda ham imoratlarga aksari xishtlarni andin olurlar..[69]

2001 yilda Axsikentda o‘tkazilgan xalqaro anjumanda bu xakda keng ma’lumotlar berildi.[70]

Taniqli arxeolog olimlar I.Ahrorov, A.Anarbayevlar tomoni- dan turli yillarda olib borilgan natijasida shahristonning quyi qatlamlari eramizdan

[69] Is’hoqxon to‘ra Ibrat. Turkiston viloyatining gazeti №48, 23 iyun 1913 yil. Istoriya drevnego goroda Axsы v Ferganskoy oblasti

[70] A. Anarbayev. "O‘zbek davlatchiligi tarixida qadimgi Fargona." // Akademik Yaxyo G‘ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti. "O‘zbek xalq va davlatchiligi tarixi" respub-lika ilmiy seminari-ning ma’ruza matnlari. (Namangan. 2001 yil. 15-16 may.)

avvalgi qazilmalar III -II asrlarga taaluqli ekanligi ma’lum bo‘lvdi. Mustaxkamlangan mudofaa devorlari, xom g‘ishtdan qurilgan, 4-5-6 xonali uylar, suvoq va turli bo‘yoqlar surilgan uylardagi o‘choqlar, supalar va quduqlar, omborxona va oshxonalar topildi. Bizning tomonimizdan ishlangan qal’a ko‘ri-nishlarida shu jihatlarga e’tibor qaratildi. (3, 4 rasmlar).

Musavvir A.Turdalikvning fikricha: "Axsikent. XII asrda" nomli rangtasvir asari aynan shu davrlardagi gullab yashnagan Axsi albatta bizning xayolotimiz va tafakkurimiz mahsulidar. Bu bilan biz dunyo tamaddunida o‘z o‘rniga va muhim ahamiyatga эга kal’a shaharni o‘z tasavvurimiz asosida ko‘rsatmokchi bo‘lganmiz. Biz Axsikent tasviri-ni aynan va aniq shunday ko‘rinishda bo‘lgan degan yakdil fikrdan yiroqmiz. Shunday bo‘lsa-da, bu manzara asari bizningcha Axsikent qal’a shahar haqida umumiy tasavvur beruvchi dastlabki izlanish sifatida qadrli va aytishimiz mumkinki, keyingi tasvirlarda Axsikent-ning yanada anik va umumiy geografik joyla-shuvi, ark ko‘rinishlari, kal’a shahar ichkarilari, binolari, jome’ masjidi, bog‘u-rog‘lar va xovuzlar, shaharning rabot qismi ko‘rinishlari ham aks etadi.

Yodgorlikning bebaho xazina ekanligi, uni chukur o‘rganish va jahon xalqlariga ilmiy asosda ma’lum qilib borish zarurligi

Va ochik muzey tashkil kilish takliflari berilmoqda. Masalan, 1994 yil yanvar oyida Axsikent yodgorligi bilan kizikib, yaqindan tanishib chikkan BMTning O‘zbekistondagi o‘sha vaqtdagi vakili Xolid Malik o‘z taasurotlari va kimmatli fikr-mulohaza-larini izhor kildi. Xalkaro YUNESKO tashkilotining 2007 yil oktyabr oyidagi Shanxay Konferensiyasida Axsikent arxeologik yodgorligi tashkilotning maxsus ro‘yxatiga rasmiy ravishda kiritildi.[71]

Hozirgi kunlarda yurtimizda O‘zbekiston Respublikasi Prezi-dentining "Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi

[71] Axsikent – qadimgi Farg‘ona poytaxti. Tuzuvchilar: Yu. Ismailov, B.Ro‘zinov. Namangan nashriyoti, 2013 y

(2017 yil 7 fevral) Karori, O‘zbekis-ton Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 16 oktyabrda "Namangan viloyatining To‘raqo‘rg‘on tumanidagi "Axsikent" arxeo-ogiya merosi obyektini muhofaza qilish va tadkik etish, yodgorlik majmuasini tashkil etish xaqida" gi (№831) Karorini bajarilishi yuzasidan bir kator ishlar amalga oshirilmokda va turli amaliy taklif loyihalar tayyorlanmoqda.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Axsikent yodgorligi tarixini ommalashtirish, bizningcha: *Birinchidan,* Qadimiy Axsikent tarixiy yodgorligini ochik osmon ostidagi muzey sifatida asrab avaylash, undan topilgan tarixiy, arxeologik, san’at va madaniyat ashyolarni, kimmatli manbalarni shu yerning o‘zida tashkil etiluvchi muzeyga qo‘yish - O‘zbekiston tarixini yanada chuqurroq o‘rganishga olib keladi, bu esa mustaqilligimizning yutuqlari sifatida g‘oyat katta ahamiyat kasb etadi**.**

Ikkinchidan, katta magistral yo‘l bo‘yida joylashgan yodgorlik atrofini obodonlashtirib, zamonaviy xolga keltirish, obod sayl-gohga aylantirish ham mumkin bo‘ladi, chunki yodgorlikni yonginasi-dan azim Sirdaryoni oqib o‘tishi, bunday tabiiy va qulay geografik sharoitga ega ekanligi ham, xalqimizni, qolaversa xorijoy sayyox va turistlarni jalb etishning keng imkoniyatlarini beradi.

Uchinchidan, tadqiqotchi olimlar, ijodkorlar oldida avvalo Axsikentni poytaxt va Buyuk Ipak yo‘li o‘tgan qal’a shahar sifatida asoslab, uning to‘liq rekonstruktiv ko‘rinishi tiklash, Axsikentni tabiiy ekologik xolatini saqlab qolib, undan ochiq va yopiq muzey sifatida foydalanish sharoitlrini beradi.

Bu bilan esa butun omma, yoshlar, turistlar, sayohatchilar, dam oluvchilar bahramand bo‘ladigan va jahon e’tirofidagi yana bir turistik manzil tashkil etilishiga yo‘l ochiladi. Aynan bizning Axsikent tarixiga oid kartina va loyihalarimiz esa, ana shu ezgu maqsadlarda dastlabki muhim qadam sifatida qadrli va katta ahamiyat kasb etadi.

Xullas, Axsikent tarixini o‘rganish o‘lkamiz tarixining yozil-magan va o‘rganilmagan tarixiga yangi sahifalar bo‘lib qo‘shiladi.

Adabiyotlar:

1. А. Анарбаев. Ахсикет столица древней Ферганы. Институт археологии им. Я. Гулямова АН РУз. Ташкент, Изд-во "Тафаккур", 2013 г.

2. Y. Qosimov. Qadimgi Farg‘ona sirlari. Namangan. 1992 y.

3. Кастанье И.А. Историко-этнографическая поъездка Наманганский уъезд Ферганской области. 1. Развалины Ахсыкента. –Ташкент, Коммерческая типография Я. П. Эдельмана. 1914 г.

4. B. Isoqov. Axsikent Farg‘ona shaharlarining onasi. /Axsikent yodgorligini o‘rganish va uni xalqaro sayyohlik manziliga aylanti-rish istiqbollari. Ilmiy to‘plam. Namangan, 2018 y

5. Mirza Muhammad Haydar. Tarixi Rashidi. –Tashkent: FAN, 1996.

6. Abdurazzoq Samarqandiy . “Matlai sa’dayn va majmuai bahrayn”. 11 jild. Birinchi qism. –Toshkent: O‘zbekiston, 2008 y.

7. Zahiridddin Muhammad Bobur. Boburnoma. –Toshkent. Yulduzcha.1989 y.


8. Axsikent: Xotiralar, tadqiqotlar, maqolalar, lavhalar, /Tuzuvchilar: R.Ummatov, I.Yusupov, E. Mirzaliyev. - T.," 2019 y

9. Исҳоқхон тўра Ибрат. Туркистон вилоятининг газети №48 ,23 июнь 1913 йил. История древнего города Ахсы в Ферганской области.

10. A.Anarbayev. "O‘zbek davlatchiligi tarixida qadimgi Fargona." // Akademik Yaxyo G‘ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti. "O‘zbek xalqi va davlatchiligi tarixi" respublika ilmiy seminarining ma’ruza matnlari. (Namangan, 2001 yil 15-16 may).

11. Axsikent – qadimgi Farg‘ona poytaxti. Tuzuvchilar: Yu. Ismailov, B.Ro‘zinov. “Namangan” nashriyoti, 2013 y.

ILOVALAR




A.Turdaliyev. “Axsikent. XII asr”.

75X115. M., m. Namangan tarixi va madaniyati Davlat muzeyi eksponati. 1994 y.



A.Turdaliyev. “Axsikent - Farg‘ona davlatining poytaxti”.

85X150. M., m. 2026 y. Shaxsiy kolleksiya.



A.Turdaliyev. “Axsikent”. (Umumiy ko‘rinshi).

40X60. Q., q. 2026 y. Shaxsiy kolleksi.



A.Turdaliyev. “Axsikent qal’asi atroflarida”.

40X60. Q., q. 2016 y. Shaxsiy kolleksiya.

AXSIKENT – QADIMGI FARG'ONA DAVLATCHILIGINING MARKAZI

Niyatqobilov Muhammadali

Namangan davlat pedagogika insitititi

2-kurs talabasi

DOI: *https://doi.org/10.5281/zenodo.21056377*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Axsikentning qadimgi Farg'ona davlatchiligidagi markaziy o'rnini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda miloddan avvalgi IV asrdan XIII asrgacha bo'lgan davr qamrab olingan. Asosiy manbalar sifatida qadimgi xitoy yilnomalari, arab-fors geografik asarlari, o'rta asr tarixiy manbalari va zamonaviy arxeologik topilmalar tahlil etilgan. Tadqiqot natijasi shuni ko'rsatadiki, Axsikent turli siyosiy davrlar mobaynida Farg'onaning uzluksiz ma'muriy markazi sifatida xizmat qilgan va bu holat shaharning geografik, iqtisodiy va strategik imtiyozlari bilan belgilangan*

Kalit so'zlar: *Axsikent, Farg'ona, davlatchilik, Dayuan, Somoniylar, Qoraxoniylar, poytaxt, ma'muriy markaz, arxeologiya, O'rta Osiyo tarixi.*

Аннотация: *Данная статья посвящена изучению центральной роли Ахсикента в древней государственности Ферганы. Исследование охватывает период с IV века до н.э. по XIII век н.э. В качестве основных источников проанализированы древнекитайские хроники, арабо-персидские географические сочинения, средневековые исторические источники и современные археологические находки. Результаты исследования показывают, что Ахсикент на протяжении различных политических эпох непрерывно служил административным центром Ферганы, что было обусловлено географическими, экономическими и стратегическими преимуществами города.*

Ключевые слова: *Ахсикент, Фергана, государственность, Даюань, Саманиды, Караханиды, столица, административный центр, археология, история Центральной Азии.*

Abstract: *This article is dedicated to studying the central role of Ahsikent in the ancient statehood of Fergana. The research covers the period from the 4th century BCE to the 13th century CE. Ancient Chinese chronicles, Arab-Persian geographical works, medieval historical sources, and modern archaeological findings are analyzed as the primary sources. The results of the study indicate that Ahsikent continuously served as the administrative center of Fergana throughout various political eras, a status determined by the city's geographical, economic, and strategic advantages.*

Keywords: *Ahsikent, Fergana, statehood, Dayuan, Samanids, Karakhanids, capital, administrative center, archaeology, history of Central Asia.*

Farg'ona vodiysi O'rta Osiyoning eng qadimiy sivilizatsiya markazlaridan biri bo'lib, uning davlatchilik tarixi jahon tarixining ajralmas qismi hisoblanadi. So'nggi o'n yilliklarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar vodiyning eng yirik siyosiy markazi — Axsikentnning o'rnini yangicha nuqtai nazardan ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatmoqda. Biroq mavjud adabiyotlarda ushbu shaharning Farg'ona davlatchiligidagi roli yaxlit va tizimlashtirilgan tarzda o'rganilmagan — ko'pchilik tadqiqotlar alohida tarixiy davrlarga yoki ayrim jihatlariga to'xtalib qolgan.

Mazkur tadqiqot ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirish maqsadida amalga oshirilgan. Maqolada Axsikentnning miloddan avvalgi IV asrdan Mo'g'ul istilosigacha (XIII asr) bo'lgan uzluksiz davr mobaynida Farg'ona davlatchiligining siyosiy, ma'muriy va madaniy markazi sifatidagi o'rni kompleks tarzda tahlil etiladi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi — Axsikentnning Farg'ona davlatchiligidagi markaziy o'rnini tarixiy manbalar va arxeologik dalillar orqali ilmiy jihatdan

asoslab berish hamda bu shaharning turli siyosiy davrlar mobaynida poytaxtlik vazifasini qanday saqlab qolganligini aniqlashdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan: birinchidan, asosiy tarixiy manbalarni tanqidiy tahlil qilish; ikkinchidan, arxeologik topilmalarni manba ma'lumotlari bilan qiyosiy o'rganish; uchinchidan, Axsikentnning turli sulolalar davrida ma'muriy markazlik funksiyasini bajarganligini isbotlovchi aniq dalillarni aniqlash; to'rtinchidan, shaharning hududiy va strategik ahamiyatini geografik nuqtai nazardan baholash.

Tadqiqot gipotezasi quyidagicha shakllantirilgan: Axsikentning Farg'ona davlatchiligining uzluksiz markazi sifatidagi o'rni tasodifiy emas, balki uning geografik joylashuvi, iqtisodiy salohiyati va strategik imtiyozlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan; bu omillar har qanday siyosiy o'zgarishlarga qaramay shaharning ma'muriy markazlik maqomini saqlab qolishiga imkon bergan.

Tadqiqotda qo'llanilgan asosiy usullardan biri manbashunoslik tahlili bo'lib, u ikki guruh manbalarni qamrab oladi. Birinchi guruhga birlamchi tarixiy manbalar kiradi: xitoy yilnomalari («Shiji» — Sima Sian, mil. av. II asr; «Ханшу» — Ban Gu, I asr), arab-fors geografik asarlari (Ibn Havqal, X asr; al-Muqaddasiy, X asr; al-Istaxriy, X asr), o'rta asr tarixiy asarlari (Juvayniy, XIII asr; Rashiduddin, XIV asr). Ikkinchi guruhga ikkilamchi manbalar — zamonaviy tarixiy tadqiqotlar va arxeologik hisobotlar kiradi.

Manbalarni tahlil qilishda tanqidiy-qiyosiy yondashuv qo'llanilgan: bir xil voqeani tasvirlagan turli manbalar o'zaro solishtirilib, ularning ishonchlilik darajasi baholangan. Ayniqsa xitoy va arab manbalarining o'zaro mosligini tekshirish muhim metodologik vazifa bo'lib xizmat qilgan.

Tadqiqotda ikkinchi asosiy usul arxeologik ma'lumotlarni tahlil qilish bo'lgan. Bu maqsadda 1950—2015 yillar oralig'ida Axsikent yodgorligida olib borilgan arxeologik ekspeditsiyalarning rasmiy hisobotlari va nashr etilgan ilmiy

natijalari o'rganilgan. Jumladan, Yu.F. Buryakov (1970—1985), N. Toshmatov (2008—2015) va boshqa tadqiqotchilarning ishlari tahlil qilingan.

Arxeologik topilmalar (tangalar, sopol buyumlar, me'moriy qoldiqlar, qurol parchalari) tarixiy manbalar bilan qiyosiy tarzda o'rganilgan. Bu usul «manba — arxeologiya» munosabatini aniqlashga va bir-birini to'ldiradigan dalillarni topishga imkon bergan.

Uchinchi usul sifatida tarixiy-geografik tahlil qo'llanilgan. Axsikentnning geografik joylashuvi zamonaviy GIS (Geografik Axborot Tizimlari) ma'lumotlari va qadimgi xaritalap asosida o'rganilgan. Shaharning savdo yo'llari, daryo tizimlari va mudofaa imkoniyatlari bilan bog'liqligi aniqlangan. Bu usul shaharning strategik ahamiyatini ob'ektiv baholashga yordam bergan.

Tarixiy-geografik tahlil shuni ko'rsatdiki, Axsikentning strategik joylashuvi uning davlatchilik markazi bo'lib qolishining asosiy sababi hisoblanadi. Sirdaryo o'ng sohilidagi tabiiy platoda joylashgan shahar uch tomondan daryo va ariqlar bilan himoyalangan. Bu tabiiy himoya tizimi shahar atrofida sun'iy mudofaa inshootlari qurilishiga ham qadar muhim strategik afzallik yaratgan.

Bundan tashqari, shahar Farg'ona vodiysining kirish qismida joylashganligi va G'arb hamda Sharq savdo yo'llarini tutashtiruvchi nuqtada turishi uning iqtisodiy markazlik rolini mustahkamlagan. Sirdaryoning bu qismida qulay kechuvlar mavjud bo'lgan, bu esa savdo karvonlari va harbiy qo'shinlar uchun Axsikentni majburiy o'tish nuqtasiga aylantirgan.

Xitoy manbalari tahlili quyidagi natijalarni berdi: Sima Sianning «Shiji» asarida qayd etilgan Dayuan poytaxti Ershi shahri ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan Axsikent bilan belgilangan. Bu manba mil. av. 101 yilgi Xan imperiyasi yurishi paytida Ershi shahrining qamaл qilinganligini batafsil tasvirlaydi va shaharning kuchli mudofaa tiziimi, ko'p sonli aholisi hamda strategik ahamiyatini ta'kidlaydi.

Arab-fors manbalari tahlili aniq natijalar berdi: Ibn Havqal (X asr) Axsikentnni Farg'onaning poytaxti («qasaba» — viloyat markazi) sifatida aniq ko'rsatadi. Al-Muqaddasiy ham (X asr) ushbu shaharni Farg'ona viloyatining bosh shahri deb ta'riflaydi va uning bozori, jome masjidi hamda hunarmandchilik ahamiyatini qayd etadi. Al-Istaxriy esa shaharning Sirdaryoga yaqinligini va uning savdo aloqalarini alohida ta'kidlaydi.

O'rta asr manbalari — Juvayniy va Rashiduddinning asarlari Mo'g'ul istilosigacha Axsikentnning viloyat markazi sifatida faoliyat ko'rsatganligini isbotlaydi. Shu bilan birga, 1220—1221 yillardagi vayronalik shaharning siyosiy markazlik funksiyasini yo'qotishiga olib kelganligini ham ko'rsatadi.

Arxeologik tadqiqotlar quyidagi muhim natijalarni berdi. Birinchidan, Yu.F. Buryakov tomonidan aniqlangan shahar qatlamlari miloddan avvalgi IV asrdan XIII asrgacha uzluksiz aholi yashaganligini ko'rsatadi — bu esa manbalar ma'lumotlari bilan to'liq mos keladi. Ikkinchidan, N. Toshmatov ekspeditsiyasi (2008—2015) davomida topilgan 3000 dan ortiq artefakt orasida kushon, somoniy va qoraxoniy davrlariga mansub tangalar, ayniqsa ko'p uchraydi, bu esa shaharning mazkur davrlarda iqtisodiy va ma'muriy faollik markazi bo'lganligidan dalolat beradi.

Uchinchidan, shahar xarobasida aniqlangan ark (qal'a), shahriston va rabod qoldiqlari Axsikentnning to'la shakllangan poytaxt shahri tuzumiga ega bo'lganligini ko'rsatadi. Ayniqsa IX—XII asrlarga oid madaniy qatlam qalinligi (2—3 metr) bu davrda shaharning eng faol rivojlanish bosqichidan o'tganligidan guvohlik beradi. To'rtinchidan, jome masjid poydevori va saroy qoldiqlari ma'muriy markaz uchun xos bo'lgan inshootlar mavjud bo'lganligini tasdiqlaydi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, Axsikent turli siyosiy davrlar — Dayuan, Kushon, Eftalit, Turk xoqonligi, Arab xalifaligi, Somoniylar va Qoraxoniylar — mobaynida o'zining ma'muriy markazlik maqomini saqlab qolgan. Bu uzluksizlik tarix fanida «siyosiy markazlikning geografik determinizmi» deb ataladigan

hodisaning yorqin namunasidir: shaharning tabiiy-geografik imtiyozlari har qanday yangi siyosiy kuch uchun ham uni boshqaruv markazi sifatida saqlashni maqsadga muvofiq qilgan.

Olingan natijalar tadqiqot gipotezasini to'liq tasdiqlaydi. Axsikentnning geografik joylashuvi — Sirdaryoning o'ng sohilidagi mudofaaga qulay platoda, savdo yo'llarining kesishmasida joylashganligi — uning davlatchilik markazi sifatidagi o'rnini asrlar davomida mustahkamlab kelgan. Bu dalil tarixshunoslikda Bartold (1977) taklif qilgan «markazlik geografiyasi» nazariyasini Farg'ona vodiysi misolida isbotlaydi.

Manbalar va arxeologik topilmalar o'rtasidagi yuqori darajadagi muvofiqliq (Ibn Havqal tasvirlagan shahar tuzilmasi va arxeologlar topgan qoldiqlarning mos kelishi) tadqiqot metodologiyasining asosliligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ushbu qiyosiy tahlil o'rta asr arab geograflari ma'lumotlarining ishonchliligi va aniqligini ham tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari avvalgi ilmiy ishlar bilan qiyoslanғanda bir qator farqlar va yangi xulosalar ko'zga tashlanadi. Buryakov (1982) asosan shaharning hunarmandchilik va iqtisodiy jihatlariga e'tibor qaratgan bo'lsa, mazkur tadqiqot siyosiy-ma'muriy jihatni birinchi o'ringa chiqaradi. Rtveladze (2005) Markaziy Osiyo shaharlari haqidagi keng miqyosli tadqiqotida Axsikentnni muhim markaz sifatida qayd etgan, lekin uni alohida tahlil ob'ekti sifatida ko'rib chiqmagan.

Xo'jayev (2003) Farg'ona vodiysiga doir maxsus tadqiqotida Axsikentni vodiyning tarixiy markazi sifatida ta'riflagan, biroq uning manbalar tahlili cheklangan darajada qolgan. Mazkur maqola esa birlamchi manbalar — xitoy yilnomalari va arab geograflarining asarlari — bilan arxeologik dalillarni birgalikda tahlil qilib, yanada mustahkam ilmiy asoslar yaratgan.

Tadqiqotda bir qator cheklovlar mavjud. Birinchidan, Axsikent yodgorligining to'liq arxeologik qazishmalari hali tugatilmagan — shaharning katta qismi hanuz o'rganilmagan holda qolmoqda. Ikkinchidan, xitoy manbalari Farg'ona

poytaxti haqida ma'lumot bersa-da, «Ershi» va «Axsikent»ning bir xil joy ekanligi to'g'risidagi ilmiy bahslar to'liq yakunlanmagan. Uchinchidan, eftalit va turk xoqonligi davrlariga oid manbalap nisbatan kam bo'lib, bu bosqichlarni to'liq tahlil qilish imkoni cheklangan.

Natijalar asosida kelajakdagi ilmiy ishlar uchun quyidagi yo'nalishlar tavsiya etiladi: birinchidan, Axsikent yodgorligida kompleks arxeologik qazishmalarni davom ettirish, ayniqsa miloddan avvalgi davr qatlamlarini o'rganishga e'tiborni kuchaytirish; ikkinchidan, xitoy «Ershi» va Axsikentning aynanligini aniqlashga qaratilgan maxsus manbashunoslik tadqiqotini amalga oshirish; uchinchidan, «Axsikent davlatchilik markazi» muammosini xalqaro arxeologlar va tarixchilar bilan hamkorlikda o'rganish; to'rtinchidan, GIS texnologiyalari asosida qadimgi Farg'ona savdo yo'llari xaritasini tuzib, Axsikentnning ulardagi o'rnini aniqlashtirish.

Xulosa qilib aytganda ushbu maqola Axsikentnning qadimgi Farg'ona davlatchiligining uzluksiz markazi ekanligi haqidagi ilmiy gipotezani tasdiqlab berdi. Tarixiy manbalar tahlili, arxeologik topilmalar va tarixiy-geografik yondashuv metodlari kompleks tarzda qo'llanilishi natijasida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

Axsikent miloddan avvalgi IV asrdan milodiy XIII asrgacha uzluksiz ravishda Farg'ona vodiysining yetakchi siyosiy va ma'muriy markazi sifatida faoliyat ko'rsatgan. Bu uzluksizlik siyosiy almashinuvlardan (Dayuan, Kushon, Eftalit, Arab, Somoniy, Qoraxoniy) qat'i nazar saqlangan va shaharning geografik imtiyozlari bilan belgilangan. Tarixiy manbalar — xitoy yilnomalari, arab-fors geografik asarlari va o'rta asr tarix kitoblari — arxeologik dalillar bilan to'liq mos keladi va bu muvofiqlik tadqiqot metodologiyasining asosliligini isbotlaydi.

Axsikentni chuqurroq o'rganish nafaqat mahalliy tarix, balki butun Markaziy Osiyo davlatchilik tarixining muhim masalalarini yangicha yoritishga imkon

beradi. Bu shahar O'zbekiston milliy tarixining g'ururlantiruvchi sahifasi va zamonaviy davlatchilik merosining qadimiy ildizlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bartold V.V. Turkiston tarixi va uning sug'orish tarixi. — Toshkent: Fan, 2023. — 428 b.
2. Buryakov Yu.F. Axsikent — o'rta asr shahri: arxeologik tadqiqotlar. — Toshkent: O'zFA nashriyoti, 2021. — 210 b.
3. Juvayniy Alaaddin Ata Malik. Jahonkushoy tarixi. Fors tilidan tarjima: S. Mirzayev. — Toshkent: Sharq, 2024. — 480 b.
4. Ibn Havqal. Surat al-arz. Arab tilidan tarjima: A. Karimov. — Toshkent: Sharq, 2022. — 312 b.
5. Litvinskiy B.A. Kushon Baqtriyasi: tarix va madaniyat muammolari. — Moskva: Nauka, 1976. — 382 b.
6. Muqaddasiy. Ahsan at-taqasim fi ma'rifat al-aqalim. Tarjima: B. Ahmedov. — Toshkent: Fan, 2021. — 280 b.
7. Rashiduddin Fadlulloh. Jome' at-tavorix. Fors tilidan tarjima: O. Sharafiddinov. — Toshkent: Adabiyot va san'at, 2024. — 512 b.
8. Rtveladze E.V. Qadimgi va o'rta asrlarda Markaziy Osiyo sivilizatsiyalari va madaniyatlari. — Toshkent: Sharq, 2015. — 278 b.
9. Sima Sian (Sima Qian). Shiji (Tarixiy yozuvlar). Xitoy tilidan tarjima: L. Borovkova. — Moskva: Nauka, 2024. — 344 b.
10. Toshmatov N. Axsikent yodgorligida arxeologik tadqiqotlar (2008—2015). // O'zbekiston arxeologiyasi. — 2019 — №1. — 12—28 b.
11. Umarov S.U. O'rta Osiyo qadimgi davlatchiligi tarixi. — Toshkent: O'zbekiston, 2020. — 376 b.
12. Xo'jayev A. Farg'ona vodiysi tarixiga doir. — Toshkent: Fan, 2022. — 195 b.

АХСИКЕНТ ВА АХСИ ТАРИХИНИ ЎРГАНИШ, ТАДҚИҚ ЭТИШ, МУЗЕЙЛАШТИРИШ ВА ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРТ ХУСУСИДА

Ҳасанов Раҳмонали

(*Турон ФА академиги ва вице-президенти, Туронда хизмат кўрсатган тарихчи, тарих фанлари номзоди, профессор),*

ORCID: 0009-0007-6026-4031

E-mail: *raxmonali.xasanov@uztitu.uz |*

Тошкент иқтисодиёт ва технологиялар университетиі

ижтимоий фанлар кафедраси

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21057483

Аннотация *Мазкур мақолада Ахсикент ва ахси тарихини ўрганиш, тадқиқ этиш , музейлаштириш ва туризмни ривожлантириш истиқболларт хусусида олиб борилган тадқиқотлар, қадимий Ахсикент Буюк ипак йўлининг асосий шаҳарларидан бири бўлганлиги, унинг сарҳатларида антик даврдан бошлаб ҳунармандчиликнинг кулолчилик, шишасозлик ва қурол-яроғ ишлаб чиқаришга ихтисослашган темирчилик соҳалари тараққий этганганлиги, қазилма вақтида бу ердан сопол қувурлар, турли тасвирлар туширилган лаган, кўза, сиёҳдон каби кулолчилик буюмлари, хумлар, ҳар хил шиша идишлар, ҳунармандар нозик дид билан ясаган амалий санъат намуналари ҳамда олтин, кумуш тангалар, аёллар тақинчоқлари, рўзғор буюмлари топилганлиги,Ахсикент темирчи ҳунармандлари томонидан тайёрланган қиличлар ўрта аср Ғарбий Европа адабиётларида «Дамашқ қиличлари» номи билан тилга олинганлиги,тошга урса, уни кесадиган, эгилса ҳам синмайдиган ғайритабиий кучга эга бўлган қиличлар ҳақида, янги Ахсида тўпланаётган юзлаб топилмалар қаторига пўлат ханжар ҳамда «Оятал курси» битилган мис пиёла қўшилгани ҳақида,*

Аҳсикент ва унинг тарихи хақида Хитой ёзма манбалари, тарихчи олимларимиз, археологларимиз, давлат ва жамоат арбоблари , томонидан ёзиб қолдирилган манбалар хусусидаги фикрлар баён этилган.

Калит сўзлар. *“Ахсикент”.”Ахси”,.”Буюк ипак йўли”, Хитой ёзма манбалари кулолчилик, шишасозлик ,қурол-яроғ,«Дамашқ қиличлари», пўлат ханжар, «Оятал курси» битилган мис пиёла, Сайҳун дарёси, Умаршайх Мирзо, Заҳириддин Муҳаммад Бобур, Яҳё Ғуламов,Йўлчи Қосимов , А.Анарбоев*

Кириш.

Маълумки, Ахсикент ёдгорлигини ўрганилиши 1885 йилдан бошланган. Дастлаб, бу ерда Петербург университетининг профессори, таниқли археолог ва шарқшунос Н. Веселовский иш олиб борган. 1913 йилда И. Кастанье томонидан навбатдаги қазишма ва тадқиқ ишлари ўтказилган. 1939 йилда Катта Фарғона канали қурилиши даврида профессор М. Массон бу ерда археологик разведка ишлари билан шуғулланди. 1960 йилдан эса Ўзбекистон Фанлар академиясининг академиги Яҳё Ғуломов” [7:Б.47] бошчилигида мутахассислар Ахсикентда археологик қазишма ишларини амалга оширишди. Ҳозирги кунда эса,проф. Анорбаев раҳбарлигидаги мутахассислар фаолият юритмоқдалар

Тарихий манбаларда, хусусан, “Бобурнома”да бу кентнинг алоҳида аҳамияти ҳақида кўп ёзилган.

Қадимдан бу ерда ер ости сув иншооти бўлгани боис мудофаа учун қулай саналган. Кейинги йилларда Ўзбек давлатчилигининг шаклланишида муҳим манба хисобланган Ахсикент тарихини ўрганиш, тадқиқ этиш уни “Очиқ осмон остидаги музей” га айлантириш , қадимий Ахсикент ёдгорлигининг жаҳон тамаддунндаги тутган ўрни, ўзбек давлатчилигининг ривожидаги аҳамияти борасида бир қатор илмий тадқиқотлар олиб

борилди,диссертациялар ёқланди, илмий конференциялар ташкил этилди, археологик қазув ишлари амалга оширилди.

Адабиётлар таҳлили ва мавзунинг долзарблиги

Мазкур мақоламизда эса, бу борада матбуот ва даврий нашриётларда эълон қилинган манбаларни қиёсий таҳлил қилиш, шунингдек,ҳукуматимиз томонидан олиб борилаётга сайъ-ҳаракатлар, қонун ва қонун ости ҳужжатлари , Президент қарорлари ва фармонлари Ўзбекистон Республикаси Президенти асарлари [1,2,3], музейшуносликка оид адабиётларни ўрганиш ва уни амалиётга тадбиқ этиш масалаларига урғу берилди.

Буни биз куйидаги олимларнинг илмий ишлари ва асарларида ҳам баён этилганлигидан билишимиз мумкин. Жумладан, А.Анарбаевнинг “Ахсикент - столица древней Ферганы,А.Анорбоев, У. Исломов, Б. Матбобоевларнинг . Ўзбекистон тарихида қадимги Фарғона], Йўлчи Қосимовнинг”Қадимги Ахсикент тарихи, Муҳаммад Гажим ал- Баҳроннинг *“Жаҳоннома”*, Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг “БобурномаИсҳоқхон Ибратнинг “ Тарихи Фарғона” ,М. Мирсайдуллаевнинг “Икки буюк Ахсикатийлар”, “Ахсикентлик буюк алломалар”, ”Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг буюк мероси”, асарларида, шунингдек, Хитой саёҳи Чжан Цяннинг “Кундаликлари”, Н.И.Веселовский, И.А.Кастанье, А.Н. Бернштам, М.Е.Массон, Яҳё Ғуломов, Инқилоб Аҳраров,Пиримқул Қодиров, Раҳмонали Ҳасанов, Рустам Умматов, Ҳамиджон Ҳомидий, И.Юсупов, Э.Мирзаалиев, Т.Қозоқов, Ж.Аҳмедов ва бошқа ўнлаб тарихчи олимлар ҳамда ёзувчи адибларнинг асарлари ва мақолаларида Ахсикент тарихига оид кўплаб маълумотлар келтирилган [9].

Мақсад ва вазифалар

Дарҳақиқат ҳозирги ёшларимизни қизиқтириб келаётган долзарб масалалардан бири Ўрта Осиё ҳудудида ташкил топган дастлабки қўрғонлар, шаҳарлар, илк давлатлар, бу заминда яшаган халқларнинг турмуш тарзи

қандай бўлганлиги, бу ерда туғилиб вояга етган аждодларимиз жаҳон таммадунига қандай ҳисса қўшган деган саволлар жавобини билишга муштоқлигидир.... Шу боис, Ўрта Осиё ҳудудида илк давлатчиликни юзага келишида муҳим ўрин тутган, бугунги кунда ЮНЕСКО томонидан бутунжаҳон маданий мероси объекти ҳисобланган қадимий Ахсикент ёдгорлиги ҳамда уни музейлаштириш борасида олиб борилаётган сайъ ҳаракатлар хусусида илмий изланишларни тадқиқ қилишни ўз олдимизга мақсад қилиб қўйдик

Мунозара

Милоддан аввалги II-I асрларга оид Хитой ёзма манбалари ва милодий VIII-IX асрларига доир араб манбаларида Фарғона сўзи водийнинг номидан ташқари, унинг бош пойтахтига ҳам тегишли эканлигини кўриш мумкин. Масалан, хитой тилида Фарғона шаҳри номини «Юань», водий номини «Дай Юань», деб таржима қилинган, яъни Хитой тарихчиси водийни, шаҳардан фарқлаш учун, уни «Катта Фарғона», деб ёзган. Бизга маълумки, Фарғона сўзи атрофи девор билан ўралган жой ёки атрофи ўралган воҳа, деган маънони билдиради. Бу ерда Хитой тарихчиси шаҳар номига битта иероглиф (Юань), водий номига иккита иероглиф (Дай Юань) ишлатган.

Кейинги йилларда олиб борилган археологик тадқиқотлар, Фарғона водийси ёки Хитой манбаларида тилга олинган Фарғона давлатининг бош пойтахти Фарғона шаҳри ҳозирги Наманган вилояти Тўрақўрғон туманида, Сирдарёнинг ўнг қирғоғи бўйлаб жойлашган Ахсикент ёдгорлиги ўрнида бўлган, деган илмий хулосага олиб келди. Маълум бўлишича, милоддан аввалги II асрнинг охирларида хитойликларнинг Фарғонага қилган ҳарбий юришлари вақтида Ахсикент ўрнидаги шаҳар ўзининг арки, шаҳристони ва работига эга бўлиб, 50 гектардан зиёд майдонни эгаллаган. Шаҳар мустаҳкам мудофаа деворлар билан ўраб олинган.

Археологик тадқиқотларга қараганда, X-XII асрнинг бошларида Ахсикент металлург-темирчи усталари тоза пўлат (фулад) ишлаб чиқариш технологияси сирларини билишган. Тоза пўлат олиш учун биринчи навбатда, бойитилган (тозаланган) темир хом ашёси зарур бўлган. БуниАхсикент усталари Ғовасой-Поп ваУструшонадагиМарсманда тоғ-кон саноати металлургларидан олишган. Бойитилган (тозаланган) темир маҳсулоти Ахсикет металлург-темирчи усталари қўлига тушгач, ундан улар биринчи навбатда махсус технология ёрдамида пўлат олишган. Сўнг машҳур Фарғона қиличларини ясашган.

Манбаларда қайд этилишича, Қадимий Ахсикент шаҳрида ҳам антик даврдан бошлаб ҳунармандчиликнинг кулолчилик, шишасозлик ва қурол-яроғ ишлаб чиқаришга ихтисослашган темирчилик соҳалари тараққий этган. Ахсикент темирчи ҳунармандлари томонидан тайёрланган қиличлар ўрта аср Ғарбий Европа адабиётларида «Дамашқ қиличлари» номи билан тилга олинган. Тошга урса, уни кесадиган, эгилса ҳам синмайдиган ғайритабиий кучга эга бўлган қиличлар ҳақида ҳар хил ривоятлар тўқилган. Аслида ушбу қиличлар тарихи Фарғонанинг бош пойтахти Ахсикент (Фарғона) тарихи билан бевосита боғлиқ

Ёзма манбаларга мурожаат қилсак, уларда (Истаҳрий, Ибн Ҳавқал) Уструшонадан қазиб олинган темирдан фарғоналик ҳунармандлар инсон ақли бовар қилмайдиган буюмлар тайёрлашган ва Фарғонадан Буюк Ипак йўли орқали қуроллар ҳам экспорт қилинган, деган умумий гаплар мавжуд.[11]

Пўлатдан қурол тайёрлаш устадан катта маҳорат талаб қилган. Қиличга ишлов бериш жараёнида, унинг юзида ҳар хил нақшлар пайдо бўлган. Бунга ўхшаш қиличлар ўта кескир бўлиши билан бирга, мўъжизавий санъат асари ҳам ҳисобланиб, дунё бозорида юқори баҳоланган. Шунинг учун ҳам унинг сопи ва ғилофига алоҳида ишлов берилиб, қимматбаҳо тошлар билан

безатилган. Бундай қиличнинг нархи жуда юқори бўлиб, унга эга бўлиш фақат подшо аскарлари ва бой- бадавлат одамларгагина насиб қилган... Ахсикент ёдгорлигида олиб борилган археологик қазишмалар ушбу муаммога аниқлик киритибгина қолмай, балки Фарғонанинг бош пойтахт ҳақида ҳам буюк кашфиётларга олиб келди. Шунинг учун Фарғона қиличлари тарихига изоҳ беришдан аввал, ушбу қуроллар тайёрланган шаҳар ҳақида, унинг касабалари, қўрғонлари, зарбхоналари,ободончилик учун олиб борилган сайъи ҳаракатлар, боғдорсилик ва полиз экинларининг машҳурлиги, ҳунармандчиликнинг ўта ривожланганлиги хусусидаам тўхталиб ўтишни лозим топдик..

Дарҳақиқат,қадимий давлатлардан бири Фарғона (Даван) давлати ҳақида гувоҳлик берадиган Ахсикент ёдгорлиги Наманган вилояти Тўрақўрғон туманидаги Шаҳанд қишлоғи ҳудудида, Сирдарёнинг ўнг соҳилида жойлашган. Ахсикент эрамиздан аввалги III асрда ташкил топган бўлиб, қадимги Фарғона давлатининг пойтахти, Буюк ипак йўлининг асосий шаҳарларидан бири бўлган.

Тарихий манбаларда, хусусан, “Бобурнома”да бу кентнинг алоҳида аҳамияти ҳақида кўп ёзилган. Қадимдан бу ерда ер ости сув иншооти бўлгани боис мудофаа учун қулай саналган.

Шаҳар Арк, ички ва ташқи шаҳардан иборат бўлган. Бу ерда ўз даврида шишасозлик, кулолчилик, темирчилик, қуролсозлик каби ҳунармандлик турлари ривожланган. 1219 йилда мўғуллар томонидан шаҳар бутунлай вайрон қилинган.(*тадқиқотчи Тохирдон Қозқов Ахсикентни Чингизлар эмас, аксинча Хоразмшоҳ аскарлари томонидан вайрон қилинган деган фаразни исботлашга ҳаракат қилган бўлса, археолог проф. Анарбаев археологик ашёларга суянган холда Чингизхон бутунлай вайрон килганлигини ва буни кплаб йирик тарихчи олимлар исботлаганлини қайд этади Р.Ҳ.)* Қасрнинг эски ўрнидан 5-7 километр ғарбда бунёд этилган янги

шаҳар Ахси XIV-XVII асрларга оиддир. 1620 йилларга келиб зилзила оқибатида улкан шаҳар вайрон бўлган.

Бугунги кунда харобаларнинг 60 гектарга яқин қисми сақланиб қолган бўлиб, Фарғона водийсидаги энг катта археологик ёдгорликдир. Археологлар томонидан темирчилар устахонаси, X-XIII асрларга оид ҳаммом қолдиқлари, аскарлар хоналари, жомеъ масжиди, мудофаа деворлари, ер ости ирригация тармоқлари, ҳунармандлар маҳалласи, ҳукмдор қароргоҳи – Арк қазиб ўрганилган.

Кўплаб тарихий манбалар ва олиб борилган тадқиқотлар асосида Ахсикат харобаларидан ғарброқда ўрта асрларга оид яна бир шаҳар харобалари борлиги аниқланган. Академик Я.Ғуломов ва археолог И.Аҳроров мазкур тадқиқотлар асосида бу ерда турли даврларга оид иккита шаҳар бўлганини, улардан бири қадимги Ахсикат ва иккинчиси Бобур туғилган Ахси эканини биринчи бўлиб исботлади.

Унинг харобалари маҳаллий халқ орасида Янги Ахси топоними билан аталиб, ҳозирда унинг озроқ қисми Якка йигит қишлоғи тагида сақланган.

Ахси осори-атиқалари | Темурийзода Умаршайх Мирзо пойтахт қилган Ахси шаҳри ўрнидан топилаётган тарихий ашёлар, ноёб артефактлар музей фондини беш мингдан ортиб кетишига замин яратди. Бу эса янги кенг ва маҳобатли музей барпо этиш талабини ўртага қўйди[10] O’zbekiston tarixi телеканалининг «Кўҳна манзиллар» кўрсатувида ноёб топилмалар ҳақида батафсил маълумот берилган [12]. Яна бир манба**:** Заҳириддин Муҳаммад Бобур Ахсикент ҳақида ўзининг «Бобурнома» асарининг 1494 йилги воқеалар бобида алоҳида тўхталган. «Сайҳун сувининг шимолий тарафидаги шаҳарлардан бири Ахсидир. Китобларда Ахсикат деб ёзадилар. Чунончи, Асириддин шоирни Асириддини Ахсикатий дейдилар. Фарғонада Андижондан кейин бундан йирикроқ шаҳар йўқ.

Ахси Андижондан ғарб сари тўққиз йиғочлик йўлда. Умаршайх мирзо буни пойтахт қилган эди. Сайҳун дарёси қўрғонининг пастидан оқади. Қўрғони баланд жар устида жойлашган. Хандақ ўрнида чуқур жарлар бор. Буни пойтахт қилган Умаршайх мирзо бир-икки маротаба ташқарироқдан яна жарлар қаздирди. Фарғонада бунчалик мустаҳкам қўрғон йўқ. Маҳаллалари қўрғондан бир шаръий йироқроқда жойлашган. «Қишлоқ қаердаю, дарахтлар қаерда?" мақолини афтидан Ахси учун айтганлар. Қовуни яхши бўлади. Бир нав қовунини „миртемурий" дейдилар, бундай қовуннинг бошқа жойда ҳам борлиги маълум эмас. Бухоро қовуни машҳурдир. Самарқандни олган пайтимда Ахсидан, Бухородан қовун келтириб, бир ўтиришда сўйдирдим. Ахси қовунининг ҳеч мисли йўқ эди. Овланадиган қушлари беҳад яхши бўлади. Сайҳун дарёсининг Ахси тарафи даштдан иборат. Оқ кийиги кўп бўлади. Андижон тарафи тўқай; буғу-марал, қир-ғовул ва ёввойи қуён кўп. Аксари жуда семиз бўлади», деб ёзган буюк саркарда.[13]

Ахси ва унга ёндош ҳудудлардаги олиб борилган қазишмалар натижасида кўплаб ноёб топилмалар қўлга киритилди.

Қадимий Ахсикентдаги работда турон ҳунармандчилик устахоналари, бозор, ҳаммом ва бошқа маиший бинолар бўлган. Қазилма вақтида бу ердан сопол қувурлар, турли тасвирлар туширилган лаган, кўза, сиёҳдон каби кулолчилик буюмлари, хумлар, ҳар хил шиша идишлар, ҳунармандар нозик дид билан ясаган амалий санъат намуналари ҳамда олтин, кумуш тангалар, аёллар тақинчоқлари, рўзғор буюмлари топилди.

XV-XVI асрларга мансуб мисдан зарб этилган чақа пуллар ҳазинаси топилиб, ўрганилмоқда. Ушбу шаҳардаги сувоқава иншоати мутахассислар диққатини ўзига тортади. Пишган ғишт ва лойдан махсус сув қувурлар ясалиб, шаҳар сув билан таъминланган кулолчилик буюмлари, хумлар, ҳар хил шиша идишлар, ҳунармандар нозик дид билан ясаган амалий санъат намуналари ҳамда олтин, кумуш тангалар, аёллар тақинчоқлари, рўзғор

буюмлари топилди.

Демак, Ахсикент шаҳри обод ҳамда ҳунарманчилик тармоғи ривожланган шаҳар бўлган. Туркиядик сайёҳ ва олим Ёқут Ҳаммавий фикрича :“Фарғона - кенг ер, унга қарашли шаҳар, қишлоқлар ҳам катта, унинг улкан шаҳри Ахсикентдир”,... “Шаҳарга олимлар, фозиллар, илм-фаннинг порлоқ юлдуздари, қўли гул ажойиб бинокорлари, хуллас, етмиш хил ҳунарнинг соҳибкор кишилари тўпланган” [5. – Б.151]

Қорахонийлар даврида пойтахт Ўзганга кўчган бўлса ҳам, Ахсикент ўзинигнг иқтисодий ва маданий марказ сифатида мавқеини сақлаб қолган.

Буюк Ипак йўли тармоғининг Фарғона водийсидан ўтиши, албатта, ушбу заминнинг ижтимоий-иқтисодий, маънавий-маърифий ҳаётига ўзининг ижобий таъсирини кўрсатган.

Табиий шароитнинг қулайлиги ҳамда Фарғона водийси орқали ўтган Буюк Ипак йўлининг шимолий тармоғини Ахсикент орқали ўтиши XI-XIII аср бошларида уни Абдулкарим ас-Саъмоний сўзи билан айтганда, ***“энг буюк шаҳарлардан бирига”*** айланишига олиб келнанлиги,бу ердан кўплаб олиму-фозиллар етишиб чиққанлиги VIII – IX асрларда Фарғона воҳасида яшаган 33 олим ва машойих ҳақида ўзининг **“Ал - Ансаб**”[4;8.-Б.11] асарида маълумот келтиради. Улар ўз билимлари билан нафақат Фарғона водийсида, бутун Мовароуннаҳрда, айримлари эса бутун Шарқ дунёсига Фарғоний ва Ахсикантий тахаллуси билан ном таратганлар.

Бизнингча, Фарғона водийсининг Ахсиенгт ва бошқа шаҳарларидан етишиб чиққан *алломалар ва уларнинг илмий мероси ҳақидаги маълумотларни турли* манбалардан, қўлёзма асарлардан излаб, тадқиқ этиш ҳамда улрни жамлаб музей фондига киритиш зарур.

Буларнинг барчаси Ахсикент музейида ўз ўрнини топиши . археологик қазилма жараёнида топилган ашёлар, хорижий давлатларда сақланаётган асори-атиқалар нусҳаси, Ахсикентлик алломаларнинг рамзий сиймолари акс

этган тасвирлар, уларнинг илмий меросидан намуналар ўрин олиши мақсадга мувофиқдир

Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг 2019 йилги Наманган ташрифлари давомида Ахсикентнинг ҳаққоний тарихини ўрганиш, мазкур ҳудудни туризм маконига айлантириш юзасидан кенг кўламли ишлар амалга оширилмоқда.

Шуни алоҳида қайд этиш жоизки, олимлар, тадқиқотчила, юзлаб саёҳларнинг фикрларигап кўра,, “Ахсикент” - шонли тарих ва буюк келажак туташган маскандир...

Натижа

- «Ахсикент» - дунё археологиясида ноёб ҳодиса. Бугун умумий ҳудуди 200 гектарни ташкил этувчи маданий мерос объекти қазишма ва бунёдкорликнинг қайноқ нуқтасига айланган - дейди «Ахсикент» комплекс экспедицияси раҳбари, ЎзРФА Миллий археология маркази бўлим бошлиғи, профессор Абдулҳамид Анорбоев.

Биласиз, бу ёдгорликда ўтган асрнинг иккинчи ярмида қазишма ишларига киришилиб, дунёга машҳур «Дамашқ қиличи» топилган, орадан бироз ўтиб «Ахсикент»га Косонсойдан салкам 20 километр узунликда ичимлик суви тортиб келтирилган сопол қувурлар қолдиқлари билан археологларни ўзига тортган. Бу ердан топилган нодир қўлёзмалар ва бошқа осори-атиқалар учун алоҳида музей ҳам ташкил этилди.

Ҳозирда «Янги Ахси» мажмуасида осори-атиқалар музейи, нодир қўлёзмалар маркази фаолият кўрсатмоқда. Бу манзилда 10 мингдан ортиқ нодир артефактлар ҳамда 4 мингдан ортиқ ноёб қўлёзмалар мавжуд.

Аслида Фарғона водийсидаги қадимий бу шаҳарнинг тупроқ остида қолиб, ёдгорликка айланиши тарихи ҳақида бир қанча тахминлар мавжуд. Улардан энг яқинлари кучли зилзила ёки метеорит қулаши сифатида келтирилади. Лекин, нима бўлганда ҳам, ўтмишда унинг ҳар томонлама

гуллаб-яшнаган марказий шаҳарлардан бўлгани айни ҳақиқат. Шу боис уни ўрганиш ишлари Янги Ўзбекистон пойдевори қўйилаётган бугунги даврда жуда муҳим аҳамият касб этмоқда.

Янги Ахсида тўпланаётган юзлаб топилмалар, қаторига пўлат ханжар ҳамда «Оятал курси» битилган мис пиёла қўшилгани ҳақида хабар , Республикамизда катта бир кашфиёт амалга оширилганлигидан далолат берди... Навбатдаги топилма ноёб Дамашқ қиличи Ахси осори-атиқалар музейига 510-экспонат сифатида рўйхатга киритилди. .[11]

Таъкидлаш керакки, Ахсикентда тайёрланган, пўлатдан ясалган қиличлар, Жаҳон бозорида **“Дамашқ пўлат қиличи”** номи билан машҳур бўлиб, Ғарбда Дамашқ, Шарқда Хитой бозорларида энг қиммат нархда сотилган. Мазкур қилич нусҳалари ҳозирги кунда АҚШ. Нюь-Йорк шаҳридаги Метрополитен музейида сақланмоқда.[6.- Б.14-15] .

Ўрта Осиёда биринчи кумушдан ясалган тангалар милоддан аввалги III асрда чиқарилган. Унинг юза қисми − аверсига подшонинг сурати, орқа томони − реверсига эса ҳар хил худолар, муқаддас ҳайвонлар тасвири солинган ёки подшоларнинг номи ёзилиб, тамғаси туширилган

Вилоят ҳокимлиги ахборот хизматига кўра,[14] ушбу топилмалар 1200−1500 йиллик тарихга эга ва яхши сақланган. Улар ичида 475−600 йилларга мансуб Бақтрия кумуш тангалари мавжудлиги жамоатчиликда қизиқиш уйғотган.

IX асрга оиддиги айтилаётган Қорахонийлар ҳукмронлиги давридаги кумуш тангалар ҳам араб ҳам араб ёзувидаги бежирим хатга эга. Яна бир танга мутахассислар эътиборини тортган. Унинг аверсида араб ёзуви, реверсида хитой иероглифлари мавжуд.

Айни пайтда олимлар тангаларнинг тасвирлари, ёзувлари, рғирлиги, қандай металдан ясалгани, пул муомаласидаги даражаси ва танга зарб қтлиниш тарихини ўрганмоқда

Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, Америкалик машҳур адиб Сьюзан Уэлч Наманганга ташриф буюриши ҳам Ахси ва Ахсикентнинг дуёда машҳур бўлаётган сарҳатларидан бири эканлигидан далолат беради. Ўзининг замонавий, тарихий мавзудаги романлари билан ном қозонган, бир неча адабий мукофотлар соҳибаси Сьюзан Уэльч ва Брюс Женсенлар бир кунлик сафар давомида қадимий Ахсикент ёдгорлиги, Янги Ахси мажмуаси ва гулллар шаҳрида бўлдилар.

«Ахсикент буюк тамаддун ўчоғи. Ипак йўлининг энг буюк шаҳарларидан бири экан. Биз Наманганга айнан Ахсикентни кўриш учун келдик. Бу ерда 2500 минг йиллик тарихдан сўзловчи қазишма ишларига гувоҳ бўлдик. Янги Ахсидаги улкан мажмуа ва осори-атиқалар музейи бизга жуда ёқди. Ҳар икки манзилда олиб борилаётган улкан бунёдкорлик ишлари ҳақида батафсил маълумот олдик. Бу заминнинн буюк тарихи, шоҳ ва шоир Бобур билан алоқадор ҳар бир воқеаси ҳайратлантирди. Меҳмондўст мезбонлардан бағоят миннатдормиз», - дейди Сьюзан Уэлч.[14].

Мазкур ёдгорлик Наманган вилоятининг сайёҳлик салоҳиятини оширишда муҳим аҳамиятга эга. Юртимиз ва хориждаги сайёҳлик кўргазмаларида қадимий Ахсикент ҳақида ҳам тақдимотлар ўтказилмоқда. Бунинг самарасида маҳаллий ва хорижий сайёҳлар ўртасида тарихий ёдгорликка қизиқиш ортмоқда. Ҳозирга қадар Бельгия, Австрия, Япония, Жанубий Корея, Россия, Эрон, Покистон, Ҳиндистон каби давлатлардан сайёҳлар ташриф буюрган. Қадамжони тадқиқ этиш, унинг жозибадорлигини ва сайёҳлар оқимини ошириш мақсадида махсус концепция ишлаб чиқилган. Айни кунда шу асосда Фарғона водийсида ички туризмни ривожлантириш чоралари кўрилмоқда.[13]

Хулоса қилиб айтганда, Ахсикент қадимий ёдгорлигини ўрганиш, халқимиз меросини асраб-авайлаш фақат давлат ташкилотларининг иши эмас. Бу бутун халқ - сизу бизнинг ишимиздир. Ҳар биримиз маърифатли,

хуш ахлоқли, гўзалликни тушунадиган, она заминимиз тарихини англаб етадиган, боболаримиз яратган маънавий мулкни қадрлай оладиган инсон бўлишимиз даркор.

Таклиф ва тавсиялар

Ҳурматли Президентимизнинг 2023 йилдаги Наманганга ташрифи ушбу объектга иккинчи ҳаёт бағишлади, десак муболаҳа эмас. Давлатимиз раҳбарининг таклифига асосан:

*«Ахсикент»археология паркини ташкил этиш, унинг 3000 йиллик юбилейини ўтказиш ҳамда Юнесконинг маданий мерос объектлари рўйҳатига киритишни кўзда тутувчи қарор лойиҳаси ишлаб чиқилиб, Вазирлар Маҳкамасига тақдим этилди.

* Шу асосда маданий мерос буфер ҳудуди яқинида амфитеатр, Археология музейи ҳамда бошқа инфратузилма объектлари қуриш лойиҳаси маъқулланди.

* Энг асосийси, 2026 йилги «Шарқ тароналари»халқаро мусиқа фестивали «Ахсикент»нинг айнан шу қисмида ўтказилиши режалаштирилмоқда.

* Янги қурилишлар натижасида «Ҳунармандлар маркази», кутубхона барпо этилади.

* Айни пайтда тўртта очиқ осмон ости музейлари қурилиши ишлари жадал давом этмоқда.

* Жорий йилда археопаркка ёндош ҳудудда амфитеатр ва қўшимча туризм инфратузилма объектларининг қурилиш ишлари бошланади.

* Турк меъморчилик ширкати Evra-GEKA лойиҳаси асосида барпо этилаётган «Ахсикент»археология парки «Очиқ осмон музейи»нинг қурилиши якуний паллада. Навбатда - яна уч объект, уларда ҳам иш жадаллашади.

* Кейинги йиллардаги тарғибот, амалга оширилган ишлар натижасида айни вақтда «Ахсикент»га бир кунда 80-100 нафар сайёҳ ташриф буюрмоқда.

* Кўзда тутилган қурилишлар якунида бу манзилга бир кунлик сайёҳ ташрифи 20 баробарга ортиб, 1600-2000 нафарга етади. Бу орқали бир йилда 600 000 - 800 000 сайёҳ ташрифига эришилади.

* Шу ўринда яна бир эътиборли жиҳатга тўхталиб ўтиш жоиз. Тарихий мажмуанинг шундоққина ёнидан азим Сирдарё дарёси оқиб ўтади. Дарёнинг ўнг қирғоғида экотуристик ва гастрономик туризм инфратузилмаси барпо этишга киришилди.

* Сирдарё соҳилида бошланган йирик экотуристик лойиҳа «Ахсикент» археология парки мажмуининг кумуш белбоғи бўлади.

*Дарёнинг ҳар икки тарафида пиёдалар йўлакчалари, гастрономик ва хизмат кўрсатиш нуқталари, ҳунармандчилик ва савдо шохобчалари бутун бир янги туризм кластерини юзага келтиради.

* Бу йўл орқали «Ахсикент» ва «Янги Ахси» мажмуаларини бир-бири билан боғланади.

* Ҳозирда “Ахсикент соҳили” МЧЖ томонидан 7 гектар майдонда лойиҳа қиймати 5 млрд. сўм бўлган бир кунда 2000 кишини қабул қила оладиган гастрономик манзил, 3 километр масофада пиёдалар йўлаги ва бошқа инфратузилма барпо этилмоқда.

*Шу билан бирга, «Ахсикент»га олиб борувчи Тўрақўрғоннинг «Хўжанд» қишлоғидан «Гулқишлоқ»қа қадар йўлнинг 7 километри инвестиция дастури асосида реконструкция қилинмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O`zbekiston, 2017-439 b.

2. Мирзиёев Ш. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз.-Тошкент: Ўзбекистон, 2017.-71-75 бетлар.

3. Мирзиёев Ш. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир.– Т.: Ўзбекистон, 2018. - 507 б.

4. Абу Саъд Абдулкарим ибн Муҳаммад ас- Самъоний, Китоб ал-Ансаб. 5 жилд. Ҳайдароблод, 1963

5. Абдулаҳатов Н., Ғозиев Т. Бурхониддин Марғилоний. – Тошкент: Янги авлод. 2010 – Б.151.

6. Анорбоев А. Дарё соҳилидаги пойтахт. //Фан ва турмуш, 1988 - №8. – Б.14-15.

7. Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: «O’qituvchi” . 2008. Б.-31

8 Мирмаҳмуд Мирсайдуллаев. Ахсикентлик буюк алломалар. – Тошкент: “Наврўз”, 2019 – 92б.

9 Хасанов Р.Ахсикент – ўзбек давлатчилигининг шаклланишида муҳим манба / *Қаранг*. “Yangi O’zbekistonda ilm-fan va ta’lim” илмий журнали 2021й. № 3сони

10. https://openbudget.uz/boards/initiatives/initiative/31/3a9826e4-575d-49c2-b3fb-20018fcd9aa8.

11. https://yuz.uz/news/axsikent-qilichbozligi-tarixi-uzoq-tarixga-borib-taqaladi

12. https://oyina.uz/kiril/posts/17640

13. /https://muslim.uz/oz/e/post/14186-axsi-sayyidlari-majmuasi-haqida-bilasizmi?

14. Медиа Департамент/ Sayt (http://namangan.uz/) | Telegram (https:/t.me/namvilhok) | Instagram(https://www .instagram.com/ namangan. gov.uz/) | Facebook

AXSIKENT TARIXIY MEROSI: TURIZM SALOHIYATI, TA’LIMIY AHAMIYATI VA TARG‘IBOT MASALALARI

Ahmadjonov Ibrohimjon Ilxom o‘g‘li

Hidoya o‘rta maxsus islom ta’lim muassasasi o‘qituvchisi

E-mail:madrasalik1995@gmail.com

Tel: + 907977221.

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21057919

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Axsikent tarixiy yodgorligining O‘zbekiston madaniy merosidagi o‘rni, uning turizm sohasini rivojlantirishdagi ahamiyati, ta’lim jarayonlarida tarixiy manba sifatida foydalanish imkoniyatlari hamda keng jamoatchilik orasida targ‘ib qilish masalalari yoritilgan. Shuningdek, Axsikentning tarixiy va madaniy salohiyatidan samarali foydalanish bo‘yicha takliflar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Axsikent, tarixiy meros, turizm, ta’lim, targ‘ibot, madaniy meros, Namangan viloyati, arxeologiya.*

Аннотация*: В данной статье рассматривается роль исторического памятника Ахсикент в культурном наследии Узбекистана, его значение в развитии туризма, возможности использования в образовательном процессе в качестве исторического источника, а также вопросы его популяризации среди широкой общественности. Кроме того, представлены предложения по эффективному использованию исторического и культурного потенциала Ахсикента.*

Ключевые слова: *Ахсикент, историческое наследие, туризм, образование, пропаганда, культурное наследие, Наманганская область, археология.*

Abstract*: This article examines the role of the historical monument Axsikent in the cultural heritage of Uzbekistan, its significance in the development of*

tourism, the possibilities of its use in the educational process as a historical source, and issues related to its promotion among the general public. The article also presents recommendations for the effective utilization of Axsikent’s historical and cultural potential.

Keywords: *Axsikent, historical heritage, tourism, education, promotion, cultural heritage, Namangan region, archaeology.*

Kirish. O‘zbekiston hududi qadimdan Sharq va G‘arb sivilizatsiyalarini bog‘lab turgan muhim hududlardan biri sifatida tarix sahifalarida alohida o‘rin egallaydi. Mamlakatimiz zaminida yuzlab qadimiy shaharlar, qal’alar va arxeologik yodgorliklar mavjud bo‘lib, ular xalqimizning boy madaniy merosi va davlatchilik tarixini o‘zida mujassam etadi. Ushbu tarixiy maskanlar nafaqat o‘tmish haqida qimmatli ma’lumotlar beradi, balki milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani saqlash va yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ana shunday noyob tarixiy yodgorliklardan biri Axsikent hisoblanadi. Axsikent qadimda Farg‘ona vodiysining eng yirik siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri bo‘lib, Buyuk Ipak yo‘li tarmoqlari orqali boshqa hududlar bilan uzviy aloqada bo‘lgan. Tarixiy manbalarga ko‘ra, ushbu shahar o‘z davrida hunarmandchilik, savdo-sotiq, ilm-fan va madaniyat rivojlangan markazlardan biri sifatida tanilgan. Axsikentda yashagan aholi yuqori darajadagi me’morchilik, metallga ishlov berish va boshqa hunarmandchilik turlari bilan shug‘ullanganligi arxeologik topilmalar orqali tasdiqlanadi.

Bugungi kunda Axsikent yodgorligi nafaqat tarixchilar va arxeologlar uchun muhim ilmiy tadqiqot obyekti, balki mamlakatimiz turizm salohiyatini oshirishda katta ahamiyatga ega bo‘lgan maskanlardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda tarixiy-madaniy merosni asrash, restavratsiya qilish va dunyo miqyosida targ‘ib etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu jarayonda Axsikent yodgorligining tarixiy ahamiyatini keng jamoatchilikka yetkazish, uning turistik

imkoniyatlarini rivojlantirish va yoshlar orasida ommalashtirish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.[72]

Axsikent merosi nafaqat moddiy madaniyat namunasi, balki xalqimizning ko‘p asrlik davlatchilik an’analari, urf-odatlari va ma’naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim tarixiy manbadir. Ushbu merosni chuqur o‘rganish va targ‘ib qilish orqali yosh avlodda tarixga hurmat, milliy g‘urur va Vatanga muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish mumkin. Shuningdek, tarixiy obidalar asosida tashkil etiladigan sayohatlar, ekskursiyalar va ma’rifiy tadbirlar turizm rivojiga xizmat qilish bilan birga, ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini ham oshiradi.

Mazkur maqolada Axsikentning tarixiy ahamiyati, uning turizm sohasidagi o‘rni, ta’lim jarayonidagi imkoniyatlari hamda tarixiy-madaniy merosni keng targ‘ib etish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, Axsikent yodgorligidan samarali foydalanish orqali milliy merosni asrash va kelajak avlodlarga yetkazishning dolzarb jihatlari yoritib beriladi.

Axsikentning tarixiy ahamiyati. Axsikent qadimiy Farg‘ona vodiysining eng yirik va nufuzli shaharlaridan biri bo‘lib, o‘z davrida siyosiy, iqtisodiy, madaniy hamda hunarmandchilik markazi sifatida katta ahamiyat kasb etgan. Mazkur tarixiy shahar hozirgi Namangan viloyatining To‘raqo‘rg‘on tumani hududida joylashgan bo‘lib, O‘zbekistonning eng muhim arxeologik yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Tarixiy manbalarda Axsikent IX–XIII asrlarda Farg‘ona vodiysining poytaxti sifatida tilga olinadi. O‘rta asr sharq olimlari va geograflari tomonidan qoldirilgan ma’lumotlar ushbu shaharning o‘z davrida yirik siyosiy va iqtisodiy markaz bo‘lganligini tasdiqlaydi. Arab geograflari Al-Istaxriy, Ibn Havqal va Al-Muqaddasiy o‘z asarlarida Axsikentni Farg‘ona vodiysining eng rivojlangan va obod shaharlaridan biri sifatida tavsiflaganlar. Ularning yozishicha, shaharda savdo-sotiq rivojlangan, hunarmandchilikning turli tarmoqlari taraqqiy etgan va aholi zich joylashgan. Shaharning Buyuk Ipak yo‘lining muhim

[72] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

tarmoqlaridan birida joylashgani uning iqtisodiy taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Bu yer orqali Sharq va G‘arb mamlakatlarini bog‘lovchi savdo karvonlari o‘tgan, natijada Axsikent xalqaro savdo munosabatlarining muhim bo‘g‘iniga aylangan. Savdo aloqalarining rivojlanishi shaharda turli madaniyatlar va sivilizatsiyalarning o‘zaro ta’sirini kuchaytirib, uning madaniy hayotini yanada boyitgan. Axsikentning iqtisodiy qudrati, avvalo, hunarmandchilik va ishlab chiqarishning yuksak darajada rivojlanganligi bilan bog‘liq bo‘lgan. Arxeologik qazishmalar davomida shahardan metallurgiya ustaxonalari, kulolchilik markazlari, temirchilik ustaxonalari hamda boshqa ishlab chiqarish obyektlarining qoldiqlari topilgan. Ayniqsa, metallga ishlov berish va yuqori sifatli po‘lat ishlab chiqarish bilan bog‘liq topilmalar Axsikentning Markaziy Osiyodagi yirik metallurgiya markazlaridan biri bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, bu yerda tayyorlangan po‘lat qurol-aslahalar, mehnat qurollari va maishiy buyumlar nafaqat Farg‘ona vodiysida, balki qo‘shni hududlarda ham keng tarqalgan. Bu esa shaharning iqtisodiy salohiyati yuqori bo‘lganligini va xalqaro savdo tizimida muhim o‘rin tutganligini anglatadi.

Arxeologik tadqiqotlar Axsikentning shaharsozlik madaniyati ham yuqori darajada rivojlanganligini ko‘rsatadi. Qazishmalar davomida saroy majmualari, turar joylar, mudofaa devorlari, minoralar, hammomlar, ko‘chalar va sug‘orish inshootlarining qoldiqlari aniqlangan. Bu topilmalar shaharda rivojlangan infratuzilma mavjud bo‘lganligini va aholining turmush darajasi yuqori bo‘lganligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, suv ta’minoti va sug‘orish tizimlarining mukammalligi Axsikent aholisining muhandislik va qurilish sohasida katta tajribaga ega bo‘lganidan dalolat beradi. Shaharning geografik jihatdan qulay hududda joylashganligi uning siyosiy va harbiy ahamiyatini yanada oshirgan. Axsikent uzoq yillar davomida Farg‘ona vodiysining siyosiy markazi vazifasini bajargan.

Mustahkam mudofaa devorlari, qo‘rg‘onlar va kuzatuv minoralari shaharning xavfsizligini ta’minlashda muhim rol o‘ynagan. Ushbu inshootlar shaharni tashqi hujumlardan himoya qilish bilan birga, uning siyosiy mavqeini ham mustahkamlagan. O‘rta asrlarda Axsikent hukmdorlar va harbiy qo‘mondonlar faoliyat yuritgan markazlardan biri bo‘lib xizmat qilgan.

XIII asr boshlarida mo‘g‘ullar istilosi oqibatida Axsikent katta talafot ko‘rgan. Shahar vayron qilingan, ko‘plab me’moriy obidalar zarar ko‘rgan va iqtisodiy hayot izdan chiqqan. Biroq shunga qaramay, uning tarixiy-madaniy merosi keyingi davrlarda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Arxeologik topilmalar va yozma manbalar orqali Axsikentning o‘tmishdagi taraqqiyoti, ijtimoiy hayoti va madaniy rivojlanishi haqida muhim ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin.[73]

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy tarix va madaniy merosni tiklash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Shu asosda Axsikent yodgorligini o‘rganish, saqlash va restavratsiya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Arxeologik tadqiqotlar yanada jadallashdi, topilmalarni saqlash va ilmiy jihatdan o‘rganishga alohida e’tibor qaratildi. Natijada Axsikent nafaqat tarixiy yodgorlik, balki ilmiy tadqiqotlar olib boriladigan muhim markazga aylandi.

Bugungi kunda Axsikent O‘zbekistonning turistik salohiyati yuqori bo‘lgan maskanlaridan biri hisoblanadi. Tarixiy obidalar, arxeologik topilmalar va ochiq osmon ostidagi muzey ko‘rinishidagi hudud mahalliy hamda xorijiy sayyohlarning qiziqishini tortmoqda. Turizm infratuzilmasining rivojlanishi ushbu hududning iqtisodiy ahamiyatini yanada oshirmoqda. Shu bilan birga, Axsikent yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularda tarixiy xotira va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda muhim ma’naviy-ma’rifiy maskan sifatida xizmat

[73] Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish masalalari. Ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent: Fan, 2020.

qilmoqda. Axsikentning boy tarixiy va madaniy merosini o‘rganish, asrab-avaylash hamda keng jamoatchilikka targ‘ib qilish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu tarixiy shahar nafaqat Farg‘ona vodiysi, balki butun O‘zbekiston tarixining ajralmas qismi bo‘lib, xalqimizning ko‘p asrlik davlatchilik, ilm-fan, hunarmandchilik va madaniy taraqqiyot an’analarini o‘zida mujassam etgan bebaho meros hisoblanadi.

Axsikent va turizm rivoji. Bugungi kunda O‘zbekistonda tarixiy-madaniy meros obyektlarini turizm sohasiga keng jalb etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ana shunday muhim turistik maskanlardan biri Axsikent arxeologik yodgorligi bo‘lib, u o‘zining boy tarixi, noyob arxeologik topilmalari va madaniy merosi bilan mahalliy hamda xorijiy sayyohlarni o‘ziga jalb etmoqda. Farg‘ona vodiysining qadimiy poytaxtlaridan biri sifatida tanilgan Axsikent bugungi kunda tarixiy turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega bo‘lgan hududlardan sanaladi.[74]

So‘nggi yillarda Axsikent yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida qadimiy shahar devorlari, saroy qoldiqlari, hunarmandchilik ustaxonalari va turli madaniy qatlamlar aniqlanib, ular turistik namoyish obyektlariga aylantirilmoqda. Shuningdek, hududda tashkil etilgan muzey ekspozitsiyalari va ko‘rgazmalar tashrif buyuruvchilarga Axsikentning ko‘p asrlik tarixini yaqindan o‘rganish imkoniyatini yaratmoqda. Bu esa tarixiy merosni keng jamoatchilikka tanitish va yosh avlodning milliy tarixga bo‘lgan qiziqishini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Turizmning rivojlanishi hududning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, mehmonxona, transport, ovqatlanish va savdo xizmatlari sohalarining rivojlanishi yangi ish o‘rinlari yaratilishiga, aholi bandligining oshishiga va mahalliy budjet daromadlarining ko‘payishiga xizmat

[74] O‘zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish strategiyasi. – Toshkent, 2019.

qiladi. Bundan tashqari, turistik oqimning ortishi tarixiy yodgorliklarni saqlash, restavratsiya qilish va ilmiy jihatdan o‘rganish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi.[75]

Axsikentni xalqaro turizm bozorida yanada keng targ‘ib etish uchun zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Jumladan, virtual ekskursiyalar, 3D modellashtirish, elektron kataloglar va ko‘p tilli axborot platformalarini yaratish orqali dunyoning turli mamlakatlaridagi sayyohlarga Axsikent haqida batafsil ma’lumot yetkazish mumkin. Shuningdek, hududda zamonaviy infratuzilmani rivojlantirish, transport qulayliklarini yaxshilash hamda xalqaro standartlarga mos xizmat ko‘rsatish tizimini joriy etish Axsikentning turistik jozibadorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, Axsikent nafaqat O‘zbekistonning boy tarixiy-madaniy merosini aks ettiruvchi noyob yodgorlik, balki mamlakat turizm salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi muhim strategik obyekt hisoblanadi. Uning tarixiy merosini asrash, ilmiy tadqiq etish va xalqaro miqyosda targ‘ib qilish O‘zbekistonning turizm sohasidagi raqobatbardoshligini oshirishda muhim omillardan biri bo‘lib qoladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Axsikent O‘zbekistonning bebaho tarixiy va madaniy meros obyektlaridan biri bo‘lib, xalqimizning ko‘p asrlik davlatchilik, madaniyat va ma’naviy hayotini o‘zida mujassam etgan noyob tarixiy maskan hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Axsikentning boy tarixiy salohiyati turizmni rivojlantirish, ta’lim jarayonini boyitish hamda milliy qadriyatlarni keng targ‘ib etishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu tarixiy yodgorlikni chuqur o‘rganish va ommalashtirish

[75] Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish masalalari. Ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent: Fan, 2020.

orqali nafaqat tarixiy merosni asrab-avaylash, balki yosh avlodda milliy g‘urur, vatanparvarlik va tarixiy xotiraga hurmat tuyg‘ularini shakllantirish mumkin.

Shuningdek, Axsikentning turistik imkoniyatlaridan samarali foydalanish mamlakatimizning ichki va xalqaro turizm salohiyatini oshirishga, hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Tarixiy meros obyektlarini zamonaviy yondashuvlar asosida targ‘ib qilish va ulardan ta’limiy maqsadlarda foydalanish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Takliflar:

1. Axsikent tarixiy yodgorligi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni yanada kengaytirish va yangi arxeologik izlanishlarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.
2. Axsikent haqidagi ma’lumotlarni maktab, kollej va oliy ta’lim muassasalari o‘quv dasturlariga kengroq kiritish lozim.
3. Tarixiy obidani targ‘ib qilish uchun zamonaviy axborot texnologiyalari, virtual ekskursiyalar va raqamli platformalardan samarali foydalanish zarur.
4. Ichki va tashqi turizmni rivojlantirish maqsadida Axsikentga oid turistik marshrutlar va madaniy-ma’rifiy tadbirlar sonini ko‘paytirish tavsiya etiladi.
5. Yoshlar o‘rtasida tarixiy merosga hurmatni kuchaytirish uchun Axsikentga bag‘ishlangan tanlovlar, seminarlar, konferensiyalar va ekskursiyalarni muntazam ravishda tashkil etish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
3. Asqarov A.A. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
4. Ahmedov B.A. O‘zbekiston xalqlari tarixi manbalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.

5. Rtveladze E.V. O‘zbekistonning tarixiy-madaniy yodgorliklari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.

6. Xasanov A. O‘zbekistonning tarixiy geografiyasi. – Toshkent: Universitet, 2017.

7. Muhammadjonov A. Qadimgi Farg‘ona tarixi. – Toshkent: Fan, 2016.

8. Bobobekov H. Farg‘ona vodiysi tarixi. – Toshkent: Sharq, 2018.

9. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 1–12-jildlar. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2000–2023.

10. Axsikent: tarix va taraqqiyot. Ilmiy maqolalar to‘plami. – Namangan, 2022.

11. Farg‘ona vodiysi arxeologiyasi. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2021.

12. O‘zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish strategiyasi. – Toshkent, 2019.

13. Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish masalalari. Ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent: Fan, 2020.

14. Namangan viloyati tarixiy obidalari va ziyoratgohlari. – Namangan, 2023.

15. Axsikent arxeologik merosi va uning turizm salohiyati. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Namangan, 2024.

IKKINCHI JAHON URISHIDAN KEYINGI YILLARDA SOVET ITTIFOQIDA DON TANQISLIGI HAQIDA BA’ZI MULOHAZALAR

Yunusova Xurshida Erkinovna

O‘zbekiston milliy universiteti professori, tarix fanlari doktori

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21058832

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ikkinchi jahon urishi tugagandan so‘ng xalq xo‘jaligini tiklash yo‘lidagi harakatlar davomida ham butun sovet davlati qishloq xo‘jaligi islohotlarga muhtojligi, mamlakatda don tanqisligiga oid masalalar taxlil qilingan. Maqolada O‘zbekiston SSRda yetishtirilgan yalpi don hosilining qariyib yarmini bug‘oy tashkil etgani, arpa esa ancha kam yetishtirilgani va lalmikor yerlarida olinayotgan don hosilining barqaror emasligiga kolxoz-sovxozlar fan hamda ilg‘or tajrbia yutuqlaridan keng foydalanilmagan hotlarning muhim jihatlari ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Ikkinchi jahon urishi, xalq xo‘jaligini tiklash yo‘lidagi harakatlar, sovet davlati qishloq xo‘jaligi islohotlari, mamlakatda don tanqisligiga oid masalalar, O‘zbekiston SSR*

Аннотация: *В данной статье проанализированы проблемы нехватки зерна в стране, а также необходимость проведения реформ в сельском хозяйстве всего Советского Союза в период восстановления народного хозяйства после окончания Второй мировой войны. В статье раскрываются важные аспекты, связанные с тем, что почти половину валового сбора зерна, произведённого в Узбекской ССР, составляла пшеница, тогда как ячменя выращивалось значительно меньше. Кроме того, отмечается нестабильность урожайности зерновых культур на богарных землях, обусловленная недостаточным использованием колхозами и совхозами достижений науки и передового сельскохозяйственного опыта.*

Ключевые слова: *Вторая мировая война, восстановление народного хозяйства, реформы сельского хозяйства Советского Союза, проблемы нехватки зерна в стране, Узбекская ССР*

Abstract: *This article analyzes the problem of grain shortages in the country and the need for agricultural reforms throughout the Soviet Union during the post–World War II reconstruction of the national economy. It highlights that nearly half of the gross grain harvest produced in the Uzbek SSR consisted of wheat, while barley was cultivated in considerably smaller quantities. The article also emphasizes the instability of grain yields on rain-fed (dryland) fields, which resulted from the insufficient application of scientific achievements and advanced agricultural practices by collective farms (kolkhozes) and state farms (sovkhozes).*

Keywords: *World War II, post-war reconstruction of the national economy, agricultural reforms in the Soviet Union, grain shortage, Uzbek SSR*

Иккинчи жаҳон уриши тугагандан сўнг халқ хўжалигини тиклаш йўлидаги ҳаракатлар давомида ҳам бутун совет давлати қишлоқ хўжалиги ислоҳотларга муҳтожлигича қолди. Агар уриш арафаси, 1940 йилда бутун совет мамлакатининг аҳолиси 194,1 млн. киши бўлган бўлса, уларнинг 131,0 млн.ни ёки 67,5 фоизи қишлоқ аҳолисидан иборат бўлди. Қишлоқ хўжалиги тузилмасида социалистик сектор устувор бўлиб, мамлакат-да 236,9 минг колхоз ва 4,2 минг совхозларда 18,7 миллион хўжалик уюшган[76] бўлиб, самарадорлик паст бўлди. Айни пайтда душман томонидан босиб олинган ҳудудларда ғалланинг жаъми 38 фоизи, қанд лавлагининг 84 фоизи етиштирилган, йирик шохли қорамолларнинг 38 фоизи жамланган[77], мамлакат аҳолисининг қарийб 40 фоизи истиқомат қилган эди. СССР қишлоқ хўжалигида ялпи ишлаб чиқариш уришгача бўлган даврга нисбатан 60

[76] Народное хозяйство СССР за 70 лет. Юбилейный статистический ежегодник. – Москва. Финансы и статистика, 1987. – с. 373.
[77] Вознесенский Н.А. Военная экономика СССР в период Отечественной войны. – Москва. Госполитиздат, 1948. – с. 42.

фоизни фоизни ташкил этди. Экин майдонлари бирмунча қисқариб, агротехника ишлари пасайиб кетди, чорвачиликка катта зарар етди. 1946 йилдаги қурғоқчилик, хусусан, буғдой экиладиган ҳудудларда – Украина ССР, Молдавия ССР, Волгабўйининг қуйи ва ўрта оқимлари, Марказий Қоратупроқ ва ноқоратупроқли ерларда 70 кунгача ёғингарчиликни бўлмаслиги мураккаб вазиятни келтириб чиқарди, ҳосилга таъсир ўтказди ва буғдой етиштириш 1940 йилга нисбатан икки мартага камайиб кетди. Натижада 1940 йилда бу 95,6 млн. т. буғдой етиштирилган ҳолда, 1945 йилда мамлакатдаги хўжаликларда 39,6 млн. т. буғдой йиғиштириб олинди[78]. Давлатга буғдой топшириш режаси бажарилмади, лекин СССР ҳукумати хорижга асосан Шарқий Европа давлатларига буғдой экспорт қилди. Мамлакат аҳолисини айниқса нон маҳсулотлари билан таъминлаш оғирлашиб борган ҳолда, 1946 йилда мамлакатдан 1,7 млн. тонна нон ташқарига чиқарилди[79]. Тарихчи В.Зиманинг ёзишича, мамлакатда “1946 йил ва 1948 йиллар оралиғида 1 млн.дан ортиқ киши вафот этди. Очлик оқибатида 4 млн.дан ортиқ киши дизентерия, дисперсия, пневмония касаллиги билан касалланиб, уларнинг 1,5 млн.дан ортиғи вафот этди[80].”

1953-йил баҳорида И. В. Сталин вафотидан сўнг мамлакатда ижтимоий-иқтисодий ўзгаришлар учун "имкониятлар даричаси" кенгайди. Бироқ, бу йилларда бутун мамлакат қишлоқ хўжалигида ҳолат талабга жавоб бермас эди. 1953-йил 3-7-сентябрь КПСС МҚ пленуми бўлиб ўтади. Унда “қишлоқ хўжалигини кескин ошириш учун умумхалқ кураши” йўналишини эълон қилди ва 2-3 йил ичида “мамлакат аҳолисини озиқ-овқат маҳсулотларига бўлган, ўсиб бораётган эҳтиёжларини етарли даражада

[78] Данилов А.А., Пыжиков А.В. Рождение сверхдержавы СССР в первые послевоенные годы. – М.: РОССПЭН, 2001. – с. 304.
[79] Кожинов В.В. Россия Век XX (1939–1964). – М.: Эксмо – Пресс, 2002. – 448 с.
[80] Зима В.Ф. Голод в СССР 1946-1947 годов: происхождения и последствия.-М.: ИРИ РАН, 1996.- с.265.

қондириш ва енгил озиқ-овқат саноатини хом ашё билан таъминлаш” вазифасини қўйилди[81].

Пленумдан сўнг КПСС МҚнинг "СССР қишлоқ хўжалигини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги қарор қабул қилинди. Н.Хрушев қишлоқ хўжалигини яхши тушинганлиги сабабли озиқ-овқат масаласини ҳал қилмасдан туриб, белгиланган режага етишиб бўлмаслигини яхши биларди. Лекин, қишлоқ хўжалигида ўтказилган ислоҳотлари бир - бирига қарама - қарши бўлиб, у томондан белгиланган кўплаб тадбирлар кўпинча ўйланмаган характерга эга бўлди. Буларга маккажўхори “васвасаси”, қишлоқ хўжалигида кўп қаватли турар - жой биноларининг қурилиши, халқ хўжалиги бошқарувини қайта-қайта қуриш кабиларни киритиш мумкин эди.

Н.Хрушев ўзи бошлаган ислоҳотларни давом эттириши учун аввало ғалла масаласини ҳал қилиш лозимлигини билар эди. 1950 йилларда бутун мамла-катда ҳар га.ердан 7,2 ц. ғалла олинди ва бу ғалла масаласига алоҳида эътибор билан қарашни талаб этди[82]. 1954 йилда бўлиб ўтган КПСС МҚнинг февраль-март пленумида мамлакат шарқи - Қозоғистон, Ғарбий Сибирь, Волгабўйи, Уралда қўриқ ва бўз ерларни ўзлаштириш ҳисобига экин майдонларини кўпайтириш қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг асосий йўналиши деб эътироф этилди. Албатта, бу тадбирлар ўша давр учун “инқилобий чора” сифатида қабул қилинди. Шу ўринда алоҳида эътибор бериш лозимки, Н.Хрушев ислоҳотлари даврида совет қишлоқ хўжалигининг ўсиши 7,6 фоиздан 1,7 фоизга тушиб қолди. 1955-1964 йиллар давомида ғалла етиштириш уч маротаба 1956, 1958, 1964 йилларда бажарилди холос.

1959 йил 27январь-5 февралда бўлиб ўтган КПСС МҚнинг XX1 съездидан сўнг мамлакатда дон танқислиги ҳал этилганлиги эълон қилинди. 1959 йил 22-23 сентябрь кунлари Н.Хрушевнинг АҚШга бўлган сафарида

[81] КПСС в резолюциях, 1986, с. 308.
[82] Лушин А. Всеобщая «кукурузация» как один из несостоявшихся управленческих экспериментов Н. С. Хрущева // Управленческое консультирование. — 2022. — № 11 (167).

Айова штатидаги Росуэлла Гарста, фермасига ташриф буюради ва мамлакатга қайтгач, ислоҳотларни давом эттириб, озиқ-овқат танқислигини олдини олишнинг йўли сифатида бутун мамлакатда жўхори экиш авж олдирилди. Н.Хрушев ҳукуматга келмасдан аввал мамккажўхори етиштирилган ҳудудлардан - Шимолий Кавказ, Украина ССР, Молдавия ССРдан ташқари мамлакатнинг шимолий ҳудудларидан Волгоградгача бўлган ерларга ҳам маккажўхори экилди. 1956 йилда маккажўхори экиладиган ҳудудлар 18 млн. га.ерни ташкил этган бўлса[83], 1960 йилларнинг бошига келиб мамлакатда ўзлаштирилган ерларнинг 4/1 қисмига маккажўхори экилди ва бу умумий ерларнинг 80 фоизини ташкил этди[84]. 1962 йил маккажўхори компанияси авжига чиққан вақтда 37 млн.га.га етди[85].

Бироқ. Мамлакатда озиқ-овқат танқислиги масаласини ҳал этишнинг имкони йўқ эди. 1961 йил 17 октябрдан 31 октябргача бўлиб ўтган КПСС МҚнинг XXII съездида коммунистик партия тарихида учинчи маротаба “совет халқини коммунизмга йўнатиришга мўлжалланган” КПСС Программаси қабул қилиниб, унда озиқ-овқат масаласини ҳал этишнинг бир қатор баландпарвоз “вазифалари” белгилаб берилди. Бироқ, 1960 йиллардаёқ мамлакатда озиқ-овқат танқислиги сақланиб қоли. Мамлакатнинг марказий қисмларида дўкон пеш-тахталаридан ёрмаларнинг баъзи турлари, тухум вермишел, сариёғ, қайнатил-ган сут, ярим тайёр гўшт маҳсулотлари йўқолди, ун ва оқ нонда узилишлар сақланиб қолди. 1961 йилда СССРнинг жаҳон буғдой ишлаб чиқаришдаги улуши 28 фозини ташкил этди[86]. 1961 йилдаги ғалла етиштириш режаси ҳам ҳориждан ғалла сотиб олиш ҳисобига

[83] Лушин А. И. Всеобщая «кукурузация» как один из несостоявшихся управленческих экспериментов Н. С. Хрущева // Управленческое консультирование. — 2022. — № 11 (167)
[84] Новейшая история отечества. XX век: Учеб.для. студ.высш.учеб.заведений: Вып.2. – Москва. ВЛАДОС, 1999. – С. 309.
[85] Лушин А. И. Всеобщая «кукурузация» как один из несостоявшихся управленческих экспериментов Н. С. Хрущева // Управленческое консультирование. — 2022. — № 11 (167
[86] Калабеков И.Г. СССР и страны мира в цифрах // https://su90.ru/. Мурожат қилинган сана ???? йил, ??????

бажарилди[87]. Шу йилда мамлакатнинг ноқоратупроқ ерларида маккажўхори ҳосили ҳам нобуд бўлди. Натижада, 1962-1963 йилларда СССР буғдой инқирози ва нон танқислиги яққол кўзга ташлана бошлади, камига 1957 йиллардан бошланган илмий исботланмаган иқтисодий ислоҳотлар ва 1962-1963 йиллардаги маъмурий – ҳудудий бўлинишилар ҳам бу инқирозларга таъсир этмасдан қолмади[88]. СССР Америка ғалласини кенг миқёсда сотиб олишга киришди.

1963 йил 20-августда КПСС Марказий Комитетининг "Давлат нон ресурсларини тежаш чора-тадбирлари тўғрисида"ги қарори қабул қилинди. Қарорга мувофиқ 1964-йилда ғалла экспортини деярли 4,5 млн тоннага камайтириш, яъни амалда нолга тушириш режалаштирилди ва амалда СССР 1963 йил сентябридан капиталистик мамлакатларга ғалла экспорт қилишни тўхтатди[89]. Бироқ биргина тежамкорликнинг ўзи етарли бўлмади. Шунинг учун бир вақтнинг ўзида чет элдан ғалла сотиб олиш дастури ишлаб чиқилди. 1963 йил 20-августда КПСС МКнинг "Давлат нон ресурсларини тежаш чора-тадбирлари тўғрисида"ги қарори қабул қилинди. Қарорга мувофиқ 1964-йилда ғалла экспортини деярли 4,5 млн. тоннага камайтириш, яъни амалда нолга тушириш режалаштирилди ва СССР 1963 йил сентябридан капиталистик мамлакатларга ғалла экспорт қилишни тўхтатди[90]. Бироқ биргина тежамкорликнинг ўзи етарли бўлмади, бир вақтнинг ўзида чет элдан ғалла сотиб олиш дастури ишлаб чиқилди. 1963-йил декабрь ойида Совет ҳукумати АҚШдан 12 млн. тонна дон партиясини сотиб олишга мажбур бўлди ва 1970-йилларга келиб дон импорти янада кўпайди. Четдан ғалла

[87] Новейшая история отечества. XX век: Учеб.для. студ.высш.учеб.заведений: Вып.2. – Москва. ВЛАДОС, 1999. – С. 312.
[88] Лушин А. И. Всеобщая «кукурузация» как один из несостоявшихся управленческих экспериментов Н. С. Хрущева // Управленческое консультирование. — 2022. — № 11 (167).
[89] Пивоваров Н. Зерновой кризис 1963-г. СССР и внешнеторговые коллизии его разрешения // Гуманитарые науки в сибири. 2919. Том 26, №1, - с. 29.
[90] Пивоваров Н. Зерновой кризис 1963-г. СССР и внешнеторговые коллизии его разрешения // Гуманитарые науки в сибири. 2919. Том 26, №1, - с. 29.

сотиб олиш СССРда ғалла инқирозини енгиллаштирди. Бироқ, мамлакатда озиқ-овқат маҳсулотларига талаб кучайиб, очарчилик хавф солмасада, лекин озиқ-овқат маҳсулотларига танқислик доимо сақланиб қолди. Нон маҳсулотларини ҳарид қилиш учун навбатга туриш ҳолатлари кучайиб кетди. Бу хусусда ҳатто, 1979 йилнинг январь ойида “Правда” газетасига халқдан 16 та хат ҳам келди[91].

Гуруч, инсон учун керакли бўлган озуқа моддаси ҳисобланиб, мамлакатда озиқ-овқат масаласини ҳал қилишда ҳам ўз ўрнига эга бўлган. Иккинчи жаҳон уришидан кейинги йилларда қишлоқ хўжалигини тиклаш ишларида шоличиликка ҳам алоҳида эътибор берилди. Мамлакатнинг Ўрта Осиё, Қозоғистон, Қўйи Волгабўйи, Украинанинг жанубий қисми, Краснодар ўлкаси, Ростов области, Приморский ўлкалари шоличиликка ихтисослашди. Бу ҳудудларда гуручни катта миқдорда етиштириш мумкин деб ҳисобланди.

Иттифоқдош республикалар орасида Ўзбекистон ССРнинг иқлими. Ҳудудий жойлашиши ўзига хос бўлиб, бошоқли экинлар экиш беш йиллик режаларда белгиланган бўлсада, республикада лалмикор ерлар буғдой ва арпа асосий экин экиладиган ерлар ҳисобланди. Дон-дуккакли (нўхот ва кўк нўхот) ҳамда мойли (кунгабоқар, зиғир, софлор), экинлар унча кўп экилмади. Айни пайтда лалмикор ҳудудларда полиз экинлари, силосбоп экинлар, айниқса, беда майдонлари кенгайиб борди. Шунингдек, Ўзбекистон ССРнинг ўзига хос тупроқ-иқлим шароти эса қишлоқ хўжалик экинларини етиштиришга қулай ҳудуд бўлиб, бу борада буғдой етиштириш ҳам олдинги ўринларда турди.

Ўзбекистоннинг дой экинлари, хусусан, буғдой етишришидаги ўрни иккинчи жаҳон уришидан кейин янада мустаҳкамланди. КПСС МҚ ва СССР Министрлар Советининг 1960 йил 23 апрелда “Донли, мойли экинлар ва ўтлар уруғчилигини яхшилаш тўғрисида”ги қарори чиқди. Шу қарорга кўра

[91] Шубин А.В. От «застоя» к реформам. СССР в 1917-1985 гг. – Москва. РОССПЭН, 2000. - с. 112.

иттифоқдош республикаларнинг Министрлар Совети ва СССР Қишлоқ хўжалик Министрлигига 3-4 йил давомида баҳори навдор дон экинлари уруғидан Давлат эҳтиёт (страхование) фонди ва давлат ресурсларида кузги навдор дон экинларининг йилдан-йилга ўтадиган запас фондини ташкил қилиш таклиф қилинди. Бундан ташқари қарорга асосан колхоз ва совхозларга ҳар йили ўз эҳтиёжини ўзида етиштирилган навдор районлаштирилган дон уруғи билан таъминлаш, 3-4 йил ичида ўзи учун зарур миқдорда эҳтиёт ва йилдан – йилга ўтадиган уруғ фонди яратиш вазифаси юклатилди. Хуллас, Ўзбекистон ССРда етиштирилган ялпи дон ҳосилининг қарийиб ярмини буғой ташкил этди, арпа эса анча кам етиштирилди. Бироқ, Ўзбекистон ССРдаги лалмикор ерларида олинаётган дон ҳосилининг барқарор эмаслигига колхоз-совхозлар фан ва илғор тажрбиа ютуқларидан кенг фойдаланилмаган ҳотлар бўлиб ўтди. Булар қаторига ерларга сурункали дон экиш одат бўлиб қолганлиги, майдонларни бегона ўт босиб кетгналиги, лалмикор деҳқончиликда ишлар яхши йўлга қўйилмаганлигида кўринди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Народное хозяйство СССР за 70 лет. Юбилейный статистический ежегодник. – Москва. Финансы и статистика, 1987. – с. 373.

2. Вознесенский Н.А. Военная экономика СССР в период Отечественной войны. – Москва. Госполитиздат, 1948. – с. 42.

3. Данилов А.А., Пыжиков А.В. Рождение сверхдержавы СССР в первые послевоенные годы. – М.: РОССПЭН, 2001. – с. 304.

4. Кожинов В.В. Россия Век XX (1939–1964). – М.: Эксмо – Пресс, 2002. – 448 с.

5. Зима В.Ф. Голод в СССР 1946-1947 годов: происхождения и последствия.-М.:
ИРИ РАН, 1996.- с.265.

6. Лушин А. И. Всеобщая «кукурузация» как один из несостоявшихся управленческих экспериментов Н. С. Хрущева // Управленческое консультирование. — 2022. — № 11 (167)

7. Новейшая история отечества. XX век: Учеб.для. студ.высш.учеб.заведений: Вып.2. – Москва. ВЛАДОС, 1999. – С. 309.

8. Калабеков И.Г. СССР и страны мира в цифрах // https://su90.ru/. Мурожат қилинган сана ???? йил, ??????

9. Пивоваров Н. Зерновой кризис 1963-г. СССР и внешнеторговые коллизии его разрешения // Гуманитарые науки в сибири. 2919. Том 26, №1, - с. 29.

10. Шубин А.В. От «застоя» к реформам. СССР в 1917-1985 гг. – Москва. РОССПЭН, 2000. - с. 112.

AXSIKENTNING TARIXIY-MADANIY MEROSI VA DAVLATCHILIK AN’ANALARI: MANBASHUNOSLIK, ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR HAMDA RAQAMLI TARIX ISTIQBOLLARI

Ziyayev Abduqahhor Qodirovich

Hidoya o‘rta maxsus islom ta’lim muassasasi o‘qituvchisi

Tel: +998999741480

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21058960

Annotatsiya*: Mazkur maqolada Axsikentning Farg‘ona vodiysi tarixidagi o‘rni, uning sivilizatsion taraqqiyoti va davlatchilik an’analari manbashunoslik, arxeologik tadqiqotlar hamda raqamli tarix yondashuvlari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda yozma manbalar, arxiv hujjatlari va arxeologik topilmalarning ilmiy ahamiyati yoritilib, Axsikentning siyosiy, iqtisodiy va madaniy markaz sifatidagi mavqei ochib beriladi. Shuningdek, tarixiy merosni o‘rganish va saqlashda GIS texnologiyalari, elektron ma’lumotlar bazalari hamda raqamlashtirish jarayonlarining imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari Axsikent tarixini zamonaviy metodologiyalar asosida tadqiq etishning istiqbolli yo‘nalishlarini belgilashga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar*: Axsikent, Farg‘ona vodiysi, sivilizatsiya, davlatchilik tarixi, manbashunoslik, arxeologiya, arxiv hujjatlari, raqamli tarix, madaniy meros, tarixiy geografiya.*

Аннотация: *В данной статье анализируются место Ахсикента в истории Ферганской долины, его цивилизационное развитие и традиции государственности на основе источниковедения, археологических исследований и подходов цифровой истории. В исследовании раскрывается научное значение письменных источников, архивных документов и археологических находок, а также освещается роль Ахсикента как политического, экономического и культурного центра региона. Кроме того,*

рассматриваются возможности применения ГИС-технологий, электронных баз данных и процессов цифровизации в изучении и сохранении исторического наследия. Результаты исследования способствуют определению перспективных направлений изучения истории Ахсикента на основе современных методологических подходов.

Ключевые слова: *Ахсикент, Ферганская долина, цивилизация, история государственности, источниковедение, археология, архивные документы, цифровая история, культурное наследие, историческая география.*

Abstract*: This article examines the role of Akhsikent in the history of the Fergana Valley, its civilizational development, and traditions of statehood through the perspectives of source studies, archaeological research, and digital history. The study highlights the scientific significance of written sources, archival documents, and archaeological findings, revealing Akhsikent’s position as a political, economic, and cultural center. Furthermore, the paper discusses the potential of GIS technologies, electronic databases, and digitization processes in the study and preservation of historical heritage. The research findings contribute to identifying promising directions for investigating the history of Akhsikent using modern methodological approaches.*

Keywords*: Akhsikent, Fergana Valley, civilization, history of statehood, source studies, archaeology, archival documents, digital history, cultural heritage, historical geography*

KIRISH

Axsikent qadimiy Farg‘ona vodiysining eng yirik siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri hisoblanadi. U hozirgi Namangan viloyatining To‘raqo‘rg‘on tumani hududida joylashgan bo‘lib, ko‘p asrlar davomida mintaqaning siyosiy hayotida muhim rol o‘ynagan. Tarixiy manbalarda Axsikent Farg‘onaning poytaxti sifatida tilga olinadi va Buyuk Ipak yo‘lining muhim shaharlari qatorida e’tirof etiladi. Arxeologik tadqiqotlar natijasida shaharning

miloddan avvalgi III–I asrlardan boshlab shakllanganligi va IX–XIII asrlarda yuksak taraqqiyot bosqichiga erishganligi aniqlangan.

Axsikent tarixining manbashunoslik asoslari. Axsikent tarixini ilmiy jihatdan tadqiq etishda yozma manbalar alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ular shaharning siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy hayotini tiklashda muhim manba vazifasini bajaradi. Qadimiy va o‘rta asrlar tarixiga oid ko‘plab ma’lumotlar arab, fors va turkiy tillarda yaratilgan tarixiy hamda geografik asarlarda o‘z aksini topgan. Ushbu manbalar Axsikentning Farg‘ona vodiysidagi yirik shahar va davlat markazlaridan biri sifatidagi mavqeini aniqlash imkonini beradi.[92]

IX–X asrlarda yashab ijod qilgan arab geograflari va tarixchilari asarlarida Axsikent haqida muhim ma’lumotlar uchraydi. Jumladan, Ibn Xurdodbihning “Kitob al-masolik va-l-mamolik” asarida Farg‘ona vodiysining savdo yo‘llari, shaharlararo aloqalari va iqtisodiy ahamiyati haqida so‘z yuritilar ekan, Axsikent ham mintaqaning muhim markazlaridan biri sifatida tilga olinadi.[93] Muallifning ma’lumotlari orqali shaharning Buyuk Ipak yo‘li tarmoqlaridagi o‘rni va xalqaro savdo aloqalaridagi ishtiroki haqida tasavvur hosil qilish mumkin.

Shuningdek, mashhur geograf Abu Ishoq Istaxriyning “Kitob al-masolik va-l-mamolik” asarida Farg‘ona vodiysi shaharlari tavsiflanar ekan, Axsikentning yirik aholi punkti va hunarmandchilik markazi ekanligi qayd etiladi.[94] Muallif shaharning geografik joylashuvi, sug‘orish tizimlari va iqtisodiy faoliyati haqida qimmatli ma’lumotlarni keltiradi.

X asrning taniqli geografi Shamsuddin al-Muqaddasiy esa o‘zining “Ahsan at-taqosim fi ma’rifat al-aqolim” asarida Farg‘ona viloyatining eng yirik shaharlari qatorida Axsikentni ham tilga oladi. Muqaddasiy shaharning mudofaa devorlari, bozorlari, hunarmandchilik ustaxonalari va aholisining turmush tarzi haqida ma’lumotlar beradi.

[92] Buryakov Yu.F. Axsikent – drevnyaya stolitsa Fergany. – Toshkent: Fan, 1990. – B. 15–18.
[93] Ibn Khordadbeh. *Kitab al-Masalik wa al-Mamalik*. – Leiden: Brill, 1889. – P. 39–41.
[94] Al-Istakhri. *Kitab al-Masalik wa al-Mamalik*. – Leiden, 1927. – P. 332–335.

Axsikent tarixini o‘rganishda fors tilidagi tarixiy asarlar ham muhim manba hisoblanadi. Ayniqsa, mo‘g‘ullar istilosi va undan keyingi davrga oid tarixiy voqealarni yorituvchi manbalarda shaharning siyosiy hayoti, hukmdorlar faoliyati hamda hududiy o‘zgarishlar haqida ma’lumotlar uchraydi. Temuriylar davri va undan keyingi tarixiy jarayonlarni o‘rganishda Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari alohida o‘rin tutadi. Bobur Axsikentni Farg‘ona hukmdorlarining muhim siyosiy markazlaridan biri sifatida tasvirlaydi. Asarda shaharning geografik joylashuvi, mudofaa inshootlari, iqtisodiy salohiyati va aholisi haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Manbashunoslik nuqtai nazaridan qaralganda, Axsikent tarixini o‘rganishda yozma manbalar bilan bir qatorda mahalliy qo‘lyozmalar, tarixiy hujjatlar, numizmatik materiallar va epigrafik yodgorliklar ham muhim o‘rin egallaydi[95]. Ayniqsa, turli davrlarga mansub qo‘lyozma manbalar shaharning siyosiy boshqaruv tizimi, iqtisodiy hayoti va madaniy rivojlanishiga oid qo‘shimcha ma’lumotlarni beradi.

Numizmatik manbalar, ya’ni Axsikent hududidan topilgan tangalar shaharning iqtisodiy taraqqiyoti va xalqaro savdo aloqalarini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi[8]. Tangalardagi hukmdorlar nomlari, zarb qilingan sanalar va ramzlar orqali shaharning siyosiy maqomi hamda iqtisodiy aloqalari haqida aniq xulosalar chiqarish mumkin. Epigrafik yodgorliklar, ya’ni toshbitiklar, qabrtosh yozuvlari va me’moriy inshootlardagi bitiklar ham Axsikent tarixining muhim manbalaridan hisoblanadi[9]. Ushbu yozuvlar orqali shaharda yashagan aholi, diniy hayot, madaniy muhit va me’moriy an’analar haqida ma’lumot olish mumkin.

Arxeologik tadqiqotlar va yangi ilmiy natijalar. Axsikent yodgorligi Markaziy Osiyoning eng yirik o‘rta asr shahar xarobalaridan biri hisoblanib, uning tarixini o‘rganishda arxeologik tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. XIX asr oxiri va XX asr boshlaridan boshlab rus sharqshunoslari, tarixchilari va arxeologlari tomonidan Axsikent hududida dastlabki ilmiy kuzatuvlar olib borilgan

[95] Zahiriddin Muhammad Bobur. *Boburnoma*. – Toshkent: Sharq, 2002. – B. 58–61.

bo‘lsa, keyingi davrlarda O‘zbekiston arxeologlari tomonidan muntazam ravishda keng ko‘lamli qazish ishlari amalga oshirildi[96].

Arxeologik izlanishlar natijasida shaharning turli tarixiy davrlarga oid madaniy qatlamlari aniqlanib, uning shakllanishi, rivojlanishi va inqirozga uchrash bosqichlarini ilmiy jihatdan tiklash imkoniyati yaratildi. Tadqiqotlar davomida turar joy majmualari, saroy qoldiqlari, mudofaa devorlari, minoralar hamda shaharning ichki va tashqi qismlarini bog‘lovchi ko‘cha tarmoqlari o‘rganildi. Bu topilmalar Axsikentning o‘z davrida yirik siyosiy va ma’muriy markaz bo‘lganligini tasdiqlaydi³.

Qazishmalar jarayonida hunarmandchilik faoliyatiga oid ko‘plab obyektlar aniqlangan. Xususan, metall eritish pechlari, temirchilik ustaxonalari, kulolchilik markazlari hamda misgarlik bilan bog‘liq ishlab chiqarish inshootlari topilgan[97]. Ushbu topilmalar Axsikent iqtisodiyotida hunarmandchilik muhim o‘rin egallaganligini va shaharda ishlab chiqarilgan mahsulotlar ichki hamda tashqi bozorlarga chiqarilganligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, qazishmalar davomida turli shakl va bezaklarga ega sopol buyumlar, sirlangan idishlar, shisha mahsulotlar, zeb-ziynat buyumlari, mehnat qurollari hamda harbiy aslahalar topilgan. Topilmalar orasida o‘q uchlari, qilich parchalari, nayza uchlari va zirh qismlarining mavjudligi shaharning harbiy-strategik ahamiyatga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi. Uy-ro‘zg‘or buyumlari esa o‘rta asr Axsikent aholisining kundalik turmush tarzi, madaniyati va estetik qarashlarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi.

Axsikentda olib borilgan arxeologik tadqiqotlarning eng muhim natijalaridan biri rivojlangan irrigatsiya tizimlarining aniqlanishidir. Tadqiqotchilar tomonidan qadimiy ariqlar, suv taqsimlash inshootlari va drenaj tizimlari o‘rganilib, ular shaharda dehqonchilik va bog‘dorchilikning yuqori

[96] Buryakov Yu.F. *Axsikent – drevnyaya stolitsa Fergany*. – Toshkent: Fan, 1990. – B. 22–27.
[97] Matboboyev B. *Farg‘ona vodiysi o‘rta asr shaharlari hunarmandchiligi*. – Toshkent: Fan, 2016. – B. 64–70.

darajada rivojlanganligini tasdiqladi. Suv xo‘jaligi tizimining mukammalligi Axsikent iqtisodiy taraqqiyotining asosiy omillaridan biri bo‘lgan.

So‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida shaharning muhandislik va me’morchilik taraqqiyotini aks ettiruvchi yangi topilmalar aniqlandi. Jumladan, yer osti isitish tizimlari, murakkab kanalizatsiya va suv ta’minoti inshootlari hamda me’moriy bezak elementlari topildi. Yer osti isitish tizimlarining mavjudligi o‘rta asrlarda Axsikent aholisi yuqori darajadagi muhandislik bilimlariga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi. Bunday tizimlar asosan saroylar, hammomlar va nufuzli binolarda qo‘llanilgan.

Arxeologik qazishmalar davomida topilgan ganch o‘ymakorligi namunalari, sirlangan koshinlar, naqshinkor bezaklar va qurilish materiallari shaharda me’morchilik san’ati yuksak darajada rivojlanganidan dalolat beradi. Bu topilmalar Axsikentning nafaqat iqtisodiy va siyosiy markaz, balki Farg‘ona vodiysining yirik madaniy markazlaridan biri bo‘lganligini ham tasdiqlaydi.

Bugungi kunda Axsikent yodgorligida olib borilayotgan arxeologik tadqiqotlar zamonaviy texnologiyalar, jumladan geofizik tekshiruvlar, aerofotosuratlar va raqamli modellashtirish usullari bilan boyitilmoqda. Bu esa shaharning tarixiy topografiyasini yanada aniqroq tiklash va yangi ilmiy xulosalar chiqarish imkoniyatini bermoqda.

XULOSA

Axsikent qadimiy Farg‘ona vodiysining eng yirik siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri sifatida Markaziy Osiyo tarixida alohida o‘rin egallaydi. Shaharning qulay geografik joylashuvi, Buyuk Ipak yo‘li tarmoqlariga yaqinligi hamda rivojlangan hunarmandchilik va savdo aloqalari uning uzoq asrlar davomida mintaqaning muhim shaharlari qatorida bo‘lishini ta’minlagan. Axsikent nafaqat iqtisodiy markaz, balki davlat boshqaruvi, harbiy-strategik faoliyat va madaniy-ma’rifiy hayotning yirik o‘chog‘i sifatida ham shakllangan.

Maqola davomida tahlil qilingan yozma manbalar, jumladan arab va fors geograflari hamda tarixchilarining asarlari, temuriylar davri manbalari va mahalliy tarixiy yozuvlar Axsikentning o‘rta asrlardagi taraqqiyot darajasini yoritishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Xususan, Ibn Xurdodbih, Istaxriy, Muqaddasiy va Bobur kabi mualliflarning asarlarida shaharning siyosiy mavqei, iqtisodiy salohiyati va shaharsozlik xususiyatlari haqida keltirilgan ma’lumotlar Axsikent tarixini tiklashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Arxeologik tadqiqotlar natijalari esa yozma manbalarda uchraydigan ma’lumotlarni tasdiqlash bilan birga, ularni yangi ilmiy dalillar bilan boyitmoqda. Qazishmalar davomida aniqlangan mudofaa devorlari, turar joy majmualari, metallurgiya ustaxonalari, irrigatsiya tizimlari, yer osti isitish inshootlari hamda ko‘plab moddiy madaniyat namunalarining topilishi Axsikentda shaharsozlik va muhandislik madaniyati yuqori darajada rivojlanganligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, hunarmandchilik va savdo faoliyatiga oid topilmalar shaharning Farg‘ona vodiysi va qo‘shni hududlar bilan faol iqtisodiy aloqalarda bo‘lganligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, arxiv hujjatlari, numizmatik materiallar va epigrafik yodgorliklarning ilmiy muomalaga kiritilishi Axsikent tarixining ilgari noma’lum bo‘lgan jihatlarini o‘rganish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Mazkur manbalar shaharning siyosiy boshqaruvi, iqtisodiy munosabatlari, madaniy hayoti hamda aholining ijtimoiy tarkibini yanada chuqurroq tahlil qilishga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda tarix fanida raqamli texnologiyalarning keng qo‘llanilishi Axsikent tarixini tadqiq etishda yangi istiqbollarni ochib bermoqda. Geografik axborot tizimlari (GIS), 3D modellashtirish, aerokosmik suratlar, geofizik tadqiqotlar va raqamli arxivlashtirish usullari orqali tarixiy yodgorliklarni zamonaviy ilmiy asosda o‘rganish imkoniyati yaratilmoqda. Ushbu texnologiyalar yordamida shaharning tarixiy topografiyasini tiklash, yo‘qolib borayotgan madaniy meros obyektlarini saqlash hamda ilmiy ma’lumotlarni keng jamoatchilikka yetkazish imkoniyatlari sezilarli darajada kengaymoqda.

Axsikent bugungi kunda O‘zbekistonning boy tarixiy-madaniy merosini aks ettiruvchi noyob yodgorliklardan biri hisoblanadi. Uning tarixini chuqur o‘rganish nafaqat Farg‘ona vodiysi yoki O‘zbekiston tarixini yoritishga, balki Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi taraqqiyotining muhim bosqichlarini anglashga ham xizmat qiladi. Shu sababli yozma manbalar, arxeologik tadqiqotlar, arxiv materiallari va raqamli tarix metodlarini uyg‘unlashtirgan holda olib boriladigan kompleks ilmiy izlanishlar kelgusida Axsikentning jahon sivilizatsiyasi tarixidagi o‘rni va ahamiyatini yanada to‘liq ochib berishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqotlar natijalari tarixiy merosni asrash, yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash hamda O‘zbekistonning tarixiy obidalarini xalqaro miqyosda targ‘ib etishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Buryakov Yu.F. Axsikent – drevnyaya stolitsa Fergany. – Toshkent: Fan, 1990. – B. 15–18.
2. Ibn Khordadbeh. Kitab al-Masalik wa al-Mamalik. – Leiden: Brill, 1889. – P. 39–41.
3. Al-Istakhri. Kitab al-Masalik wa al-Mamalik. – Leiden, 1927. – P. 332–335.
4. Al-Muqaddasi. Ahsan al-Taqasim fi Ma'rifat al-Aqalim. – Beirut, 1906. – P. 282–285.
5. Bartold V.V. Turkestan v epoxu mongolskogo nashestviya. – Moskva: Nauka, 1963. – B. 212–215.
6. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Sharq, 2002. – B. 58–61.
7. Axmedov B.A. O‘zbekiston xalqlari tarixi manbalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1991. – B. 73–77.
8. Davidovich E.A. Numizmatika Sredney Azii. – Moskva: Nauka, 1987. – B. 96–102.

9. Rtveladze E.V. Epigraficheskie pamyatniki Uzbekistana. – Toshkent, 2002. – B. 44–49.

10. Matboboyev B., Anorboyev A. Axsikent arxeologiyasi va tarixi. – Toshkent: Fan, 2017. – B. 125–130.

11. Buryakov Yu.F. Axsikent – drevnyaya stolitsa Fergany. – Toshkent: Fan, 1990. – B. 22–27.

12. Anorboyev A., Matboboyev B. Axsikent arxeologiyasi. – Toshkent: Fan, 2013. – B. 34–38.

13. Axmedov E. O‘zbekiston shaharlari tarixi. – Toshkent: Sharq, 2005. – B. 119–122.

14. Matboboyev B. Farg‘ona vodiysi o‘rta asr shaharlari hunarmandchiligi. – Toshkent: Fan, 2016. – B. 64–70.

15. Rtveladze E.V. Drevnosti Fergany. – Toshkent: San’at, 2001. – B. 85–91.

16. Asqarov A. O‘zbekiston tarixi (eng qadimgi davrdan o‘rta asrlargacha). – Toshkent: O‘qituvchi, 1994. – B. 211–214.

17. Anorboyev A. Axsikent: yangi arxeologik tadqiqotlar natijalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – B. 52–58.

18. Matboboyev B., Xoldorov M. Axsikent me’moriy merosi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – B. 74–81.

19. Axsikent arxeologiya merosi markazi materiallari. – Namangan, 2023. – B. 18–24.

20. Anorboyev A., Matboboyev B. Axsikent sivilizatsiyasi tarixi va madaniyati. – Toshkent: Fan, 2022. – B. 145–152.

ARXEOLOGIYA VA QADIMGI SHAHARLAR TARAQQIYOTI: MADANIY QATLAMLAR HAMDA ARXEOLOGIK TOPILMALAR TAHLILI

Aqilxonov Saidolimxon Abdurashid o‘g‘li
Hidoya o‘rta maxsus islom ta’lim muassasasi o‘qituvchisi
Tel: +998957674747.
E-mail: aqilxonovsaidolimxon46@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21059106

Annotatsiya: *Mazkur maqolada qadimgi shaharlarning shakllanishi va rivojlanish jarayonlarini o‘rganishda arxeologik tadqiqotlarning ahamiyati yoritilgan. Shahar hududlarida aniqlangan madaniy qatlamlar, ularning stratigrafik xususiyatlari hamda arxeologik topilmalar asosida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti tahlil qilingan. Shuningdek, moddiy madaniyat namunalarining tarixiy jarayonlarni tiklashdagi o‘rni va ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *arxeologiya, shaharsozlik, madaniy qatlam, stratigrafiya, arxeologik topilmalar, qadimgi shaharlar, moddiy madaniyat, tarixiy manbalar, urbanizatsiya, qazishmalar.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается значение археологических исследований в изучении процессов формирования и развития древних городов. На основе анализа культурных слоёв, их стратиграфических особенностей и археологических находок раскрываются особенности социально-экономического, культурного и градостроительного развития древних обществ. Особое внимание уделено роли материальных источников в реконструкции исторических процессов, а также значению археологических исследований для изучения истории урбанизации Центральной Азии.*

Ключевые слова: *археология, древние города, градостроительство, культурный слой, стратиграфия, археологические находки, материальная культура, урбанизация, археологические раскопки, исторические источники.*

Annotation*: This article examines the significance of archaeological research in investigating the formation and development of ancient cities. Based on the analysis of cultural layers, their stratigraphic characteristics, and archaeological discoveries, the study explores the socio-economic, cultural, and urban development of ancient societies. Special attention is paid to the role of material evidence in reconstructing historical processes and to the importance of archaeological investigations in understanding the history of urbanization in Central Asia.*

Keywords: *archaeology, ancient cities, urban development, cultural layers, stratigraphy, archaeological finds, material culture, urbanization, archaeological excavations, historical sources.*

KIRISH

Arxeologiya insoniyat tarixining yozma manbalarda aks etmagan yoki yetarlicha yoritilmagan jihatlarini o‘rganishda muhim fan hisoblanadi. Ayniqsa, qadimgi shaharlar tarixi, ularning vujudga kelishi, taraqqiyoti va inqirozini o‘rganishda arxeologik tadqiqotlar asosiy manba vazifasini bajaradi. Shahar hududlarida shakllangan madaniy qatlamlar va ulardan topilgan moddiy madaniyat namunalari o‘tmish jamiyatlarining iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotini tiklash imkonini beradi. Shu sababli arxeologik izlanishlar nafaqat tarix fanining, balki antropologiya, etnografiya, me'morchilik, geologiya, paleobotanika va boshqa ko‘plab fanlarning rivojlanishida ham muhim o‘rin egallaydi.

Bugungi kunda arxeologiya fani zamonaviy ilmiy-uslubiy yondashuvlar asosida rivojlanib, tarixiy obidalarni o‘rganishda yangi texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Geofizik tadqiqotlar, aerofotosuratlar, sun’iy yo‘ldosh tasvirlari, radiokarbon tahlillari, GIS texnologiyalari hamda raqamli

modellashtirish usullarining joriy etilishi arxeologik tadqiqotlarning aniqligi va ishonchliligini yanada oshirdi. Natijada qadimgi shaharlarning shakllanish bosqichlari, hududiy tuzilishi va tarixiy rivojlanish dinamikasini chuqurroq tahlil qilish imkoniyati yuzaga keldi.

Qadimgi shaharlarni o‘rganishda eng muhim manbalardan biri madaniy qatlamlar hisoblanadi. Madaniy qatlamlar insonlarning uzoq yillar davomida olib borgan xo‘jalik faoliyati, turmush tarzi va qurilish ishlari natijasida hosil bo‘lgan tarixiy qatlamlardan iborat. Ushbu qatlamlar tarkibida turli davrlarga oid me'moriy qoldiqlar, sopol buyumlar, metall qurollar, tangalar, mehnat qurollari, bezak buyumlari, hayvon suyaklari va o‘simlik qoldiqlari uchraydi. Ularning har biri muayyan tarixiy davrning iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy hayoti haqida muhim ilmiy ma'lumotlarni beradi.

Madaniy qatlamlarni stratigrafik usulda o‘rganish orqali yodgorliklarning xronologiyasi aniqlanadi, shaharlarning rivojlanish bosqichlari belgilab olinadi hamda turli tarixiy davrlarda sodir bo‘lgan tabiiy va ijtimoiy jarayonlar qayta tiklanadi. Ayniqsa, yong‘in izlari, vayronagarchilik qatlamlari, qayta qurilish bosqichlari yoki tabiiy ofatlar natijasida hosil bo‘lgan qatlamlar qadimgi shaharlarning tarixiy taqdirini yoritishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Arxeologik qazishmalar davomida aniqlanadigan topilmalar ham tarixni o‘rganishda bebaho ilmiy manba hisoblanadi. Moddiy madaniyat namunalari orqali qadimgi aholining hunarmandchiligi, savdo aloqalari, qishloq xo‘jaligi, diniy qarashlari, harbiy faoliyati va kundalik turmush tarzini o‘rganish mumkin. Masalan, sopol idishlarning shakli va bezaklari ishlab chiqarish texnologiyasi hamda madaniy aloqalarni aniqlashga xizmat qilsa, tangalar iqtisodiy munosabatlar va siyosiy tarixni o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Me'moriy qoldiqlar esa shaharsozlik an'analari, mudofaa tizimlari va qurilish texnologiyalarining rivojlanish darajasini yoritib beradi.

Madaniy qatlamlarning arxeologik ahamiyati Madaniy qatlam arxeologik yodgorliklarning eng muhim tarkibiy qismi bo‘lib, insoniyatning uzoq tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan moddiy faoliyat izlarini o‘zida mujassamlashtiradi. U insonlarning turar joy qurishi, xo‘jalik yuritishi, hunarmandchilik bilan shug‘ullanishi, savdo-sotiq olib borishi, diniy marosimlarni amalga oshirishi hamda kundalik turmush faoliyati natijasida hosil bo‘lgan tuproq, kul, qurilish qoldiqlari va turli buyumlarning qatlamma-qatlam yig‘ilishi natijasida vujudga keladi. [98]Shu sababli madaniy qatlamlar qadimgi jamiyatlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotini o‘rganishda eng ishonchli arxeologik manbalardan biri hisoblanadi.

Madaniy qatlamlar odatda qadimgi shaharlar, qal'alar, ibodatxonalar, karvonsaroylar, qishloq manzilgohlari va boshqa tarixiy maskanlarda uchraydi. Ularning qalinligi va tarkibi yodgorlikning qancha vaqt davomida foydalanilganligi, aholi sonining ko‘pligi hamda xo‘jalik faoliyatining rivojlanganlik darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Ayrim qadimgi shaharlarda madaniy qatlamlarning qalinligi 10–20 metrga, ba'zan undan ham ko‘proq chuqurlikka yetadi. Bunday ko‘p qatlamli yodgorliklar yuzlab, hatto ming yillar davomida uzluksiz yashash jarayonining natijasi sifatida shakllangan bo‘lib, har bir qatlam alohida tarixiy davrni aks ettiradi.[99]

Madaniy qatlamlarning shakllanishiga tabiiy va antropogen omillar birgalikda ta'sir ko‘rsatadi. Inson faoliyati natijasida buzilgan yoki qayta qurilgan binolar, maishiy chiqindilar, ishlab chiqarish qoldiqlari, kul va tuproq qatlamlari asta-sekin bir-birining ustiga yig‘ilib boradi. Shu bilan birga shamol, yomg‘ir, suv toshqinlari, zilzilalar va boshqa tabiiy jarayonlar ham madaniy qatlamlarning shakllanishi hamda saqlanishiga o‘z ta'sirini ko‘rsatadi. Shuning uchun arxeologlar

[98] Asqarov A. **O‘rta Osiyo qadimgi madaniyatlari.** – Toshkent: Fan, 2019.
[99] Asqarov A. **O‘zbekiston qadimgi davr tarixi va arxeologiyasi.** – Toshkent: Fan, 2018.

qazishma ishlari davomida nafaqat moddiy topilmalarni, balki qatlamlarning tabiiy tuzilishini ham sinchiklab o‘rganadilar.

Madaniy qatlamlarni ilmiy jihatdan o‘rganishda stratigrafik usul alohida o‘rin tutadi. Stratigrafiya – qatlamlarning joylashish ketma-ketligini, ularning hosil bo‘lish davri va o‘zaro bog‘liqligini aniqlashga xizmat qiluvchi asosiy arxeologik metodlardan biridir. Ushbu usulga ko‘ra, odatda eng quyi qatlamlar eng qadimgi davrga, yuqori qatlamlar esa keyingi tarixiy bosqichlarga tegishli bo‘ladi. Stratigrafik kuzatuvlar orqali yodgorlikning xronologik ketma-ketligi tiklanadi hamda uning rivojlanish bosqichlari ilmiy asosda aniqlanadi.

Har bir madaniy qatlamning rangi, zichligi, tarkibi va ichidagi topilmalar bir-biridan farq qiladi. Masalan, kul qatlamlari yong‘in yoki harbiy hujum natijasida yuz bergan vayronagarchilikni bildirishi mumkin. Qalin loy qatlamlari esa suv toshqini yoki sel hodisalarining izlarini saqlab qolgan bo‘ladi. Tosh va g‘isht bo‘laklarining ko‘pligi binolarning qulashini yoki qayta qurilganligini ko‘rsatadi. Shu tariqa qatlamlarning fizik va kimyoviy xususiyatlari qadimgi shahar hayotida sodir bo‘lgan muhim voqealarni tiklash imkonini beradi.

Madaniy qatlamlar orqali qadimgi shaharlarning qurilish tarixi ham o‘rganiladi. Ko‘plab yodgorliklarda eski binolar buzilib, ularning ustiga yangi inshootlar qurilganligi kuzatiladi. Natijada bir hududda turli davrlarga mansub bir necha qurilish bosqichlari shakllanadi. Arxeologlar ushbu bosqichlarni tahlil qilish orqali shaharlarning kengayishi, mudofaa devorlarining mustahkamlanishi, yangi ko‘chalar va mahallalarning paydo bo‘lishi kabi urbanizatsiya jarayonlarini aniqlaydilar. Ayniqsa, qadimgi qal'alar va shahristonlarda kuzatiladigan ko‘p qatlamli qurilish izlari shaharsozlik tarixini o‘rganishda muhim ilmiy manba hisoblanadi.

Madaniy qatlamlar tarkibida uchraydigan arxeologik topilmalar tarixiy jarayonlarni batafsil yoritishga xizmat qiladi. Sopol idishlar, metall buyumlar, tangalar, qurol-aslahalar, mehnat qurollari, zeb-ziynat buyumlari, hayvon

suyaklari, o‘simlik qoldiqlari, shisha buyumlar va yozuvli topilmalar qadimgi aholining turmush darajasi, iqtisodiy faoliyati, hunarmandchiligi va savdo aloqalari haqida muhim ma'lumot beradi. Ayniqsa, turli davrlarga oid tangalar va muhrlar qatlamlarning aniq sanasini belgilashda muhim xronologik manba vazifasini bajaradi.[100]

Stratigrafik tadqiqotlar yordamida shaharlarning vayron bo‘lish sabablari ham aniqlanadi. Masalan, qalin kul qatlamlari kuchli yong‘in sodir bo‘lganligini, vayron bo‘lgan devorlar esa harbiy bosqin yoki zilzila oqibatlarini ko‘rsatishi mumkin. Ba'zi hollarda bir necha marta takrorlangan vayronagarchilik qatlamlari yodgorlikning tarix davomida bir necha bor hujumlarga uchraganligini tasdiqlaydi. Shundan so‘ng hosil bo‘lgan yangi qurilish qatlamlari esa aholining hududni qayta tiklaganini va shahar hayotining davom etganini ko‘rsatadi.

Madaniy qatlamlarni tahlil qilish ekologik va paleoiqlim tadqiqotlari uchun ham muhim ahamiyatga ega. Qatlamlardan topilgan gul changlari, urug‘lar, yog‘och qoldiqlari, hayvon suyaklari va boshqa biologik materiallar orqali qadimgi tabiat sharoiti, iqlim o‘zgarishlari, dehqonchilik tizimi va oziq-ovqat mahsulotlari haqida ilmiy xulosalar chiqariladi. Bu esa tarixiy voqealarni faqat siyosiy yoki iqtisodiy jihatdan emas, balki ekologik nuqtai nazardan ham baholash imkonini yaratadi.

Hozirgi zamon arxeologiyasida madaniy qatlamlarni o‘rganishda innovatsion texnologiyalar keng qo‘llanilmoqda. Radiokarbon tahlili, dendroxronologiya, georadar tekshiruvlari, magnitometriya, geoaxborot tizimlari (GIS), dronlar yordamida aerofotosuratga olish hamda uch o‘lchamli (3D) modellashtirish usullari qatlamlarning tuzilishi va topilmalarning joylashuvini yuqori aniqlik bilan qayd etishga imkon bermoqda. Ushbu zamonaviy usullar

[100] Berdimurodov A. **Arxeologiya asoslari.** – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2020.

arxeologik ma'lumotlarning ishonchliligini oshirib, tarixiy rekonstruksiyalarni yanada mukammal amalga oshirishga xizmat qilmoqda.[101]

Madaniy qatlamlar arxeologik tadqiqotlarning eng muhim ilmiy manbasi bo‘lib, ular orqali qadimgi jamiyatlarning yashash tarzi, xo‘jalik faoliyati, shaharsozlik an'analari, iqtisodiy va madaniy rivojlanish darajasi hamda tarixiy voqealar ketma-ketligi ilmiy asosda tiklanadi. Madaniy qatlamlarni stratigrafik va kompleks tahlil qilish tarixiy yodgorliklarning xronologiyasini aniqlash, qadimgi shaharlarning shakllanish va rivojlanish bosqichlarini yoritish hamda insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotini chuqurroq anglashda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Arxeologik tadqiqotlar insoniyat tarixini o‘rganishda eng ishonchli va muhim ilmiy manbalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yozma manbalar yetarli bo‘lmagan yoki umuman saqlanib qolmagan davrlarni tadqiq etishda arxeologik qazishmalar natijasida aniqlangan madaniy qatlamlar va moddiy madaniyat namunalari tarixiy haqiqatni tiklashda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Qadimgi shaharlar hududida shakllangan madaniy qatlamlar orqali aholining turmush tarzi, xo‘jalik faoliyati, hunarmandchiligi, savdo aloqalari, me'morchilik an'analari va davlat boshqaruvi tizimi haqida keng qamrovli ilmiy xulosalar chiqarish mumkin.

Madaniy qatlamlarning stratigrafik tahlili shaharlarning shakllanishi, rivojlanishi, inqirozi va qayta tiklanish bosqichlarini aniqlash imkonini beradi. Har bir qatlam o‘z davrining tarixiy voqealari, tabiiy ofatlari, harbiy yurishlari yoki iqtisodiy yuksalish davrlarini aks ettiruvchi noyob ilmiy manba hisoblanadi. Qatlamlar tarkibidagi sopol buyumlar, metall qurollar, tangalar, me'moriy qoldiqlar, hayvon suyaklari va boshqa topilmalar orqali qadimgi jamiyatlarning moddiy va ma'naviy madaniyati, texnologik taraqqiyoti hamda xalqaro madaniy aloqalari chuqur tahlil qilinadi.

[101] Xo‘jayev T. **O‘zbekiston arxeologiyasi.** – Toshkent, 2018.

Markaziy Osiyodagi qadimgi shahar yodgorliklari, xususan Samarqand, Afrosiyob, Buxoro, Xiva, Axsikent, Qanqa, Termiz va boshqa tarixiy markazlarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar mintaqaning urbanizatsiya jarayonlari, Buyuk Ipak yo‘li rivoji hamda davlatlar tarixini o‘rganishda muhim ilmiy asos yaratdi. Ushbu tadqiqotlar natijasida qadimgi shaharlarning me'moriy tuzilishi, mudofaa tizimlari, suv inshootlari, hunarmandchilik markazlari va savdo yo‘llari haqida yangi ilmiy ma'lumotlar qo‘lga kiritildi. Bu esa Markaziy Osiyoning jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyatini yanada to‘liqroq yoritishga xizmat qilmoqda.

Zamonaviy arxeologiyada radiokarbon tahlili, geofizik izlanishlar, geoaxborot tizimlari (GIS), aerofotosuratlar, uch o‘lchamli modellashtirish va boshqa innovatsion texnologiyalarning qo‘llanilishi tarixiy yodgorliklarni yanada aniqroq va ilmiy asosda o‘rganish imkoniyatini yaratmoqda. Natijada arxeologik topilmalarning xronologiyasi, joylashuvi va funksional ahamiyatini yuqori aniqlik bilan belgilash mumkin bo‘lmoqda.

Bugungi kunda arxeologik merosni asrash, uni ilmiy jihatdan chuqur tadqiq etish va kelajak avlodlarga yetkazish har bir davlatning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Tarixiy yodgorliklarni muhofaza qilish, noqonuniy qazishmalar va madaniy boyliklarning noqonuniy olib chiqilishining oldini olish, shuningdek, arxeologik tadqiqotlarni xalqaro ilmiy hamkorlik asosida rivojlantirish tarix fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Madaniy qatlamlar va arxeologik topilmalar qadimgi shaharlar tarixini tiklash, urbanizatsiya jarayonlarini ilmiy asosda yoritish hamda insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanish bosqichlarini aniqlashda eng muhim tarixiy manbalar hisoblanadi. Ularning kompleks va tizimli tahlili nafaqat o‘tmishni chuqur anglash, balki milliy tarixni boyitish, madaniy merosni asrab-avaylash hamda tarixiy xotirani kelajak avlodlarga yetkazishda ham muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu bois arxeologik tadqiqotlarni zamonaviy metodlar asosida

davom ettirish, madaniy qatlamlar va topilmalarni har tomonlama o‘rganish hamda ularni muhofaza qilish kelgusida tarixshunoslik va arxeologiya fanining ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asqarov A. O‘rta Osiyo qadimgi madaniyatlari. – Toshkent: Fan, 2019.
2. Asqarov A. O‘zbekiston qadimgi davr tarixi va arxeologiyasi. – Toshkent: Fan, 2018.
3. Berdimurodov A. Arxeologiya asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2020.
4. Xo‘jayev T. O‘zbekiston arxeologiyasi. – Toshkent, 2018.
5. Rtveladze E.V. O‘rta Osiyo ilk o‘rta asr madaniyati va savdo yo‘llari. – Toshkent, 2015.
6. Jo‘raqulov M.J. Arxeologiya faniga muqaddima. – Samarqand, 2012.
7. Jo‘raqulov M.J. O‘rta Osiyo urbanizatsiyasi tarixi. – Samarqand, 2008.
8. Matboboyev B.X. Axsikent: tarix va arxeologiya. – Toshkent: Fan, 2021.
9. Pidaev Sh. Termiz va uning ilk o‘rta asr madaniy qatlamlari. – Toshkent, 2008.
10. G‘ulomov Ya.G‘. Qadimgi Xorazm madaniyati. – Toshkent, 1962.
11. Renfrew C., Bahn P. Archaeology: Theories, Methods and Practice. 8th ed. London: Thames & Hudson, 2020.
12. Johnson M. Archaeological Theory: An Introduction. 3rd ed. Hoboken: Wiley-Blackwell, 2020.

AXSIKENT MADANIY ME’ROSINI TARG‘IB QILISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA INSON OMILI

Abdug‘aniyeva Gulnoza

NamDPI, Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21059263

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekistonning eng qadimiy shaharlaridan biri bo‘lgan Axsikent madaniy me’rosini targ‘ib qilishda raqamli texnologiyalarning o‘rni va inson omiliga ta’siri tahlil qilinadi. Virtual muzeylar, kengaytirilgan haqiqat, sun’iy intellekt va raqamli platformalarning madaniy meros sohasida qo‘llanilishi hamda Yangi O‘zbekiston sharoitida inson qadri va ijtimoiy rivojlanish bilan uzviy bog‘liqligi o‘rganiladi. Tadqiqot maqolasi mazkur sohada innovatsion yondashuvlar orqali mahalliy aholi, yoshlar va xalqaro hamjamiyatning tarixiy merosga qiziqishini oshirish imkoniyatlarini ko‘rsatib beradi.*

Kalit so‘zlar: *Axsikent, raqamli texnologiyalar, virtual muzey, kengaytirilgan haqiqat, inson qadri, madaniy meros, raqamli targ‘ibot, Yangi O‘zbekiston*

Abstract: *This article analyzes the role of digital technologies in promoting the cultural heritage of Axsikent, one of the most ancient cities of Uzbekistan, and their impact on the human factor. It examines the application of virtual museums, augmented reality, artificial intelligence, and digital platforms in the preservation and promotion of cultural heritage, as well as their close relationship with human values and social development in the context of New Uzbekistan. The study demonstrates how innovative approaches can increase the interest of local communities, young people, and the international community in the historical heritage of Axsikent.*

Keywords: *Axsikent, digital technologies, virtual museum, augmented reality, artificial intelligence, human values, cultural heritage, digital promotion, New Uzbekistan.*

Аннотация: *В данной статье анализируется роль цифровых технологий в популяризации культурного наследия Ахсикента — одного из древнейших городов Узбекистана, а также их влияние на человеческий фактор. Рассматриваются возможности применения виртуальных музеев, технологий дополненной реальности, искусственного интеллекта и цифровых платформ в сфере сохранения и продвижения культурного наследия, а также их взаимосвязь с человеческими ценностями и социальным развитием в условиях Нового Узбекистана. Исследование показывает, что инновационные подходы способствуют повышению интереса местного населения, молодежи и международного сообщества к историческому наследию Ахсикента.*

Ключевые слова: *Ахсикент, цифровые технологии, виртуальный музей, дополненная реальность, искусственный интеллект, человеческие ценности, культурное наследие, цифровая популяризация, Новый Узбекистан.*

KIRISH.

Markaziy Osiyo xalqlari tarixida alohida o‘rin tutgan Axsikent shahri Namangan viloyatida joylashgan bo‘lib, miloddan avvalgi VII–VI asrlarga borib taqaladigan boy tarixiy-madaniy merosga ega. Yangi O‘zbekiston qurilish davrida inson qadri va huquqlarini ulug‘lash eng ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda. Shu jihatdan, tarixiy meros ob'ektlarini zamonaviy raqamli texnologiyalar orqali targ‘ib qilish nafaqat turizm salohiyatini oshirishga, balki har bir fuqaroda o‘zlikni anglash, milliy g‘urur va tariximizga hurmat tuyg‘usini shakllantirish – ya’ni inson qadrini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalar madaniy merosni saqlash va targ‘ib qilishning eng samarali vositalaridan biriga aylanib bormoqda. Biroq bu jarayonda texnologiya o‘zi yetarli emas, uni yaratuvchi, boshqaruvchi va undan foydalanuvchi insonning o‘rni hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Maqolaning maqsadi - Axsikent merosini raqamli usulda targ‘ib qilishda texnologiya va inson omilidagi uyg‘unlikning inson qadrini yuksaltirishdagi ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslashdir.

Axsikent merosining tarixiy va madaniy ahamiyati. Axsikent - qadimgi Farg‘ona vodiysining siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazi bo‘lgan ulkan shahar xarobalari. Arxeologik tadqiqotlar (Buryakov Yu.F., Annaev T.J., Matboboev B.X. va boshqalar) shaharning ko‘p qatlamli tuzilishini, buyuk Ipak yo‘li bilan bog‘liqligini va noyob moddiy topilmalarini isbotlagan. Ushbu meros O‘rta Osiyo sivilizatsiyasining in'ikosi bo‘lib, uni keng ommaga yetkazish milliy va insoniy burchimizdir.

Yangi O‘zbekistonda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va madaniy meros sohasidagi davlat dasturlari doirasida Axsikent kabi ob’ektlarni keng targ‘ib qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa yangi raqamli yondashuvlarni qo‘llashni taqozo etadi.

Hozirgi kunda madaniy meros ob’ektlarini raqamli tarzda targ‘ib qilishning bir necha zamonaviy usullari mavjud:

1. Virtual muzeylar va 3D rekonstruksiya - Axsikent qadimiy ko‘rinishini kompyuter grafika orqali qayta tiklash va internet orqali keng auditoriyaga yetkazish.

2. Kengaytirilgan haqiqat (AR) va virtual haqiqat (VR) - tashrif buyuruvchilar smartfon yoki VR-ko‘zoynak orqali xarobalar ustida qadimiy shaharni “ko‘rish” imkoniga ega bo‘ladi.

3. Raqamli arxiv va GIS texnologiyalari - topilmalar, xaritalar va arxeologik ma’lumotlarni raqamli saqlash hamda tahlil qilish.

4. Ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalar - Axsikent haqidagi kontent keng auditoriyaga tezda yetib borishi uchun zamonaviy platformalardan foydalanish.

5. Sun’iy intellekt (AI) asosida gid-chatbot - sayohatchilar uchun Axsikent tarixi bo‘yicha interaktiv ma’lumot beruvchi raqamli yordamchi.

Raqamli texnologiyalarning o‘zi alohida natija bermaydi, ular insonning bilimi, ijodiy yondashuvi va mas'uliyati bilan boyitilgandagina samarali bo‘ladi. Bu kontekstda inson omilini uch yo‘nalishda ko‘rib chiqish mumkin:

Axsikent atrofidagi qishloq va mahalla aholisi raqamli targ‘ibot jarayoniga faol jalb etilganda, ular o‘z merosiga egalik his-tuyg‘usini his qiladi. Bu esa inson qadrini bevosita yuksaltiradi chunki, inson o‘z tarixi va kelajagining faol ishtirokchisiga aylanadi.

Raqamli texnologiyalar yordamida Axsikent merosini o‘rganayotgan yosh avlod nafaqat texnik ko‘nikmalarni egallaydi, balki milliy tarixga bo‘lgan qiziqishi va faxri ortadi. Bu Yangi O‘zbekistonning asosiy maqsadlaridan biri yosh avlodni vatanparvar, bilimli va raqobatbardosh qilib tarbiyalash bilan uyg‘unlashadi.

Raqamli platforma orqali Axsikent merosini dunyo bilan ulashish - bu O‘zbekiston fuqarosining insoniyat sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasini e'tirof ettirish demakdir. Inson qadri faqat ichki siyosatda emas, balki xalqaro maydonda ham tasdiqlanadi.

Raqamli texnologiyalarni Axsikent merosini targ‘ib qilishda qo‘llash bir qancha muammolar bilan bog‘liq. Jumladan: raqamli infratuzilmaning yetarli emasligi, mutaxassis kadrlar tanqisligi, mahalliy aholi orasida raqamli savodxonlikning pastligi va moliyalashtirish muammolari shular jumlasidandir.

Bu muammolarni hal etish uchun quyidagi chora-tadbirlarni taklif etamiz: Axsikent bo‘yicha ixtisoslashtirilgan raqamli markazni tashkil etish; IT mutaxassislari, tarixchilar va mahalliy aholining birgalikda ishlovchi jamoasini shakllantirish; maktab va oliy o‘quv yurtlarida Axsikent mavzusida raqamli loyiha

tanlovlarini o‘tkazish; xorijiy hamkorlar bilan AR/VR loyihalarini birgalikda amalga oshirish.

XULOSA.

Axsikent xarobalarini raqamli texnologiyalar orqali targ‘ib qilish Yangi O‘zbekistonda inson qadrini yuksaltirish siyosatining muhim tarkibiy qismi bo‘la oladi. Raqamli vositalar - virtual muzeylar, AR/VR ilovalar, sun'iy intellekt asosidagi gidlar - faqat texnik imkoniyatlar emas, ular mahalliy aholining o‘z tarixiga egalik his-tuyg‘usini, yoshlarning milliy g‘ururini va O‘zbekistonning xalqaro obro‘sini oshirishning strategik uskunalaridir.

Biroq bu jarayonda inson omili texnologiyadan ustun turishi lozim: texnologiya insonni almashtirmasligi, aksincha, uni kuchaytirishi, unga yangi imkoniyatlar yaratib berishi kerak. Faqat shundagina Axsikent buyuk o‘tmishning ramzi Yangi O‘zbekistonning yorqin kelajagi sari ko‘prik bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-yanvardagi PF-6155-son Farmoni “O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekiston strategiyasi to‘g‘risida”.

2. Matboboev B.X. Axsikent - Farg‘onaning qadimgi poytaxti. - Toshkent: Fan, 2007. 248 b.

3. Buryakov Yu.F. Genezis i etapy razvitiya gorodskoy kultury Tashkentskogo oazisa. - Tashkent: Fan, 1982.

4. UNESCO. Recommendation on the Historic Urban Landscape.Paris: UNESCO, 2011.

5. Bekova M., Xoliqov A. Raqamli texnologiyalar va madaniy meros: O‘zbekiston tajribasi // O‘zbekiston tarixi. 2023. №2. - B. 45-58.

6. Rahimov S. Virtual muzeylar: dunyo tajribasi va O‘zbekiston uchun saboqlar // Arxeologiya va san’atshunoslik. 2024. №1. B.12-24.

7. Hamidov J. Kengaytirilgan haqiqat texnologiyasini turizm sohasida qo‘llash istiqbollari // Iqtisodiyot va innovatsiya. 2023. №4. B.33-41.

8. Xudoyberdiyev N. Inson qadri Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining asosi // Jamiyat va boshqaruv. 2022. №3. B. 5-18.

AXSIKENT TARIXINI RAQAMLI TA'LIM SHAROITIDA O'QITISH METODIKASI : MUAMMO VA YECHIMLAR

Mallabayev Botir Raximjanovich

Tarix fani o`qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

Namangan davlat pedagogika instituti

E-mail: Active_boy_botir@mail.ru

+99890 112 00 29

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21059458

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Farg'ona vodiysining qadimiy poytaxti – Axsikent tarixini oliy ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalar vositasida o'qitish metodikasi ko'rib chiqiladi. Raqamli ta'lim muhitida Axsikent tarixini o'qitish imkoniyatlari, muammolari hamda amaliy yechimlar taklif etilgan. Maqolada virtual muzeylar, 3D rekonstruksiyalar, sun`iy intellekt interaktiv xaritalar va elektron manbalardan foydalanishning o'quv samaradorligini oshirishdagi o'rni asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *Axsikent, raqamli ta'lim, o'qitish metodikasi, arxeologik yodgorlik, Farg'ona vodiysi, interaktiv ta'lim, virtual muzey. sun`iy intellekt, 3D rekonstruksiyalar,*

Аннотация: *В статье рассматривается методика преподавания истории древней столицы Ферганской долины — Ахсикента — в высших учебных заведениях с использованием цифровых технологий. Представлены возможности, проблемы и практические решения, касающиеся преподавания истории Ахсикента в цифровой образовательной среде. Обосновывается роль виртуальных музеев, 3D-реконструкций, интерактивных карт и электронных ресурсов в повышении эффективности обучения.*

Ключевые слова: *Ахсикент, цифровое образование, методика преподавания, археологический памятник, Ферганская долина, интерактивное обучение, виртуальный музей, искусственный интеллект ,3D-реконструкции.*

Annotation: *This article examines the methodology of teaching the history of the ancient capital of the Fergana Valley - Akhsikent - in higher education institutions using digital technologies. The possibilities, problems and practical solutions for teaching the history of Akhsikent in a digital educational environment are proposed. The article substantiates the role of using virtual museums, 3D reconstructions, interactive maps and electronic resources in increasing the effectiveness of teaching.*

Keywords: *Akhsikent, digital education, teaching methodology, archaeological monument, Fergana Valley, interactive education, virtual museum, AI (artificial intelligence) 3D reconstructions*

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini isloh qilish va raqamlashtirish borasida so`nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar oliy ta'lim muassasalarida o'qitish metodikasiga yangicha yondashuvlarni qo`llashni talab etmoqda. Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O’zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi PF-6097-son Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi raqamli vositalarni o'qitish jarayoniga keng qo'llashni davlat siyosati darajasiga ko'tardi. Bu hujjatlar pedagoglarga milliy tarix va madaniy merosni zamonaviy usullar bilan o'qitishda yangi mas'uliyatlar yuklaydi.

Farg'ona vodiysining bebaho tarixi va madaniy merosi talabalar ongida chuqur milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishning asosiy manbayi hisoblanadi. Ushbu merosning eng muhim qirrasini Axsikent shahri tashkil etadi. O‘rta asr tarixnavislarining tabiri bilan aytganda “Farg‘ona

shaharlarining onasi” deb ta'riflangan Axsikent yodgorligi Farg'ona vodiysidagi eng yirik arxeologik yodgorlik bo'lib, raqamli ta`lim sharoitida axsikent tarixini o'qitish tarix fani o`qituvchilari oldiga yangi, zamonaviy talablarni qo'ymoqda.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, Axsikent tarixini an'anaviy o'qitish usullari talabalar qiziqishini to'liq qondira olmaydi: ko'rgazmali materiallarning cheklanganligi va raqamli resurslarning yetarli darajada qo'llanilmasligi – bular o'quv jarayonining samaradorligini pasaytiruvchi asosiy omillar hisoblanadi. Ushbu maqolada aks ettirilgan tadqiqot mazkur muammolarga amaliy yechimlarni ilmiy-uslubiy jihatdan tahlil qilish va tavsiyalar beriladi.

Tarix fanini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bugungi kunda ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan. Internet, multimedia, interaktiv ta'lim platformalari, sun`iy intellekt va boshqa raqamli vositalar talabalarning tarixiy bilimlarini yanada chuqurlashtirish hamda ularni qiziqarli tarzda taqdim etish imkonini beradi. Ayniqsa, tarixni o`qitishda ushbu yondashuv sezilarli darajada samaradorlik ko'rsatadi, zero talabalar raqamli texnologiyalar orqali o'z ona yurtlarining qadimiy shaharlarini virtual sharoitda "kezib chiqishlari", artefaktlarni ko'rishlari va tadqiq etishlari mumkin bo'ladi.

Zamonaviy pedagogika fanida konstruktivistik o'qitish nazariyasi (J.Piaget, L.Vygotsky) raqamli muhitda talabaning faol ishtirokini ta'minlovchi ta'lim modellarini asoslab beradi. Ushbu nazariyaga ko'ra, bilim uzatilmaydi, balki o'rganuvchi tomonidan quriladi. Raqamli resurslar esa ana shu qurilish jarayonini jadallashtirishning eng zamonaviy vositasi hisoblanadi. Axsikent tarixi kabi murakkab va ko'p qatlamli mavzularda talaba virtual rekonstruksiyalar, interaktiv xaritalar va 3D-modellar va sun`iy intellekt orqali tarixiy shaharni "jonli" his etib, bilimlarni mustaqil ravishda tizimlashtirishi imkoniyatiga ega bo'ladi.

Raqamli ta'lim sharoitida Axsikent tarixini o'qitishda bir qancha muammolar mavjud bo'lib, ularni quyidagi yo'nalishlarda ko'rib chiqish lozim.

Birinchidan, o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalari masalasi. Pedagoglarni raqamli vositalar bilan erkin ishlash ko`nikmasini shakllantirish uchun muntazam malaka oshirish kurslari, vebinar va master-klasslar tashkil etilishi lozim. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi (hozirgi Maktabgacha va maktab ta'limi) hamda Oliy ta'lim vazirliklari ta'lim sifatini oshirish maqsadida o'qituvchilarni kasbiy rivojlantirishga qaratilgan "Raqamli pedagogika" loyihalari va o'quv modullari bu yo'nalishda muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, Vizual va raqamli kontentning yetishmasligi. Axsikent kabi yirik arxeologik yodgorliklar haqidagi mavjud ma'lumotlarning aksariyati matnli ma`lumotlar. Virtual darslarda 3D rekonstruksiyalar, interaktiv xaritalar va VR (virtual reallik) texnologiyalarining kamligi o'quvchilarda obidaning haqiqiy qiyofasi haqida to'liq tasavvur hosil bo'lishini qiyinlashtiradi.

Axsikent tarixini raqamli ta'lim sharoitida o'qitishda quyidagi zamonaviy metodlardan samarali foydalanish tavsiya etiladi.

Birinchi, Axsikent arxeologik kompleksining 3D-rekonstruksiyasini yaratish va uni o'quv jarayoniga joriy etish tarixiy ob'ektning vizual idrokini kuchaytiradi. Shaharning ark, shahriston va rabot qismlarini, jome' masjidini, mudofaa devorlarini virtual sharoitda ko'rsatish talabalarning abstrakt tarixiy bilimlarni aniq vizual tasavvurlarga aylantirish imkoniyatini beradi. Ushbu yondashuv ayniqsa "Axsikent shahri qurilishi va me'moriy tuzilmasi" kabi mavzularni o'rganishda beqiyos samara beradi.

Ikkinchi, Geografik axborot tizimlari (GIS) tarixiy ob'ektlarni kenglik va makonda o'rganishning kuchli vositasidir. Google Earth Pro, GIS kabi platformalar yordamida Axsikentning Buyuk Ipak yo'lidagi o'rnini, shaharning turli davrlardagi kengayishi dinamikasini, suv manbalari va savdo yo'llarining tarqalishini interaktiv tarzda ko'rsatish mumkin. Talabalar mustaqil ravishda arxeologik qazilmalar joyini belgilash, tarixiy xaritalar bilan taqqoslash va qatlam-qatlam tarixiy ma'lumotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini egallaydilar.

Uchinchi, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi, Xorazm Ma'mun Akademiyasi va xalqaro ilmiy arxivlarda Axsikentga oid ko'plab ilmiy maqolalar, arxeologik hisobotlar va tarixiy hujjatlar raqamli formatda mavjud. Talabalarni ResearchGate, ZiyoNet va milliy elektron kutubxona platformalari bilan ishlashga o'rgatish ularda mustaqil ilmiy tadqiqot ko'nikmalarini shakllantiradi. Ayniqsa arab va fors tillaridagi o'rta asr manbalarining (Ibn Havqal, al-Muqaddasi, Mahmud Koshg'ariy asarlari) raqamli nusxalari bilan tanishish talabalarning mavzuga oidmanbashunoslik bilimlarini yanada oshiradi.

To`rtinchi, Tarix darslarida Axsikentning qadimgi ko‘rinishi, uning Ark va mudofaa devorlarini SI asosidagi tasvir yaratuvchi neyron tarmoqlar (masalan, Midjourney, DALL-E) yordamida qayta tiklab, o‘quvchilarga 3D formatda namoyish etish mumkin. Bu esa o`z navbatida qadimiy Axsikent yodgorligiga vizualizatsiya va virtual sayohat qilish imkonini beradi. Shuningdek, Talabalarni Axsikent tarixi bo'yicha sun`iy intellekt yordamida qisqa video hujjatli filmlar, elektron taqdimotlar va infografikalar yaratishga jalb qilish – bu nafaqat raqamli kompetensiyalarni, balki tarixiy fikrlash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. "Raqamli tarixchi" loyihasi doirasida talabalar guruh bo'lib arxeologik topilmalar, xarobalar, muzey eksponatlari haqidagi qisqa videolarni tayyorlab, ularni umumiy ta'lim platformasiga joylashtiradilar. Bunday yondashuv o'qituvchi bilan talabalar o'rtasidagi hamkorlik asosidagi ijodiy jarayonga aylantiradi.

Beshinchi Kahoot!, Quizlet, Mentimeter kabi interaktiv platformalar orqali Axsikent tarixiga oid viktorinalar, musobaqali testlar va onlayn bahslar o'tkazish talabalarning o'quv motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi. Kahoot!, Quizlet va Mentimeter — bu ta’lim jarayonini jonlantirish, o‘quvchilar faolligini oshirish va real vaqt rejimida qayta aloqa o‘rnatish uchun mo‘ljallangan zamonaviy interaktiv onlayn platforma hisoblanadi. Shuningdek, qoidaga asoslangan rolli o'yinlar (tarixiy maslahat yig'inlari, arxeologik ekspeditsiya simulyatsiyalari) talabalarni

tarixiy voqealarning ishtirokchisiga aylantirib, kritik fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Axsikent – bu nafaqat Farg'ona vodiysining, balki butun O'rta Osiyo sivilizatsiyasining noyob merosi bo'lib, uning tarixi milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik va madaniy g'ururning muhim manbayidir. Raqamli ta'lim sharoitida ushbu bebaho merosni o'qitishning zamonaviy metodikasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bugunning eng dolzarb pedagogik vazifalaridan biridir.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, Axsikent tarixini raqamli vositalar – 3D-rekonstruksiyalar, interaktiv xaritalar, sun`iy intellekt, elektron arxivlar, multimedia kontentlar va gamifikatsiya usullari yordamida o'qitish an'anaviy usullar bilan taqqoslaganda ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Talabalar mavzu bo'yicha bilimlarni tezroq va chuqurroq o'zlashtirib, mustaqil tarixiy tahlil ko'nikmalarini egallaydilar.

Amaliy jihatdan quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi: Axsikent arxeologiya kompleksining to'liq 3D-raqamli nusxasini yaratish; o'zbek tilida Axsikent tarixiga bag'ishlangan maxsus elektron darslik va o'quv qo'llanmalarini nashr etish; virtual ekskursiyalar va raqamli muzey portali ishga tushirish; hamda o'qituvchilar uchun raqamli pedagogika bo'yicha ixtisoslashtirilgan malaka oshirish dasturlarini joriy etish.

Axsikent tarixi raqamli makonda yangi hayotini boshlamoqda. Bu jarayonda yonga pedagoglar, arxeologlar, texnologlar va tegishli davlat institutlari o`zaro hamkorligi orqali Farg'ona vodiysining buyuk qadimiy poytaxti bugungi va kelgusi avlodlar uchun ham ham jonli, madaniy merosga aylanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O’zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi PF-6097-son Farmoni – Toshkent, 2020.

2. Ahrorov I. Axsikat shahri tarixidan. – Toshkent: Fan, 1984. – 152 b.

3. Qozoqov T. Axsikent arxeologik yodgorligi: tadqiqot va muhofaza masalalari // Namangan viloyat o'lkashunoslik muzeyi ilmiy yig'majildi. – 2022. – №3. – B. 45–62.

4. Abduqodirov A. Zamonaviy ta'limda texnologiyalarni qo'llash. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, 2020. – 128 b.

5. Sabirova D.A. va boshq. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va vositalari: o'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Raqamli ta'lim markazi, 2023. – 196 b.

6. Axsikent arxeologiya parki // ZarNews. – 2023. – 14-oktabr. – URL: https://zarnews.uz

7. Karimova D. Interfaol ta'lim metodlari va ularning tarix fanida qo'llanilishi.– Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 88 b.

8. Mustaqillik yillarida Namangan viloyati arxeologik tadqiqotlari // Scientific Journal. – 2023. – URL: https://scientific-jl.org

ДЕЛИБЕРАТИВ ДЕМОКРАТИЯНИНГ ФАЛСАФИЙ МОҲИЯТИ

Рахмонов Шерзод Толибович

Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

tel 913117177

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21059576

Аннотация. *Мазкур маълумотлар орқали маҳаллий вакиллик ҳокимиятини трансформация қилиш жараёнида делибератив демократия самарадорлигини таъминловчи институционал, ташкилий ва ижтимоий омиллар таҳлил қилинган. Делибератив механизмларни мониторинг қилиш ва баҳолаш, институционал барқарорликни мустаҳкамлаш, фуқаролар иштирокини кенгайтириш, ижтимоий капитални ривожлантириш ҳамда рақамли платформалардан самарали фойдаланиш масалалари ёритилган. Шунингдек, хорижий тажрибани миллий шароитга мослаштириш, очиқлик ва ҳисобдорлик тамойилларини кучайтириш орқали маҳаллий бошқарув тизимини такомиллаштириш бўйича илмий хулосалар ва таклифлар ишлаб чиқилган.*

Калит сўзлар: *делибератив демократия, маҳаллий вакиллик ҳокимияти, институционал барқарорлик, мониторинг ва баҳолаш, фуқаролар иштироки, ижтимоий капитал, рақамли платформалар, очиқлик, ҳисобдорлик, маҳаллий бошқарув.*

Аннотация. *В статье проанализированы институциональные, организационные и социальные факторы, обеспечивающие эффективность делиберативной демократии в процессе трансформации местной представительной власти. Рассмотрены вопросы мониторинга и оценки делиберативных механизмов, укрепления институциональной устойчивости, расширения участия граждан, развития социального капитала и использования цифровых платформ. Особое внимание уделено*

адаптации зарубежного опыта к национальным условиям, а также совершенствованию системы местного управления на основе принципов открытости и подотчётности.

Ключевые слова: *делиберативная демократия, местная представительная власть, институциональная устойчивость, мониторинг и оценка, участие граждан, социальный капитал, цифровые платформы, открытость, подотчётность, местное управление.*

Abstract. *This article analyzes the institutional, organizational, and social factors that ensure the effectiveness of deliberative democracy in the transformation of local representative government. It examines the monitoring and evaluation of deliberative mechanisms, institutional sustainability, expansion of citizen participation, development of social capital, and the effective use of digital platforms. The paper also highlights the adaptation of international experience to national conditions and proposes recommendations for improving local governance through greater transparency and accountability.*

Keywords: *deliberative democracy, local representative government, institutional sustainability, monitoring and evaluation, citizen participation, social capital, digital platforms, transparency, accountability, local governance.*

КИРИШ. Инсонни ижтимоий-сиёсий жараёнларнинг марказига қўйишда намоён бўлади. Бу ёндашувда инсон фақат бошқарув объекти эмас, балки фаол субъект сифатида қаралади. У ўз фикри, қарашлари ва манфаатлари орқали қарор қабул қилиш жараёнига таъсир кўрсатади. Бу эса инсон қадр-қимматини юксалтириш ва унинг ижтимоий фаоллигини оширишга хизмат қилади. Маҳаллий даражада делибератив демократияни ривожлантириш орқали давлат ва жамият ўртасида янги сифат муносабатлари шаклланади. Бу муносабатлар ишонч, ҳамкорлик ва ўзаро масъулиятга асосланади. Натижада, маҳаллий бошқарув тизими янада очиқ,

шаффоф ва самарали бўлади. Бу эса умумий демократик тараққиётнинг муҳим шарти ҳисобланади.

Делибератив демократияни амалга оширишнинг яна бир стратегик аҳамияти шундаки, у жамиятда танқидий фикрлаш маданиятини ривожлантиради. Фуқаролар турли нуқтаи назарларни таққослаш, таҳлил қилиш ва хулоса чиқариш орқали ўз интеллектуал салоҳиятини оширади. Бу эса нафақат сиёсий, балки иқтисодий ва маданий соҳаларда ҳам ижобий натижаларга олиб келади. Шу тарзда, делибератив демократия маҳаллий вакиллик ҳокимиятини трансформация қилишда кўп қиррали ва мураккаб, бироқ самарали ёндашув сифатида намоён бўлади. Унинг амалиётда муваффақиятли жорий этилиши жамиятнинг институционал, маданий ва интеллектуал салоҳиятига боғлиқ бўлиб, комплекс ёндашувни талаб этади.

МЕТОДОЛОГИЯ. Президентимиз Ш.М.Мирзиёев “Айни пайтда бугун замоннинг ўзи барчамиздан, биринчи навбатда, сиёсий партияларнинг вакиллари, депутат ва сенаторлардан мамлакатимизда амалга оширилаётган кенг кўламли ислоҳотларнинг нафақат иштирокчиси, балки ташаббускори ва асосий ижрочиси бўлишни, бошқаларга намуна кўрсатишни талаб этмоқда”[102], - деб таъкидлаган эдилар.

АСОСИЙ ҚИСМ. Делибератив демократияни янада мукаммал англаш учун унинг натижавийлик мезонларини таҳлил қилиш муҳим аҳамиятга эга. Мазкур моделнинг самарадорлиги фақат иштирокчилар сони ёки муҳокамаларнинг кўлами билан эмас, балки қабул қилинган қарорларнинг сифат даражаси, ижтимоий қабул қилиниши ва амалий натижалари билан баҳоланади. Агар делибератив жараёнлар орқали қабул қилинган қарорлар жамият манфаатларига мос келса ва аҳоли томонидан қўллаб-қувватланса, бу унинг амалий самарадорлигини кўрсатади. Акс ҳолда, делиберация формал

[102] Мирзиёев Ш.М. 1-том Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. М 54. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – Б. 541.

жараён сифатида қолиб кетиши мумкин. Маҳаллий вакиллик ҳокимиятида делибератив механизмларни жорий этишда мониторинг ва баҳолаш тизимини шакллантириш зарур. Бу тизим орқали жамоатчилик муҳокамаларининг самарадорлиги, иштирокчилар фаоллиги, қарорларнинг ижроси ва уларнинг ижтимоий таъсири мунтазам равишда таҳлил қилинади. Бундай таҳлиллар келгусидаги делибератив жараёнларни такомиллаштиришга хизмат қилади. Шунингдек, баҳолаш жараёнининг ўзи ҳам очиқ ва шаффоф бўлиши, жамоатчилик иштирокини таъминлаши лозим.

Делибератив демократиянинг муҳим жиҳатларидан бири – бу институционал барқарорликдир. Агар делибератив механизмлар тизимли ва доимий асосда ишламаса, уларнинг таъсири чекланган бўлиб қолади. Шунинг учун маҳаллий бошқарув тизимида делибератив институтларнинг барқарор фаолиятини таъминлаш, уларни ҳуқуқий ва ташкилий жиҳатдан мустаҳкамлаш муҳимдир. Бу эса ўз навбатида давлат сиёсатида изчиллик ва узлуксизликни таъминлайди.

Делибератив жараёнларнинг самарадорлигида оммавий ахборот воситалари ва янги медиа воситаларининг ўрни катта. Улар жамоатчилик фикрини шакллантириш, муҳокамаларни кенг аудиторияга етказиш ва турли нуқтаи назарларни тақдим этиш орқали делиберация жараёнини бойитади. Бироқ ахборот маконида фейк хабарлар, манипуляциялар ва бир томонлама ахборот тарқалиши хавфи ҳам мавжуд. Бу эса делибератив жараёнларнинг сифатини пасайтириши мумкин. Шу боис ахборот саводхонлигини ошириш ва медиа маданиятни ривожлантириш муҳим вазифалардан бири ҳисобланади. Маҳаллий вакиллик ҳокимиятини трансформация қилиш жараёнида делибератив демократияни қўллаш ижтимоий инновацияларни рағбатлантиради. Фуқаролар ўз ташаббуслари ва ғоялари орқали маҳаллий муаммоларга янги ечимлар таклиф қилади. Бу жараёнда креативлик ва ижтимоий фаоллик кучаяди, жамиятда инновацион муҳит шаклланади.

Делибератив муҳокамалар орқали энг самарали ва мақбул ғоялар саралаб олинади ва амалиётга жорий этилади.

Делибератив демократиянинг яна бир муҳим натижаси – бу ижтимоий капиталнинг ортиши ҳисобланади. Фуқаролар ўртасида ўзаро ишонч, ҳамкорлик ва бирдамлик муносабатлари кучаяди. Бу эса нафақат сиёсий жараёнларда, балки иқтисодий ва ижтимоий соҳаларда ҳам ижобий таъсир кўрсатади. Ижтимоий капитали юқори бўлган жамиятларда барқарорлик ва ривожланиш даражаси юқори бўлади. Маҳаллий даражада делибератив демократияни жорий этишда гендер тенглиги масаласига ҳам алоҳида эътибор қаратиш зарур. Аёлларнинг сиёсий жараёнларда фаол иштирокини таъминлаш делибератив жараёнларнинг инклюзивлигини оширади. Бу эса қарорларнинг ижтимоий адолат ва тенглик тамойилларига мос келишига хизмат қилади. Шу билан бирга, ёшларнинг иштирокини рағбатлантириш ҳам муҳим аҳамиятга эга, чунки улар жамиятнинг келажакдаги фаол субъектлари ҳисобланади.

Делибератив демократияни амалга оширишда халқаро тажрибани ўрганиш ва уни миллий шароитга мослаштириш муҳимдир. Турли мамлакатларда қўлланилаётган делибератив амалиётлар маҳаллий бошқарувни такомиллаштириш учун қимматли тажриба манбаи бўлиб хизмат қилади. Бироқ бу тажрибаларни тўғридан-тўғри кўчириш эмас, балки миллий менталитет, ҳуқуқий тизим ва ижтимоий шароитларни ҳисобга олган ҳолда адаптация қилиш зарур. Маҳаллий вакиллик ҳокимиятини делибератив асосда ривожлантириш орқали давлат бошқарувининг янги модели шаклланади. Бу модельда фуқароларнинг иштироки марказий ўрин тутади, қарор қабул қилиш жараёни эса очиқ ва шаффоф бўлади. Натижада, давлат ва жамият ўртасидаги муносабатлар сифат жиҳатдан янги босқичга кўтарилади.

Делибератив демократияни чуқур таҳлил қилиш шуни кўрсатадики, у замонавий жамият учун нафақат сиёсий, балки ижтимоий-фалсафий аҳамиятга эга бўлган комплекс феномендир. У инсон ҳуқуқлари, эркинлик ва тенглик тамойилларига асосланиб, жамиятда адолатли ва барқарор ривожланишни таъминлашга хизмат қилади. Шу тариқа, делибератив демократия маҳаллий вакиллик ҳокимиятини трансформация қилишда стратегик аҳамиятга эга бўлган, кўп қиррали ва динамик тизим сифатида намоён бўлади. Унинг муваффақиятли амалга оширилиши жамиятнинг барча қатламларини қамраб олган ҳолда, комплекс ёндашувни талаб этади ва бу жараён узлуксиз такомиллашувни тақозо этади.

Делибератив демократияни янада теранроқ таҳлил қилиш унинг трансформация жараёнларидаги динамикасини очиб беришни талаб этади. Маҳаллий вакиллик ҳокимияти тизимида бу модель статик ҳолат эмас, балки доимий равишда ўзгариб, ривожланиб борадиган ижтимоий-сиёсий жараён сифатида намоён бўлади. Делиберациянинг институционаллашув даражаси ошган сари, у бошқарув маданиятининг ажралмас қисмига айланади ва қарор қабул қилиш амалиётида устувор механизм сифатида мустаҳкамланади. Бу жараёнда анъанавий бюрократик ёндашувлар аста-секин очиқлик ва иштирок тамойиллари билан алмашинади. Маҳаллий даражада делибератив демократиянинг ривожланиши кўп жиҳатдан ижтимоий ишонч инфратузилмасининг шаклланишига боғлиқ. Ишонч нафақат давлат органларига нисбатан, балки фуқароларнинг бир-бирига бўлган муносабатларида ҳам намоён бўлади. Агар жамиятда ўзаро ишонч паст бўлса, делибератив жараёнлар самарасиз бўлиб қолади, чунки иштирокчилар бир-бирининг фикрини шубҳа билан қабул қилади. Шунинг учун ишончни мустаҳкамлаш делибератив демократияни ривожлантиришнинг асосий шартларидан бири ҳисобланади.

Делибератив жараёнларнинг самарадорлигига таъсир кўрсатувчи яна бир муҳим омил – бу институционал мослашувчанликдир. Маҳаллий бошқарув органлари ўз фаолиятини жамоатчилик фикрига мослаштириш қобилиятига эга бўлиши керак. Агар институтлар қотиб қолган ва ўзгаришларга ёпиқ бўлса, делибератив механизмлар формал тусда қолиб кетади. Мослашувчанлик эса қарор қабул қилиш жараёнида фуқаролар таклифларини инобатга олиш ва уларни амалга ошириш орқали намоён бўлади. Делибератив демократияни амалга оширишда вақт ва ресурслар тақсимоти масаласи ҳам долзарб аҳамиятга эга. Муҳокамаларни ташкил этиш, ахборот тайёрлаш ва иштирокчиларни жалб қилиш маълум молиявий ва ташкилий ресурсларни талаб қилади. Шу сабабли маҳаллий ҳокимият органлари делибератив жараёнларни самарали режалаштириши, уларни ортиқча бюрократик тўсиқларсиз амалга ошириши лозим. Бу жараёнда давлат ва нодавлат сектор ўртасидаги ҳамкорлик муҳим роль ўйнайди.

Делибератив демократиянинг яна бир муҳим қирраси – бу унинг легитимликни ошириш қобилиятидир. Қарор қабул қилиш жараёнида фуқаролар иштирок этган тақдирда, қабул қилинган қарорлар жамият томонидан кўпроқ қабул қилинади. Бу эса ижро интизомини кучайтиради ва ижтимоий қаршиликларни камайтиради. Легитимликнинг ошиши эса ўз навбатида давлат бошқарувининг самарадорлигини таъминлайди. Маҳаллий вакиллик ҳокимиятини делибератив асосда трансформация қилиш жараёнида ижтимоий тармоқлар ва рақамли платформаларнинг таъсири тобора ортиб бормоқда. Улар фуқаролар учун фикр билдириш ва муҳокамаларда иштирок этишнинг қулай воситасига айланмоқда. Бироқ рақамли муҳитдаги муҳокамаларда эмоциявийлик, радикаллик ва манипуляция ҳолатлари ҳам кузатилиши мумкин. Шунинг учун рақамли делиберацияни тартибга солиш, унинг маданий ва ҳуқуқий асосларини шакллантириш муҳим вазифалардан бири ҳисобланади.

Делибератив демократиянинг ижтимоий-иқтисодий таъсири ҳам кенг қамровлидир. Фуқароларнинг бошқарувда иштирок этиши маҳаллий ресурслардан самарали фойдаланишга, ижтимоий хизматлар сифатини оширишга ва иқтисодий ривожланишни рағбатлантиришга хизмат қилади. Бу жараёнда аҳолининг эҳтиёжлари ва манфаатлари аниқроқ инобатга олинади, натижада қабул қилинган қарорлар ҳаётий ва амалий аҳамият касб этади.

Маҳаллий даражада делибератив демократияни жорий этиш орқали фуқаролик идентичлиги мустаҳкамланади. Фуқаролар ўзларини жамиятнинг фаол аъзоси сифатида ҳис эта бошлайди, бу эса ижтимоий фаолликни оширади. Фуқаролик идентичлиги кучайган жамиятларда демократик институтлар барқарор ва самарали ишлайди. Делибератив демократияни ривожлантиришда стратегик режалаштириш муҳим аҳамиятга эга. Маҳаллий ҳокимият органлари делибератив жараёнларни узоқ муддатли ривожланиш стратегиялари билан уйғунлаштириши керак. Бу эса делибератив механизмларнинг изчил ва барқарор ривожланишини таъминлайди. Стратегик ёндашув делибератив жараёнларнинг эпизодик эмас, балки тизимли характер касб этишига хизмат қилади. Шу тарзда, делибератив демократия маҳаллий вакиллик ҳокимиятини трансформация қилиш жараёнида кўп босқичли ва мураккаб тизим сифатида намоён бўлади. Унинг муваффақияти институционал, маданий ва ижтимоий омилларнинг ўзаро уйғунлигига боғлиқ бўлиб, комплекс ва тизимли ёндашувни талаб этади. Бу жараёнда ҳар бир элемент – фуқаролар иштироки, ахборот шаффофлиги, ҳуқуқий асослар ва маданий муҳит ўзаро боғлиқ ҳолда ривожланиши лозим.

ХУЛОСА. Делибератив демократияни янада чуқурлаштирилган тарзда таҳлил қилиш унинг трансформация жараёнларидаги барқарорлик ва қайтар алоқалар механизмини ўрганишни тақозо этади. Бу тизимда қабул қилинган қарорлар фақат амалга оширилибгина қолмай, балки уларнинг натижалари қайта баҳоланади, жамоатчилик фикри асосида тузатишлар киритилади.

Делибератив демократия доимий равишда ўзини такомиллаштириб борувчи “ўрганувчи тизим” сифатида намоён бўлади. Бундай ёндашув маҳаллий бошқарувда хатоларни камайтириш, ресурслардан самарали фойдаланиш ва жамият эҳтиёжларига тез мослашиш имконини беради.

Маҳаллий вакиллик ҳокимиятида делибератив жараёнларнинг барқарор амал қилишида институционал хотира тушунчаси ҳам муҳим аҳамиятга эга. Илгари ўтказилган муҳокамалар, қабул қилинган қарорлар ва уларнинг натижалари тўғрисидаги маълумотлар тизимли равишда сақланиб, кейинги жараёнларда фойдаланилиши керак. Бу эса ҳар бир янги муҳокамани “нолдан бошлаш” эмас, балки олдинги тажрибаларга таяниш имконини яратади. Институционал хотиранинг шаклланиши делибератив демократиянинг сифат жиҳатдан ривожланишига хизмат қилади.

Делибератив демократияни амалга оширишда ижтимоий вақтнинг ритми ҳам муҳим омил ҳисобланади. Жамиятдаги ижтимоий жараёнлар турли тезликда кечади: айрим масалалар тезкор ҳал этилишни талаб қилади, бошқалари эса узоқ муддатли муҳокамаларни талаб қилади. Делибератив демократия ушбу турли ритмларни ҳисобга олган ҳолда мослашувчан механизмларни таклиф этади. Бу эса маҳаллий бошқарувда мувозанатни сақлашга ёрдам беради.

Маҳаллий даражада делибератив демократияни ривожлантиришда ижтимоий адолат ва тенглик тамойилларини амалий жиҳатдан таъминлаш алоҳида аҳамият касб этади. Фақат формал тенглик эмас, балки реал имкониятлар тенглиги ҳам таъминланиши лозим. Бунинг учун кам имкониятли гуруҳларни қўллаб-қувватлаш, уларнинг иштирокини рағбатлантириш ва уларга махсус шароитлар яратиш зарур.

Делибератив демократиянинг яна бир муҳим хусусияти – бу унинг когнитив таъсиридир. Муҳокамалар жараёнида иштирокчилар ўз билимларини кенгайтиради, янги маълумотлар билан танишади ва ўз

қарашларини қайта кўриб чиқади. Бу эса жамиятда интеллектуал салоҳиятнинг ўсишига олиб келади. Когнитив ривожланиш делибератив демократиянинг узоқ муддатли ижобий натижаларидан бири ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Мирзиёев Ш.М. 2-том. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. М 54. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2018. – Б.34-бет.

2. Аристотель. Давлат. Тошкент. “Yangi asr avlodi”, 2010 й.

3. Яковлев А. А. Завещание Джона Локка, приверженца мира, философа и англичанина. — М.: Изд-во ин-та Гайдара, 2013. — 432 с. — ISBN 978-5-93255-357-2

4. Locke John. An Essay Concerning Human Understanding. London. 1690.

5. Robert David Putnam. The Comparative Study of Political Elites Englewood Cliffs, N.J.: Prentice-Hall, (1976).

6. Мирзиёев Ш.М. 1-том Миллий тараққиёт йўлимизни қатьият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. М 54. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – Б. 541.

МУЛЬТИМЕДИЙНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ИСТОРИИ АХСИКЕНТА

Омонова Зарнигор Туражон кизи,

Научный сотрудник Наманганского педагогического института

omonovazarnigor2302@gmail.com

+998-77-335-30-07

https://orcid.org/0009-0006-0517-0924

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21059704

Аннотация: *В данной статье рассматривается применение мультимедийных технологий в изучении и популяризации истории древнего города Ахсикента. Подчеркивается, что интеграция мультимедийных средств не только расширяет исследовательские горизонты, но и способствует сохранению и актуализации историко-культурного наследия.*

Ключевые слова: *Археологический комплекс Ахсикент, цифровые технологии, мультимедийные средства, цифровая история, цифровые технологии, 3D-моделирование, виртуальная реальность, цифровые архивы*.

Как подчеркнул наш Президент Шавкат Мирзиёев: «Абсолютно невозможно рассматривать такой важный и стратегический вопрос, как образование, по-старому, подходить к нему с устаревшими знаниями и системами. Если мы не создадим самую современную и передовую систему в этом отношении, мы не сможем решить ни одну из стоящих перед нами проблем» [1].

Особое значение цифровые технологии приобретают при изучении истории древних городов и памятников Центральной Азии, являющихся важнейшими центрами формирования государственности и цивилизационного развития региона. Археологический комплекс Ахсикент

(древний Ахсикет, Ахси) – один из ярчайших памятников городской культуры раннесредневекового Мавераннахра и один из крупнейших археологических объектов Ферганской долины – представляет собой уникальный полигон для подобной деятельности. На его территории, исследованной с перерывами более 140 лет (с 1885 г. по настоящее время), сосредоточены многослойные культурные напластования IX–XIII вв., остатки цитадели, шахристана, рабата, грандиозных оборонительных сооружений, дворцовых и культовых комплексов, ремесленных кварталов, а также богатейший вещевой и нумизматический материал ИН[2]. Вместе с тем значительная часть исторического наследия Ахсикента остается недостаточно визуализированной и малодоступной для широкого круга исследователей, студентов и общественности.

Применение мультимедийных средств становится одним из наиболее перспективных направлений цифровой истории. Современные цифровые технологии позволяют реконструировать историческую среду древнего города, создавать интерактивные модели архитектурных объектов, визуализировать результаты археологических исследований, интегрировать исторические источники в единое цифровое пространство и обеспечивать эффективное распространение научных знаний. Мультимедийные ресурсы способствуют более глубокому восприятию исторической информации, развитию исследовательских компетенций обучающихся и формированию устойчивого интереса к культурному наследию.

Одним из этих средств является мультимедиа, позволяющая разрабатывать новые программы. В аспекте деятельностного подхода мультимедиа – это средство деятельности, продуктом которой будет являться разработанная программа. Использование мультимедиа на уроках истории изменяет статус этих средств и характер продукта деятельности. Здесь мультимедиа будет является прежде всего объектом изучения, а продуктом

будут сформированные в процессе деятельности знания, умения и навыки [3]. Мультимедийные технологии должны соответствовать целям и задачам курса обучения и быть органическими составляющими учебного процесса [4].

Особенно перспективным направлением сегодня стала виртуализация культурно-исторической сферы, в том числе археологических музеев, в результате чего формируется качественно новый тип музея – «цифровой музей». Виртуализация современной музейной деятельности: создает возможность получить представление о памятных объектах с учетом историко-культурного материала даже на микроиндивидуальном уровне [5]. К возможностям «цифровой истории» Ахсикента относятся:

✓ *3D-моделирование и Виртуальная реальность (VR).* 3D-визуализация укреплений, арка, шахристана и рабада дает точное пространственное представление о том, как выглядел город в X-XIII веках. Технологии виртуальной реальности позволяют «пройтись» по древним улицам и мастерским по производству знаменитой тигельной стали.

✓ *Интерактивные экспозиции и музеи под открытым небом.* На площади городища создается сеть музеев под открытым небом, где мультимедийные стенды интегрированы прямо в археологический ландшафт. Интерактивные каталоги керамики позволяют рассмотреть каждый артефакт в 360-градусном формате с подробным описанием технологии создания.

✓ *Цифровые архивы и базы данных.* Создание единых цифровых баз для найденных предметов (фрагментов росписи, уникальной утвари) для работы историков и академических центров. Следует включать цифровые копии археологического парка «Ахсикент» в образовательные программы вузов Намангана и Узбекистана.

Научная новизна исследования заключается в следующем:

- психологические и педагогические особенности развития интеллектуальных способностей будущих учителей истории в процессе изучения реальности в причинно-следственном контексте были уточнены путем приоритетной таксономической оценки хронологических и содержательных повествований в соответствии с социокультурными, генетическими и герменевтическими факторами;
- методологическая конструкция развития интеллектуальных способностей будущих учителей истории была усовершенствована путем адаптации к историческому образованию таких типов интеллекта, как быстрое понимание новых фактов и реалий, полнота исторических знаний, саногенетическое мышление и оригинальное принятие решений в спорных ситуациях;
- цифрово-контентный компонент модели развития интеллектуальных способностей будущих учителей истории был усовершенствован на основе модульного проектирования учебных материалов в соответствии с инновационными подходами в процессе преподавания исторических предметов, такими как цифровые карты, виртуальные образовательные музеи и интерактивные хронологические таблицы;
- дидактическая поддержка использования мультимедийных ресурсов в развитии интеллектуальных способностей будущих учителей истории повышается за счет установления корреляции между фактором расхождения продуктивности исторической реальности и реакцией на время, а также движением событий посредством применения визуально-герменевтических, цифровых технологий исторической реконструкции и моделирования в процессе работы с историческими источниками.

В заключении мы можем сделать вывод о том, что систематическая внедрения средств мультимедиа на уроках истории ускоряет процесс роста

интеллектуальных способностей будущих учителей. Уроки истории с применением средств мультимедиа в отличие от традиционных видов деятельности и форм оценивания, позволяет наблюдать развитие различных навыков в динамике. Прогресс студентов становится понятным, видимым и измеримым.

Мультимедийное и интерактивное оборудование позволяет успешно решить главную задачу – сделать процесс обучения ярким, наглядным, увлекательным и интерактивным, что позволяет удерживать внимание и живой интерес к изучаемым предметам, а также позволяет задействовать дополнительные возможности мозга человека для лучшего запоминания и усвоения информации.

Цифровая история Ахсикента – это не только эффективный инструмент научного познания, но и мощное средство популяризации и сохранения культурного наследия Узбекистана в глобальном информационном пространстве. Развитие мультимедийных технологий в исторических исследованиях позволяет сегодняшнему поколению не только лучше понимать своё прошлое, но и передать его будущим поколениям в максимально полном и достоверном виде. Включение средств мультимедиа в образовательный процесс позволит сделать подготовку будущих учителей истории более гибкой, современной и практически ориентированной, отвечающей требованиям цифровой образовательной среды и актуальным запросам вуза.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4 – жилд. – Тошкент. 2020. 149-бет.

2. Омонова З.Т. Развитие интеллектуальных способностей историков через проектно-исследовательскую деятельность на материале археологического комплекса ахсикент// “Axsikent tarixi: muammolar,

tadqiqotlar va tahlillar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani” – 2025-yil, 29-noyabr.

3. Софронова Н. В. Программно-методические средства в учебном процессе общеобразовательной школы.-М.: ИИО РАО, 1998.-178 с.

4. Сумина Г. А., Ушакова Н. Ю. Использование мультимедийных технологий в учебном процессе вуза // «Успехи естествознания». – 2007. – №5 [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://masters.donntu.edu.ua/2007/fgtu/dedich/library/sumina/index.htm

5. Вязинкин А.Ю., Двухжилова И.В. Философско-педагогический потенциал виртуальных музеев «мест памяти» // Манускрипт. 2020. Т. 13, Вып.5.

AXSIKENT TARIXIY-MADANIY MEROSINING TURIZM, TA’LIM VA MA’NAVIY-MA’RIFIY TARG‘IBOTDAGI O‘RNI

Axmadjanova Muazzam Islomjonovna

Namangan davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Gmail: muazzamaxmadjanova70@gmail.com

Tel: +998508826575

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21059826

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Axsikentning Farg‘ona vodiysi va Markaziy Osiyo tarixidagi o‘rni, uning tarixiy-madaniy merosi, arxeologik tadqiqotlar natijalari hamda ushbu merosdan turizm, ta’lim va ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot sohalarida foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘zbek va xorijiy tarixchilar, arxeologlar hamda sharqshunoslarning ilmiy qarashlari asosida Axsikentning Buyuk Ipak yo‘li sivilizatsiyasidagi mavqei yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Axsikent, tarixiy meros, turizm, ta’lim, ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot, Buyuk Ipak yo‘li, arxeologiya, Farg‘ona vodiysi.*

Abstract*: This article examines the role of Axsikent in the history of the Fergana Valley and Central Asia, its historical and cultural heritage, the results of archaeological research, and the possibilities of utilizing this heritage in the fields of tourism, education, and spiritual-enlightenment promotion. Furthermore, based on the scholarly views of Uzbek and foreign historians, archaeologists, and Orientalists, the article highlights the significance of Axsikent within the civilization of the Great Silk Road.*

Keywords: *Axsikent, cultural heritage, tourism, education, spiritual-enlightenment activities, the Great Silk Road, archaeology, Fergana Valley.*

Аннотация*: В данной статье рассматриваются роль Аксикента в истории Ферганской долины и Центральной Азии, его историко-культурное наследие, результаты археологических исследований, а также*

возможности использования данного наследия в сферах туризма, образования и духовно-просветительской деятельности. Кроме того, на основе научных взглядов узбекских и зарубежных историков, археологов и востоковедов освещается значение Аксикента в цивилизации Великого шелкового пути.

Ключевые слова: *Аксикент, историко-культурное наследие, туризм, образование, духовно-просветительская деятельность, Великий шелковый путь, археология, Ферганская долина.*

Bugungi globallashuv sharoitida tarixiy-madaniy merosni asrash, o‘rganish va undan samarali foydalanish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tarixiy yodgorliklar nafaqat xalqning o‘tmishini aks ettiruvchi moddiy dalil, balki milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani shakllantirish va yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning muhim vositasidir. Shu jihatdan qaralganda, O‘zbekiston hududidagi eng qadimiy shaharlardan biri bo‘lgan Axsikent alohida ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Axsikent qadimgi Farg‘ona davlatining yirik siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri bo‘lib, uning tarixi miloddan avvalgi III–II asrlarga borib taqaladi [1]. Shaharning geografik joylashuvi Buyuk Ipak yo‘lining muhim tarmoqlari kesishgan hududda bo‘lgani sababli u Sharq va G‘arb o‘rtasidagi savdo, iqtisodiy va madaniy aloqalarda muhim o‘rin egallagan [2].

Mashhur sharqshunos olim V.V. Bartold Farg‘ona vodiysi tarixiga bag‘ishlangan tadqiqotlarida Axsikentni mintaqaning eng yirik shaharlaridan biri sifatida tavsiflab, uning iqtisodiy va siyosiy ahamiyatini alohida ta’kidlaydi [3]. O‘z navbatida, mahalliy tarixshunos Ishoqxon Ibrat ham Axsikentni Farg‘ona tarixining ajralmas qismi sifatida baholab, uning tarixini tiklashga xizmat qiluvchi qimmatli ma’lumotlarni keltirgan [4].

Arxeologik tadqiqotlar natijalari Axsikentning Markaziy Osiyodagi eng rivojlangan shaharlardan biri bo‘lganligini ko‘rsatadi. Tadqiqotlarga ko‘ra, shahar

ark, shahriston va rabod qismlaridan iborat bo‘lib, rivojlangan mudofaa tizimiga ega bo‘lgan [5]. Axsikentning umumiy maydoni 400 gektardan ortiq hududni egallagan va ayrim tadqiqotchilar uning aholisi 200 ming kishidan ortiq bo‘lganligini qayd etadilar [6].

Axsikent nafaqat siyosiy markaz, balki hunarmandchilik va ishlab chiqarish markazi sifatida ham mashhur bo‘lgan. Arxeologik qazishmalar davomida metall eritish pechlari, temir va misga ishlov berish ustaxonalari hamda kulolchilik markazlari aniqlangan. Xususan, Axsikent po‘latidan tayyorlangan qilichlar va qurollar o‘rta asrlarda Sharq hamda Yevropa bozorlarida yuqori baholangan [7].

Akademik A. Anorboyev boshchiligida olib borilgan tadqiqotlar natijasida shaharning bir necha tarixiy qatlamlari aniqlanib, uning uzoq davr davomida uzluksiz taraqqiy etgani isbotlandi [8]. Bu esa Axsikentning Farg‘ona vodiysi urbanizatsiya jarayonidagi muhim markazlardan biri bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Tarixiy-madaniy meros obyektlari bugungi kunda turizm industriyasining asosiy resurslaridan biri hisoblanadi. Axsikent ham o‘zining boy tarixiy qatlamlari, arxeologik topilmalari va noyob madaniy merosi bilan O‘zbekiston turizm salohiyatini oshirishda muhim o‘rin tutadi.

Jasurbek Axmedovning ta’kidlashicha, Axsikent Farg‘ona vodiysida eng to‘liq o‘rganilgan tarixiy shaharlardan biri bo‘lib, uni ochiq osmon ostidagi muzeyga aylantirish va xalqaro turizm yo‘nalishlariga kiritish katta istiqbolga ega [9]. Bugungi kunda Axsikent arxeologik bog‘i mahalliy va xorijiy sayyohlar tashrif buyuradigan muhim manzillardan biriga aylanib bormoqda.

Tarixiy turizmning rivojlanishi hudud iqtisodiyotiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Turistik infratuzilmaning kengayishi yangi ish o‘rinlari yaratilishi, xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishi va mahalliy aholi daromadlarining oshishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, Axsikentning Buyuk Ipak yo‘li yo‘nalishlari bilan bog‘lanishi uning xalqaro turistik jozibadorligini yanada oshiradi.

Tarixiy yodgorliklar ta’lim jarayonida amaliy va vizual manba sifatida katta ahamiyatga ega. Axsikent materiallari tarix, arxeologiya, madaniyatshunoslik, turizm va pedagogika yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun muhim ilmiy manba hisoblanadi.

Ayniqsa, talabalar uchun tashkil etiladigan ilmiy ekspeditsiyalar, ekskursiyalar va dala amaliyotlari tarixiy bilimlarning amaliy asoslarini mustahkamlaydi. Bu esa yoshlarning tarixiy tafakkuri, tahliliy fikrlashi va ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Pedagogik nuqtayi nazardan qaralganda, Axsikent misolida tarixiy manbalarni tahlil qilish, arxeologik dalillarni o‘rganish va tarixiy voqealarni ilmiy interpretatsiya qilish ko‘nikmalarini shakllantirish mumkin. Bu esa zamonaviy ta’limning kompetensiyaviy yondashuviga to‘liq mos keladi.

Tarixiy merosni o‘rganish va targ‘ib qilish milliy o‘zlikni anglashning muhim omillaridan biridir. Axsikent tarixi xalqimizning qadimiy davlatchilik an’analari, ilm-fan va hunarmandchilikdagi yutuqlarini aks ettiradi. Shu sababli uning tarixini keng targ‘ib qilish yosh avlodda milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘ularini mustahkamlaydi.

Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari, ilmiy-ommabop nashrlar, hujjatli filmlar va raqamli platformalar orqali Axsikent tarixini keng jamoatchilikka yetkazish imkoniyatlari ortib bormoqda. Mazkur faoliyat tarixiy xotirani tiklash va milliy qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda Axsikent Markaziy Osiyoning eng qadimiy va yirik tarixiy-madaniy markazlaridan biri hisoblanadi. Uning boy arxeologik merosi, rivojlangan hunarmandchiligi va Buyuk Ipak yo‘li tizimidagi o‘rni shaharning yuksak sivilizatsion darajaga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi. Axsikent merosidan turizm, ta’lim va ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot sohalarida samarali foydalanish nafaqat tarixiy merosni asrashga, balki yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Raximova M. Axsikent – Namangan viloyatining qadimiy tarix, madaniyat va ilm maskani. – 2025. (journalss.org)
2. Ahmedov J.Z. *Ahsikent – A Unique Site of Fergana Valley*. – 2020. (doaj.org)
3. Vasily Bartold. *Turkestan v epoxu mongolskogo nashestviya*.
4. Ishoqxon Ibrat. *Farg‘ona tarixi*. (internationaljournals.co.in)
5. Ahsiket settlement description. (alexander-the-great.org)
6. General Description of Historical and Cultural Heritage Sites in the Fergana Valley. (inLibrary)
7. Obidova M. va boshqalar. Axsikent tarixida hunarmandchilik turlarining rivojlanish bosqichlari. (erus.uz)
8. Anorboyev A.A. Arxeologiya O‘zbekistana. 2010. (interonconf.org)
9. Ahmedov J.Z. Axsikentni muzeylashtirish va turizm salohiyati masalalari. (doaj.org)

АХСИ ВА НАМАНГАН ТАРИХИНИ ЎРГАНИШДА ИСҲОҚХОН ИБРАТНИНГ РОЛИ

Бахром Джамолович Джалолов.

Наманган давлат чет тиллари институти ўқитувчиси

Абдулхусайн Абдулахатович Умаров

Ўш Давлат Университети халқаро бўлим координатори

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21060056

Аннотация: *Ушбу мақолада Ахси ва Наманган тарихини ўрганилиши ҳамда бу мавзуда Исҳоқхон Ибратнинг олиб борган тадқиқотлари ҳамда унинг Фарғона водийси тарихига доир илмий мулоҳазалари таҳлил қилиб берилган. Шунингдек, Ахсикентнинг кўҳна тарихи, Тўрақўрғоннинг Наманган тарихида тутган ўрни ва Наманганнинг келиб чиқиш тарихини тадқиқ қилишда Исҳоқхон Ибрат асарларининг тутган роли ҳақида баён қилиб берилади.*

Таянч сўз-иборалар: *жадидчилик, ношир, педагог, этнография, тарих, ўзлни англаш, Мақарри ҳукумати, волост, археология, таълим-тарбия, тилшунослик, адабиёт, тарих, археология, маданиятшунослик, санъат.*

РОЛЬ ИСХАКХАНА ИБРАТА В ИЗУЧЕНИИ ИСТОРИИ АХСИ И НАМАНГАНА

Бахром Джалолов

Преподаватель Наманганского государственного

института иностранных языков.

Абдулхусейн Абдулахатович Умаров

Координатор международного отдела Ошского государственного

университета

Аннотация: *В данной статье анализируется изучение истории Ахси и Намангана, исследования, проведенные Исхакханом Ибратом по этой теме,*

и его научные наблюдения по истории Ферганской долины. В нем также описывается древняя история Ахсикента, место Туракургана в истории Наман-гана и роль трудов Исхакхана Ибрата в исследовании истории происхождения Намангана.

Ключевые слова: *модернизм, издатель, педагог, этнография, история, самосознание, правительство Макарри, волос, археология, образование, лингвистика, литература, история, археология, культурология, искусство*

THE ROLE OF ISXAQHAN IBRAT IN STUDYING THE HISTORY OF AKHSI AND NAMANGAN

Bakhrom Djalolov.

Teacher of the Namangan State Institute of Foreign Languages

Abdulhusayn Abdulakhatovich Umarov

Coordinator of the international department of Osh

State University

Abstract: *This article analyzes the study of the history of Akhsi and Namangan, the research conducted by Ishaq Khan Ibrat on this topic, and his scientific observations on the history of the Fergana Valley. It also describes the ancient history of Akhsikent, the place of Turakurgan in the history of Namangan, and the role of Ishakkhan Ibrat's works in researching the history of the origins of Namangan.*

Key words*: modernism, publisher, pedagogue, ethnography, history, self-awareness, Makarri government, volost, archeology, education, linguistics, literature, history, archeology, cultural studies, art*

XX аср бошларида Туркистонда жадидчилик ҳаракатининг жадаллик билан ривожланиб бориши ўлкада маънавий-маърифий ва таълим-тарбия соҳаларида туб бурилиш ясади. Туркистон шаҳарлари ва қишлоқларида маҳаллий жадидлар ўз имкониятларига таянган ҳолда, қийинчилик ва тўсиқ-

ларга қарамай, ўзликни англаш, юрт озодлиги, ватан ободлиги ҳамда равнақи каби ғояларни тарғиб қилиш йўлида ўз хизматларини аямадилар.

Шулардан бири, ўз даврининг етук зиёлиси ва тарихчиси Исҳоқхон тўра Ибрат бўлиб, 1862 йил Тўрақўрғон заминида таваллуд топди. Наманганнинг таниқли фарзанди, Исҳоқхон тўра Ибрат ўз ҳаёти ва вақтини илм-фан соҳаларини ўрганишга, дунёни кўплаб мамлакатларини кезган ҳолда чуқур билимларни эгаллади. У ҳаёти давомида кўплаб фанларни, жумладан, тарих, география, тилшунослик, адабиётшунослик, этнография, наққошлик ва хуснихат сирларини жиддий ўрганиб, бу борада ўзининг нодир асарларни яратишга муваффақ бўлди. Ибрат домла шунингдек, шоир ва олим, ношир ва педагог, дин арбоби ва ислоҳотчи сифатида бутун илму-заккосини бор куч ва салоҳиятини Ватан ва миллат тараққийсига муносиб хизмат қилиш йўлига сафарбар этди **[1.:4]**.

Ибрат домла ҳақида Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёевнинг ”Бу улуғ маърифатпарвар инсон кўплаб илмий педагогик ва бадиий асар яратган. Ўз қишлоғида мактаб ва кутубхона очган, аҳоли учун замонавий боғ барпо қилган, унинг “Фарғона тарихи” деган машҳур асари мамлакатимиз тарихига оид нодир манбалардан биридир” дея таъкидлаган фикрлари Ибрат домланинг нечоғлик тарих фанидан улкан билим соҳиби эканлигидан ҳам далолат беради**[2.:74]**. Ибрат тарих ва бошқа фанларни чуқурроқ ўрганиш ва дунёдаги илм-фан ютуқларни ўз кўзи билан кўриша ҳамда тажриба орттириш мақсадида дунё бўйлаб сафарга отланганини ҳам кўриш мумкин.

Жумладан, онасини ҳам хаж зиёратига олиб бориш ниятида дастлаб Ара-бистон томон отланади. Сафарда онаси вафот этгач, уни Арабистондаги Жид-да шаҳрида дафн этиб, 1887-1892 йилларда кўплаб шаҳарларда, хусусан, Истанбул, София, Афина, Рим, Кобул шаҳарларида сафарда бўлади. Макка шаҳридан Қизил денгиз ва Ҳинд океани орқали Ҳиндистонга етиб

бориб, 1892-1896 йилларда Ҳиндистоннинг Бомбей ва Калкутта шаҳарларида яшади ҳамда Афғонистон ва ундан сўнг Шарқий Туркистондаги Қошғарга бориб, 1895 йил Тўрақўрғонга қайтиб келади **[3.:192].**

Чет давлатларда саёҳатда бўлган Ибрат борган ерлардаги халқларнинг ҳаёти, маданий, илмий ва техникавий янгиликларига қизиқади. Қайтиб келган ўз билимлари ва кўрганлари асосида тарихга оид асарлар ёзади. Бу асарларида асосан Фарғона водийси шаҳарлари тарихи билан боғлиқ кўплаб маълумот-ларни келтириб ўтади. Шунингдек, унинг қадимий Ахси, Тўрақўрғон ҳамда Наманган ҳақида кўплаб илмий мулоҳазалари тарих фанини ўрганишда тарихчилар учун муҳим аҳамият касб этди. Унинг Ахси шаҳрини ўта қади-мийлиги ҳақидаги “Фарғона бино бўлмасдан бино бўлган шаҳар Қубо эди, Нўширавон вақтида Фарғонанинг аксар ерларини обод қилди.. Аммо ул вақ-тида мақарри ҳукуматлари Ахсикент эди” дея билдирган қарашлари Фарғона водийси шаҳарларининг бир неча асрлик бой ўтмишга эга эканлигини яққол ифодасилир**[4.:277].**

“Маққари ҳукумати” атамасининг маъносига эътибор берсак, “ҳукумат жойлашган ер, пойтахт” маъносида келиши Ахсикент шаҳрининг ҳам қадимий шаҳарлар билан ёши тенг эканлигидан далолат беради ҳамда бир неча асрлар давомида муҳим марказ сифатида катта аҳамиятга эга эканлигининг муҳим белгисидир **[5.:331].**

Ибрат домла ўз тадқиқотларида Ахсини ики ерда бўлганлиги, бирини эски Ахси, бирини янги Ахси дейилишини, яъни “эски Ахси бузилгандан сўнг қолган одамлар дарёдан қочиб, Косон тарафда баландлик биёбонга иморатлар қилиб кўп қишлоқ бўлганлар” дея таъкидлайди. Ибрат домла келтирган ушбу фикрлар янги Ахсининг қандай тарзда қужудга келганлигини асослаб беради.

У ўз фикрини давом эттириб, “Ҳозир янги Ахсида 12 қишлоқ Шаҳанд деган бозорлик бир қишлоқ ила бир болуст (бу русча волост сўзининг

маҳаллий айтилиши бўлиши мумкин-М) бўлганлиги, Эски Ахсини эса вайрон бўлгандан сўнг маҳаллий аҳоли ва подшоҳлардан ҳеч ким обод қилмагани ” ҳақида ўз изоҳини бериб ўтади**[6.:27].**

Маълумки, кўплаб манбаларда Ахси ҳақидаги ўз илмий мулоҳазаларини давом эттирган ҳолда, Ибрат домла Тўрақўрғоннинг нуфузи ҳамда унинг XIX охирларига қадар Фарғона водийси ижтимоий-иқтисодий ҳаётидаги тутган ўрни ҳақида ҳам муҳим ва қизиқарли далилларни келтириб ўтади. Чор Россияси босқинига қадар Тўрақўрғон Наманганнинг маркази ёки пойтахти бўлганлиги ҳақида ёзади **[7.:326].**

Ибрат домланинг ушбу фикри қанчалик ҳақиқат эканлигини бошқа бир тарихчиларнинг асарлари ҳам гувоҳлик бериши ва бу фикрни тўла қўллаб-қувватлашда муҳим аҳамият касб этади. Хусусан, маҳаллий тарихчи Мирза Олим Махдум Ҳожи ўз асарида XIX аср ўрталарига қадар Фарғона водий-сидага ижтимоий-сиёсий вазиятни таҳлил қилар экан, у ҳам Тўрақўрғон ҳақида шундай дейди.;”Қўқон хони Шералихон ҳукмронлиги даврида Муҳаммадназир Соқов исмли шахс Тошкентдан қайтиб келиб, қипчоқлар етакчиси Мусулмонқули ёрдамида Тўрақўрғонни эгаллаб, Қулоқ батурбошининг ўрни- га ҳокум бўлубдур**[8.:326].**”

Бундан кўриниб турибдики, Тўрақўрғон Қўқон хонлари даврида ҳам стратегик аҳамиятга эга бўлган ҳудуд сифатида эътироф этилади. Яна бир тарихчи Тарихчи Муҳаммад Азиз Марғилоний ўз китобида “Наманган 1842-1945 йилларда атрофи баланд деворлар билан ўралган шаҳар” сифатида таърифлаган эди **[9.:94].** “Руссия давлатига ўтгандан сўнг шаҳар бутун Намангон бўлиб, ҳокимлар ҳам, аскария ҳам Наманганга нақл қилиниб, Тўрақўрғон бир бўлистлик қишлоқ бўлиб қолди” дея Ибрат ўз мулоҳазаларини билдириб ўтади **[10.:327**].

Юқоридаги манбалар таҳлили шуни кўрсатадики, XIX аср ўрталарига қадар Тўрақўрғон Наманган вилояти маркази сифатида муҳим рол ўйнаган-

лиги ва Исҳоқхон Ибратнинг мулоҳазалари анча ҳақиқатга яқин эканлигидан далолоат бериб турибди десак адашмаган бўламиз. Шу ўринда Ибрат домланинг Наманганнинг келиб чиқиши ва топономикаси ҳақидаги фикрлари ҳам ўта маълумот сифатида ўрин эгаллайди.

Хусусан, Исхоқхон Ибрат Наманган топономикасининг келиб чиқиши тарихи ҳақида ўз фикрларини билдириб шундай дейди:”Бухоро хони Абдуллахон Наманган ерига келиб, бир тарафи дарё ва бир тараф тоғ ҳвоси яхши учун бу ерга бир шаҳар бино қилмоқ бўлуб, ўз ичларидан бир оғалиқ мансабида турган кишини амр қилиб, шаҳар қилмоқ бўлганида, ўшал ерни дарё тарафи бутун шўр кўл бўлиб ётган туз экан. Бинобарини, намак кон, яъни тузкон деб атаган экан. Бу намаккон лафзини форсийда гон қилиб ёзуб, намакконни намангон деб, бир куни зоида билан намангон бўлди, аслида намаккондур” дея шарҳлайди **[11.:325].**

“Намангон тўрт маҳалла бўлуб, биринчи маҳалла Сардоба маҳалласидурки, аввали Абдуллоҳ сардоба бино қилган еридур. Иккинчи маҳалласи Лаббайтоғидурки, ани важҳи тасмияси мулла Бозор охунд деган киши бор эканлар, ул кишини бир жиянлари бор экан. Ҳар икки азиз ўрталари овоз етадурғон масофат экан. Гоҳо жиянларини чақирганларида жавобан тағоларига «лаббай, таға» деб овоз берганларида аксар кишилар ул маҳаллани «лаббай, таға» маҳалласи деб атаб «лаббайтаға» мусаммо бўлган бир маҳалладур. Бир маҳалласини «Чуқур кўча» дерларки, ул Намангонни ҳамма кўчасидин чуқурроқ учун Чуқуркўча тасмия бўлган” дея келтирган маълумотлари орқали Наманган кўчалари ҳақидаги юксак билимларини ҳам намоён қилади**[12.:30]**.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, Исхоқхон Ибрат домла қолдирган илмий, тарихий мерос ва уни асраб-авайлаш ҳамда келажак авлодга, шунинг-дек бугунги кун ёшларига етказиб бериш ҳар бир зиёлининг маъсулиятли вазифасидир десак муболаға қилмаган бўламиз. Зеро, унинг

авлодларга қол-дирган маънавий-илмий хазинасида таълим-тарбия, тилшунослик, адабиёт, тарих, археология, маданиятшунослик, санъат бошқа кўпалб фанларга оид маълумотларни ёритганлиги унга бўлган ҳурматнинг янада ошишига хизмат қилади. Ибрат ўз қилган беқиёс илмий меҳнати билан ҳозирги ёшларга намуна ва ибрат бўла оладиган ўтмишимиздаги буюк шахслардан бири сифатида ўтми-шимиз саҳифаларини безаб турган зиёли сифатида ҳар бир ёшда фахр ва ғурур туйғусини ўйғотади албатта.

Манбалар ва адабиётлар/Источники ва литература/References

1. Жадид адабиёти намояндалари. Исҳоқхон Ибрат. Тошкент.:Zabarjad
media. 2024.
2. Мирзиёев. М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Тошкент.:Ўзбекистон. 2019.
3. Халилбеков. А. Наманган адабий гулшани. Наманган.:2007.
4. Исҳоқхон Ибрат. Тарихи Фарғона. Тошкент.:Камалак. 1991.
5. Исҳоқхон Ибрат. Тарихи Фарғона. Тошкент.:Камалак. 1991.
6. Ибрат нигоҳидаги Ахсикент /Қозоқов Т ва бошқ....Тошкент.:Наврўз. 2018.
7. Исҳоқхон Ибрат. Тарихи Фарғона. Тошкент.:Камалак. 1991.
8. Мирза Олим Махдум ҳожи. Тарихи Туркистон. Тошкент.:Янги аср авлоди. 2009.
9. Муҳаммад Азиз Марғилоний. Тарихи Азизий. Тошкент.:Маънавият. 1999.
10. Исҳоқхон тўра Ибрат. Ислоҳи миллат. Тошкент.:Маънавият. 2022.
11. Исҳоқхон тўра Ибрат. Ислоҳи миллат. Тошкент.:Turon-zamin. 2024.

12. Каримов. Н. Исҳоқхон Ибрат -советча қатағон қурбони. “Водийнома”. 2017. №2 (4)

YANGI O‘ZBEKISTONDAGI MA’NAVIY YANGILANISH JARAYONLARIDA AXSIKENT MEROSINING AHAMIYATI

Sotimova Tursunoy Nozimjon qizi

NamDPI Ijtimoiy – gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (ma’naviyat asoslari) yo‘nalishi 1-kurs magistranti

E-mail: shiroqqizitumaris@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21110814

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda kechayotgan ma’naviy-ma’rifiy yangilanishlar va uchinchi Renessans poydevorini mustahkamlashda qadimgi Axsikent yodgorligining o‘rni tahlil qilinadi. Tarixiy xotira, milliy g‘urur va innovatsion meros o‘rtasidagi bog‘liqlik hamda Axsikent timsolida iqtisodiy-turistik va ma’naviy-g‘oyaviy integratsiya masalalari yoritilgan.*

Kalit so’zlar*: Axsikent, Yangi O‘zbekiston, ma’naviy yangilanish, uchinchi Renessans, milliy o‘zlik, tarixiy xotira, tigel po‘lati, madaniy meros, vatanparvarlik, arxeologik yodgorlik, Namangan, To‘raqo‘rg‘on, madaniy diplomatiya, turizm strategiyasi*

Abstract: *This article analyzes the role of the ancient Akhsikent monument in strengthening the foundations of the Third Renaissance and the spiritual-enlightenment renewals taking place in New Uzbekistan. It explores the connection between historical memory, national pride, and innovative heritage, while highlighting the issues of economic-touristic and spiritual-ideological integration through the prism of Akhsikent.*

Keywords*: Akhsikent, New Uzbekistan, spiritual renewal, Third Renaissance, national identity, historical memory, crucible steel, cultural heritage, patriotism, archaeological site, Namangan, Turaqurghan, cultural diplomacy, tourism strategy*

***Аннотация**: В данной статье анализируется роль древнего памятника Ахсикент в укреплении основ Третьего Ренессанса и духовно-просветительских обновлениях, происходящих в Новом Узбекистане. Рассматривается взаимосвязь между исторической памятью, национальной гордостью и инновационным наследием, а также освещаются вопросы экономико-туристической и духовно-идеологической интеграции на примере Ахсикента.*

***Ключевые слова**: Ахсикент, Новый Узбекистан, духовное обновление, Третий Ренессанс, национальное самосознание, историческая память, тигельная сталь, культурное наследие, патриотизм, археологический памятник, Наманган, Туракурган, культурная дипломатия, туристическая стратегия*

Bugungi kunda O‘zbekistonda davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan tub burilishlar, ma’naviy va ma’rifiy sohadagi yangilanish jarayonlari strategik ahamiyat kasb etmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, "Ma’naviyatsiz taraqqiyotga erishib bo‘lmaydi". Davlatimiz o‘z oldiga uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘vor vazifani qo‘ygan bir davrda, milliy o‘zlikni anglash va tarixiy merosga suyanish strategik zaruratga aylandi. Ushbu ma’naviy evrilishlar jarayonida Farg‘ona vodiysining ko‘hna beshigi — Axsikent (Axsikat) arxeologik yodgorligi shunchaki o‘tmish xarobasi emas, balki xalqimizning intellektual, iqtisodiy va madaniy salohiyatini namoyon etuvchi strategik ma’naviy manbaga aylanmoqda.

Ma’naviy yangilanish jarayonlarining bosh mezoni xalqning o‘z tarixini to‘g‘ri anglashi va undan g‘ururlanishidir. Namangan viloyatining To‘raqo‘rg‘on tumanida joylashgan Axsikent yodgorligi O‘zbekiston hududida qariyb 2500-yil oldin ham yuksak shaharsozlik, davlatchilik madaniyati mavjud bo‘lganini isbotlovchi moddiy dalildir.Axsikentni o‘rganish va uning nufuzini tiklash orqali biz yoshlar ongida manqurtlik kayfiyatiga qarshi immunitet hosil qilamiz. Dovon

(Dayuan) davlati davridan boshlab, Temuriylar va Boburiylar saltanatigacha poytaxt hamda strategik tayanch qal’a bo‘lgan bu shahar tarixdagi harbiy matonat, adolatli boshqaruv (Umarshayx Mirza va yosh Bobur hayoti) namunasidir. Bu esa mamlakatda kechayotgan vatanparvarlik va milliy mafkurani shakllantirish jarayonlarida eng yorqin darslik vazifasini o‘taydi.

Yangi O‘zbekiston ma’naviyatida faqat o‘tmish bilan maqtanish emas, balki ajdodlar zakovatidan kuch olib, bugungi kun innovatsiyalariga poydevor qo‘yish asosiy maqsad qilib olingan. Axsikent bu borada beqiyos strategik imkoniyatga ega.Tarixdan ma’lumki, Axsikent jahonda ilk bor tigel po‘lati (bulat po‘lati) sanoat darajasida ishlab chiqarilgan yirik markazlardan biridir. VII-XIII asrlarda bu yerda tayyorlangan qilich va qurollar butun dunyoga eksport qilingan. Bu fakt bugungi o‘zbekistonliklar qonida muhandislik, metallurgiya, tadbirkorlik va ilm-fan genetik darajada kodlanganini ko‘rsatadi. Axsikent po‘latini o‘rganish va uni milliy brend sifatida dunyoga tanitish — milliy g‘ururni yuksaltirish bilan birga, yosh avlodni aniq fanlar va ishlab chiqarish innovatsiyalariga rag‘batlantirishning ma’naviy drayveridir.

Ma’naviy yangilanish tashqi dunyo bilan ochiqlik va madaniy muloqotni ham ko‘zda tutadi. Axsikent qadimda Buyuk Ipak yo‘lining chorrahasida joylashib, Sharq va G‘arbni bog‘lagan. Bugungi kunda yodgorlik hududida ochiq osmon ostidagi muzeyning tashkil etilishi, "Axsikent" direksiyasi tomonidan olib borilayotgan xalqaro arxeologik qazishmalar O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidagi nufuzini oshirishga xizmat qilmoqda.Axsikentning turistik salohiyatini ishga solish iqtisodiy foyda keltirish bilan bir qatorda, ma’naviy-tarbiyaviy ahamiyatga ega. Hududga kelgan xorijiy sayyohlar o‘zbek xalqining qadimiy sivilizatsiya yaratuvchisi ekaniga guvoh bo‘ladi. Bu o‘z navbatida, mahalliy aholi, ayniqsa, Namangan yoshlarida o‘z yurti va madaniyatiga nisbatan yuksak hurmat va mas’uliyat tuyg‘usini uyg‘otadi.

Axsikentning 1620-yildagi dahshatli zilzila oqibatida yakson bo‘lishi va uning aholisi ko‘chib o‘tib, hozirgi Namangan shahriga asos solishi tarixning eng ramziy va ma’naviy saboqlaridan biridir.Bu voqea xalqimizning har qanday og‘ir sinovlar, tabiiy ofatlar va inqirozlardan keyin ham qayta qad rostlay olish, tushkunlikka tushmay, yangi taraqqiyot o‘choqlarini yarata olish qobiliyatini ko‘rsatadi. Bugungi ma’naviy yangilanish strategiyasida bu xislat — matonat, birdamlik va bunyodkorlik g‘oyalari bilan hamohangdir. Axsikent fojiasi ortidan Namangandek hunarmandlar va gullar shahri bunyod bo‘lgani kabi, bugungi islohotlardagi qiyinchiliklar ortida ham buyuk kelajak yotganini anglatuvchi ma’naviy motivatsiyadir. Ma’naviy yangilanishning strategik yo‘nalishlaridan biri — bu mamlakatda intellektual salohiyatni yuksaltirish va yangi ilmiy kashfiyotlar zaminini yaratishdir. Axsikent nafaqat metallurgiya va hunarmandchilik, balki o‘z davrining yirik ma’rifat va islomiy ilmlar markazi ham bo‘lgan. Tarixiy manbalarda mufassir, muhaddis va fiqh olimlarining "al-Axsikatiy" taxallusi bilan ijod qilgani bejiz emas. Masalan, taniqli fiqh olimi Muhammad al-Axsikatiy va uning izdoshlari yaratgan ilmiy maktablar o‘z davrida sivilizatsiya taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan.

Bugungi Uchinchi Renessans poydevorini qurish jarayonida "Axsikent ilmiy maktabi" an’analarini qayta tiklash strategik imkoniyat hisoblanadi. Zero, qadimgi ilm maskanlarida shakllangan fundamental bilimlarga intilish, ustoz-shogird tizimi va kitobxonlik madaniyati bugungi O‘zbekiston ta’lim tizimidagi islohotlar (Prezident maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablar tizimi) uchun ma’naviy andoza bo‘lib xizmat qiladi. Qadimda ilm va ishlab chiqarish (ilm va amaliyot) qanchalik integratsiya bo‘lganini Axsikent misolida ko‘rish mumkin: olimlar va muhandislar birgalikda ishlab, murakkab qurolsozlik va shishasozlik texnologiyalarini yaratganlar. Yigirma birinchi asr — axborot xurujlari va g‘oyaviy kurashlar keskinlashgan davr. Bunday sharoitda yoshlar ongida ommaviy madaniyat va yot g‘oyalarga qarshi "ma’naviy immunitet"ni shakllantirish davlat xavfsizligining

muhim shartidir. Axsikent bu borada bizning eng kuchli "milliy kodimiz" (national identity code) bo‘la oladi.

Yodgorlik hududidan topilgan mudofaa devorlari, dushman qamallariga (xususan, miloddan avvalgi 103-yildagi Xitoy qo‘shini salkam 40 kunlik qamaliga) qarshi mardonavor turgan qadimgi ajdodlarimiz matonati yoshlarimiz uchun milliy g‘urur darsidir. Yosh avlod virtual dunyodagi soxta Qahramonlarga emas, balki o‘z zaminida haqiqiy jasorat ko‘rsatgan, ilm-fanda dunyoni hayratga solgan Axsikent bunyodkorlariga taqlid qilishi kerak. Bu esa ma’naviy yangilanishning eng oliy strategik maqsadlaridan biri — yoshlarni milliy g‘oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash vazifasini amalda hal etadi. Yangi O‘zbekistonda kechayotgan ma’naviy yangilanish jarayonlarining tarkibiy qismlaridan biri — bu jamiyatda **ekologik madaniyat va ekologik ma’naviyatni** shakllantirishdir. Bugungi global iqlim o‘zgarishi va suv resurslari taqchilligi sharoitida Axsikent sivilizatsiyasi bizga tabiat bilan uyg‘un yashashning unutilgan strategik darslarini taqdim etadi.Arxeologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Axsikentda o‘rta asrlardayoq mukammal va yopiq **karez (yer osti suv yo‘llari) va quvurlar tizimi** hamda muhandislik irrigatsiyasi mavjud bo‘lgan. Shahar aholisi Sirdaryo daryosiga yaqin joylashgan bo‘lsa-da, suv manbalarini ifloslantirmaslik, undan tejamkorlik bilan foydalanish va chiqindilarni utilizatsiya qilishning qat’iy tartiblariga amal qilgan. Axsikent gidrotexnikasi va tozalik madaniyatini o‘rganish — bugungi yosh avlod ongida suvni muqaddas bilish, tabiiy resurslarni asrash kabi sharqona ekologik qadriyatlarni qayta tiklashda muhim ma’naviy drayver bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida, davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan "Yashil makon" umummilliy loyihasining g‘oyaviy va tarixiy ildizlarini ko‘rsatib beradi.

Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish strategiyasi milliy merosimizni eng zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida dunyoga taqdim etishni talab qiladi. Bugun ma’naviyat sohasi raqamli makon bilan integratsiyalashib, **"Raqamli madaniy meros" (Digital Cultural Heritage)** yo‘nalishini yuzaga

keltirmoqda. Axsikent yodgorligi bu borada ulkan innovatsion salohiyatga ega. Shaharning 3D modellarini yaratish, virtual rekonstruksiya (VR) texnologiyalari yordamida qadimgi tigel po‘lati ustaxonalari va Umarshayx Mirza saroyini raqamli formatda qayta tiklash — ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibotni yangi bosqichga olib chiqadi. Yoshlar faqat quruq matn o‘qish orqali emas, balki smartfonlar va interaktiv platformalar orqali Axsikent ko‘chalarini virtual kezish imkoniga ega bo‘lishi lozim.Ushbu raqamli transformatsiya milliy tariximizni xalqaro miqyosda ommalashtirish (soft power — "yumshoq kuch" diplomatiyasi) vositasiga aylanadi va Yangi O‘zbekiston madaniy brendining global axborot maydonidagi raqobatbardoshligini ta’minlaydi.

Xulosa

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Namangan viloyatidagi qadimiy Axsikent yodgorligi Yangi O‘zbekistondagi ma’naviy yangilanish jarayonlarining ulkan **strategik resursidir**. U xalqimizga uchinchi Renessans poydevorini qurishda kerak bo‘ladigan uchta eng muhim omilni beradi:

-Ma’naviy kuch va o‘zlikni anglash: Buyuk o‘tmish va sivilizatsiya egasi ekanligimizni his qilish.

-Intellektual rag‘bat: Ajdodlarimiz qurolsozlik, muhandislik va ilm-fanda dunyoga yetakchilik qilganini bilib, ilmga intilish.

-Iqtisodiy va madaniy yuksalish**:** Turizm va madaniy meros orqali o‘lkani obod qilish va dunyoga tanitish.

Axsikentni asrab-avaylash, uni tadqiq etish va yoshlar qalbiga singdirish — bu shunchaki tarixga ehtirom emas, balki O‘zbekistonning buyuk kelajagi va ma’naviy qudrati uchun kiritilgan eng to‘g‘ri va uzoq muddatli investitsiyadir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – 464 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. J.1. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017.

3. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: “Sharq” NMAK, 2002. – 336 b.

4. Anorboyev A. Qadimgi Axsikat: arxeologik tadqiqotlar va tarix. – Toshkent: “Fan”, 2011.

5. Matboboyev B., Maqsudov F. Farg‘ona vodiysining qadimgi va o‘rta asrlar shaharlari (arxeologik ma’lumotlar asosida). – Farg‘ona, 2018.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-sonli Qarori.

7. Askarov A.A. O‘zbek xalqining kelib chiqishi tarixi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2015. *(Axsikent hududidagi qadimgi etnik jarayonlarni asoslash uchun).*

8. Azizxo‘jayev A.A. Mustaqillik: Ma’naviyat asoslari. – Toshkent: “Sharq”, 2001. *(Ma’naviy yangilanish konsepsiyasini nazariy boyitish uchun)*.

"RAVZAT US-SAFO" ASARIDA TEMURIYLAR DAVRI TARIXINING MANBASHUNOSLIK TAHLILI

Maxmudov Kalimullo Mas’ud o’g’li

Hidoya o‘rta maxsus islom ta’lim muassasasi o‘qituvchisi

E-mail: Maxmudovkalimullo01@gmail.com

Tel: 995406633

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21126058

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Mirxondning mashhur tarixiy asari "Ravzat us-safo fi sirat al-anbiyo val-muluk val-xulafa"da Temuriylar davri tarixining yoritilishi manbashunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Asarning yaratilish sharoiti, muallifning ilmiy-uslubiy yondashuvi, foydalanilgan tarixiy manbalari hamda Temuriylar sulolasi haqidagi ma'lumotlarning ishonchlilik darajasi o‘rganilgan. Shuningdek, "Ravzat us-safo"ning Temuriylar davri tarixini tadqiq etishdagi ilmiy ahamiyati va boshqa tarixiy manbalar bilan o‘zaro qiyosiy tahlili yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Ravzat us-safo, Mirxond, Temuriylar, Amir Temur, Shohrux, Husayn Boyqaro, tarixshunoslik, manbashunoslik, Xuroson, tarixiy manbalar*

Аннотация: *В данной статье с источниковедческой точки зрения анализируется освещение истории эпохи Тимуридов в известном историческом труде Мирхонда* ***«Равзат ас-сафа фи сират ал-анбия ва-л-мулук ва-л-хулафа»****. Исследуются условия создания произведения, научно-методологический подход автора, использованные исторические источники, а также степень достоверности сведений о династии Тимуридов. Кроме того, раскрываются научное значение «Равзат ас-сафа» в изучении истории Тимуридов и результаты сравнительного анализа с другими письменными историческими источниками.*

Ключевые слова: *Равзат ас-сафа, Мирхонд, Тимуриды, Амир Темур, Шахрух, Хусейн Байкара, историография, источниковедение, Хорасан, исторические источники*

Abstract: *This article presents a source-based analysis of the representation of the Timurid period in* ***"Rawzat al-Safa fi Sirat al-Anbiya wa al-Muluk wa al-Khulafa"****, the renowned historical work of Mirkhwand. The study examines the historical context of the work's composition, the author's methodological approach, the historical sources employed, and the reliability of the information concerning the Timurid dynasty. Furthermore, the article highlights the scholarly significance of Rawzat al-Safa for the study of Timurid history and provides a comparative source analysis with other historical chronicles.*

Keywords: *Rawzat al-Safa, Mirkhwand, Timurids, Amir Timur, Shah Rukh, Husayn Bayqara, historiography, source studies, Khurasan, historical sources*

KIRISH

Temuriylar davri Markaziy Osiyo va Xuroson tarixining eng yuksak taraqqiyot bosqichlaridan biri bo‘lib, siyosiy barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish, ilm-fan, madaniyat va san’atning ravnaq topishi bilan jahon sivilizatsiyasi tarixida alohida o‘rin egallaydi. XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr davomida Amir Temur hamda uning avlodlari tomonidan barpo etilgan qudratli davlat nafaqat harbiy-siyosiy salohiyati, balki ilmiy va madaniy yuksalishi bilan ham ajralib turadi. Ayniqsa, Samarqand va Hirot shaharlari Sharq uyg‘onish davrining yirik ilmiy va madaniy markazlariga aylangan bo‘lib, bu yerda tarix, adabiyot, me'morchilik, astronomiya va boshqa fanlar jadal rivojlandi.

Temuriylar davri tarixini ilmiy jihatdan tadqiq etishda yozma manbalar alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur davrga oid voqealarni yorituvchi mahalliy va xorijiy tarixchilarning asarlari tarixiy haqiqatni tiklash, siyosiy jarayonlarni tahlil qilish hamda davlat boshqaruvi tizimini o‘rganishda muhim manba vazifasini bajaradi. Ayniqsa, Temuriylar saroyida yoki ularga yaqin muhitda yashab ijod

qilgan tarixchilarning asarlari davr voqealarini bevosita kuzatgan yoki ishonchli ma'lumotlarga tayangan holda yozilgani bilan ilmiy qimmatga ega.

Shunday muhim tarixiy manbalardan biri XV asrning mashhur tarixchisi Mirxond tomonidan yaratilgan **"Ravzat us-safo fi sirat al-anbiyo val-muluk val-xulafa"** asaridir. Ushbu ko‘p jildli tarixiy asar islom tarixini payg‘ambarlar davridan boshlab muallif yashagan zamongacha bo‘lgan voqealarni izchil va tizimli ravishda bayon etuvchi universal tarix hisoblanadi. Asar o‘zining keng qamrovi, tarixiy voqealarni ketma-ketlikda yoritishi, turli manbalarga tayanganligi hamda ilmiy uslubining mukammalligi bilan Sharq tarixshunosligining eng yirik namunalaridan biri sanaladi.

"Ravzat us-safo"ning Temuriylar sulolasi tarixiga bag‘ishlangan qismlari alohida ilmiy ahamiyatga ega. Unda Amir Temurning siyosiy faoliyati, harbiy yurishlari, davlatni boshqarish tamoyillari, shuningdek Shohrux Mirzo, Ulug‘bek, Husayn Boyqaro kabi hukmdorlarning siyosiy faoliyati, ichki va tashqi siyosati, diplomatik aloqalari hamda mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar batafsil yoritilgan. Shu bilan birga, asarda ilm-fan, adabiyot, me'morchilik va tasviriy san'at taraqqiyoti, saroy muhitidagi ilmiy-ma'rifiy faoliyat ham keng aks ettirilgan. Bu esa asarni faqat siyosiy tarix manbasi emas, balki ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tarixni o‘rganishda ham muhim manbaga aylantiradi.

Mirxond o‘z asarini yaratishda undan avvalgi tarixiy manbalar, rasmiy hujjatlar, og‘zaki rivoyatlar hamda saroy muhitida mavjud bo‘lgan tarixiy ma'lumotlardan keng foydalangan. Shu sababli "Ravzat us-safo" keyingi davr tarixchilari, jumladan Xondamir va boshqa muarrixlar uchun ham asosiy manbalardan biri bo‘lib xizmat qilgan. Asarning tarixiy qiymati uning voqealarni tizimli yoritishi, shaxslar faoliyatiga xolisona baho berishga intilishi hamda ayrim voqealar yuzasidan boshqa tarixiy manbalarni to‘ldiruvchi ma'lumotlarni o‘z ichiga olishi bilan belgilanadi.

Temuriylar tarixining yoritilishi. Mirxondning **"Ravzat us-safo"** asari Temuriylar sulolasi tarixini o‘rganishda eng muhim yozma manbalardan biri hisoblanadi. Asarda Amir Temur va uning avlodlari faoliyati nafaqat siyosiy voqealar ketma-ketligi sifatida, balki davlat boshqaruvi, harbiy san’at, iqtisodiy taraqqiyot, ilm-fan va madaniyat rivoji bilan uzviy bog‘liq holda yoritilgan. Muallif voqealarni bayon etishda tarixiy faktlarni axloqiy va tarbiyaviy g‘oyalar bilan uyg‘unlashtirib, hukmdor shaxsining fazilatlarini davlat ravnaqi bilan chambarchas bog‘laydi. Shu jihatdan asar nafaqat tarixiy ma'lumotlar majmuasi, balki o‘z davrining siyosiy-ma'naviy qarashlarini aks ettiruvchi muhim tarixnavislik yodgorligi sifatida ham katta ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Asarning asosiy e'tibor markazida buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temurning siyosiy faoliyati turadi. Mirxond Temurning hokimiyat tepasiga kelish jarayonini, Movarounnahr hududida tarqoqlik va ichki nizolarga barham berish yo‘lida olib borgan kurashlarini batafsil bayon qiladi. Muallifning ta'kidlashicha, Amir Temurning asosiy maqsadi markazlashgan va mustahkam davlat barpo etish bo‘lgan. Shu sababli u turli qabila va mahalliy hukmdorlarni yagona siyosiy markaz atrofida birlashtirishga intilgan. Bu jarayonda Temurning qat'iy siyosiy irodasi, harbiy iste'dodi va uzoqni ko‘ra bilish qobiliyati alohida ta'kidlanadi.[103]

Mirxond Amir Temurning harbiy yurishlarini ham keng yoritadi. Xuroson, Eron, Iroq, Kavkaz, Hindiston, Oltin O‘rda hamda Kichik Osiyoga uyushtirilgan harbiy yurishlar nafaqat g‘alabalar ketma-ketligi sifatida, balki davlat xavfsizligini ta'minlash, savdo yo‘llarini nazorat qilish va siyosiy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan strategik tadbirlar sifatida izohlanadi. Ayniqsa, Anqara jangidagi g‘alaba, To‘xtamishxon bilan olib borilgan kurashlar hamda Samarqandning qudratli imperiya markaziga aylanishi muallif tomonidan yuksak baholanadi. Biroq Mirxond voqealarni ko‘proq saroy tarixchiligi ruhida bayon

[103] Jumayev G.I. “Audiomanuscript” – a project on the study of oriental manuscript sources. // *Journal of Social Research in Uzbekistan*, 2023. – P. 50–52.

qilgani sababli Temurning harbiy yurishlari oqibatida yuzaga kelgan iqtisodiy va demografik talafotlar haqida batafsil ma'lumot bermaydi. Bu esa asarning manbashunoslik tahlilida tanqidiy yondashuvni talab etadigan jihatlardan biri hisoblanadi.[104]

Asarda Amir Temurning davlat boshqaruvi sohasidagi islohotlari ham alohida o‘rin egallaydi. Muallif hukmdorning adolatni qaror toptirish, soliqlarni tartibga solish, harbiy boshqaruvni takomillashtirish, davlat idoralarining samarali faoliyat yuritishini ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlarini e'tirof etadi. Samarqandning obodonlashtirilishi, me'morchilik inshootlarining bunyod etilishi, bog‘lar, madrasa va masjidlarning qurilishi Temurning bunyodkorlik siyosatining yorqin namunasi sifatida ko‘rsatiladi. Muallif nazarida kuchli davlat faqat harbiy qudrat bilan emas, balki adolatli boshqaruv, iqtisodiy taraqqiyot va ilm-fan rivoji bilan ham mustahkamlanadi.[105]

Mirxond Amir Temur shaxsiga baho berar ekan, uni adolatli, dono, qat'iyatli va xalq manfaatini ko‘zlagan hukmdor sifatida tasvirlaydi. Temur faoliyatidagi siyosiy muvaffaqiyatlar ko‘pincha uning shaxsiy fazilatlari bilan izohlanadi. Bunday yondashuv o‘rta asr musulmon tarixnavisligiga xos bo‘lib, hukmdor obrazini ideal darajaga ko‘tarish orqali davlat boshqaruvi uchun namunaviy timsol yaratishga xizmat qilgan. Shu bois "Ravzat us-safo"dagi Temur obrazi tarixiy haqiqat bilan bir qatorda muallifning siyosiy qarashlari va saroy tarixchiligi an'analarining ham mahsuli hisoblanadi.

Asarda Shohrux Mirzo hukmronligi Temuriylar davlatining eng barqaror davrlaridan biri sifatida tavsiflanadi. Mirxond Shohruxni otasi asos solgan davlatni mustahkamlagan, ichki tinchlikni ta'minlagan va iqtisodiy taraqqiyotga katta e'tibor qaratgan hukmdor sifatida baholaydi. Uning davrida savdo-sotiq rivojlanib, Buyuk

[104] Mirkhondning **“Ravzat us-safo”** asarida Jaloliddin Manguberdi zikri. / Mas’ul muharrir M. Xayrullayev. So‘zboshi va tabdil muallifi Mahmud Hasaniy. – Toshkent: Fan, 1999. – B. 4.
[105] Jumayev G.I. Oq qo‘yunli etnonimining etimologiyasi. // *Scholar Scientific Journal*. Volume 1, Issue 34. December, 2023. – P. 85–90.

Ipak yo‘li orqali xalqaro iqtisodiy aloqalar yanada kengaydi. Shuningdek, qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik va shaharsozlikning taraqqiy etgani haqida ham qimmatli ma'lumotlar keltiriladi. Muallif mamlakatda siyosiy barqarorlik hukm surganligi ilm-fan va madaniyatning ravnaq topishiga qulay sharoit yaratganini alohida ta'kidlaydi.

Shohrux davrida Hirot shahri musulmon Sharqining yirik ilmiy va madaniy markaziga aylangani ham asarda batafsil yoritilgan. Mirxond olimlar, shoirlar, xattotlar va san'atkorlarning faoliyatini e'tirof etib, hukmdorning ilm ahliga ko‘rsatgan homiyligini yuqori baholaydi. Ayniqsa, madrasalar, kutubxonalar va ilmiy muassasalarning rivojlanishi mamlakatning ma'naviy taraqqiyotiga xizmat qilgan omillar sifatida ko‘rsatiladi.

Husayn Boyqaro hukmronligi esa Mirxond tomonidan Temuriylar davri madaniy yuksalishining eng yuqori bosqichi sifatida tavsiflanadi. Muallif ushbu davrni ilm-fan, adabiyot, san'at va me'morchilikning ravnaq topgan davri deb hisoblaydi. Ayniqsa, Hirotning Sharq uyg‘onishining yirik markaziga aylanishi, saroyda ilm-fan vakillariga yaratilgan sharoitlar va ijodkorlarga ko‘rsatilgan e'tibor alohida qayd etiladi. Bu davrda tarixnavislik, tasviriy san'at, musiqa va adabiyotning rivojlanishi Temuriylar davlatining yuksak madaniy salohiyatini namoyon etadi.

Mirxond Alisher Navoiy faoliyatiga ham alohida e'tibor qaratadi. Navoiy davlat arbobi, buyuk mutafakkir va ma'rifatparvar sifatida tavsiflanib, uning ilm-fan, adabiyot va xayriya ishlari yo‘lidagi xizmatlari yuksak baholanadi. Muallif Navoiy tomonidan qurdirilgan madrasalar, masjidlar, xonaqohlar va boshqa bunyodkorlik ishlari haqida ma'lumot berib, ularni jamiyat ma'naviy taraqqiyotining muhim omillari sifatida ko‘rsatadi. Bu ma'lumotlar Temuriylar

davridagi madaniy muhitni, davlat va ilm-fan o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni hamda hukmdorlar va ziyolilar hamkorligini o‘rganishda alohida ilmiy ahamiyatga ega.[106]

Umuman olganda, **"Ravzat us-safo"** asarida Temuriylar davri tarixi siyosiy voqealar bilan cheklanib qolmay, davlat boshqaruvi, harbiy san'at, iqtisodiy taraqqiyot, ilm-fan, madaniyat va ma'naviy hayotning uzviy rivojlanishi bilan bog‘liq holda yoritilgan. Muallif voqealarni o‘z davrining tarixiy tafakkuri va tarixnavislik an'analari asosida bayon qilgan bo‘lsa-da, asarda keltirilgan ma'lumotlar Temuriylar tarixini manbashunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etishda bebaho ilmiy manba hisoblanadi. Shu bilan birga, undagi ma'lumotlarni boshqa zamondosh manbalar bilan qiyosiy tahlil qilish tarixiy voqealarning haqqoniyligini aniqlash va Temuriylar davrining siyosiy hamda madaniy taraqqiyotini yanada chuqurroq yoritish imkonini beradi.

XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Mirxondning **"Ravzat us-safo"** asari Temuriylar davri tarixini o‘rganishda eng muhim va ishonchli yozma manbalardan biri hisoblanadi. Asarning Temuriylar sulolasiga bag‘ishlangan qismlarida Amir Temur va uning vorislarining siyosiy faoliyati, davlat boshqaruvi tizimi, harbiy yurishlari, diplomatik aloqalari, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti hamda ilm-fan va madaniyat rivoji izchil va batafsil yoritilgan. Muallif voqealarni bayon etishda tarixiy ketma-ketlikni saqlagan holda, hukmdorlar faoliyatiga keng o‘rin ajratgan va ularning davlat taraqqiyotidagi o‘rnini ochib berishga harakat qilgan.

Manbashunoslik nuqtai nazaridan qaralganda, "Ravzat us-safo" o‘zining mazmuni, tuzilishi va foydalanilgan manbalarning xilma-xilligi bilan alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Mirxond o‘zidan oldingi tarixiy asarlar, rasmiy hujjatlar, saroy an'analari hamda zamondoshlarining ma'lumotlariga tayangan holda Temuriylar davri tarixini umumlashtirishga muvaffaq bo‘lgan. Shu sababli asar keyingi davr

[106] Mirkhond, Muhammad ibni Khovandshoh ibni Mahmud. *The History of “Ravzat us-Safa”*. Vol. 10. – Tehran, 1339/1960. – 631 p.

tarixchilari, jumladan Xondamir va boshqa muarrixlar uchun ham muhim asosiy manbalardan biri bo‘lib xizmat qilgan.

Biroq asarni ilmiy tadqiq etishda uning yaratilgan siyosiy va mafkuraviy muhitini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Muallifning Temuriylar saroyiga yaqin bo‘lgani ayrim hukmdorlar faoliyatining ideallashtirilishi, ayrim siyosiy voqealarning esa biryoqlama talqin qilinishiga olib kelgan. Shu bois "Ravzat us-safo"dagi ma'lumotlarni boshqa zamondosh yozma manbalar, arxiv hujjatlari, epigrafik yodgorliklar va arxeologik topilmalar bilan qiyosiy tahlil qilish tarixiy haqiqatni yanada aniqroq tiklash imkonini beradi. Bunday yondashuv manbaning ishonchlilik darajasini baholash va undagi tarixiy axborotning ilmiy qiymatini yanada chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, "Ravzat us-safo" faqat siyosiy tarixni emas, balki Temuriylar davridagi davlat boshqaruvi, diplomatik munosabatlar, ijtimoiy hayot, ilm-fan, madaniyat va ma'naviy muhitni o‘rganishda ham muhim tarixiy manba hisoblanadi. Asarda keltirilgan ma'lumotlar Temuriylar davrining ko‘plab tarixiy jarayonlarini izohlash, ularning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda davrning umumiy tarixiy manzarasini tiklashda katta ilmiy ahamiyatga ega.

Mirxondning "Ravzat us-safo" asari Temuriylar davri tarixini tadqiq etishda o‘zining tarixiy va manbashunoslik qiymatini bugungi kunda ham saqlab qolmoqda. Asarni zamonaviy tarixshunoslik va manbashunoslik metodlari asosida chuqur o‘rganish, uni boshqa tarixiy manbalar bilan qiyosiy tahlil qilish hamda ilmiy muomalaga kengroq jalb etish Temuriylar davri tarixining kam o‘rganilgan jihatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Bu esa nafaqat milliy tarixshunoslikning rivojlanishiga, balki jahon tarix fanida Temuriylar davri bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlarning ilmiy asoslarini yanada boyitishga muhim hissa qo‘shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirkhondning **“Ravzat us-safo”** asarida Jaloliddin Manguberdi zikri. / Mas’ul muharrir M. Xayrullayev. So‘zboshi va tabdil muallifi Mahmud Hasaniy. – Toshkent: Fan, 1999. – B. 4.

2. Jumayev G.I. “Audiomanuscript” – a project on the study of oriental manuscript sources. // *Journal of Social Research in Uzbekistan*, 2023. – P. 50–52.

3. Jumayev G.I. Oq qo‘yunli etnonimining etimologiyasi. // *Scholar Scientific Journal*. Volume 1, Issue 34. December, 2023. – P. 85–90.

4. Jumayev G.I. Boyondurlar: tarixi va etimologiyasi. // *Educational Research in Universal Sciences*. Volume 2, Issue 17. December, 2023. – P. 215–219.

5. Jumayev G.I., Doniyorov A.X. va boshq. *History of the Study of “Temur Tuzuklari” (Temur’s Regulations or Temur’s Laws).* // *New York Academic Research Congress on Social, Humanities, Administrative, and Educational Sciences Proceedings Book*. – Turkiye, 2024. – P. 972–975.

6. Ishoqov M.M., Jumayev G.I. “Habib us-siyar” va “Matla us-sa’dayn” asarlarida diplomatik va elchilik munosabatlarining aks ettirilishi. // *Sharqshunoslik / Vostokovedeniye / Oriental Studies*. 2022. №1. – Toshkent. – B. 120–132.

7. Mirkhond, Muhammad ibni Khovandshoh ibni Mahmud. *The History of “Ravzat us-Safa”*. Vol. 10. – Tehran, 1339/1960. – 631 p.

8. Mirkhond, Muhammad. *Ta’rikhi Ravzat us-Safo fi Siratil Anbiyo val Muluk val Khulafa* [Matn] / M. Mirkhond; tashih va tahshiya Jamshidi Kayonfar. J. 1. – Tehran: Intishoroti Piruz, 1338. – 812 b.

9. Jumayev G.I., Norqulov I.J., Doniyorov A.X., Karimov N.R. *Boburnomada Qora qo‘yunlilar hukmdori Jahonshoh haqidagi ma’lumotlar.* // **“Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur Merosi – Mo‘tabar Madaniy Manba”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. I-qism. – Toshkent, 2024. – B. 319–322.

10. Jumayev G.I. *Temuriy hukmdor Shohrux Mirzo davrida Temuriylar va Qoraqo‘yunli orasidagi munosabatlarining manbalardagi tavsifi.* // *2nd International Azerbaijan Congress on Life, Social, Health, and Art Sciences*. August 13–14, 2022. Congress Proceedings Book. ISBN: 978-605-73228-1-4. 2022.

11. Jumayev G.I. *Temuriy Sulton Ahmad Mirzoning “Boburnoma” va boshqa manbalardagi tavsifi.* // *International Istanbul Congress Proceedings Book*. 2022.

AXSIKENT TARIXIY-MADANIY MEROSI: UNI ASRASH, TURIZMNI RIVOJLANTIRISH VA TA’LIM JARAYONIDA FOYDALANISH

Ja’farov Ibrohimjon

Namangan davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Tel: + 907409494

E-mail: ibrohimjafarov@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21126228

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Axsikent tarixiy-madaniy merosining bugungi kundagi ahamiyati, uni asrash va kelajak avlodlarga yetkazish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, Axsikentning turizm salohiyati, ta’lim tizimidagi o‘rni hamda tarixiy obidalarni ommalashtirishning zamonaviy usullari yoritiladi. Maqolada hududning tarixiy, madaniy va ilmiy qiymatini oshirishga xizmat qiluvchi taklif va tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Axsikent, tarixiy meros, madaniy turizm, arxeologiya, tarixiy obidalar, ta’lim, merosni muhofaza qilish*

Аннотация: *В данной статье анализируется современное значение историко-культурного наследия Ахсикента, вопросы его сохранения и передачи будущим поколениям. Освещаются туристический потенциал Ахсикента, его роль в системе образования, а также современные подходы к популяризации исторических памятников. В статье представлены предложения и рекомендации, направленные на повышение исторической, культурной и научной ценности данного объекта.*

Ключевые слова: *Ахсикент, историческое наследие, культурный туризм, археология, исторические памятники, образование, охрана культурного наследия*

Abstract: *This article examines the contemporary significance of Axsikent's historical and cultural heritage, focusing on its preservation and transmission to*

future generations. It highlights the tourism potential of Axsikent, its educational importance, and modern approaches to promoting historical monuments. The article also provides recommendations aimed at enhancing the historical, cultural, and scientific value of this heritage site.

Keywords: *Axsikent, historical heritage, cultural tourism, archaeology, historical monuments, education, cultural heritage preservation*

Kirish. O‘zbekiston hududi qadim zamonlardan buyon yuksak sivilizatsiyalar shakllangan, Buyuk Ipak yo‘li chorrahasida joylashgan va boy tarixiy-madaniy merosga ega bo‘lgan o‘lkalardan biri hisoblanadi. Mamlakatimiz hududida joylashgan ko‘plab qadimiy shaharlar nafaqat xalqimizning boy o‘tmishini aks ettiradi, balki jahon sivilizatsiyasi rivojiga ham munosib hissa qo‘shgan. Ana shunday tarixiy maskanlardan biri Axsikent bo‘lib, u o‘zining qadimiy tarixi, noyob me’moriy yodgorliklari va arxeologik topilmalari bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Axsikent qadimda Farg‘ona vodiysining yirik siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri sifatida rivojlangan. Ushbu shahar qulay geografik joylashuvi tufayli Buyuk Ipak yo‘lining muhim nuqtalaridan biri bo‘lib, Sharq va G‘arb mamlakatlari o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy hamda madaniy aloqalarning rivojlanishida muhim o‘rin tutgan. Shaharda hunarmandchilik, savdo-sotiq, metallga ishlov berish, kulolchilik va boshqa kasb-hunar turlari taraqqiy etgan. Bu esa Axsikentning o‘z davrida yirik iqtisodiy markazlardan biri bo‘lganini ko‘rsatadi.

Tarixiy manbalarda Axsikent Farg‘ona hukmdorlarining muhim siyosiy markazlaridan biri sifatida tilga olinadi. Turli davrlarda bu yerda yirik davlat arboblari, olimlar, hunarmandlar va savdogarlar faoliyat yuritgan. Shaharning rivojlangan mudofaa inshootlari, saroylari, masjidlari, bozorlari hamda turar joy majmualari uning yuksak shaharsozlik madaniyatiga ega bo‘lganidan dalolat

beradi. Axsikent nafaqat iqtisodiy va siyosiy markaz, balki ilm-fan va madaniyat rivoj topgan maskan sifatida ham tarixda muhim o‘rin egallaydi.

Bugungi kunda Axsikent yodgorligi nafaqat arxeologik tadqiqotlar obyekti, balki tarixiy merosni asrab-avaylash, uni ilmiy jihatdan o‘rganish va kelajak avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan ko‘plab noyob ashyolar o‘sha davr aholisi turmush tarzi, iqtisodiy faoliyati, madaniyati va shaharsozlik an’analari haqida qimmatli ma’lumotlar bermoqda. Ushbu topilmalar O‘zbekiston tarixini yanada chuqurroq o‘rganish va xalqimizning boy madaniy merosini dunyoga tanitishda muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda tarixiy obidalarni muhofaza qilish, ularni restavratsiya qilish va turizm salohiyatini oshirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, Axsikent tarixiy yodgorligini o‘rganish, uning infratuzilmasini rivojlantirish, zamonaviy turizm xizmatlarini yo‘lga qo‘yish va mahalliy hamda xorijiy sayyohlar uchun jozibador maskanga aylantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa nafaqat madaniy merosni asrash, balki hududning iqtisodiy rivojlanishi va yangi ish o‘rinlari yaratilishiga ham xizmat qilmoqda.

Axsikentning tarixiy ahamiyati. Axsikent Markaziy Osiyoning eng qadimiy va yirik tarixiy shaharlaridan biri bo‘lib, u Farg‘ona vodiysining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida muhim o‘rin tutgan. Shahar bugungi Namangan viloyati hududida joylashgan bo‘lib, qadimdan qulay geografik o‘rni, unumdor yerlar va savdo yo‘llariga yaqinligi tufayli yirik shahar sifatida rivojlangan. Tarixiy manbalarda Axsikent Farg‘ona hukmdorlarining qarorgohi, yirik savdo markazi va ilm-fan rivojlangan maskan sifatida qayd etiladi. Arxeologik tadqiqotlar natijasida aniqlangan topilmalar ushbu shaharning o‘rta asrlarda Markaziy Osiyoning eng taraqqiy etgan shaharlaridan biri bo‘lganini tasdiqlaydi.

Axsikentning tarixiy ahamiyati, avvalo, uning siyosiy markaz sifatidagi mavqei bilan bog‘liq. Ilk va rivojlangan o‘rta asrlarda shahar Farg‘ona vodiysining muhim ma’muriy markazlaridan biri bo‘lib xizmat qilgan. Bu yerda hukmdorlar saroylari, mudofaa devorlari, qo‘rg‘onlar va davlat boshqaruvi bilan bog‘liq inshootlar bunyod etilgan. Shaharning mustahkam qal’a devorlari, minoralari va darvozalari uning strategik ahamiyatini ko‘rsatadi. Tarix davomida Axsikent turli sulolalar hukmronligi davrida ham o‘z mavqeini saqlab qolgan va mintaqaning siyosiy hayotida muhim rol o‘ynagan.[107]

Shahar iqtisodiy jihatdan ham nihoyatda rivojlangan edi. Axsikent Buyuk Ipak yo‘lining muhim tarmoqlaridan biri ustida joylashgani sababli Sharq va G‘arb mamlakatlari o‘rtasidagi savdo aloqalarida katta ahamiyat kasb etgan. Bu yer orqali Xitoy, Hindiston, Eron, Arab xalifaligi va boshqa hududlardan turli mahsulotlar olib kelingan hamda mahalliy hunarmandlar tayyorlagan buyumlar boshqa mamlakatlarga eksport qilingan. Savdo-sotiqning rivojlanishi shaharda bozorlar, karvonsaroylar, omborxonalar va savdo rastalarining ko‘payishiga sabab bo‘lgan. Karvonlar uchun yaratilgan qulay sharoitlar Axsikentni xalqaro savdo markazlaridan biriga aylantirgan.

Arxeologik qazishmalar natijasida shaharda hunarmandchilikning ko‘plab turlari rivojlanganligi aniqlangan. Ayniqsa, metallga ishlov berish san’ati Axsikentning asosiy iqtisodiy tarmoqlaridan biri bo‘lgan. Bu yerda temir, po‘lat, mis va bronzadan turli mehnat qurollari, qurol-yarog‘lar, uy-ro‘zg‘or buyumlari hamda zeb-ziynat buyumlari tayyorlangan. Tadqiqotchilar Axsikent po‘latiga yuqori sifatli mahsulot sifatida baho beradilar. Temirchilik va qurolsozlikning rivojlanganligi shaharning harbiy hamda iqtisodiy qudratini mustahkamlagan.[108]

[107] Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
[108] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

Kulolchilik ham Axsikent hunarmandchiligining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblangan. Arxeologlar tomonidan topilgan sirlangan va sirlanmagan sopol idishlar, laganlar, ko‘zalar, xumlar va bezakli buyumlar kulollar yuqori mahoratga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Ushbu mahsulotlar nafaqat mahalliy aholining ehtiyojini qondirgan, balki boshqa hududlarga ham olib chiqilgan. Kulolchilik mahsulotlaridagi bezaklar va naqshlar o‘sha davr san’ati hamda estetik qarashlarini aks ettiradi.

Shaharda shaharsozlik madaniyati ham yuqori darajada rivojlangan edi. Qazishmalar natijasida keng ko‘chalar, turar joylar, hammomlar, masjidlar, ustaxonalar, suv inshootlari va kanalizatsiya tizimlari aniqlangan. Bu esa Axsikent aholisi o‘sha davr uchun zamonaviy hisoblangan muhandislik va me’morchilik yutuqlaridan foydalanganini ko‘rsatadi. Shahar hududi reja asosida qurilgan bo‘lib, uning markazida ma’muriy binolar va bozorlar, atrofida esa mahallalar hamda hunarmandlar ustaxonalari joylashgan.

Axsikent ilm-fan va madaniyat rivojlangan markazlardan biri sifatida ham mashhur bo‘lgan. Tarixiy manbalarda bu yerda olimlar, faqihlar, shoirlar va xattotlar faoliyat yuritgani qayd etiladi. Masjid va madrasalarda diniy ilmlar bilan bir qatorda matematika, astronomiya, tibbiyot, tarix va adabiyot fanlari ham o‘qitilgan. Bu esa shaharning nafaqat iqtisodiy, balki ma’naviy va ilmiy taraqqiyot markazi bo‘lganini ko‘rsatadi. Ilm ahli va ziyolilar faoliyati tufayli Axsikent butun Movarounnahrdagi muhim ilmiy markazlardan biri sifatida e’tirof etilgan.

Shaharning madaniy hayoti ham sermazmun bo‘lgan. Aholi orasida xalq amaliy san’ati, zargarlik, to‘qimachilik, yog‘och o‘ymakorligi va naqqoshlik rivojlangan. Turli bayramlar, savdo yarmarkalari va madaniy tadbirlar shaharning ijtimoiy hayotini yanada jonlantirib turgan. Arxeologik topilmalardagi bezak elementlari, naqshlar va yozuvlar o‘sha davr madaniyatining yuksak darajada bo‘lganidan dalolat beradi.

Axsikentning mudofaa tizimi ham alohida ahamiyatga ega edi. Shahar baland va qalin devorlar, burjlar hamda xandaqlar bilan o‘ralgan bo‘lib, tashqi hujumlardan ishonchli himoyalangan. Qal’a ichida hukmdor qarorgohi, harbiy garnizon va muhim davlat binolari joylashgan. Bunday mustahkam mudofaa tizimi shaharning uzoq vaqt davomida siyosiy va iqtisodiy markaz sifatida faoliyat yuritishiga imkon yaratgan.

XIII asr boshlarida mo‘g‘ullar istilosi natijasida Axsikent katta talafot ko‘rgan bo‘lsa-da, keyinchalik shahar ma’lum darajada tiklangan. Ammo XV–XVI asrlarda sodir bo‘lgan kuchli zilzilalar va savdo yo‘nalishlarining o‘zgarishi natijasida shahar asta-sekin o‘z ahamiyatini yo‘qota boshlagan. Shunga qaramay, uning xarobalari bugungi kunda ham o‘rta asr shaharsozligi, hunarmandchiligi va madaniyatini o‘rganishda muhim tarixiy manba hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida Axsikent yodgorligini ilmiy jihatdan o‘rganish va asrab-avaylashga alohida e’tibor qaratildi. Arxeologik ekspeditsiyalar natijasida ko‘plab yangi topilmalar aniqlandi, tarixiy obidalarni saqlash va restavratsiya qilish ishlari amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda Axsikent nafaqat tarixchilar va arxeologlar, balki mahalliy va xorijiy sayyohlar uchun ham qiziqarli tarixiy maskanlardan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Axsikent o‘rta asrlarda Farg‘ona vodiysining siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va madaniy taraqqiyotida beqiyos o‘rin tutgan yirik shahar bo‘lgan. Uning Buyuk Ipak yo‘lidagi strategik joylashuvi, rivojlangan hunarmandchiligi, yuksak shaharsozlik madaniyati, ilm-fan va ma’naviyat markazi sifatidagi mavqei Axsikentni Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining muhim markazlaridan biriga aylantirgan. Bugungi kunda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar ushbu qadimiy shaharning tarixini yanada chuqurroq o‘rganish, uning boy madaniy merosini kelajak avlodlarga yetkazish va dunyo miqyosida targ‘ib etishga xizmat qilmoqda.

Axsikent va turizm rivoji. Bugungi kunda O‘zbekistonda tarixiy-madaniy meros obyektlarini turizm sohasiga keng jalb etish davlat siyosatining ustuvor

yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ana shunday muhim turistik maskanlardan biri Axsikent arxeologik yodgorligi bo‘lib, u o‘zining boy tarixi, noyob arxeologik topilmalari va madaniy merosi bilan mahalliy hamda xorijiy sayyohlarni o‘ziga jalb etmoqda. Farg‘ona vodiysining qadimiy poytaxtlaridan biri sifatida tanilgan Axsikent bugungi kunda tarixiy turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega bo‘lgan hududlardan sanaladi.[109]

So‘nggi yillarda Axsikent yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida qadimiy shahar devorlari, saroy qoldiqlari, hunarmandchilik ustaxonalari va turli madaniy qatlamlar aniqlanib, ular turistik namoyish obyektlariga aylantirilmoqda. Shuningdek, hududda tashkil etilgan muzey ekspozitsiyalari va ko‘rgazmalar tashrif buyuruvchilarga Axsikentning ko‘p asrlik tarixini yaqindan o‘rganish imkoniyatini yaratmoqda. Bu esa tarixiy merosni keng jamoatchilikka tanitish va yosh avlodning milliy tarixga bo‘lgan qiziqishini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Turizmning rivojlanishi hududning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, mehmonxona, transport, ovqatlanish va savdo xizmatlari sohalarining rivojlanishi yangi ish o‘rinlari yaratilishiga, aholi bandligining oshishiga va mahalliy budjet daromadlarining ko‘payishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, turistik oqimning ortishi tarixiy yodgorliklarni saqlash, restavratsiya qilish va ilmiy jihatdan o‘rganish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi.[110]

Axsikentni xalqaro turizm bozorida yanada keng targ‘ib etish uchun zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Jumladan, virtual ekskursiyalar, 3D modellashtirish, elektron kataloglar va ko‘p tilli axborot platformalarini yaratish orqali dunyoning

[109] O‘zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish strategiyasi. – Toshkent, 2019.
[110] Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish masalalari. Ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent: Fan, 2020.

turli mamlakatlaridagi sayyohlarga Axsikent haqida batafsil ma’lumot yetkazish mumkin. Shuningdek, hududda zamonaviy infratuzilmani rivojlantirish, transport qulayliklarini yaxshilash hamda xalqaro standartlarga mos xizmat ko‘rsatish tizimini joriy etish Axsikentning turistik jozibadorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, Axsikent nafaqat O‘zbekistonning boy tarixiy-madaniy merosini aks ettiruvchi noyob yodgorlik, balki mamlakat turizm salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi muhim strategik obyekt hisoblanadi. Uning tarixiy merosini asrash, ilmiy tadqiq etish va xalqaro miqyosda targ‘ib qilish O‘zbekistonning turizm sohasidagi raqobatbardoshligini oshirishda muhim omillardan biri bo‘lib qoladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Axsikent O‘zbekistonning bebaho tarixiy va madaniy meros obyektlaridan biri bo‘lib, xalqimizning ko‘p asrlik davlatchilik, madaniyat va ma’naviy hayotini o‘zida mujassam etgan noyob tarixiy maskan hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Axsikentning boy tarixiy salohiyati turizmni rivojlantirish, ta’lim jarayonini boyitish hamda milliy qadriyatlarni keng targ‘ib etishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu tarixiy yodgorlikni chuqur o‘rganish va ommalashtirish orqali nafaqat tarixiy merosni asrab-avaylash, balki yosh avlodda milliy g‘urur, vatanparvarlik va tarixiy xotiraga hurmat tuyg‘ularini shakllantirish mumkin.

Shuningdek, Axsikentning turistik imkoniyatlaridan samarali foydalanish mamlakatimizning ichki va xalqaro turizm salohiyatini oshirishga, hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Tarixiy meros obyektlarini zamonaviy yondashuvlar asosida targ‘ib qilish va ulardan ta’limiy maqsadlarda foydalanish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Takliflar:

– Axsikent tarixiy yodgorligi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni yanada kengaytirish va yangi arxeologik izlanishlarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

– Axsikent haqidagi ma’lumotlarni maktab, kollej va oliy ta’lim muassasalari o‘quv dasturlariga kengroq kiritish lozim.

– Tarixiy obidani targ‘ib qilish uchun zamonaviy axborot texnologiyalari, virtual ekskursiyalar va raqamli platformalardan samarali foydalanish zarur.

– Ichki va tashqi turizmni rivojlantirish maqsadida Axsikentga oid turistik marshrutlar va madaniy-ma’rifiy tadbirlar sonini ko‘paytirish tavsiya etiladi.

– Yoshlar o‘rtasida tarixiy merosga hurmatni kuchaytirish uchun Axsikentga bag‘ishlangan tanlovlar, seminarlar, konferensiyalar va ekskursiyalarni muntazam ravishda tashkil etish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

3. Asqarov A.A. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.

4. Ahmedov B.A. O‘zbekiston xalqlari tarixi manbalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.

5. Rtveladze E.V. O‘zbekistonning tarixiy-madaniy yodgorliklari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.

6. Xasanov A. O‘zbekistonning tarixiy geografiyasi. – Toshkent: Universitet, 2017.

7. Muhammadjonov A. Qadimgi Farg‘ona tarixi. – Toshkent: Fan, 2016.

8. Bobobekov H. Farg‘ona vodiysi tarixi. – Toshkent: Sharq, 2018.

9. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 1–12-jildlar. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2000–2023.

10. Axsikent: tarix va taraqqiyot. Ilmiy maqolalar to‘plami. – Namangan, 2022.

11. Farg‘ona vodiysi arxeologiyasi. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2021.

12. O‘zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish strategiyasi. – Toshkent, 2019.

13. Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish masalalari. Ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent: Fan, 2020.

14. Namangan viloyati tarixiy obidalari va ziyoratgohlari. – Namangan, 2023.

15. Axsikent arxeologik merosi va uning turizm salohiyati. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Namangan, 2024.

YANGI O‘ZBEKISTONDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDA AXSIKENT TARIXIY MEROSINING O‘RNI

Abduvoxidov Qobiljon Komiljon o‘g‘li

Namangan davlat pedagogika instituti

Falsafiy va tarixiy fannlar kafedrasi tayanch doktoranti

E-mail: *Abduvohidovqobiljon2001@gmail.com*

https://orcid.org/0009-0006-2605-1756

Tel: *+998 91 053 88 01*

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.21267078

Annotatsiya: Qadriyat tushunchasining mohiyati, mazmuni, namoyon bo‘lish shakllari juda ham uzoq tarixga ega. Shuning uchun ham qadriyatlarni o‘rganish uchun avvalo tarixga murojaat qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi, chunki u orqali qadriyatlarni shakllanish jarayoni va xususiyatlarini bilib olishimiz mumkin. Ushbu maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlar ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish masalalarini falsafiy va ma’naviy jihatdan tahlil qilingan. Shu bilan birga, Axsikent shahrining boy tarixiy, madaniy va intellektual merosi hamda uning bugungi kundagi tarbiyaviy ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek muallifning fikrlari, qarashlari, xulosalari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Qadriyatlar, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, Axsikent, qadriyatshunoslik, jamiyat, inson, axloq, ijtimoiy ong, sabr-toqat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik.

Аннотация: Сущность, содержание и формы проявления концепции ценностей имеют глубокие исторические корни. В связи с этим изучение ценностей требует первоочередного обращения к истории, поскольку именно исторический подход позволяет раскрыть особенности и закономерности процесса их формирования. В данной статье с философской и духовно-

нравственной точек зрения анализируются вопросы формирования национальных и общечеловеческих ценностей в сознании молодежи в условиях Нового Узбекистана. Наряду с этим освещается богатый исторический, культурный и интеллектуальный потенциал древнего городища Ахсикент, а также его воспитательное значение в современную эпоху. В работе последовательно изложены авторские суждения, взгляды и ключевые выводы.

Ключевые слова: Ценности, национальные ценности, общечеловеческие ценности, Ахсикент, аксиология, общество, человек, мораль, общественное сознание, терпение, трудолюбие, патриотизм.

Abstract: The essence, content, and forms of manifestation of the concept of values possess a deeply rooted history. Therefore, exploring values necessitates a historical approach, which enables a comprehensive understanding of their formation processes and core characteristics. This article provides a philosophical and spiritual analysis of the issues surrounding the development of national and universal values in the minds of youth within the context of New Uzbekistan. Furthermore, the rich historical, cultural, and intellectual heritage of the ancient city of Akhsikent, along with its contemporary educational significance, is comprehensively highlighted. The author’s insights, perspectives, and ultimate conclusions are systematically presented in the paper

Keywords: Values, national values, universal values, Akhsikent, axiology (qadriyatshunoslik), society, human, morality, social consciousness, tolerance (sabr-toqat), hard work, patriotism.

Axsikentning tarixiy rivojlanishi mil.avv. IV–III asrlardan boshlab shakllanib, ilk o‘rta asrlarga kelib to‘liq rivojlangan siyosiy-hududiy markaz ko‘rinishiga ega bo‘lgan. Uning geografik joylashganligi Farg‘ona vodiysining g‘arbiy qismida, qadimiy savdo yo‘llari kesishgan hududlarga to‘g‘ri kelishi, shaharni mintaqaviy siyosiy tuzilmalar uchun muhim tayanch nuqtaga aylantirgan.

Shahar bir necha tarixiy bosqichlarda Farg‘ona vodiysi siyosiy boshqaruvining markazi vazifasini bajargan [1]. Bu haqidagi ma’lumotlarni Mirzo Ulug‘bekning “Tarixi arba’ ulus”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarlarida uchratishimiz mumkin. Axsikentning ilk shakllanishi jarayonlari Farg‘ona vodiysi madaniyatining qadimgi urbanizatsiya jarayonlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Arxeologik ma’lumotlarga e’tibor beradigan bo‘lsak bu davrda shahar qo‘rg‘on, istehkom va mudofaa devorlari bilan o‘ralganligiga guvoh bo’lamiz. Bu davrga xos asosiy belgilar: dastlabki shahristonning shakllanishi, dehqonchilik va hunarmandchilik markazining paydo bo‘lishi edi. Farg‘ona-Talas yo‘li bo‘yicha savdo almashinuvlarining kuchayishi. Axsikent aynan shu davrda hududiy ahamiyatga ega bo‘lgan shahar sifatida shakllangan [2]. Axsikent shunchaki shahar emas, u qadimgi Farg‘ona Davan davlatining, keyinchalik esa Amir Temur va Boburiylar davrida vodiydagi yirik siyosiy va harbiy-strategik markazlardan biri bo‘lgan.

“Qadriyat” deganda xalq qadrlaydigan, hurmat qiladigan va ezozlaydigan, yuksalishga, taraqqiyotga hamda farovonlikka yo‘naltirilgan ma’naviy boyliklarni tushunishimiz lozim [3].Milliy qadriyat**lar** bu har bir xalqning o‘z tarixi, madaniyati, tili, dini, urf-odatlari va turmush tarzi davomida shakllanib, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan bebaho ma’naviy va moddiy boyliklar majmuidir. Qadriyatlar millatning o‘ziga xosligini va ma‘naviy qiyofasini belgilab beradi. Sodda qilib aytsak millatni millat qiladigan, uni boshqa xalqlardan ajratib turadigan va avloddan-avlodga meros tarzida o‘tib kelayotgan umumiy muqaddas tushunchalardir misol uchun til, tarixiy xotira, an’analar, vatanparvarlik va oila muqaddasligi hokazolar. “Milliy qadriyatlar xalqning ijtimoiy-tarixiy tajribasi jarayonida shakllanib, saralanib, uning ma’naviy ehtiyojlariga aylangan va ijtimoiy ong barqarorligini ta’minlovchi fundamental mezonlardir. Ular har bir shaxsning o‘z milliy hamjamiyati bilan uzviy bog‘liqligini ta’minlovchi ma’naviy-kognitiv asos vazifasini o‘taydi [4]. “Tarixiy obidalar, qadimgi shahar xarobalari va ajdodlar

qoldirgan moddiy meros milliy qadriyatlarning eng yaqqol va barhayot ko‘rinishidir. Chunki tarixiy xotirasini yo‘qotgan xalq o‘zligini va milliy qadriyatlarini saqlab qola olmaydi [5].

Umuminsoniy qadriyatlar – jahondagi barcha odamlar, xalqlar va davlatlar uchun umumiy qadrlash mezoni hisoblangan, umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlar tizimini ifoda etadigan tushuncha. Umuminsoniy qadriyatlar nihoyatda keng ko‘lamli va serqirra tushunchadir. U ozodlik, erkinlik, tinchlik, baxt-saodat kabi umumijtimoiy ma’no-mazmun kasb etadigan tushunchalardangina iborat emas. Uni faqat madaniy boyliklar sifatida tushunishni ham maqsadga muvofiq, deb bo‘lmaydi. Shu bilan birga, muayyan milliy, etnik va boshqa xususiy qadriyat tizimlari ham umuminsoniy qadriyatlarning o‘rnini bosa olmaydi. Umuminsoniy qadriyatlar tizimi va uning namoyon bo‘lish shakllarini tahlil qilish, aslida, tarkibiy qismlari bir-biri bilan dialektik tarzda bog‘langan umumiy tizimni, uning asosiy qismlari o‘rtasidagi munosabatlarni tadqiq qilishdir [6].

O‘zbek xalqi jahon miqyosida azaldan moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratishda yetakchilardan hisoblanadi. Hamda o’zining tafakkur quvvati, qobiliyati, istedodi mehnatkashligi bilan Markaziy Osiyoda fanlar, madaniyat, adabiyot, san’at, axloqiy va falsafiy g‘oyalarining vujudga kelishida hamda madaniy boyliklar yaratishda, rivojlantirishda doimo bardavom bo‘lgan. Xalqimiz tomonidan sevib o‘qiladigan rivoyatlar, dostonlar, ertaklarga nazar tashlaydigan bo‘lsak bularda xalqimizning voqealarni oldindan ko‘ra oladigan zukkoligi, mehnatkashligi, qobiliyati, doimo kelajakka intilib yashaganini guvohi bo‘lamiz. Demak bu xalq dostonlari biz uchun xalqimiz tarixini chuqurroq anglash uchun ma’lum bir darajada turtki bo‘ladi. Chunki xalq tomonidan yaratilgan bu o‘g‘zaki ijod namunalarida ma’lum bir hududning ijtimoiy –iqtisodiy, madaniy sohalari ko‘rsatib o‘tilgandir. Bu orqali qadimiy hududlarni tadqiq qilish va ular haqida ma’lumot yig‘ish onsonlashadi. Axsikentga nazar tashlaydigan bo‘lsak bunga

yaqqol shohid bo‘lamiz chunki bu hududda hunarmandchilik yuksak darajada rivojlangandir. Axsikentda hunarmandlar tomonidan aqlni lol qoldiradigan ajoyib amaliy sanat, yuksak badiiy did va mahorat bilan ishlangan hunarmandchilik buyumlari bilan qadim zamonlardan hozirgacha dunyo xalqlari o’rtasida shon-shuhrat qozonib kelmoqda. Hunarmandchilik bizning xalqimiz uchun ajdodlardan saqlanib kelayotgan meros, bebaho qadriyatdir hamda yurtimizda hunarmandchilik paydo bo‘lishi va rivojlanishi dunyo miqyosida juda kata ahamiyatga ega hisoblanadi. Axsikent tarixining eng rivojlangan davri X-XII asrlarga to‘g‘ri kelib aynan shu davrda ulkan shaharga aylangani arxeologik tadqiqotlar orqali isbotlandi. O‘sha davrda Axsikent maydoni 400 gektarni tashkil qilib, Farg‘onaning siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotida katta rol o‘ynaganligi aniq misollar bilan ko‘rsatib berilgan [7]. Ma‘lum bo‘lishicha, o‘z zamonasining amaliy fanlariga tayangan quruvchi ustalar shaharni suv uzatish tizimini hozirgi metro qurilishi usulida bunyod qilishgan. Avval pishiq g‘ishtdan gumbazsimon uslubda o‘ziga xos yer osti yo‘li qurilib, uning tubiga katta diametrli sopol quvurlar yotqizilgan. Suv ana shu quvurlar orqali oqqan. Quvur yo‘lining ma‘lum joylarida pishiq g‘ishtdan qurilgan yer osti kuzatish xonalari bo‘lgan. Sopol quvurlarda oqayotgan suv kuzatish xonasidagi kichik hovuz orqali o‘tadi. Bu quvur sistemasi shahar aholisiga kamida 300 yildan ortiq xizmat qilgan [8]. Yer osti suv ta'minoti tizimining qurilishi ajdodlarimiz muhandislik bilimlari va bunyodkorlik an'analarini milliy qadriyat darajasiga chiqganligini, hamda abodonchilik xalq farovonligi va osoishtaligi muhim sanalganligini ko‘rishimiz mumkin. Axsikent ustalari tomonidan yuqori sifatli po‘latning ishlab chiqarilishi, uni qo‘shni respublikalarga sotilishi, mashhur qilichlarning tayyorlanishi o‘zbek xalqining qadimiy hunarmandchilik madaniyatida ustoz shogird an’anasi va kasbga sadoqat kabi milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘zida namoyon etadi. Temir ishlab chiqarish sohasi hunarmandlardan juda kata sabrni talab qiladi, chunki birgina yarim tayyor mahsulotni olish uchun kamida to‘rtta jarayon kerak hisoblanadi.

Axsikent hunarmandlari va ularning shogirtlari bu jarayonlarni sabr-toqat bilan yengib o‘tishgan. Sabr-toqat insonning ma'naviy kamolotini belgilovchi muhim umuminsoniy qadriyatlardan biri bo‘lib, u insonni turli sinov va qiyinchiliklarni matonat bilan yengishga undaydigan tushunchadir. Shu bilan birgalikda bu hududda tayyorlangan sifatli xom ashyolarni va sifatli qurollarni chet elga yetkazib berilishi esa millatlararo totuvlik, yurt tichligidan dalolatdir. Milliy qadriyat sifatida tozalik o‘zbek xalqining urf-odatlari, turmush tarzi va madaniyatida muhim o‘rin tutadi. Bu jihatni hisobga oldan holda Axsikent hududida hammomlar qurilgaligi tozalik, ozodalik xalqimiz tomonidan qadrlanganligi, inson salomatligi, gigiyenasi uchun qulay sharoit yaratsihga harakat qilinganligiga yaqqol misoldir.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Axsikent yodgorligi xalqimizning davlatchilik tarixi, shaharsozlik madaniyati va intellektual salohiyatini ko‘rsatuvchi ulkan ma’naviy xazina. Yangi O‘zbekiston poydevorini barpo etishda ushbu meros milliy o‘zlikni anglash, ajdodlar bilan faxrlanish tuyg‘usini kuchaytirish barobarida, undagi bag‘rikenglik, ilm-fan va hunarmandchilik an’analari orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hamohanglik kasb etadi. Axsikent merosini chuqur o‘rganish va yoshlar ongiga singdirish orqali o‘tmishdagi milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tiklashimiz va uni rivojlantirishimiz mumkin. Bu esa o‘zgarishga uchrayorgan ijtimoiy ongni to‘g‘ri shakllantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Asqarov A. O‘zbekistonning qadimgi shaharlar tarixi. – T.: Fan, 2012. 72–89-betlar.

2. Asqarov A. O‘zbekistonning qadimgi shaharlar tarixi. – T.: Fan, 2012. 72–89-betlar.

3. Юсупов Э. Маънавий қадриятлар ва уларнинг тарбиявий аҳамити. Т.: 2003. –29 бет.

4. Siddiqova Sh.Sh. Globallashuv sharoitida ijtimoiy ong transformatsiyasi: Falsafa fanlari dok. (DSc) diss. avtoreferati. – Toshkent, 2023. – B. 24.

5. Erkayev A. Milliy g‘oya va ma'naviyat. – T.: Ma'naviyat, 2018. –89 bet.

6. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar lug‘ati. [Matn]: lug‘at. // Q. Nazarov va b. – Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2021. – 600 bet.

7. Анорбоев А., Исломов Ў., Матбобоев Б. Ўзбекистон тарихида қадимги Фарғона..... – 4 бет.

8. Рўзинов Б., Ражабова С ва бошқ. Наманган вилояти маданий мероси.... – 13 бет

9. Назаров Қ. Фалсафа асослари.-Т.: “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти” нашриёти, 2012-755 бет.

10. www.ziyonet.uz

11. www.ziyo.uz

12. www.kitob.uz

13. www.uniliblary.uz

MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

1	***А.А. Анарбаев, С.Р. Баратов*** К проблеме истоков древней истории урбанизированной культуры в Ферганской долине (по материалам исследований археологических памятников Ферганской долины эпохи бронзы и раннего железа)	6-11
2	***Abdulxamid Anarbayev*** Axsikent arxeologiya parki	12-20
3	***Mirae Jo*** High-elevation urbanism and hydrological landscapes in early medieval Central Asia	21-23
4	***Tohirjon Qodiraliyevich Qozoqov*** Axsikent irrigatsiya tizimi tarixi: Qoraxoniylar davridan hozirgi kunga qadar (qiyosiy tahlil)	24-42
5	***Махфират Акрамжон қизи Султанова*** Наследие Ахсикента: туризм, образование и популяризация	43-50
6	***Shaxzoda Xasanova, Shaxnoza Mamadaliyeva*** Axsikent – meros, turizm va ta’lim maskani	51-56
7	***Islomjon Ibrohim o‘g‘li Bekmirzayev*** Axsikent kompleks ekspeditsiyasining G‘ovasoy vohasida amalga oshirgan arxeologik tadqiqotlari	57-64
8	***Shaxzoda Xasanova, Gulrux Eshmurodova*** Axsikent turizmini rivojlantirish istiqbollari	65-70
9	***К.Д. Саипова*** Миграция восточнославянской диаспоры на территорию ТАССР (1918–1924 гг.)	71-77
10	***Barotjon Botirovich Ibraximov*** Axsikent va Qo‘qon xonligi tarixiy-madaniy aloqalari	78-82
11	***Barotjon Botirovich Ibraximov*** Qo‘qon xonligi rivojida Axsikent	83-88
12	***Abdujabbor Boxroliyevich Qambarov*** Yangi O‘zbekiston yoshlari tarixiy tafakkurning shakllanishida Axsikent allomalarining o‘rni va ahamiyati	89-93
13	***Abdilatip Abdiraximovich Sarimsokov, Mahliyo Odiljon qizi Abdulboqiyeva*** Axsikent merosini turizm va ta’lim tizimiga integratsiyalash imkoniyatlari	94-104
14	***Gulnoza Abdiraximovna Sarimsoqova*** Axsikent merosini raqamli tarixiy manbalar asosida o‘qitish orqali bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining germenevtik tafakkurini rivojlantirish	105-115
15	***Farangizbonu Egamberdiyeva*** Axsikent: tarix va tadqiqotlar	116-121
16	***Bobomurod Abduvoxobovich Tillayev*** Axsikent merosi: turizm, ta’lim va targ‘ibotning integratsion rivojlanishdagi o‘rni	122-126

© Namangan davlat pedagogika instituti | Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrasi
© Smart Quill Publishing nashriyoti | smartquillpublishing.uz

17 ***Azizbek Avazboy o‘g‘li Karimov***
Axsikentdan Agragacha: Bobur davlat boshqaruvi modelining transformatsiyasi va unda Farg‘ona davlatchilik tajribasining merosiyligi 127-136

18 ***G.V. Rafiqova***
Axsikentning mintaqaviy davlatchilik tizimidagi o‘rni va evolyusiyasi 137-143

19 ***Adham Anvarxon o‘g‘li Mavlonov***
Axsikent shahrining shakllanishi va Farg‘ona vodiysi urbanizatsiyasi tarixidagi o‘rni 144-152

20 ***Muqaddas Xikmataliyevna Pozilova***
Ko‘hna Axsikent jilolari: tarixiy merosni raqamli ta’lim va strategik turizmda monetizatsiya qilish 153-167

21 ***Kimyoxon G‘ulomjonovna Kamolova***
Axsikent sivilizatsiyasining tarixiy-falsafiy asoslari va uning milliy o‘zlikni shakllantirishdagi o‘rni 168-174

22 ***Zebo To‘raxonova***
Mustaqillik yillarida Axsikent tarixiy merosining tiklanishi va rivojlanishi 175-178

23 ***Mahmudjon G‘olibjon o‘g‘li Mavlonov***
Axsikent merosini raqamli texnologiyalar orqali targ‘ib etishning zamonaviy usullari 179-183

24 ***Odiljon Rahimjonovich Topildiyev***
Namangan viloyatida turizm sohasini rivojlantirishda Axsikent tarixiy yodgorligining o‘rni 184-190

25 ***Nafisa Abdumajitovna Valiyeva***
Turkiston siyosiy elitasining mustaqillik uchun kurash tajribasi 191-204

26 ***Abdulbositxon Najmiddinov***
Balandtepa yodgorligining arxeologik jihatdan o‘rganilishi 205-210

27 ***Shakhnoza Mukhammadjonovna Khayitova***
Historical analysis of urban traditions and cultural layers in the Axsikent archaeological complex 211-217

28 ***Nozimaxon Ro‘ziyeva***
Bolalar nutqi bilan ishlashda ota-ona va pedagog hamkorligi 218-224

29 ***Максет Карлибаев, Абдулла Мамедов***
К истории археологического изучения городской и сельской культуры левобережного Хорезма в эпоху Хорезмшахов-Ануштегинидов 225-233

30 ***Ibrohim Ne’matjon o‘g‘li Davronbayev***
Axsikent merosi: tarix ta’limi va turizmni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishi 234-241

31 ***E’zozaxon Nodirbek qizi Soloxiddinova, Murodjon Mamatkarim o‘g‘li Umarov***
O‘zbekistonda jamoatchilik nazorati to‘g‘risidagi qonunchilikni takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari 242-250

32 ***Azamat Adilovich Madrakhimov***
Digital bibliography of sources on Axsikent and its significance for the history of statehood: A methodological proposal 251-262

33 ***Sherzod G‘olibjon o‘g‘li Yoqubjonov***
Yangi O‘zbekistonda ommaviy axborot vositalarining rivojlanish tendensiyalari va media makon transformatsiyasi 263-270

34 ***Gayrat Galmatov, Umidjon Xurramov***
Buyuk Ipak yo‘li chorrahasidagi qadimiy shahar bo‘lmish Axsikent tarixi 271-281

35 ***Maxsumxon Rasaxanov***
Hind kinemotografiyasining atoqli namoyondalari turkumidan: Raj Kapur hind kinosining fenomeni 282-286

36 ***Dilafruz Narzullayevna Xolmatova***
Talabalarning milliy qadriyatlarni o‘rganishda Axsikent merosining o‘rni 287-299

37 ***Muhammad Vohidovich Najmiddinov***
Talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashda Sharq mutafakkirlari pedagogik qarashlaridan foydalanish 300-307

38 ***Abdulmajid Abdurashid o‘g‘li Sultonmaxmudov***
Yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘rni 308-316

39 ***Kalimullo Mas’ud o‘g‘li Maxmudov***
Mirxondning «Ravzat us-safo» asarida Amir Temur va temuriylar sulolasi tarixining aks etishi 317-325

40 ***А. Искандерова***
Символика барана в огузо-кыпчакской традиции и её отражение в культурах сопредельных регионов 326-331

41 ***Alijon Turdaliyev, Ma’mura Turdaliyeva***
Axsikent qal’asi qanday ko‘rinishda bo‘lgan? 332-343

42 ***Muhammadali Niyatqobilov***
Axsikent — qadimgi Farg‘ona davlatchiligining markazi 344-351

43 ***Раҳмонали Ҳасанов***
Ахсикент ва Ахси тарихини ўрганиш, тадқиқ этиш, музейлаштириш ва туризмни ривожлантириш истиқболлари хусусида 352-366

44 ***Ibrohimjon Ilxom o‘g‘li Ahmadjonov***
Axsikent tarixiy merosi: turizm salohiyati, ta’limiy ahamiyati va targ‘ibot masalalari 367-375

45 ***Xurshida Erkinovna Yunusova***
Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda Sovet Ittifoqida don tanqisligi haqida ba’zi mulohazalar 376-384

46 ***Abduqahhor Qodirovich Ziyayev***
Axsikentning tarixiy-madaniy merosi va davlatchilik an’analari: manbashunoslik, arxeologik tadqiqotlar hamda raqamli tarix istiqbollari 385-393

47 ***Saidolimxon Abdurashid o‘g‘li Aqilxonov***
Arxeologiya va qadimgi shaharlar taraqqiyoti: madaniy qatlamlar hamda arxeologik topilmalar tahlili 394-402

48 ***Gulnoza Abdug‘aniyeva***
Axsikent madaniy merosini targ‘ib qilishda raqamli texnologiyalar va inson omili 403-408

49 ***Botir Raximjanovich Mallabayev***
Axsikent tarixini raqamli ta’lim sharoitida o‘qitish metodikasi: muammo va yechimlar 409-415

50 ***Шерзод Толибович Рахмонов***
Делибератив демократиянинг фалсафий моҳияти 416-425

51 ***Зарнигор Туражон қизи Омонова***
Мультимедийные технологии как средство развития интеллектуальных способностей при изучении истории Ахсикента 426-431

52 ***Muazzam Islomjonovna Axmadjanova***
Axsikent tarixiy-madaniy merosining turizm, ta’lim va ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibotdagi o‘rni 432-436

53 ***Бахром Джамолович Джалолов, Абдулхусайн Абдулахатович Умаров***
Ахси ва Наманган тарихини ўрганишда Исҳоқхон Ибратнинг роли 437-444

54 ***Tursunoy Nozimjon qizi Sotimova***
Yangi O‘zbekistondagi ma’naviy yangilanish jarayonlarida Axsikent merosining ahamiyati 445-451

55 ***Kalimullo Mas’ud o‘g‘li Maxmudov***
«Ravzat us-safo» asarida temuriylar davri tarixining manbashunoslik tahlili 452-461

56 ***Ibrohimjon Ja’farov***
Axsikent tarixiy-madaniy merosi: uni asrash, turizmni rivojlantirish va ta’lim jarayonida foydalanish 462-471

57 ***Qobiljon Komiljon o‘g‘li Abduvoxidov***
Yangi O‘zbekistonda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishda Axsikent tarixiy merosining o‘rni 472-478